

TO'QIMACHILIK VA MODA SANOATIDA ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR

ILMIY TEXNIKA JURNALI



ISSN 3030-3788**SCIENTIFIC-TECHNICAL JOURNAL OF
NAMANGAN INSTITUTE OF TEXTILE INDUSTRY****NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI
INSTITUTI****ILMIY-TEXNIKA JURNALI****НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
НАМАНГАНСКОГО ИНСТИТУТА
ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 167135 raqamli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar, erkin va mustaqil tadqiqotchilar, magistrLAR hamda to‘qimachilik va moda sanoati yo‘nalishida ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot, loyiha-konstruktorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan mutaxassisLarga mo‘ljallangan bo‘lib, ilmiy maqola va ma‘lumotlarni chop etish yo‘li bilan ularning ijodiy faoliyati natijalarini ommalashtirishga qaratilgan.

NamTSI ILMIY-TEXNIKA JURNALI

2023- yildan nashr etilmoqda.
Davriyligi: yiliga 6 marta chiqadi.

O'zR Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025 yil
04 yanvardagi № 366/4 qarori bilan jurnal OAKning
ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan

Tahrir hay'ati raisi
Tahrir hay'ati o'rinbosari

Q.M. Xoliqov
O.Sh.Sarimsakov

Tahrir hay'ati a'zolari:**Paxtani dastlabki ishlash, to'qimachilik va yengil sanoat**

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Ergashev J.S., t.f.d., prof. | - NamTSI |
| 2. Erkinov Z.E., t.f.d., dots | - NamTSI |
| 3. Muradov R.M., t.f.d., prof. | - NamTSI |
| 4. Sarimsakov O.Sh., t.f.d., prof. | - NamTSI |
| 5. Bobojanov H.T., t.f.d., prof. | - NamTSI |
| 6. Matismailov S.L., t.f.d., prof. | - TTYSI |
| 7. Yuldashev J.Q., t.f.d., dots | - NamTSI |
| 8. Qorabayev Sh.A., PhD, dots | - NamTSI |
| 9. Azizov I.R., t.f.n., dots | - NamTSI |
| 10. Ibrogimov X.I., t.f.d., prof. | -Tojikiston Texnologiya Universiteti |

Mexanika va mashinasozlik

- | | |
|------------------------------------|---|
| 1. Kadoğlu, Hüseyin, prof. | - Ege Universiteti, Turkiya |
| 2. Gülümser, Tülay, prof. | - Ege Universiteti, Turkiya |
| 3. Jumaniyazov Q.J., t.f.d., prof. | - Paxta sanoat ilmiy markazi |
| 4. Plekhanov A. F., t.f.d., prof. | - A.N.Kosigin nomidagi Rossiya davlat universiteti |
| 5. Kanagavel P., prof. | - Shamol energiyasi milliy instituti, Hindiston |
| 6. Ryklin D.B., t.f.d., prof. | - Vitebsk davlat texnologiya universiteti, Belarusiya |
| 7. Qayumov J.A., t.f.d., dots | - NamTSI |
| 8. Nabidjanova N.N., t.f.d., prof. | - NamTSI |
| 9. Kaldibayev R.T. | - Auezov nomli Janubiy Qozog'iston DU |
| 10. Nurulloh Somro, prof. | - NamTSI |
| 11. Xojiyev A.A. | - NamTSI |

НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ НамИТП

Издаётся с 2023 года.
Выходит 6 раз в год.

Постановлением Президиума Высшей
аттестационной комиссии РУз № 366/4 от
04 январь 2025 г. журнал включен в список
научных изданий ВАК.

Председатель редакционной коллегии
Заместитель председателя редакционной коллегии

К.М. Халиков
О. Ш. Саримсаков

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL NamTII

It has been published since 2023.
It is printed 6 times a year

The decision of Presidium of the Supreme
Attestation Committee of the RUz № 366/4
from January, 04 th, 2025 Journal is included
in the list of scientific editions of the SAC.

Chairman of the editorial board
Deputy Chairman of the Editorial board

Q.M. Kholikov
O. Sh. Sarimsakov

Muharrirlar guruhi

*A.Xojiyev, S. Yusupov, P. Lastochkin, N. Odilhanova, X. Yo'ldashev
D. Abduvaliyev, I.Muhsinov (mas'ul muharrir)*

MUNDARIJA

<i>Z. E. Erkinov, M. Inoyatova</i>	
TOZALASH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TOLA SIFATINI SAQLAB QOLISH	7
<i>M. M. Mirxojaev, A. A. Tadjibayev, H. A. Urinov</i>	
NAMANGAN VILOYATIDA YETISHTIRILGAN “BUXORO-102”, “C-6524” VA “XIN LU ZAO-78” SELEKSIYA NAVLI PAXTA TOLALARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILI	16
<i>I. I. Kamalova, B. Mirusmanov</i>	
IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI FIZIK- MEXANIK XUSUSIYATLARINI TADQIQOTI.....	24
<i>X. A. Xamdamiyov, Sh. Sh. Shog‘ofurov, Q. M. Xoliqov</i>	
YANGI TUZILISHDAGI GLAD VA LASTIK O‘RILISHLI IKKI QATLAMLI ARALASH TO‘QIMALARINING FIZIK-MEXANIK KO‘RSATKICHLARI TADQIQI.....	30
<i>N. K. Dadaxanov, R. I. Karimov</i>	
TAKOMILLASHTIRILGAN CHO‘ZISH ASBOBIDA ISHLAB CHIQUYILGAN IPNING NOTEKISLIGI TADQIQI.....	35
<i>G.A Axmadjonova, R.M.Muradov, M.A. Odilov</i>	
PAXTA TARKIBIDAGI OG‘IR ARALASHMALARNI USHLAB QOLADIGAN QURILMALAR BO‘YICHA OLIB BORILGAN ILMIY IZLANISHLAR TAHLILI.....	42
<i>Sh..Sh. Shog‘ofurov</i>	
YANGI TUZILISHDAGI NAQSHLI TRIKOTAJ MAHSULOTLARINI HQPDS DASTURI ORQALI LOYIHALASH.....	51
<i>H.M.Каримов, М.А.Одилов</i>	
СПОСОБ ВЫРАБОТКИ ДВУХСЛОЙНОГО ДВУСТОРОННЕГО ПЛЮШЕВОГО ТРИКОТАЖА С ВЫСОКИМИ ТЕПЛОЗАЩИТНЫМИ СВОЙСТВАМИ.....	57
<i>Sh. Abdulazizov, J Yuldashev, X Bobojonov, A Qosimov</i>	
MODERN METHODS AND EQUIPMENT FOR EVALUATING THE MECHANICAL PROPERTIES OF FABRICS AND YARNS.....	63
<i>G.A Axmadjonova, R. M. Muradov</i>	
PAXTA TARKIBIDAGI OG‘IR ARALASHMALARNI TUTISH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
<i>Sh.Sh. Shog‘ofurov, N.N. Jo‘rabayev, Q.M.Xoliqov</i>	
TURLI TOLALARDAN FOYDALANIB YASSI IGNADONLI TRIKOTAJ MASHINASIDA YANGI TUZILISHDAGI TO‘QIMALAR ISHLAB CHIQUYILISH TADQIQI.....	74

<i>I.I. Kamalova</i>	
IPNI IGNALARGA QO‘YISH BURCHAGINING TRIKOTAJ SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRINING NAZARIY TADQIQOTI.....	81
<i>N. Jurabayev, Sh.Shog‘ofurov, S.Yusupov</i>	
STUDYING THE PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF FUTER KNITTED SOCKS PRODUCED ON A KEJUN SOCK KNITTING MACHINE.....	90
<i>J.Q. Yuldashev D.M. Akramjanov</i>	
IKKILAMCHI XOMASHYOLARDAN TEXNIK MAQSADLAR UCHUN NOTO‘QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI.....	96
<i>X.Parpiyev, J. Qayumov, Zhu Guocheng, A. G‘afurov, M. Izatillayev, Z. Erkinov</i>	
NANOTEXNOLOGIYA ASOSIDA MIS OKSIDI (Cu ₂ O) MIKROSFERALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TO‘QIMALARDA STRUKTURAVIY RANGLARNI HOSIL QILISH.....	100
<i>Д.Х.Обидов, М.А.Одилов</i>	
ТУЎУВ ДАСТГОҲЛАРИДА ТАНДА ИПЛАРИНИ НАМЛАШ ҚУРИЛМАСИ ТАДҚИҚИ.....	106
<i>J.Q. Yuldashev, D.M. Akramjanov</i>	
ISSIQLIK SAQLASH XUSUSIYATIGA EGA BO‘LGAN IKKILAMCHI XOM ASHYOLARDAN OLINGAN NOTO‘QIMA MATOLAR TADQIQI.....	113
<i>M.A.Qahramonov</i>	
SIFAT BOSHQARUVI TIZIMINI KORXONA VA TASHKILOTLARDA JORIY ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	117
<i>Sh. Isayev, Kh. Yuldashev, Y. Maxmudova</i>	
THE PROCESS CLEANING ZONE'S THEORETICAL THE FEATURES BETWEEN RAW COTTON PARTICULAR AREAS FROM TRASH CONTAMINANTS.....	124
<i>Ш.Ш. Исаев, Ш.С. То‘хтаев, Ш. А. Нажмитдинович</i>	
ПАХТАНИ ТОЗАЛАШ ҚУРИЛМАСИ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ ТАҲЛИЛИ....	132
<i>A. Xojiyev, O‘.Turdiyeva</i>	
TRANSFORMATSION TIKUV BUYUMLARI YANGI ASSORTIMENTI DIZAYNINI ISHLAB CHIQRISH.....	137
<i>L.S. O‘ralov, Q. M. Xoliqov, M.M. Mirxojayev</i>	
BAI YUAN BIR AYLANA IGNADONLI TRIKOTAJ TO‘QUV MASHINASIDA OLINGAN YOPQICHLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING MEKANIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI.	144
<i>A.K. Ataxanov, N.O Odilxonova</i>	
CHIGAL IPLARNI TITISHGA TAYYORLASH JARAYONINING TEXNOLOGIK OMILLARINI TADQIQ ETISH.....	150
<i>X.H. Шарунов</i>	

ИССЛЕДОВАНИЕ ХЛОПКОВЫХ СЕМЯН, КАК МАТЕРИАЛА ОБРАБОТКИ.....	156
<i>X.A. Xamdamov, Q.M. Xoliqov</i>	
YANGI TUZILISHDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING TEKNOLOGIK KO‘RSATKICHLARI TADQIQI.....	162
<i>H.H. Набиджонова, М.Б. Насирова</i>	
НОТИПОВИЙ ҚОМАТ ТУРИДАГИ ЭРКАКЛАРНИНГ КИЙИМ ТЎПЛАМИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЧУН ТРИКОТАЖ МАТОЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ.....	169
<i>S.A. Abdulazizov, J.Q. Yuldashev, A.A. Qosimov, R.R. Yuldashev</i>	
USING FULL-CYCLE STRAIN GAUGES TO TEST THE MECHANICAL PROPERTIES OF TEXTILE PRODUCTS.....	175
<i>G. Matchanova, X.T. Bobojanov, Sh. Qorabayev, J. Soloxiddinov, S. Tojimirzayev</i>	
CL-P DASTLABKI YIRIK IFLOSLIKlardan TOZALASH MASHINASI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRILISHI NATIJASIDA OLINGAN IP SIFATINI BAHOLASH.....	186
<i>N.N. Ro‘zibayev, Q.J. Jumaniyazov, Z.E. Erkinov</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA YIGIRILGAN QO‘SHALOQ IP XOSSALARIGA URCHUQ AYLANISHLAR SONINING TA’SIRI TADQIQI.....	192
<i>Z.M. Xusanova, M.M. Xojiyev, X.X. Kosimov, R.M. Muradov</i>	
TOSHBULOQ PAXTA TOZALASH KORXONASIDA PAXTA XOMASHYOSINI ISHLAB CHIQRISHGA UZATISH QURILMALARI TAHLILI.....	199
<i>Ч.Т. Кочкорбаева, С.Ш. Таишулатов</i>	
ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ ПО ИССЛЕДОВАНИЮ И РАЗРАБОТКЕ ПОДХОДА К ПРОЕКТИРОВАНИЮ СПЕЦИАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОТ ПЫЛИ.....	206
<i>A.Xojiyev, SH. Babayeva</i>	
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHI QIZLARI MAKTAB FORMASIGA UYG‘UNLASHTIRISH UCHUN QO‘LLANILADIGAN MILLIY MATOLARNING XUSUSIYATLARI TADQIQI.....	214
<i>N.K. Dadaxanov</i>	
HAR XIL MATERIALLARNING YEYILISH JARAYONINI O‘RGANUVCHI QURILMA...	221

TOZALASH QURILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TOLA SIFATINI SAQLAB QOLISH

¹Zokirjon Erkinov, ¹Maftuna Inoyatova

¹To‘qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi, Namangan to‘qimachilik sanoati instituti,
E-mail: zokirshoh77@mail.com, tel: +998993164416

¹To‘qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi, Namangan to‘qimachilik sanoati instituti
E-mail: inoyatovamaftuna.1550@mail.ru, tel: +998972551550

Annotasiya. Maqolada korxonalarda xomashyodan samarali foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar o‘rganib chiqildi hamda mavjud titish–tozalash agregatlari tarkibidagi mashina va uskunalar parametrlari tahlil qilindi. Tozalash mashinalarida tola tarkibidagi begona arashmalarni ajratib olish ishchi qismlari parametrlarini o‘rgangan yetakchi olimlar ishlari tahlillari natijasiga ko‘ra, ip yigirish korxonalarida ajralib chiqadigan chiqindi tarkibiga yigirishga yaroqli bo‘lgan tolalarni ajralib chiqishini kamaytirish uchun ishchi qismlarni takomillashtirish kerakligi aniqlandi. Chiqindi tarkibidan yigirishga yaroqli tolalarni ajratib oluvchi qurilmasi tayyorlandi va ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazildi. Natijada tozalash samadorligi 9-10 foizga oshdi.

Kalit so‘zlar: garnitura, baraban, cho‘tka, tozalash, samaradorlik, geometrik, parametr.

СОХРАНЕНИЕ КАЧЕСТВА ВОЛОКНА ПУТЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УСТРОЙСТВА ОЧИСТКИ

Аннотация. В статье изучена работа, проводимая по эффективному использованию сырья на предприятиях, а также проанализированы параметры машин и оборудования, входящих в состав существующих очистительных агрегатов. По результатам анализа работ ведущих ученых, изучавших параметры рабочих органов очистительных машин для отделения посторонних примесей от содержимого волокна, определено, что рабочие органы нуждаются в совершенствовании с целью снижения выхода пригодных для прядения волокон в отходы, образующиеся на прядильных предприятиях. Изготовлено и испытано в производственных условиях устройство для отделения пригодных для прядения волокон из волокнистых отходов. В результате эффективность очистки повысилась на 9-10 процентов.

Ключевые слова: гарнитура, барабан, щетка, очистка, эффективность, геометрический, параметр.

В статье рассматриваются возможности достижения положительных результатов путем проведения исследований на современном измерительном оборудовании, способном удовлетворить сегодняшние требования к физико-механическим свойствам трикотажных полотен в зависимости от того, где планируется их использование. Учитывая воздухопроницаемость, прочность, стойкость к истиранию, деформации, усадке и другие свойства трикотажных полотен, становится ясно, для каких целей можно использовать трикотажные полотна, то есть для изготовления каких изделий эти полотна можно использовать.

MAINTAINING THE QUALITY OF THE FIBER BY IMPROVING THE CLEANING DEVICE

Abstract. In the article, the work carried out on the efficient use of raw materials in enterprises was studied, and the parameters of machines and equipment included in the existing cleaning units were analyzed. According to the results of the analyzes of the works of the leading scientists who studied the parameters of the working parts for the extraction of foreign impurities in the fiber in the cleaning machines, it was determined that the working parts should be improved in order to reduce the separation of the fibers suitable for spinning into the waste produced in the spinning enterprises. A device for the production of a device for separating spinable fibers from fiber content was prepared and tested under production conditions. As a result, the efficiency of cleaning increased by 9-10 percent.

Keywords: headset, drum, brush, cleaning, efficiency, geometric, parameter.

Kirish. Paxta tolasini titish–tozalash agregatlarida qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni tadqiq qilish, paxta tolasidan tayyorlangan mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar. To‘qimachilik tolalari sifatini tadqiq etish va tozalash jarayonlarini takomillashtirish va ikkilamchi xomashyodan foydalanish muammolariga respublikamizni taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Ular ushbu sohada nazariy hamda amaliy izlanishlar olib borib ip sifatini oshirish, xomashyodan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda paxta tolasini sifatini oshirish orqali ip sifatini yaxshilash, xomashyodan samarali foydalanish va shu asosida mahsulot tannarxini kamaytirish bo‘yicha muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Ismoilov A.A. ishida [1] pichoqlari o‘zgaruvchan qadamda o‘rnatilgan va aeromexanik tozalash usuli asosida ishlaydigan aylanuvchi baraban shaklida ishlab chiqarilgan tola tozalash mashinasining yangi konstruksiyasini ishlab chiqdi va tolani tozalash jarayonini nazariy va amaliy ravishda o‘rgandi. Kotov Yu.S. [2] o‘z ishida uch bosqichli to‘g‘ri oqim turidagi tola tozalagichning aerodinamik, texnik va texnologik xususiyatlarini o‘rgangan, buning natijasida chiqish bo‘yinidagi ish bosimida aerodinamik qarshilik aniqlangan. Babahonova M.R. [3] ifloslik aralashmalari va tola o‘rtasidagi bog‘lanishning mustahkamligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni ko‘rib chiqdi. Muallif yopishish kuchlarining empirik bog‘liqligini algebraik ko‘phad shaklida beradi. Tadqiqotchi Tursunov X.K. [4] tolani tozalash jarayonining mexanikasini ko‘rib chiqdi. Aniqlanishicha, tola tozalovchi mashinalarning plastmassa panjaralari ishlaganda chiqindilarning toladorligi pasayadi, tozalangan toladan tutamning sifat ko‘rsatkichlari ortadi.

Mualliflar V.M. Djanpaizova, A.N. Boranbaevalar [5] tomonidan regeneratsiyadan keyingi tolalarning xossa ko‘rsatkichlari aniqlanib, yigirish rejasi ishlab chiqilgan va chiziqli zichligi 29, 50 va 74 teks bo‘lgan iplar na‘munalarining sinov natijalari tahlil qilingan. Bu esa, yigirish guruhidagi tola chiqindilaridan (3, 7 va 11 standartlari) yuqori sifatli iplarni ishlab chiqarish mumkinligini isbotladi.

O‘z tadqiqot ishlarida M.T.Halimi, M.Hassen, F.Saklilar [6] tozalash mashinalarida chiqindilar va yigirilgan tolalar miqdorining foizini tekshirib aniqladilar. Natijada, tolali chiqindilar tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalarning ulushi 50% ekanligi aniqlandi. Ushbu tolalarni 15 dan 25%

gacha aralashma tarkibiga qo'shib pnevmomexanik usulda ip yigirilsa, ip sifati o'zgarishsiz bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Tozalash jihozlarida tozalash samaradorligi va chiqindi tarkibini bog'lanishini o'rganishgan [7]. F.S.Podduvalkin tomonidan turli tizimli titish va tozalash mashinalarining tuzilishi tahlil qilingan [8]. Almashib turishi ko'rsatilgan tozalash usullari va arra tishli tozalagichlardan foydalanish paxta xomashyosini yanada samarali qayta ishlash imkonini berishi ta'kidlangan. S.Raian, T.Siddiqua, M.L.R.Shanzid, T.R.Tumpalar [9] tomonidan ip yigirish korxonalarida ishlab chiqarilgan turli xil texnologik chiqindilar umumiy xarajatlar va rentabellikning muhim omili aniqlangan.

B.S.Mixaylov, Yu.N.Nefedovlar tadqiqotida ishlab chiqarish chiqindilarini titish va tozalash moslamalarida ajratish jarayonining matematik modeli taklif qilingan [10].

Mualliflar [11] tomonidan tozalash mashinalarida hosil bo'ladigan chiqindilar xossalari o'rganilib, chiqindi tarkibida yigirishga yaroqli bo'lgan tolalar miqdori aniqlangan.


Toladagi xas-cho'p va nuqsonlarni tozalash bilan bir vaqtda tarash jarayonida ma'lum miqdorda chiqindi va yigiruvbop tolalar ham chiqindiga ajraladi [12]. B.Aliyev [13] o'zining dissertatsiya ishida chiqindi tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalarni ajratib olish qurilmasini yaratgan. Arra tishli baraban bilan pichoqlar orasidagi masofalarning miqdorlari (4, 3, 2, 1.5, 1, 0.5) mm bo'lganda eng yaxshi samaraga erishilgani aytib o'tilgan. Arra tishli baraban va tozalovchi pichoqlar (6 dona) o'rnatilib, tola tarkibidagi uzun tolalarni ajratib olish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Tozalash samaradorligi 2–2,5 foizga oshirilgan.

J.Mirzaboyev ilmiy yangiligida [14] perforasiyalı sirtıni qo'llash orqali tozalash jarayonida hosil bo'ladigan tolali chiqindi tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalar miqdorini kamayganligi aniqlangan. Tolali mahsulotdan ajratilgan begona aralashmalar miqdorining foizlardagi miqdoriga tozalash samaradorligi deyiladi. Unga baraban tezligi, baraban pichoqlari bilan kolosniklar orasidagi masofa kattaligi ta'sir ko'rsatadi. Baraban tezligini oshirish bilan tola bo'lakchalariga ko'rsatiladigan zarb ta'siri ko'payadi va tola bilan nuqsonlarning bog'lab turuvchi kuchni yengish osonlashtiriladi. Pichoqlar bilan kolosniklar orasidagi masofani kamayishi bilan bo'lakchalarning maydaroq bo'lishini ta'minlashga erishiladi. Natijada nuqsonlar ajralishi yengillashib, tozalash samaradorligi ham ortadi. Kolosniklar orasidagi masofa kattalashsa ham tozalash samaradorligi oshadi, chunki kattaroq tirqishdan iflosliklar va nuqsonlarning o'tishi yengillashadi [15]. Ammo chiqindilar bilan birga yigirishga yaroqli tolalar ham chiqindi sifatida ajralib chiqish ehtimoli ortadi.

Yuqori sifatli ipni olish uchun yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlashda tozalash liniyasining uzunligi emas, balki uni tashkil etadigan uskunaning to'g'ri tanlanishi muhimdir. Minimal miqdordagi tozalash mashinalarini tozalash samaradorligini oshirish yoki yangi samarali tola tozalagichlarni yaratish hamda mavjud tuzilmalarni yaxshilash juda muhimdir.

Tadqiqot usuli. Ilmiy tadqiqot ishida shu maqsadga erishish uchun kichik o'lchamli qurilma tayyorlanib, natijalar olindi. Qurilma o'lchamlari aniq hisob-kitob qilinib, ular asosida qurilmaning M 1x100 masshtabdagi kichik modeli tayyorlandi va uning ishlash jarayoni o'rganildi shuningdek, ushbu model asosida qurilma konstruksiyasining haqiqiy o'lchamdagi eksperimental nusxasi tayyorlandi. To'qimachilik korxonalarining unumdorligini oshirishdan asosiy maqsadi xomashyodan unumli foydalanish shuningdek, mahsulot sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va ularning tannarxini kamaytirish hisoblanadi. Yigirish korxonalarining xomashyosi bo'lgan paxta tolasining 3-4 foizi tolali chiqindilar tarkibiga qo'shib ketishi sabab, tolaning yo'qolishiga va sifatining buzilishiga olib

keladi. Biz taklif etayotgan qurilmani joriy qilish orqali chiqayotgan tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalarni chiqindi tarkibidan ajratib olish imkoniyati yaratiladi.



1-rasm. Tola tozalash qurilmasi.

- 1) mavjud qoziqli baraban 2. SMPL li baraban

Chiqindi tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalarni ajratish qurilmasini yaratishni maqsad qilib olindi. Shuningdek, yigirish korxonasidagi tolalarni chiqish miqdori oshadi va yaxshilanadi. qurilmani taklif qilishdan asosiy maqsadi chiqindi tarkibiga qo‘shilib ketayotgan tolalarni ajratib olishdan iborat. Taklif etilayotgan qurilma quyidagi ishchi qismdan iborat: ta‘minlovchi bunker, ta‘minlovchi valik, tozalovchi baraban, turli shakldagi sirt, ajratuvchi pichoq. Tola tozalash qurilmasi quyidagicha ishlaydi: (1-rasm).

Ta‘minlovchi bunker orqali kelayotgan tolali mahsulot ta‘minlovchi valiklar yordamida tozalash barabaniga uzatiladi.

Tozalash barabani arra tishli qoplama bilan jihozlangan bo‘lib mahsulotni mayda tutamlarga ajratadi va ushbu tutamlar yangi konstruksiyali shakldor sirtni 3 orasida tola titilib, tozalash jarayoni amalga oshiriladi. Tola tarkibidagi begona yot jismlar, xas-cho‘plar bilan birgalikda tola tarkibidagi kalta tolalar- momiq ajratilib, chiqindi kamerasi 4 ga tushadi. Tozalangan tola esa keyingi jarayonga uzatiladi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlarning to‘g‘riligini hamda qurilmaning ishlab chiqarish sharoitida sinash uchun konstruksiyaviy na‘munasi tayyorlandi.

Taklif qilinayotgan qurilmaning ishlab chiqarish na‘munasiga qo‘yiladigan talablar:

- 1) Ish unumdorligining ta‘minlanishi
- 2) Yigirishga yaroqli tolalarni maksimal darajasini saqlab qolish
- 3) Qurilmaning ishchi organlarining qulay bo‘lishini ta‘minlash.
- 4) Konstruksiyaning soddaligi.
- 5) Qurilma "Namangan paxta teks" MCHJ ga qarashli yigiruv korxonasida qo‘llanildi.

1-jadval

Qurilmaning texnik – tavsifi

№	Ko‘rsatkichning nomi	O‘lchov birligi	Miqdori, Oraliq masofalar
1	Qurilma unumdorligi	kg/soat	650-800
2	Chiqindi tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalar ulushi	Foiz	9-10
3	Tozalash barabanining aylanishlar soni	ayl/min	800-1200
4	Ta‘minlovchi valiklarini aylanishlar soni	ayl/min	40 gacha
5	Tozalovchi baraban diametri	Mm	660
6	Baraban bilan shakldor sirt oralig‘idagi masofa (razvodka)	Mm	12-16
7	Elektr dvigatellar quvvati	kVt.	2.5


Tozalash mashinasida turli shakldagi perforatsion sirtidan foydalanish orqali yigirishga yaroqli tolalarni tolali chiqindi tarkibiga qo‘shilib ketishini imkon qadar kamaytirish hamda ularni saqlab qolish bo‘yicha tadqiqotlar Namangan shahridagi “Namangan paxta teks” yigiruv korxonasida o‘tkazildi. Natijada olingan ma‘lumotlardan kelib chiqib, tozalashdan so‘ng toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori 0,5% ga kamayadi. Biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan tozalash qurilmasini joriy qilish natijasida yigirishga yaroqli tolalarni saqlab qolish hisobiga tozalangan tolaning ulushi 1.01 % ga ko‘paydi.

Tozalash qurilmasida tajriba o‘tkazish tadqiqotning muhim bosqichi hisoblanadi. Tajribalar nazariy ishlar natijalarining amaliyotga qanchalik tadbiq qilinishini asoslaydi. Tozalash qurilmasini ishlab chiqish va unda tajribalar o‘tkazishdan asosiy maqsad, qurilmani ishlab chiqarishga qo‘llash mumkin bo‘lgan nusxasining maqbul texnologik va konstruktiv kattaliklarini aniqlashdan iborat, ya‘ni konstruktiv sodda va tajriba uchun kerakli ishchi qismlarni tezda almashtirish hamda ishchi qismlari orasidagi oraliq-masofalarni o‘zgartirishga qulay sharoit yaratilgan. Tajribalar vaqtida jarayonga ta‘sir qiluvchi arrali garnitura geometrik parametrlari, ajratuvchi baraban aylanish tezligi va pichoqlar orasidagi masofa kabi omillarni e‘tiborga olish zarur. Tajriba davomida ajratuvchi baraban uchun SMPL-1-1,8, SMPL-3,0-1,0 qo‘yilib, tajriba sinovlar o‘tkazildi. Tozalash qurilmasining ishlab chiqarishda sinash ishlari dastur asosida amalga oshirildi, ishlab chiqarish sinovlarining natijalari jadvallarda keltirilgan. Tozalash qurilmasini qo‘llash orqali tolali mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi.

Tajribalarini o‘tkazishda tola tozalash mashinasi asos qilib olingan. Bu mashinalarning baraban sirti arra tishli qoplama bilan jihozlangan. Ushbu mashinalarning ishlash jarayoniga asoslanib, sirti arra tishli qoplama bilan qoplangan bir barabanli qurilma tayyorlandi. Tayyorlangan qurilma shakldor sirt bilan jihozlandi va sinovdan o‘tkazildi. Tavsiya etilayotgan qurilmaga diametri o‘yiq holatdagi sirt 12 mm, 9 mm va 6 mm bo‘lgan shakldor sirt o‘rnatildi (2–rasm).

Yangi konstruksiyadagi turli shaklli sirt tayyorlanib, sirtning o‘lchamlari kalta tolalarning uzunligi inobatga olgan holatda quyidagicha tayyorlandi. Dastlab sirt teng tomonli uchburchakli

shakldagi o‘yikli sirtidan foydalanildi, ushbu shakldor sirtni o‘lchami 12 mmli bo‘lib kelayotgan mahsulotning titilish darajasini oshirish uchun xizmat qiladi, natijada tozalash jarayoni yaxshilanadi. So‘ngra dimetri 9 mm hamda 6 mm li sirtidan foydalanildi (2–rasm). Ushbu qurilmaning tajriba nusxasi tayyorlangan bo‘lib, unda dastlabki sinovlar o‘tkazildi va sinovlar natijasiga ko‘ra haqiqatdan ham yigirishga yaroqli tolalar ulushi keskin kamayganligi aniqlandi.



2–rasm. To‘rli diametrli va shakldor perforatsiyali sirtlar.


Natijalar va tahlillar. Tajriba o‘tkazish uchun “Namangan paxta teks” MCHJ korxonasidan seleksiya navi Namangan–77 bo‘lgan 4–tip I nav yaxshi paxta tolasi va ularning aralashmalaridan na‘munalar olindi va olingan na‘munaning tarkibidagi nuqsonlar aniqlandi. Ushbu xomshyodan foydalanilayotgan korxonadagi tozalash mashinalari tahlil qilindi, ya‘ni mashinaning tozalash darajasi va undan ajralib chiqqan chiqindilar o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi (2) jadvalda keltirilgan.

2 jadval

Xomashyodan tola va chiqindilar chiqishining sonli qiymatlari

Firmalar nomi	Xomashyo massasi, gr	Toza tola, gr	Xas-cho‘p va begona yot aralashmalar gr	Ko‘rinmas chiqindi, gr	Chiqindi standartlari
Truetzschler	100	87,5	10	2,5	ST 3
Rieter	100	86,5	12,5	1,0	ST 3
Tajribaviy	100	90,5	8.5	1,0	-

Olingan natijalarni taqqoslash uchun quyidagi gistogrammada (3–rasm) da ma’lumotlar keltirilgan.

**3–rasm. Xomashyodan tola va chiqindilar chiqishining ulushi gistogrammasi.**

Jadval va gistogrammadagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, titish–tozalash mashinalaridan chiqadigan oreshka va momiq (ST3) tarkibida Germaniyaning «Truetzschler» firmasining mashinalaridan foydalanilganda 69,5% tolali chiqindi, Shveysariyaning «Rieter» firmasi mashinalaridan foydalanilganda 65,5% miqdorda tolali chiqindi mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, tarash mashinasidan ajralib chiqqan tarandi (ST 7) tarkibidan mos ravishda 62%, 76%, 71,8% gacha tolali chiqindi aniqlandi [16,17,18]. Tajribaviy qurilmada esa 77.4% tolali chiqindi tashkil etishi tajribalar asosida aniqlandi.

Muhokama. Chiqindi tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalarni ajratish qurilmasini yaratishni maqsad qilib olindi. Shuningdek, yigirish korxonasidagi tolalarni chiqish miqdori oshadi va yaxshilanadi. Qurilmani taklif qilishdan asosiy maqsad yigirishga yaroqli tolalarni chiqindi tarkibiga qo‘shilib ketishini oldini olishdan iborat.

Takomillashtirilgan shakldor sirt arra tishli - tozalash barabani ostki qismiga o‘rnatildi, so‘ngra na‘munalar tozalash jarayonidan o‘tkazildi. Yangi shakldor sirtni yigirish korxonalarida ishlatilayotgan tozalash mashinalariga o‘rnatilishi, kelayotgan tolalar ko‘ndalang holda bo‘lib qolgan taqdirda ham chiqindi kamerasiga tushib ketishi e‘htimolini pasaytirishini o‘tkazilgan tajribalar natijalarida ko‘rishimiz mumkin [19,20].

Yangi tayyorlangan shakldor sirt yordamida tajribadan o‘tkazish maqsadida toladan na‘muna olinib, laboratoriya sharoitida qo‘lda tekshirish usulidan foydalanib, uning tarkibidagi chiqindilarni fraktsiyalarga bo‘lib, tozalab olindi. Ushbu usul yordamida olingan na‘munalar natijasi quyidagi (4-rasm) da keltirilgan [21].



4-rasm. Tajriba natijalarida tozalab olingan (a) tolali chiqindi va (b) tozalangan tola.

Xulosa. Qurilmani ajratish qismini ishchi organlarida SMPLli baraban bilan shakldor sirt oraliq masofalarini 12 mm, 9 mm hamda 6 mm ga o‘rnatib, tajribalar o‘tkazildi. Paxta tolası chiqindilari tarkibidagi yigirishga yaroqli tolalarni tozalash qurilmasini qismlarini o‘lchamlari olindi va amalda tajriba asosida sinab ko‘rildi. Turli firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan tozalash mashinalarining ishlash jarayonlari va ularni ishchi qoplamalari tahlil qilinib, tola tarkibidagi begona yot aralashmalarni tozalash bo‘yicha tavsiyalari tahlil qilindi. Iflosliklardan tozalash samadorligi 9-10 foizga oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Исмоилов А.А. Повышение эффективности очистки хлопкового волокна дисс.. канд. техн. наук. Ташкент. 1988. -123 ст.
2. Котов Ю.С. Исследование процесса многократной очистки волокна по прямоточному принципу на хлопкозаводах пилного джинирования. Дисс... на соиск. канд. техн. наук. Ташкент.-1975.
3. Бабаханова М.Р. Совершенствование процесса очистки средноволокнистых сортов хлопка-сырца выбором рациональных значений влажности. Дисс... на соиск. канд. техн. наук.- Ташкент, 1986. - 146 с.
4. Турсунов Х.К. Теоретические основы очистки хлопкового волокна и совершенствование рабочих органов волокноочистительных машин. Дисс...док. техн. наук.- Ташкент, 1997.- 214 с.

5. Джанпаизова В.М., Аширбекова Г.Ш., Арипбаева А.Е., Асанов Е.Ж., Бейсенбаева Ш.К., Конысбеков С.М., Боранбаева А.Н. Технология улучшения качества пневмомеханической пряжи путем регенерации отходов прядильного производства. Известия высших учебных заведений № 1 (379). Технология текстильной промышленности. 2019.
6. Halimi M.T, Hassen M., Sakli F. Cotton waste recycling: Quantitative and qualitative assessment. Resources, Conservation and Recycling Volume 52, Issue 5, March 2008.
7. Halimi Mohamed Taher, Hassen Mohamed Ben, Sakli Faouzi. Evaluation of cotton waste quality// www.researchgate.net/publication/315687825.
8. Поддувалкин Ф. С. Исследование и анализ процессов разрыхления и очистки хлопкового волокна на современных разрыхлительно-очистительных агрегатах. Известия высших учебных заведений № 3 (298). Технология текстильной промышленности. 2007.
9. Raian S., Siddiqua T., Shanzid R.L., Tumpa R.T. Optimization of raw material mixing in rotor spun yarn using analytical hierarchy process. International Journal of Scientific and Technology Research Volume 8, Issue 11, November 2019.
10. Михайлов Б.С., Нефедов Ю.Н. Общие закономерности процесса выделения пороков и сорных примесей при переработке волокнистой массы на машинах разрыхлительно-очистительного агрегата. Известия высших учебных заведений № 1 (349). Технология текстильной промышленности. 2014.
11. M.Inoyatova, B. Mirzaboyev, B. Aliyev, D Ahmadaliyeva, I. Muhtorova, SH. Karimova. "Effect of the cleaning machines on the level of cleaning". 510–515-page. Issue (PTLICISIWS-2022).
12. Бадалов К.И. Прядение хлопка и других текстильных волокон // К.И. Бадалов, В.В. Жохов, Н.А. Осмин. – М.: Легпромбытиздат, 1988. – 448 с.
13. Aliev B. "Paxta chiqindilari tarkibidagi yigiruvga yaroqli tolalarni ajratib oluvchi qurilmani takomillashtirish". PhD dissertatsiya ishi. Namangan – 2020 y.
14. Mirzaboyev J. "Tozalash jarayonini maqbullashtirish asosida xomashyodan samarali foydalanish". PhD dissertatsiya ishi. Namangan – 2021 y.
15. International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email secretariat@icac.org. September 1, 2018.
16. Mirzabayev B. "Yigirish texnologiyasi". O'quv majmua. Namangan – 2018.
17. Mirzabayev V. "Spinning technology". Educational complex. Namangan – 2018.
18. Inoyatova M. et al. Analysis Of Cleaning Process Methods And Machines //Conferencea. – 2022. – pp. 40-43.
19. Inoyatova M. "Improving the cleaning efficiency by improving the cotton fiber cleaning process". PhD thesis. Namangan - 2024.
20. B. Mirzabayev, M. Yusupova, M. Inoyatova, M. Abdurahimova. Methods of determining the process of cleaning machines and its efficiency //Conference, 2023.
21. M Inoyatova, B Mirzabayev, B.Aliyev, I.Mukhtorova, Sh.Karimova " Effect of the cleaning machines on the level of cleaning " AIP Conference 2023.

NAMANGAN VILOYATIDA YETISHTIRILGAN “BUXORO-102”, “C-6524” VA “XIN LU ZAO-78” SELEKSIYA NAVLI PAXTA TOLALARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

¹*Mirxojayev Mirjamol Mirkarimovich, ¹Tadjibayev Anvar Avazovich,*
²*Urinov Hamidulo Akbaraliyevich*

¹Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, Email: mirjamol1982@gmail.com,
tel: +998(93)080 33 80

¹Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, e-mail: anvartadjibayev@yandex.ru,
tel: +998(91)1771210

²Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi”, Namangan viloyat filiali
e-mail: urinovhamidulo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada “Buxoro-102”, “C-6524” va “Xin Lu Zao-78” seleksiya navli paxta xom-ashyosi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilib, uni Respublikamiz hududida yetishtirish mobaynida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va uning natijasida olinadigan paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: paxta, xom-ashyo, tola, “Buxoro-102”, “C-6524”, “Xin Lu Zao-78”, nav, sinf, klaster, chigit, standart.

ИССЛЕДОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СЕЛЕКЦИОННЫХ СОРТОВ «БУХОРО-102», «C-6524» И «XIN LU ZAO-78» ХЛОПКОВОГО ВОЛОКНА, ВЫРАЩЕННОЙ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье представлена информация о хлопке-сырце сортов «Бухоро-102», «C-6524» и “Xin Lu Zao-78”, проанализированы меры, принятые при его выращивании на территории республики, и сделаны анализы хлопкового волокна полученного урожая.

Ключевые слова: хлопок-сырец, волокно, «Бухоро-102», «C-6524», «Xin Lu Zao-78» сорт, класс, кластер, семена, стандарт.

STUDIES OF QUALITATIVE INDICATORS OF THE SELECTION VARIETIES BUKHORO-102, C-6524 AND “XIN LU ZAO-78” OF COTTON FIBER GROWN IN NAMANGAN REGION

Annotation. The article provides information on the raw materials of the “Bukhoro-102”, “C-6524” and “Xin Lu Zao-78” cotton varieties, analyzes the measures taken during its cultivation in the republic, and analyzes the cotton fiber of the resulting crop.

Keywords: cotton, raw material, fiber, “Buxoro-102”, “C-6524”, “Xin Lu Zao-78”, grade, class, cluster, seeds, standard.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.03.2020 yildagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-son qarorida raqobatni kuchaytirish ko‘zda tutilgan. Bunda “Paxtachilikda bozor tamoyillari joriy etilishi munosabati bilan

paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va qayta ishlovchi korxonalarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha amalga oshiriladigan” chora-tadbirlar dasturi ko‘rsatilgan [1].

2019 yil 23 oktyabrda «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni ijrosini ta‘minlash, davlat buyurtmasi hajmlarini bosqichma-bosqich kamaytirish, shu jumladan, paxta xomashyosi yetishtirish, xarid qilish va sotishda erkin raqobatni ta‘minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda fermer xo‘jaliklari manfaatdorligini oshirish hamda qishloq xo‘jaligi sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida qabul qilingan. Unga ko‘ra “Yagona darcha” tamoyili asosida fermer xo‘jaliklariga paxta, g‘alla va boshqa mahsulotlarni yetishtirish uchun imtiyozli kredit ajratish, sug‘urtalash, shartnomalarni elektron rasmiylashtirish, texnikalarni lizingga olish, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda ta‘minot va xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan “Agroplatforma” (agroplatforma.uz) axborot tizimi ishga tushirildi [2].

O‘zbekiston paxtachilik sohasida ko‘p yillik tajribaga ega, xalqimiz uzoq yillardan beri paxta ekish, yetishtirish va uni qayta ishlash bo‘yicha amaliy tajriba orttirgan. Bugungi kunda dunyoda shu jumladan, O‘zbekistonda paxta ekin maydonlarini qisqartirilishini hisobga olganda, paxtaning serhosil navlarini yetishtirish orqali talab darajasidagi miqdorni olishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekistonda 2024 yil paxta hosilidan barcha viloyatlarda tajriba tariqasida Xitoyning serhosil hisoblangan yangi seleksiya navdagi urug‘lik chigitidan maydonlarga ekib paxta yetishtirildi. Aytish lozim, dunyoda eng ko‘p paxta ishlab chiqaradigan mamlakat – Xitoydir. Paxta Xitoyning qariyb barcha mintaqalarida: Shimoliy-Xitoy tekisligida, Yanszi daryosi deltasida, Yanszi vodiysining markaziy qismida, Sinszyan-Uyg‘ur avtonom rayonida parvarish qilinadi. Xitoyliklar yiliga 17 million tonnaga qadar paxta yetishtiradi. Shuni hisobga olganda Xitoy paxtachilik sohasida katta tajribaga ega. Xitoydan keyin AQSh, ular 11 million tonna, Hindiston - uchinchi o‘rinda bo‘lib 7 million tonna, Pokiston – 6 million tonna, O‘zbekiston 3 million tonnadan ortiq paxta yetishtirmoqda (har yili bu ko‘rsatkichlar qisman o‘zgarib turadi).

Hozirgi iqtisodiy globallashuv davrida dunyoda shu jumladan, O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishga ehtiyoj katta bo‘lmoqda.

Yurtimizning barcha viloyatlarida paxta-to‘qimachilik klasterlari shakllantirildi, to‘qimachilik korxonalari soni keskin oshirildi va ular katta sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘zi ham paxtaga bo‘lgan talab-ehtiyojni oshirdi. Bundan tashqari aholi jon boshiga paxta ishlatish ham ortib bormoqda. Agar 1980 yillarda bu ko‘rsatkich 4,1 kilogramm bo‘lsa, hozir har bir kishi o‘rta hisobda 14 kilogrammdan paxta va paxtadan tayyorlangan mahsulotlardan foydalanmoqda.

Dunyoda paxta ekiladigan maydonlar 5,6 million gektarni egallamoqda, xususiyatlari yaxshilangan yangi paxta navlari yaratildi, urug‘chilikni yaxshilash natijasida hosildorlik va yillik paxta ishlab chiqarish miqdori 1,3 foizga oshgan.

Dunyo bo‘yicha 70 dan ortiq davlatlarda paxta yetishtiradi. Paxtani yetishtirishda ko‘p davlatlarda hosildorlikni oshirish yoki transgen paxtalarni yetishtirish orqali iste‘mol talablarini bajarib kelmoqda. Dunyoda eng ko‘p paxta yetishtiruvchi davlatlar qatoriga Hindiston, Xitoy, Amerika, Braziliya, Avstraliya va Pokistonnarni misol qilishimiz mumkin. Lekin bu davlatlarda 15 yil davomida paxtani yetishtirish va iste‘mol talablari bir muncha o‘zgargan.

Xitoyda tolani ishlab chiqarish iste‘moli bir muncha kamaygan. Buning sababi, XX asrning oxirida Yevropada rivojlangan to‘qimachilik sanoati asta-sekin mahsulotning tannarxini arzonroq

qilish uchun ishchi kuchi va elektro-energiya arzonroq bo‘lgan davlatlarga, ya’ni Osiyoga ko‘chishi boshlandi. Lekin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Xitoy davlati ham rivojlangan davlatlar qatoriga kirib, bu yerda xom ashyoni qayta ishlash tannarxi oshib bordi. Shuning uchun hozirda rivojlangan davlatlar xom ashyoni qayta ishlashni endigina rivojlanayotgan davlatlar, Vetnam va Bangladesh davlatlarida chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulot qilish uchun to‘qimachilik sanoatini ushbu davlatlarga olib kiryapti. Keyingi 10 yil davomida Hindistonda paxtani yetishtirish va iste’mol qilish rivojlanib, yetishtirish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinlarni egallaydi.

Paxta yetishtirish avvalambor katta xarajatlarni va yiliga uch fasl mobaynida quyoshning jazirama nurlari ostida muntazam og‘ir jismoniy mehnatni talab qiladi.

Paxta yetishtirishga ajratilayotgan maydonlar qisqartirilmoqda lekin uning gektaridan olinadigan hosildorlikni oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu demak, paxtachilikda ko‘p xarajatli ekstensiv yo‘ldan tobora voz kechib, hosildorlikni oshirishga yo‘naltirilgan intensiv yo‘lga o‘tilmoqda. Bu esa, paxtaning tannarxini pasayishiga olib keladi.

Sifatni boshqarish va sertifikatlashtirish faoliyati iqtisodiyotning bir qancha sohalar va sanoatning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishdagi zamonaviylikni aks ettirish, texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirish, ishlab chiqarilayotgan turli mahsulotlarning sifati yuqori darajada, me’yoriy hujjatlarning belgilangan talablariga mos bo‘lishini, iste’mol mahsulotlarini aholi uchun xavfsizligini ta’minlash, ilg‘or, ko‘p yillik tajribadan o‘tgan jahon andozalaridan foydalanish va ularni respublikamizda tadbiq etish kabilarni o‘zida mujassamlashtirgan. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirishning ayrim o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, chunki u o‘ziga ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishini ham qamrab oladi. Bu esa ko‘pchilik mahalliy korxonalarining o‘ziga xos shart-sharoitlarining mavjudligi bilan tushuntiriladi, ya’ni ularda menejment tizimlari mavjud emas, ammo ular ishlab chiqarishni baholash jarayoni bilan tanishlar, chunki bir vaqtda ishlab chiqarish jarayonlarini attestatsiyalash ham mumkin. Bu esa menejment tizimlari orqali ishlab chiqarish hamda korxonaning boshqaruv tizimini muqobillashtiradi. Shuning uchun menejment tizimi o‘zining afzalliklari bilan ham ahamiyatlidir.

Paxta hosildorligi bo‘yicha ham Xitoy jahonda birinchi o‘rinni egallamoqda. Joriy mavsumda ya’ni, 2024 yil hosilidan O‘zbekistonda Xitoyning yangi navli paxtasidan dastlabki sinov, tajriba tariqasida barcha viloyat maydonlariga ekib paxta yetishtirildi. Ushbu maqolada ushbu navdagi urug‘idan yetishtirib, qayta ishlab olingan paxta tolasi va O‘zbekistonda ko‘p yillardan beri o‘zimizning an’anaviy seleksion navdagi paxta tolasning sifat ko‘rsatkichlarini solishtirish, taqqoslash tadqiqi yoritilmoqda.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida 2024 yil paxta hosilidan Xitoyning serhosil navli paxtasini tajriba tariqasida ekib yetishtirildi. Shu jumladan, Namangan viloyatining Norin tumanida “Qurama oltin vodiysi” fermer xo‘jaligining 50 gektar maydoniga Xitoyning “Xin Lu Zao-78” seleksion navli paxta chigitini ekib yetishtirildi.

Kuzda shudgor qilingan maydonlarda erta bahorda, kuz va qish oylarida to‘plangan namlikni saqlash maqsadida tekislash (boronlash) ishlari o‘tkazildi. 2024 yilning 16-17 mart kunlari 50 gektar maydonga plyonka ostiga qo‘shqator qilib ekildi. Bir gektaridan 200 ming dona ko‘chat undirildi. Sug‘orish ishlarini tomchilatib sug‘orish usulida amalga oshirildi va har gektariga suv orqali 20 kg.dan “azot” o‘g‘iti berildi. Chigit ekib, to‘liq undirib olingandan so‘ng saralash (yagonalash) amalga oshirildi.

Yagonalashning eng maqbul muddati 1-2 chin barg paydo bo‘lganda o‘tkazishdir. Yagonalash sifatsiz o‘tkazilganda ko‘chat qalin yoki siyrak bo‘lib, g‘o‘zani suv, ozuqadan foydalanish samarasi kamayib, paxta hosili 15-20% ga kamayishga olib keladi. Yagonalash maqbul muddatlarda o‘tkazilgan maydonlarda g‘o‘zani o‘sishi va rivojlanishi jadallashadi, ozuqa elementlari bilan ta‘minlashi yaxshilanadi, ertaki, mo‘l va sifatli hosil olishga erishiladi. Yagonalash ishlarini qisqa muddatda 8-10 kunda yakunlash lozim. Bunda nimjon va nisbatan kasalliklar bilan zararlangan rivojlanishi sustroq bo‘lgan nihollar olib tashlanib, faqat sog‘lom nihollar qoldiriladi.

Tadqiqot ishidagi g‘o‘za ko‘chatlari maydonida 12-maydan 17-maygacha 2 marta kultivatsiya qilindi. 17-maydan 22-maygacha chizillash ishlari o‘tkazildi. 23-maydan 28-maygacha 1-ozuqlantirish azot (selitra) 300 kg dan, 100 kg dan ammos, 100 kg dan kaliy bilan ozuqlantirildi. Shu davrda stimulyatorlar bilan suspenziya qilindi.

Maydondagi g‘o‘za ko‘chatlari 7-iyundan 12-iyungacha 1 marta sug‘orildi. Sinov namunalarining g‘o‘za ko‘chatlarini parvarishlashda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

4 martda kultivatsiya qilindi;

25-30 iyungacha o‘g‘itlash o‘tkazildi;

7-iyuldan 16-iyulgacha 2-sug‘orish amalga oshirildi;

28-iyuldan 4-avgustgacha bir marotaba chekanka o‘tkazildi;

Hasharotga qarshi kurash bir marotaba shira tripsga qarshi kimyoviy ishlov berildi.

G‘o‘za unib chiqqandan to 5 avgustgacha qadar 3 marotaba bio mahsulotlar bilan ishlov berildi. 5 avgustdan 25 avgustgacha 3 marta kultivatsiya o‘tkazildi va quyidagi g‘o‘zaning parvarishi maydonda kuzatildi:

28-maydan shonalash, 20-iyundan gullashga kirdi;

10-iyuldan ko‘saklash boshlandi;

8-10 sentyabrdan ochila boshlandi.

Defolyatsiya 20 sentyabrda o‘tkazildi. Paxta hosilini sifatli terib olishda eng avvalo dalani tanlash va terimga tayyorlash lozim. Paxta hosilini terib olishga dalani tanlashda avvalo ekin muddatlariga e‘tibor qaratish lozim. G‘o‘zada 40-50% ko‘saklar ochilgan maydonlar aniqlanib, avval defolyatsiya o‘tkazildi. Defolyatsiyadan 10-12 kun o‘tgach dala paxta terimiga tayyor bo‘ldi. Ushbu fermer xo‘jaligi maydonidagi paxta hosilini qo‘l terimi orqali terib olindi. Aytish joizki, respublikaning aksariyat maydonlaridagi ushbu yangi tajriba tariqasida ekilgan Xitoyning seleksiya navidagi paxtani mashina terimi orqali amalga oshirilgan.

Material va metodlar. O‘zbekiston paxta tolasi O‘zDSt 604:2016 Paxta tolasi. Texnikaviy shartlarga asosan uch xil tasniflash usullariga ko‘ra paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Ular: STIC(HVI) usuli; klassyor usuli; maxsus usullar. O‘zbekiston hududida paxta tolasini sertifikatlash ishlarida va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda SITC(HVI) usuli qo‘laniladi. Uster HVI tizimida aniqlanadigan paxta tolasininng sifat ko‘rsatkichlari O‘zDSt 604:2016 va O‘zDSt 3295:2018 davlat standartlariga ko‘ra majburiy ko‘rsatkichlar va ma‘lumotnoma ko‘rsatkichlar sifatida qabul qilingan. Lekin HVI tizimi rang va ifloslik modulida aniqlanadigan Color Grade (America Universal standartiga muvofiq rangi) ko‘rsatkichi O‘zbekiston paxta tolasiga qo‘lanilmaydi. Bunga sabab, HVI tizimi rang va ifloslik modulida aniqlanadigan Color Grade paxta tolasining rang bo‘yicha navi Nikerson va Hunter diagrammasiga asosan faqat USDA standart tog‘li paxtasining Rd va +b qiymatlari HVI ga integratsiya qilingan. AQSHning noqulay ob-havo, iqlim sharoiti O‘zbekiston iqlim sharoitidan tubdan farq qilgani uchun paxta tolasining ranglari ham bir-biridan keskin farq

qiladi. O‘zbekiston paxta tolasi HVI tizimida sinovdan o‘tkazilganda O‘zDSt 604:2016 standartining 5.2.1 bobida keltirilgan paxta tolasining sanoat navlari rangi va tashqi ko‘rinishi talablariga nomutanosib natijalarni bermoqda. Bunga sabab, O‘zbekiston tolasi yorqinlik-nur qaytarish koeffitsiyenti (R_d , %) va sarg‘ishlik darajasi (+b) qiymatlari USDA standart tog‘li paxtasining R_d va +b qiymatlaridan yuqoriligi-yaxshiligi uchun O‘zbekistonlik olimlar tomonida olib borilayotgan uzoq yillik izlanishlar ham o‘z samarasini bergani yo‘q. Bugungi kunda HVI paxta tolasi rangini o‘lchashning umumjahon usuli sifatida dunyo bo‘ylab ko‘rib chiqilmoqda va klassyor tomonidan aniqlanadigan sub‘ektiv vizual baholashni ob‘ektiv instrumental o‘lchashga almashtirish rejalashtirilgan. Shu sabab, O‘zbekiston tolasi sifatini jahon bozorida mavqeyini yanada yuqoriga ko‘tarish uchun jahon tajribasi va yangi zamonaviy texnologiyalardan keng ko‘lamda foydalanish talab etiladi. Buning uchun HVI tizimi rang va ifloslik modulida aniqlangan Nickerson-Hunter rang jadvalida keltirilgan rang kodlari nomenklaturasini o‘zlashtirish, ayrim davlat standartlari va O‘zbekiston paxta tolasining tashqi ko‘rinish namunalarini (etalon namunalar) o‘zgartirish orqali yuqorida keltirilgan kamchiliklarga yechim topish mumkin [3].

Yigirilgan ip va matoning rangi o‘zgarishi yoki matoda muammoli yo‘l-yo‘l yuzalar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni nazorat qilishda rang sifatini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa hisoblanadi. Paxtani rangi bo‘yicha sifatini yaxshiroq nazorat qilish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim: 1. Paxta tolasidan saralanma tuzishda bir xil iqlim sharoitda yetishtirilgan paxta tolalaridan foydalanish. 2. Nur qaytarish koeffitsiyenti (R_d): odatda O‘zbekiston paxtasida R_d ko‘rsatkichi 68 dan 82 gacha bo‘lgan oraliqda bo‘lishi mumkin. Saralanma sifatini yaxshi nazorat qilish uchun kunlik aralashtirish rejasida R_d qiymatlarni 5 dan past bo‘lgan oraliqda bo‘lishini ta‘minlash tavsiya etiladi. 3. +b sarg‘ishlik ko‘rsatkichi :+b ko‘rsatkichi mintaq va navga bog‘liq bo‘lgan holda bir-biridan farq qiladi. O‘zbekiston paxtasida +b ko‘rsatkich 7,0 dan to 11,0 gacha bo‘lgan oraliqda bo‘ladi. Bir xil navli paxtani aralashtirishda +b oralig‘ini 2.5 dan kam bo‘lgan qiymatda saqlash maqbul hisoblanadi. Paxta tolasi rangini baholash: paxta tolasining rangi rang diagrammasi yordamida aniqlanadi. Ushbu diagrammada vertikal chiziq bo‘ylab tola namunasining nur qaytarish koeffitsiyenti va gorizontaal chiziq bo‘yicha namunaning sarg‘ishlik darajasi aks ettirilgan. Chiziqlar tutashgan nuqtasi o‘rta tolali paxta navlarining universal standartlar bo‘yicha nav va sinfini tasniflaydi. Paxta tolasining rangi rang diagrammasi kvadranti joylashgan joyini aniqlash yo‘li orqali baholanadi. Bu yerda R_d koeffitsiyenti va +b ko‘rsatkichning diagrammadagi kesishgan nuqtasi bo‘yicha paxta tolasining rangi aniqlanadi. Masalan, nur qaytarish koeffitsiyenti R_d 72 va +b sarg‘ishlik ko‘rsatkichi 9,0 bo‘lgan namuna 41-3 rang kodiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. O‘zbekistonda paxta tolasini sertifikatlash va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun SITC (HVI) usuli qo‘llaniladi. Uster HVI tizimida aniqlangan paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlari O‘zDST 604:2016 va O‘zDST 3295:2018 davlat standartlariga muvofiq majburiy ko‘rsatkichlar va etalon ko‘rsatkichlar sifatida qabul qilinadi. Biroq, o‘zbek paxta tolasi HVI tizimining rangi va aralashmalar moduli bilan belgilanadigan rang darajasiga (Amerika universal standartiga muvofiq rang) kirmaydi. Buning sababi, Nickerson va Hunter jadvallari asosida HVI ga USDA tog‘ paxtasining faqat R_d va +b qiymatlari birlashtirilgan. 1930-yillarda USDA instrumental ranglar jadvalini ishlab chiqishni boshladi. Keyin paxta tolasi navlari tasnifiga ikkita parametr kiritilgan: yorqinlikni aks ettirish (R_d) va sarg‘ish (+b). Yorqinlik darajasi (R_d) namunaning qanchalik yorqin yoki xiraligini, sarg‘ishlik (+b) rang pigmentatsiyasi darajasini ko‘rsatadi. Paxta tolasining rangi ikki filtrlı kolorimetr yordamida instrumental usulda aniqlandi. Ushbu ob‘ektiv usul

Nickerson va Hunter tomonidan 1940-yillarning boshlarida USDA paxta sifat standartlarini sinab ko‘rish uchun ishlab chiqilgan [4;5].

Paxta tolasi rangini baholash: paxta tolasining rangi rang diagrammasi yordamida aniqlanadi. Ushbu diagrammada vertikal chiziq bo‘ylab tola namunasining nur qaytarish koeffitsiyenti va gorizontal chiziq bo‘yicha namunaning sarg‘ishlik darajasi aks ettirilgan. Chiziqlar tutashgan nuqtasi o‘rta tolali paxta navlarining universal standartlar bo‘yicha nav va sinfini tasniflaydi. Paxta tolasining rangi rang diagrammasi kvadranti joylashgan joyini aniqlash yo‘li orqali baholanadi. Bu yerda Rd koeffitsiyenti va +b ko‘rsatkichning diagrammadagi kesishgan nuqtasi bo‘yicha paxta tolasining rangi aniqlanadi. Masalan, nur qaytarish koeffitsiyenti Rd 72 va +b sarg‘ishlik ko‘rsatkichi 9,0 bo‘lgan namuna 41-3 rang kodiga ega bo‘ladi (1-rasm). Rang sinfi uchta raqamda XX-U raqamda ifodalangan. Birinchi raqam rang yorqinligini anglatadi. Son qancha katta bo‘lsa, paxtaning yorqinligi shuncha yuqori bo‘ladi. Ikkinchi raqam paxtaning sarg‘ishlik darajasini anglatadi; ikkinchi raqam soni ortishi bilan sarg‘ishlik ham ortib boradi. 25 ta rang navlari va beshta toifadagi rang darajalari mavjud. O‘zbekiston paxtasi odatda o‘rtacha va yaxshi o‘rtacha rang berish darajasiga ega bo‘lgan oq va och dog‘li rang toifalariga kiradi. Rang o‘zgarishi yoki matoda hosil bo‘ladigan yo‘l-yo‘l chiziqli muammolarni oldini olish uchun aralashtirish rejasida faqat to‘rtta yonma-yon paxta navlarini tanlash tavsiya etiladi, masalan, 11, 12, 21, 22 birgalikda ishlashi mumkin, ammo 11 bilan 31 yoki 11 bilan 13 dan foydalanib bo‘lmaydi.



1-rasm. “Xin Lu Zao-78” seleksion navi paxta g‘o‘zasining tashqi ko‘rinishi.

Ushbu “Xin Lu Zao-78” seleksiya navidagi yetishtirib olingan paxta xom-ashyosini “IFTIHOR KIYIM SANOAT” MCHJ paxta klasteri qoshidagi Norin paxta tozalash korxonasida alohida bunt qilib, ushbu buntida ishlab chiqarilgunga qadar saqlandi.

Ushbu seleksiya navidagi paxta xom-ashyosidan qayta ishlab olingan paxta tolasidan O‘zDSt 614 standartiga asosan tegishli tartibda namunalar tanlab olindi va sifat ko‘rsatkichlari tekshirildi.

Tekshirishni xalqaro universal paxta tolasi standarti bo‘yicha tola sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan usulda bajarildi.


Tola sifatini taqqoslash maqsadida O‘zbekistonning “Buxoro-102” va “C-6524” seleksiya navli paxta tolasi bilan solishtirildi. Uch xil sinov namunalarining sifat ko‘rsatkichlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval

Uch xil sinov namunalarning sifat ko‘rsatkichlari

№	Sifat ko‘rsatkichlar	1-sinov namunasi “Buxoro-102”	2-sinov namunasi “S-6524”	3-sinov namunasi “Xin Lu Zao-78”
1	Tipi, (Type)	4	4	3
2	Shtapel kodi, (Staple)	36	36	38
3	Yuqori o‘rtacha uzunlik, (UHML), duym	1.13	1.12	1.18
4	Microneyr ko‘rsatkichi, (Micronare)	4.7	4.7	4.9
5	Solishtirma uzilish kuchi, (Strength), gf/tex	35.7	33.8	32.8
6	Nur qaytarish koeffitsiyenti, (Rd), %	71.1	71.5	82.2
7	Sarg‘ishlik darajasi, (+b)	7.6	7.4	7.1
8	Ifloslik kodi, (Trash), $T=Area*10$	8.1	8.6	3.4
9	Kalta tolalar indeksi, (SFI), %	7.4	9.6	5.4
10	Uzunlik bo‘yicha birxillik indeksi, (Uniformity index), %	84.4	82.9	82.9
11	Uzilishdagi uzayish, (Elongation), %	6.5	7.2	6.1

Tolaning sifatini aniqlash O‘zDSt 604-2016 standart talablari asosida o‘tkazildi. HVI [2] 900 SA tizimi laboratoriyada iqlim sharoitlar sozlangan va tizim kalibrovkadan o‘tkazilib, tajribalar o‘tkazildi.



2-rasm. Namunalarning sifat ko‘rsatkich diagrammasi.

Xulosa. 2-rasmda namunalarning sifat ko‘rsatkich diagrammasi ko‘rsatilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, 3-sinov namunasi “Xin Lu Zao-78” tolasining tipi 0.06 duyum uzunligi va 3-tipga mansubligi katta iqtisodiy samaraga erishishni bildiradi. Bunday tolalardan ingichka va nafis ip olish imkonini beradi, shu orqali Prezidentimiz belgilagan vazifalarni bajarish imkoniyati yaratiladi.

Nur qaytarish koeffitsiyenti ham 10.7 % ga yuqoriligi toladan ishlab chiqarilgan ip va tayyor mato kiyimlari bo‘yashdan so‘ng ham tashqi ko‘rinishi jihatdan tovlanish darajasi yuqori natijani beradi. Bu esa estetik xossasi yuqori mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. “Xin Lu Zao-78” selektsion nav “Buxoro-102” navidan ifloslik kodi (Trash) ham 4.7 ga kamligi paxta tozalash korxonasida iflosliklardan tozalash mashinalari (UXK, XK) ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi ekilgan “Xin Lu Zao-78” seleksiya navidgi paxtadan “Qurama oltin vodiysi” fermer xo‘jaligida gektariga 58 sentnerdan hosil olindi, qayta ishlab olingan paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlaridan uning tipi, uzunligi bo‘yicha yuqoriligi, 3 tipga ega bo‘lganligi ustuvor ko‘rsatkichni berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 06.03.2020 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4633-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.
3. O‘zDSt 604-2016 Paxta tolasini. Texnikaviy shartlar.
4. “Sifat” O‘zbekiston paxta tolasini sertifikatlash markazi. “HVI 900-SA o‘lchash tizimida paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash”. Metodik qo‘llanma. Toshkent-2004 yil.
5. “Разработка Национальной диаграммы света отечественных сортов хлопчатника” илий-тадқиқот ҳисоботи. Максудов Э.Т, Гуляев Р.А, Тошкент, 2006 йил.

IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI FIZIK- MEXANIK XUSUSIYATLARINI TADQIQOTI

¹I.I. Kamalova, ²B. Mirusmanov

^{1,2}Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan trikotaj to'qimalarini qayerda ishlatilishiga qarab uning fizik-mexanik xususiyatlarini bugungi kun talabiga javob bera oladigan, zamonaviy o'lchov uskunalarida tadqiqot ishlarini bajarish bilan ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlari yoritilgan. Trikotaj to'qimalarini havo o'tkazuvchanligi, pishiqligi, ishqalanishga chidamliligi, trikotajni deformasiyalanishi, kirishishi va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda trikotaj to'qimalarini qo'llanish obyektlari, ya'ni bu to'qimalardan qanday mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish mumkinligi ma'lum bo'ladi.

Kalit so'zlar: to'qima, pishiqlik, deformatsiya, ishqalanish, xususiyat.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ДВУХСЛОЙНЫХ ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН

Аннотация. В статье рассматриваются возможности достижения положительных результатов путем проведения исследований на современном измерительном оборудовании, способном удовлетворить сегодняшние требования к физико-механическим свойствам трикотажных полотен в зависимости от того, где планируется их использование. Учитывая воздухопроницаемость, прочность, стойкость к истиранию, деформации, усадке и другие свойства трикотажных полотен, становится ясно, для каких целей можно использовать трикотажные полотна, то есть для изготовления каких изделий эти полотна можно использовать.

Ключевые слова: текстура, зрелость, деформация, трение, свойство.

STUDY OF PHYSICO-MECHANICAL PROPERTIES OF TWO-LAYER KNITTED FABRICS

Abstract. The article discusses the possibilities of achieving positive results by conducting research on modern measuring equipment that can meet today's requirements for the physical and mechanical properties of knitted fabrics depending on where they are planned to be used. Taking into account air permeability, strength, resistance to abrasion, deformation, shrinkage and other properties of knitted fabrics, it becomes clear for what purposes knitted fabrics can be used, that is, for the manufacture of what products these fabrics can be used.

Keywords: texture, maturity, deformation, friction, property.


Kirish. Yuqorida aytilganidek, ikki qatlamli trikotaj to'qimalari chiziqli zichligi 20 teks paxta va akril kalava iplaridan to'qish, trikotaj tarkibidagi akril va paxta iplarini chiziqli zichliklarini son ko'rsatkichlarini o'zgartirish va halqa qatorlarini to'qishda iplarni joylari almashtirilganda, ikki

qatlamli trikotajni texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini tadqiq va tahlil qilish orqali bu to'qimalarni yuqori sifat ko'rsatkichli variantlarini aniqlash va ishlab chiqarishga tadbir etish ilmiy ishning asosiy maqsadlaridan biridir.

Ma'lumki, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishdan avval mato tanlanayotganda, uni kiyish jarayonidagi fizik xususiyatlari ham katta o'rin egallaydi, chunki inson terisi gaz almashinuvida, uglekislota, suv bug'lari ajralishida hamda kislorod yutishida ishtirok etadi. Shuning uchun, kiyimlarni gigiyenik nuqtai nazaridan baholashda, to'qimachilik va ayniqsa trikotaj matolari uchun havo o'tkazuvchanlik xususiyati asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Matolarni o'zidan havoni o'tkazish xususiyati havo o'tkazuvchanlik deyiladi. Ma'lum bosim bilan havoning o'tkazuvchanligi asosan matoning g'ovakligiga, halqalarning soniga va ochiq g'ovaklarning katta-kichikligiga, shuningdek mato qalinligiga bog'liq. Matoda g'ovaklik qancha ko'p bo'lsa, uni to'ldirish koeffitsiyenti shuncha kam bo'ladi va havo o'tkazuvchanligi yuqori bo'ladi. Akril va paxta kalava iplarini turli chiziqli zichliklarda olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining havo o'tkazuvchanlik xususiyati tahlil qilingan va olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Material va metodlar. Havo o'tkazuvchanlik materialning ikkala tomoni bo'yicha berilgan bosim farqida 1 sekund ichida 1sm^2 matodan ($160 \times 160\text{ mm}$) o'tayotgan havo miqdorini ko'rsatuvchi havo o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti bilan tavsiflanadi. Havo o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti V ($\text{sm}^3/\text{sm}^2\cdot\text{sek}$) bilan ifoda etiladi va AP-360SM asbobida aniqlandi.

Ustki trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan trikotaj matolarining havo o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, to'qima turi, qalinligi va zichligiga bog'liq bo'lgan holda quyida keltirilgan chegaralarda o'zgardi, ya'ni tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini 6-ta varianti bo'yicha eng yuqori havoo'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $191,2\text{ sm}^3/\text{sm}^2\cdot\text{sek}$ ga teng, 100% paxta ipidan to'qilgan mato bo'lsa, eng kam havoo'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $100,8\text{ sm}^3/\text{sm}^2\cdot\text{sek}$ VI - variantni havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi. I-variant matosining havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi bilan taqqoslanganda, V-variantning havo o'tkazuvchanligi $119,6\text{ sm}^3/\text{sm}^2\cdot\text{sek}$ ga teng bo'lib, I-variantga nisbatan havo o'tkazuvchanligi 37,4 % kamligi aniqlandi 1- rasm.




1- rasm. Havo o'tkazuvchanligiga bog'liqligi.

VI- variantning havoo'tkazuvchanligi $100,8\text{ sm}^3/\text{sm}^2\cdot\text{sek}$ ga teng bo'lib, I-variantga nisbatan havo o'tkazuvchanligi 47,2 % kamligi aniqlandi. Buning sababi, VI- variantning halqa qatorlarini hosil qiluvchi hosilali glad, lastik va arqoq iplarini chiziqli zichliklari 20 teks x 4 ga teng bo'lib, qolgan variantlarga nisbatan trikotajni qalinligi yuqori bo'lib 1,80 mm ga teng.

Tadqiqot natijalar va tahlillar. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini VI- variantini havoo'tkazuvchanligi kam bo'lganligi sababli, bu to'qimadan bolalar uchun mavsumiy yengil ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini yengil ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tavsiya etilishida, bu to'qimalarni pishiqlik ko'rsatkichlaridan biri ularning ishqalanishga chidamliligi bo'lib, olib borilgan tadqiqotlar natijalari 1.- jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichi 12000 ming/aylana dan 23500 ming/aylana gacha o'zgarishi aniqlandi. I-variantning ishqalanishga chidamliligi eng kam, 12000 ming/aylana ni tashkil qilgan bo'lsa, uning yuqori ko'rsatkichi VI-variantda bo'lib, 23500 ming/aylana ni tashkil qilganligi, to'qimaning hamma halqa qatorlari, ya'ni hosilali glad, lastik va arqoqli qatorlar paxta va pan iplarini chiziqli zichliklari 20 teks x 4 ga iplardan to'qilgan bo'lsa, I-variantning hosilali glad, lastik va arqoqli qatorlar 100% paxta ipini chiziqli zichliklari 20 teks x 3 ga teng bo'lgan iplardan to'qilganligida 2-rasm. I-variantning qalinligi 1,40 mm ni tashkil etsa, VI-variantni qalinligi 1,80 mm ni tashkil qilgan. (VI-variantni qalinligi 28,5% ga oshgan). Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini yengil ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tavsiya etilishida, bu to'qimalarni pishiqligiga, ya'ni uzilish kuchiga ham katta e'tibor qaratilishi zarur. Uzilish tavsifi trikotaj matolari sifatini baholash uchun qabul qilinadigan asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Trikotaj matolari uchun qo'llaniladigan barcha GOST va TSH larga uzilishdagi uzayish va uzilish kuchi bo'yicha meyoriy ko'rsatkichlar kiritilgan.

Taqdim etilgan namunalarning uzilish kuchi standart uslub bo'yicha "AG-1"-rusumli dinomometr yordamida aniqlangan. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini hamma 6 ta variantlarini uzilish kuchini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalarni tahlili shuni ko'rsatdiki, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini bo'yi bo'yicha uzilish kuchining minimal qiymati I-variantda 422 N tashkil qilsa, maksimal ko'rsatkich 673 N ni, VI-variant tashkil qilib, I-variantga nisbatan 59,4 % pishiqligini ko'rishimiz mumkin.




2-rasm. Ishqalanishga chidamlilik grafigi.

Eniga bo'lgan uzilish kuchining maksimal qiymati II-variantda 364 N tashkil qilgan bo'lsa, minimal qiymati I-variantda 171 N tashkil qilgan. II- variantni uzilish kuchini ortganligi ikki qatlamli trikotaj to'qimasini bu varianti 100% chiziqli zichligi 20 teks x3 ga teng bo'lgan akril ipidan hamma halqa qatorlari to'qilganligida. Olingan variantlar ichida eng katta uzilish kuchiga ega bo'lgan bu VI-variant, uning bo'yi bo'yicha uzilish kuchi 673N tashkil qilgan bo'lsa, eni bo'yicha 334N ni tashkil qilgan 3-rasm. Ma'lum kuch ta'siri ostida trikotajni cho'zilish xususiyatiga uning cho'ziluvchanligi

deyiladi. Cho'ziluvchanlik sinovdan o'tkazilayotgan namunaning cho'zilishi bilan tavsiflanadi.

To'qib olingan trikotajning bo'yi bo'yicha cho'zilishi 105 dan to 111 % gacha cho'zilishini ko'rishimiz mumkin. Bo'yi bo'yicha eng kam cho'ziluvchanlik I-variantga ta'lluqli bo'lib, 101% ni tashkil etadi. Bo'yi bo'yicha eng ko'p cho'ziluvchanlik VI-variantga tegishli bo'lib 111% na tashkil etgan. Ikki qatlamli trikotajni eni bo'yicha eng kam uzilishdagi cho'ziluvchanligi IV-variantda bo'lib, 135% ni tashkil qilsa, eng ko'p cho'ziluvchanlik I-variantda, 145% na tashkil qilgan. Ya'ni eni bo'yicha cho'ziluvchanlik 100% paxta ipidan olingan I-variant ikki qatlamli trikotajga nisbatan IV-variantniki 6,89% ga kam ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu varintda trikotajni tarkibiga qo'yilgan arqoq ipini chiziqli zichligi 20 teks 4 bo'lganligida. Olib borilgan tadqiqot ishlarni natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, trikotajni eniga bo'lgan cho'ziluvchanligini kamaytirish uchun trikotajni tarkibiga eni bo'yicha arqoq iplarini qo'yish ijobiy natijalar bergani ma'lum bo'ldi.



3-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini uzilish kuchi grafigi.

Trikotaj matolarining xususiyatlarini tadqiqot qilishda trikotaj matolarining qayishqoqlik xususiyatlarini aniqlash va ularni tahlil qilish muhimdir [1].

Trikotaj matolarining to'liq deformasiyasi ε , quyidagi qismlardan tashkil topgan:

$$\varepsilon = \varepsilon_{\kappa} + \varepsilon_{\eta} + \varepsilon_n, \% \quad (2.3)$$

-qayishqoq qismi ε_q :- tajriba o'tkazish jarayonida trikotaj namunasidan yuk olib tashlangandan so'ng, cho'zilgan trikotaj namunasini yuqori tezlikda qaytishi;

-elastik deformasiya ε_e :-tajriba o'tkazish jarayonida trikotaj namunasi kichik tezlikda qaytadi, ya'ni relaksasiya jarayoni bajarilishi bilan bog'liq;

-plastik deformasiya ε_p :-tajriba o'tkazish jarayonida trikotaj namunasidan yuk olib tashlangandan so'ng vaqt o'tishi bilan umuman qaytmaydi.


Ikki qatlamli trikotaj mato namunalarida bo'yiga qaytar deformasiyaning miqdori 85 % dan 88 % gacha o'zgarishi (1-jadval), eni bo'yicha qaytar deformasiya miqdori esa 86 % dan 90 % gacha o'zgarishi olib borilgan tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldi. Qaytar deformasiya ulushining bunday ko'rsatkichlari ikki qatlamli trikotaj matolari cho'zilgandan so'ng, dastlabki holatiga tez qaytishi haqida dalolat beradi. Trikotaj matosini qaytmas deformasiyasi bo'yiga 15% gacha va eniga 14% gacha qaytmasligini ko'rish mumkin, 4-5-rasm. Trikotaj matolariga namlab ishlov berish jarayonida (yuvishtirish, ivitish) o'lchamlarining kamayishi kirishish, ortishi esa tortilish deb ataladi. Trikotaj matolariga nam holatda, ishlov berilganda kirishish ipni yoki matoni ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan ta'sirlar natijasida yuzaga kelgan cho'zilishni bartaraf etuvchi relaksasiyalanish bir tomondan, tolalarning shishib qolishi bilan, ikkinchi tomondan ko'ndalang kesim diametrining ortishi bilan bog'liq bo'ladi. Juda siljuvchan tuzilishga ega bo'lgan trikotaj matolarining tashqi tuzilishida

(mato turiga bog'liq bo'lgan holda) namoyon bo'ladigan relaksasiya jarayoni matoning ichki tuzilishida (ip ichida) namoyon bo'ladigan relaksasiya jarayoniga nisbatan anchagina sezilarli kechadi [2-3].

1-Jadval


Ikki qatlamli trikotaj matolarining fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq natijalari

Variantlar	Xomashylarning chiziqlik zichligi (teks)				Havo o'tkazuvchilik V _a (sm ³ /sm ² ·se k)	Ishqalani shga chidamlilik I _c (ming aylana)	Uzilish kuchi R _e (N)		Uzilishdagi chshzilish L _e (%)		Deformasiya ε ₁₀ (%)				Kirishish U _i (%)	
	To'qima nomi va xomashyolar ning chiziqlik zichligi (teks)	To'qima nomi va xomashyolarining chiziqlik zichligi (teks) va miqdori	To'qima nomi va xomashyolar ning chiziqlik zichligi (teks) va miqdori	To'qima nomi, va xomashyolar ning chiziqlik zichligi (teks) va miqdori			Bo'yi bo'yicha a	Eni bo'yicha a	Bo'yi bo'yicha a	Eni bo'yicha ha	Qaytar ε ₁₀ %		Qaytmaz ε ₁₀ %		Bo'yiga	Eniga
											Bo'yiga	Eniga	Bo'yiga	Eniga		
1	2	3	4	5	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
I	Hosilali glad Paxta 20 teks x 3	Hosilali glad Paxta 20 teks x 3	Lastik Paxta 20 teks x 3	Arqoq Paxta 20 teks x 3	191,2	12000	422	171	101	145	85	86	15	14	-15	-5
II	Hosilali glad PAN 20 teks x 3	Hosilali glad PAN 20 teks x 3	Lastik PAN 20 teks x 3	Arqoq PAN 20 teks x 3	177,7	13500	574	364	109	135	85	86	15	14	-5	-20
III	Hosilali gla Paxta 20 teks x 3 34,65%	Hosilali glad PAN 20 teks x 3 18,85%	Lastik Paxta 20 teks x 3 42,20%	Arqoq Paxta 20 teks x 3 4,30%	180,9	14000	495	259	104	136	85	86	15	14	-10	-7
IV	Hosilali glad Paxta 20 teks x 3 32,50%	Hosilali glad PAN 20 teks x 3 17,20%	Lastik PAN 20 teks x 3 44,60%	Arqoq Paxta 20 teks x 4 5,70%	188,6	19000	436	225	105	135	86	87	14	13	-9	-7
V	Hosilali glad Paxta 20 teks x 4 35,60%	Hosilali glad PAN 20 teks x 4 18,20%	Lastik Paxta 20 teks x 4 41,80%	Arqoq PAN 20 teks x 4 4,4%	119,6	21000	600	330	110	139	85	88	15	12	-8	-6
VI	Hosilali glad Paxta 20 teks x 4 17,41%	Hosilali glad PAN 20 teks x 4 35,50	Lastik PAN 20 teks x 4 44,00 %	Arqoq Paxta 20 teks x 4 3,09%	100,8	23500	673	334	111	138	88	90	12	10	-8	-5
Candart bo'yicha					Ustki kiyim 40-100 GOST 31410-2009	30-60 od-y 61-120 mustahkam GOST 16486	Kamida 80N	Kamida 80N	6N da 40% gacha	6N da 40% gacha	15-20% dan ko'p emas			Ko'p b-n 6-8% GOST 2667	Ko'p b-n 8-10 %	




4-rasm. Ikki qatlamli trikotaj mato namunalarini tarkibidagi xomashyolar miqdorini qaytar deformatsiyaga bog'liqlik grafigi.

Trikotaj matolarining kirishishi ham ularning sifat ko'rsatkichlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ikki qatlamli trikotaj matolari tarkibidagi paxta va pan iplarining chiziqlik zichliklarini va miqdorini o'zgarishi, kirishuvchanlik xususiyatiga ta'sirini o'rganish maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Ikki qatlamli trikotaj mato namunalarining kirishish jarayonining tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, bunda bo'yiga kirishish 5 % dan 15 % gacha, eniga esa 5 % dan 20 % gacha o'zgardi, olingan natijalar bo'yicha shunday xulosaga kelish mumkinki, trikotaj tarkibida pan va paxta iplarini miqdorini o'zgarib borishi, trikotajni kirishuvchanligini kamayishiga olib keldi (1-jadval). (6-rasm). Olingan trikotaj matolarining fizik-mexanik xususiyatlari tahlilidan ma'lum bo'ldiki, pishiqligi, eniga va bo'yiga va yuza zichligining son ko'rsatkichlari bilan, iplarning chiziqlik zichliklari hamda xomashyolarni matodagi miqdorlari bilan matolar bir-biridan farq qilishi aniqlandi.



5- rasm. Ikki qatlamli trikotaj namunalarini qaytmas deformatsiya gistogrammasi.



6-rasm. Ikki qatlamli trikotaj namunalarini kirishuvchanlik gistogrammasi.

Variantlarni o'zaro taqqoslab ko'rish natijasida halqa qatorlarini yigirilgan paxta va pan iplaridan foydalanib to'qilgan to'qilgan to'qimalarni III-va IV-variantlarni hajm zichliklari boshqa variantlarnikiga qaraganda kam bo'lsa, fizik-mexanik xususiyatlari bo'yicha V-va VI-variantlarining son ko'rsatkichlari boshqa variantlarnikiga qaraganda yuqori ekanligini, ya'ni bu variantlarning sifat ko'rsatkichlari qolgan variantlarga nisbatan yuqori ekanligi olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasida aniqlandi.

Shunday qilib, yuqorida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, to'qima tarkibidagi iplarning chiziqli zichliklarini o'zgartirish va to'qima tarkibida ularni joylarini almashtirish trikotajni texnologik ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sir etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Камалова И.И., Мирусманов Б. “Исследования влияния свойств сырья на технологические параметры трикотажа”. Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammo va yechimlar-2023” mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, 3-4 may 2023 yil. 357-361-561 b.
2. O'quv qo'llanma. “Arjumand media” nashriyoti. 2020 y.-108 bet.
3. Торкунова З.А. Испытания трикотажа.-М.: Легкая индустрия, 1975 г.

YANGI TUZILISHDAGI GLAD VA LASTIK O‘RILISHLI IKKI QATLAMLI ARALASH TO‘QIMALARINING FIZIK-MEXANIK KO‘RSATKICHLARI TADQIQI

¹X.A.Xamdamov, ²Sh.Sh.Shog‘ofurov, ³Q.M.Xoliqov.

^{1,2,3}Namangan to‘qimachilik sanoati instituti

Annotatsiya. Yassi ignadonli trikotaj-to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali qo‘shimcha elementlarni kiritish hisobiga yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj matolarni ishlab chiqarish usullari keltirib o‘tilgan. Qo‘shimcha elementlardan samarali foydalanish hisobiga trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish orqali trikotaj ishlab chiqarishdagi bir qator muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi: yangi assortimentdagi raqobatbardosh ikki qatlamli trikotaj mahsulotlarning texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularning ko‘rsatkichlarini keng ko‘lamda tahlil qilish. Trikotajning barcha variantlari bir xil sharoitlarda ishlab chiqilgan: trikotaj namunalari turlicha joylashgan halqalar va uzaytirilgan protyajkalar hamda press nabroskalardan tashkil topgan turli xil yangi tuzilishdagi trikotaj to‘qimalar ishlab chiqarilgan. Trikotaj namunalari ishlab chiqarishda barcha namunalar bir xil iplardan tayyorlanganiga qaramay, uning tuzilishini o‘zgarishi fizik-mexanik ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladi.

Bundan kelib chiqadiki, faqatgina ipni o‘zgartirish orqali emas, balki trikotaj tuzilishiga asosan to‘quv ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirish orqali trikotaj mahsulotlarining assortimentini kengaytirish mumkin.

Kalit so‘zlar: ikki qatlamli, trikotaj, to‘quv, hosilali glad, lastik, texnologik va fizik-mexanik ko‘rsatkichlar, halqa, uzilish kuchi, qaytar va qaytmas deformatsiya, havo o‘tkazuvchanligi, protyajka.

Аннотация. Приведены методы производства новых двухслойных трикотажных переплетений с использованием технологических возможностей плосковязальных трикотажных машин, таких как эффективное внедрение дополнительных элементов. Эффективное использование дополнительных элементов позволяет решать ряд важных задач в трикотажном производстве: определение технологических характеристик новых конкурентоспособных двухслойных трикотажных изделий и проведение широкомасштабных анализов. Все варианты трикотажа были разработаны при одинаковых условиях: трикотажные образцы были изготовлены с различными расположениями петель, удлиненными протяжками и пресс-набросками, что позволило создать различные новые структуры трикотажных переплетений. Несмотря на то, что все образцы были изготовлены из одинаковой пряжи, изменение их структуры влияет на физико-механические характеристики. Следовательно, расширение ассортимента трикотажных изделий возможно не только за счёт изменения пряжи, но и путём согласования вязальных параметров.

Ключевые слова: трикотаж, переплетение, производный гладь, ластик, технологический и физико-механические параметры, петля, петельный шаг, высота петельного ряда, плотность по горизонтали и вертикали, длина нити в петле, поверхностная плотность, объемная плотность.

Abstract. Methods for producing two-layer knitted fabrics of a new structure by effectively using the technological capabilities of flat-needle knitting machines and introducing additional elements are presented. Expanding the range of knitted products by effectively using additional elements allows solving a number of important tasks in the production of knitted products: determining the technological indicators of competitive two-layer knitted products of a new range and conducting a comprehensive analysis of their indicators. All knitting variants were developed under the same conditions: knitted fabrics of various new structures were produced, consisting of

knitted samples with differently located loops and elongated protrusions, as well as press patterns. Despite the fact that in the production of knitted samples all samples are made of the same yarn, changing its structure affects its physical and mechanical characteristics. It follows that it is possible to expand the range of knitted products not only by changing the yarn, but also by coordinating the weaving parameters based on the structure of the knitted product.

Keywords: jersey, weave, derivative surface, technological parameter, loop, loop step, loop row height, horizontal and vertical density, thread length in loops, surface density, bulk density.

Kirish. Jahonda to‘qimachilik sanoatida trikotaj mahsulotlariga qo‘yilayotgan yangi talablar asosida ishlab chiqarish, yuqori sifatni ta‘minlash va ularning assortimentini kengaytirishga oid masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Yuqori texnologiyali to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladigan trikotaj mahsulotlariga qo‘shimcha elementlarni kiritish orqali raqobatbardosh ikki qatlamli trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish va ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Qo‘llanilayotgan ikki qatlamli trikotaj mahsulotlarni gigiyenik xususiyatlarga ega tabiiy xomashyolardan ishlab chiqarish va yangi xomashyo turlarini hamda naqshlarni o‘zlashtirish raqobatbardoshlikni saqlash muhim omildir. Jahon to‘qimachilik bozori hajmi 2024 yilda 748 milliard dollarga baholanmoqda va yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. Dunyo miqyosida to‘qimachilik bozorining o‘sishi 2024 yildan 2029 yilgacha yillik 3,52 % ga o‘sishi va Mordar Intellegence “Textile Market” bashoratiga ko‘ra 2024-2029 yillar uchun, 2029 yilga borib 889,24 milliard dollarga yetishini hisobga olsak, bu sohaga yuqori texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanadi.

Resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash mahsulot sifatini saqlagan holda xomashyo sarfini kamaytirish uchun asosiy vazifaga aylandi. Ushbu tadqiqot trikotaj matolar tuzilishini o‘zgartirish va matoga qo‘shimcha elementlarni kiritish orqali xomashyodan samarali foydalanish, mahsulotlarni resurstejamkorligini oshirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot tabiiy xomashyodan tayyorlangan va yuqori ekologik hamda gigiyenik xususiyatlarga ega trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Turli xil trikotaj to‘qimalarining tuzilishlari, jumladan qo‘shimcha elementlar kiritilgan konfiguratsiyalar tahlil qilindi. Ushbu tuzilishni o‘rganish xomashyo sarfini optimallashtirish va tannarxni kamaytirish hamda texnologik, fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini optimallashtirishga mo‘ljallangan.

Trikotaj matolari tuzilishiga o‘zgartirishlar kiritishning ta‘sirini o‘rganish uchun asosiy elementlar - halqalar, press nabroskalari, yo‘llar va protyajkalarining o‘lchami, shakli va nisbiy joylashuvi tahlil qilindi. Ba‘zi turdagi trikotajlarda qo‘shimcha elementlarni matodagi joylashuvi tuzilishga kiritildi. Ushbu elementlarning bir-biriga qanday tartibda ulanayotganligini o‘zgartirib, samarali trikotaj tuzilmalari yaratildi.

Shuningdek, tadqiqotda trikotaj matolarida old va orqa qatlamlardagi halqalarning joylashuvi o‘rganildi. Old va orqa qatlamlardagi halqalar almashinuvi yangi tuzilishni hosil qildi, bunda birlashtiruvchi elementlar - old halqalar protyajkalari orqa halqalar oldida, orqa halqalar protyajkalari esa old halqalar orqasida joylashgan, bu esa funksional trikotaj mato assortimentini yaratdi.


Natijalar va tahlillar. Trikotajning tuzilishi yoki konstruksiyasi har qanday to‘qimachilik mahsulotlari singari, uni tashkil etuvchi elementlarining o‘lchami, shakli va nisbiy joylashuvi bilan belgilanadi. Tuzilishiga qarab, trikotaj konstruksiyasining elementlari halqalar, yo‘llari, press nabroskalari va protyajkalar bo‘lishi mumkin. Trikotajning ayrim turlarida halqalar, yo‘llar va protyajkalar bilan bir qatorda tuzilishga qo‘shimcha press nabroskalarini kiritilishi mumkin. Trikotaj tuzilishi elementlarini ma‘lum bir ketma-ketlikda ulash orqali trikotaj to‘qimasi hosil bo‘ladi.

Hosilali gladda old va orqa halqalarining ustunlari almashib keladi, qatorlar o‘zi hosila bo‘lib, birlashtiruvchi elementlar - oldingi halqalarning protyajkalari - orqa halqalarning oldidan va orqa halqalarning protyajkalari – old halqalar orqasida bo‘ladi


Taklif etilgan trikotaj to‘qimalaridan bolalar ustki kiyimlari tikish uchun qo‘llash mumkin. Birinchi variant (asos to‘qima) sifatida trikotaj ishlab chiqarish korxonalarida to‘qilayotgan va bolalar

ustki tikish uchun qo‘llanilayotgan hosilali glad to‘qimasi tanlab olindi, bunda to‘qima namunalari ushbu to‘qimani o‘zgartirish asosida ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilgan trikotaj to‘qimasining yangi namuna variantlari 1-rasmda ko‘rsatilgan. Xom ashyo sifatida chiziqli zichligi 20 teks x 2 bo‘lgan poliakrilonitril ip ishlatilgan.


Taklif etilayotgan trikotaj variantlarining texnologik ko‘rsatkichlari Namangan to‘qimachilik sanoati instituti qoshidagi laboratoriyasida standart usulda aniqlangan va natijalar 1-jadvalda keltirildi.






1 variant




2 variant



3 variant



5 variant



6 variant

4 variant

1-rasm. Yangi tuzilishdagi trikotaj toqimalarining tuzilishi.

Tadqiq natijalarini tahlil qilish orqali, shuni ta’kidlash mumkinki, trikotaj namunalari ishlab chiqarishda to‘qima turi barcha namunalar bir turdagi iplar bilan ishlab chiqarilganligiga qaramasdan, tuzilish o‘zgarishi uning fizik-mexanik ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladi.

1-jadval

**Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli qo‘shimcha elementlardan foydalanish hisobiga
olingan trikotaj to‘qimalarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar		Variantlar						
		I	II	III	IV	V	VI	
Iplarni turlari, chiziqli zichligi	Orqa qatlam	Poliakrilnitril ipi 35x2 teks (2 ta)						Standartlar
	Old qatlam	Paxta ipi 20 teks (6 ta)						
Havo o'tkazuvchanligi V (sm ³ /sm ² ·sek)		55,98	45,45	67,38	51,67	61,27	43,99	GOST 12088-77 30-100
Uzilish kuchi R (N)	bo'yiga	440	605	398	448	584	442	Kamida 80 N GOST 28554
	Eniga	532	353	395	459	405	542	
Uzilishgacha cho'zilish L (%)	bo'yiga	88	106	73	82	89	87	0 dan 100 % gacha GOST 28554 I va II
	Eniga	82	155	99	95	98	99	
Qaytmas deformatsiya ε _n (%)	bo'yiga	16	17	19	14	20	18	GOST 28882-90 20 % gacha
	Eniga	18	13	13	16	19	19	
Qaytar deformatsiya ε _o (%)	bo'yiga	84	83	81	86	80	82	GOST 28882-90 80 % dan yuqori
	Eniga	82	87	87	84	81	81	
Ishqalanishga chidamliligi I (ming.aylana)		30,3	34,1	33,6	36,7	36,5	32,3	GOST 16486-93 30-60

Olingan natijalarni 1-jadval asosida bir-biri bilan taqqoslab, eng yaxshi variantlar trikotajning IV, V va VI variantlari ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Ushbu variantlar resurstejamkor va yuqori shakl saqlash xususiyatiga ega. Shuning uchun, kattalar va bolalarga mo‘ljallangan yuqori sifatli ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tavsiya qilishimiz mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, trikotaj matolari tuzilishiga o‘zgartirishlar kiritish, ayniqsa, qo‘shimcha elementlardan foydalanish orqali mahsulotlarning resurstejamkorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Halqalar, yo‘llar va protyajkalar tartibini optimallashtirish orqali xomashyo sarfini kamaytirish bilan birga matoning sifati yaxshilandi. Tadqiqot, shuningdek, ushbu tuzilish o‘zgarishlari trikotaj mahsulotlarining gigiyenik xususiyatlarini yaxshilaganini aniqladi, bu esa ularni keng doirada qo‘llash uchun mos qiladi. Qolaversa, trikotaj matolarining tuzilishini o‘zgartirish nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki tannarxni ham pasaytiradi. Ushbu topilmalar ekologik toza trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun juda dolzarb bo‘lib, ular mahalliy va xalqaro bozor talablariga javob beradi.

Muhokama. Tadqiqot trikotaj matolari tuzilishi trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi va sifatiga muhim ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Qo'shimcha elementlarni, masalan, qo'shimcha iplar yoki protyajkalarni kiritish ishlab chiqarish jarayonida katta moslashuvchanlikni ta'minlaydi va xomashyoni optimallashtirishga yordam beradi. Bu ayniqsa bugungi kunda to'qimachilik sanoatida juda muhim, bunda barqarorlik va tannarxni tejash asosiy ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu tadqiqot trikotaj matolarining tuzilishini o'zgartirishlar va qo'shimcha elementlarni kiritish trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi va sifatini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi. Yangi assortimentlar zamonaviy to'qimachilik sanoatida resurstejamkor va ekologik toza trikotaj mahsulotlarini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu innovatsiyalarni qabul qilish sanoatga barqaror va yuqori sifatli tekstil mahsulotlariga bo'lgan o'sib borayotgan talabni qondirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allaniyazov G.Sh., Kholikov K.M., Mukimov M.M., Gulyaeva G.Kh., Musaeva M.M. About influence of the linear density of the thread of the back layer of double-layer knitted fabric's on its technological parameters // International Engineering Journal For Research & Development. Vol. 6, Issue 6. November 2021. -pp. 51-55.
2. Алланиязов Г.Ш., Холиков К.М., Мукимов М.М. Разработка новых структур двухслойного трикотажа // Материалы докладов 54-й Международной научно-технической конференции преподавателей и студентов. 28 апреля 2021г. ТОМ 2. -с.223-225.
3. Shogofurov Shaxbozjon Shokirjon o'g'li, Musaeva Gulshan Qaxramon qizi, Xamdammov Hakimjon Abdusattarovich, Mamatova Xadicha Qurbonali qizi, Xoliqov Qurbonali Madaminovich. Yassi igna mashinasida olingan trikotaj matoni kompleks baholash. <https://pubs.aip.org/aip/acp/article/2789/1/040125/2900119>.
4. Uralov L., Xamdammov X.A. et al. Study of technological performance of two-layer knitted fabrics //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2789. – №. 1.
5. Shogofurov Shaxbozjon Shokirjon o'g'li, Ergashev Ma'murjon Maqsud o'g'li, Xamdammov Hakimjon Abdusattarovich, Salayeva Nozima Sattorovana, Xoliqov Qurbonali Madaminovich. Orqa trikotaj matoni kompleks baholash diagrammasi. https://pubs.aip.org/aip/acp/articlepdf/doi/10.1063/5.0145476/18015902/040124_1_5.0145476.pdf
6. Xamdammov X.A., Sharipov X.N., O'ralov L.S., Qurbonov B.M. Ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini olish texnologiyalari tahlili. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФФП ИТЖ, ИТЖ ФерПИ, 2024, Т.28, №6).
7. Хамдамов Х. А., Охунов Р. Н., Холиков К. М., Алланиязов Г. Ш. Исследование влияния структур на технологические параметры переплетения на основе производного глада. Scientific Journal Of Mechanics And Technology ISSN 2181-158X, Volume 5, Issue 2, Special Issue 2024. <https://mextex.uz/>

TAKOMILLASHTIRILGAN CHO‘ZISH ASBOBIDA ISHLAB CHIQRILGAN IPNING NOTEKISLIGINI TADQIQI

¹*Nurilla Dadaxanov Karimovich, ²Rustamjon Karimov Ibragimovich*

¹Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrası
Тел.: (+99893) 403-13-39. e-mail: nurilla28@mail.ru

²Andijon mashinasozlik instituti

Annotatsiya. Hozirdagi mavjud yigirish tizimlarida, tabiiy, suniy va sintetik tolalarni qayta ishlab, ipga aylantirish texnologik jarayonlarining maqsadi shundan iboratki, tolali mahsulotni tahlash va cho‘zish yo‘llari bilan bir xil struktura va xossali pilta, pilik va ip olishdir. Halqali yigiruv mashinasi cho‘zish asbobining takomillastirilgan konstruksiyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, unda ipning notekisligi mavjuddagiga nisbatan sezilarili kamaygan.

Kalit so‘zlar: halqali yigiruv mashinasi, tola, tekislanish, cho‘zish asbobi, taramli silindar, ezuvchi valik, ishqalanish kuch maydoni, tasma.

ИССЛЕДОВАНИЕ НЕРОВНОТЫ ПРЯЖИ ПОЛУЧЕННОЙ НА УСОВЕРШЕНСТВОВАННОМ ВЫТЯЖНОМ ПРИБОРЕ

Аннотация. В существующих системах прядения при переработке натуральных, искусственных и синтетических волокон в пряжу основной задачей технологического процесса является получение равномерной по структуре и свойствам ленты, ровницы и пряжи путем сложения и вытягивания. Исследования усовершенствованной конструкции вытяжного прибора кольцепрядильной машины показали, что неравномерность пряжи значительно снижена по сравнению с существующей.

Ключевые слова: кольцепрядильная машина, волокно, ровнота, вытяжной прибор, рифленый цилиндр, нажимной валик, поле сил трения, ролик, ремешок.

STUDY OF YARN UNEVENNESS IN AN IMPROVED DRAFTING DEVICE

Abstract. In existing spinning systems in the processing of natural, artificial and synthetic fibers into yarn, the main task of the technological process is to obtain a ribbon, rovings and yarn uniform in structure and properties by folding and drawing. Based on research, we can conclude that the optimal condition for reducing the unevenness of the product being drawn in the exhaust device of ring spinning machines equipped with a new exhaust device will be minimal.


Keywords: ring spinning machines, fibers, flatness, exhaust device, grooved cylinder, pressure roller, field of friction forces, roller, strap.

Kirish. Tadqiqotning asosiy bosqichi yangi cho‘zish asbobining optimal konstruksiya va texnologik parametrlarini tanlashdir, chunki cho‘zish asbobining samaradorligi, ishonchliligi, foydalanish qulayligi, ishlab chiqarilishi va narxi bunga bog‘liq.

Yuqoridagi tajribaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, cho‘zish asbobining chiqish silindri ustigaga ikki rolikli ezuvchi valigini o‘rnatish ipning notekisligini kamaytiradi. Shu sababli, ushbu yaxshilanishlarni o‘z ichiga olgan cho‘zish asbobi ipning notekisligini yanada kamaytirishi kerak deb taxmin qilish mumkin. Shu maqsadda cho‘zish asbobiga chiqish silindriga ikki rolikli ezuvchi valigini o‘rnatildi.

Material va metodlar. Tajribalarni o‘tkazish uchun to‘liq omilli tajriba [1, 2] usuli qo‘llanildi. Adabiyot ma’lumotlarini tahlil qilish va tajribalarimiz ipning notekisligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashga imkon berdi. 1-omil – chiqish juftidagi yuklanish; 2-omil – ikkita roliklar orasidagi masofa. Biz omillarning kodlangan qiymatlarini X_1 , X_2 deb belgilaymiz – mos ravishda – chiqish juftidagi yuklanish, ikkita roliklar orasidagi masofa. Biz optimallashtirish parametri “Y” sifatida cho‘zilgan mahsulotning notekisligini olamiz. Takomillashtirilgan cho‘zish asbobining sxemasi 1-rasmda keltirilgan.

Elastik valiklar juftidagi yuklanishni siqishda ta’sirni va tolali mahsulotning siqilish sharoitlarini tahlili, tola yo‘g‘onligining o‘zgarishlari va mahsulotning ko‘ndalang yo‘nalishdagi bir o‘qli siqish omili tufayli ularning beqarorligini ko‘rsatadi [3].



1-rasm. Takomillashtirilgan cho‘zish asbobining sxemasi.

Mahsulotni cho‘zishda yuklanish katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, agar ezuvchi valikdagi yuklanish yetarli bo‘lmasa, u holda tola sirpanib keta boshlaydi yoki aksincha, agar yuklanish yetarli darajadan katta bo‘lsa, uzunroq tolalar [4] uzilishi mumkin. Valikdagi ortiqcha yuklanish cho‘zish asbobi qismlarining yeyilishini tezlatadi va taramli silindrning egilishini orttiradi. Bu ham ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

Ishlab chiqarish sharoitida dastlabki tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ezuvchi valikdagi minimal yuk kamida 100 N bo‘lishi kerak, chunki ikkita rolikli qurilmada silindrga rezina qoplama kiydiriladi va roliklar metaldan yasaladi.

SKF kompaniyasining tavsiyasiga ko‘ra, RK-225 tipidagi yuklash richagida yuklanish 100 N dan 180 N gacha olinadi. Shuning uchun bizning tajribalarimizda minimal yuklanish 100 N, maksimali esa 180 N ni tashkil qiladi.

Ikkita rolikli qurilmada roliklar orasidagi masofa konstruktiv sabablar bo‘yicha 19 – 21 mm oralig‘ida olinadi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Oldingi tahlil asosida omillar o‘zgarishining intervallari va darajalari (1-jadval), shuningdek, optimallashtirish parametri o‘rnatildi. Shuning uchun chiziqli zichligi 25 va 28 teksli ip uchun to‘liq omilli tajribalarni (2 va 3-jadvallar) rejalashtirish matritsasini tuzamiz. Shunga ko‘ra, barcha tajribalar uch marta takrorlab o‘tkazildi.

Tajriba natijalari 95%li ishonchlilik darajasida [1, 2]-ishdagi uslubda ishlov beriladi.

Tabiiy qiymatdagi omillar sathlari jadvali

1-jadval

№	Variatsiyalashtirilgan omillar	Variatsiya darajasi			Variatsiya oralig'i
		- 1	0	+ 1	
1	Chiqish juftidagi yuklanish X_1 , N	100	140	180	40
2	Ikkita rolklar orasidagi masofa X_2 , mm	19	20	21	1

Tajribalar o'tkazishning ishchi matritsasi va 25 teksli ip uchun tajriba natijalari

2-jadval

№ tajriba	Omillar		O'zaro bog'langan omillar	Qatoriy dispersiya
	X_1	X_2	$X_1 X_2$	$\hat{Y}_u, \%$
1	+	+	+	18,3
2	-	+	-	19,5
3	+	-	-	17,8
4	-	-	+	19,7

Tajribalar o'tkazishning ishchi matritsasi va 28 teksli ip uchun tajriba natijalari

3-jadval

№ tajriba	Omillar		O'zaro bog'langan omillar	Qatoriy dispersiya
	X_1	X_2	$X_1 X_2$	$\hat{Y}_u, \%$
1	+	+	+	16,9
2	-	+	-	18,1
3	+	-	-	18,2
4	-	-	+	18,3

Shunday qilib bizning misolimizda b_0, b_1, b_2, b_{12} koeffitsientlar ahamiyaga molik va regressiya tenglamasi ahamiyatga molik bo'lmagan koeffitsientlarni tashqariga chiqarib tashlaganda quyidagi ko'rinish oladi:

$$\hat{Y} = b_0 + b_1 X_1 + b_2 X_2 + b_{12} X_1 X_2. \quad (1)$$

bunda $\hat{Y}$ - ipning notekisligi, %;

b_0, b_1, b_2, b_{12} - regressiya koeffitsientlari, ularning qiymatlari 4-jadvalda berilgan.

Regressiya koeffitsientlari qiymatlari

4-jadval

Mahsulot turi, teks	b_0	b_1	b_2	b_{12}
25	19,08	-0,52	0,05	-0,05
28	17,9	-0,45	-0,225	0

Keyin quyidagi tenglamadan foydalanib, koeffitsientlarni baholashda xatolikni hisoblaymiz:

$$\Delta b_i = \pm 2S_{\{b_i\}}.$$

25 teksli: $\Delta b_i = \pm 0,2$;

28 teksli: $\Delta b_i = \pm 0,32$;

Shunday qilib, regressiya koeffitsientlarining ahamiyatga molikligini 95% ishonchlilik ehtimoli bilan muhim deb hisoblash mumkin, agar koeffitsientning qiymati nisbat bilan aniqlangan ishonchlilik oralig'idan katta bo'lsa:

$$b_i - 2S_{\{b_i\}} < \beta_i < b_i + 2S_{\{b_i\}}.$$

bunda β_i - regressiya tenglamasi koeffitsientlarining haqiqiy qiymatlari;

$S_{\{b_i\}}$ - koeffitsientlar xatoligining dispersiya qiymatlari.

Shundan so'ng (3.1) tenglama quyidagi shaklni oladi:

$$25 \text{ teksli: } \hat{Y} = 19,08 - 0,52X_1 - 0,262X_1X_2; \quad (2)$$

$$28 \text{ teksli: } \hat{Y} = 17,9 - 0,45X_1 - 0,5X_1X_2. \quad (3)$$

Cho'zish asbobidagi mahsulotning notekisligini tavsiflovchi (2) va (3) tenglamalardan ikkita rolikli valikdagi roliklar orasidagi (L) masofaning ta'siri ahamiyatsiz. Bu tenglamalarda ba'zi boshqa chiziqli effektlar ahamiyatli emas, lekin uchta omilning ta'siri sezilarli.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Olingan tenglama adekvatlikka tekshiriladi. Tekshirish Fisher mezonini yordamida amalga oshiriladi. Fisher mezonining hisobiy qiymati:

$$F = \frac{S_{\text{ад}}^2}{S_{\text{y}}^2}, \quad (4)$$

bu yerda $S_{\text{ад}}^2$ adekvatlik dispersiyasi.

$S_{\text{ад}}^2$ - qatoriy dispersiyasi.

Bizning holatimizda Fisher mezonining jadval qiymati quyidagilarga teng edi:

$$F = [\alpha = 95\%, f = N - n - 1 = 4] = 3,84.$$

Topilgan dispersiya qiymatlarini (4) tenglamaga almashtirib, biz quyidagilarni olamiz:

$$25 \text{ teks uchun: } F_{\text{расч}} = 2,0 < F_{\text{таб}}.$$

$$28 \text{ teks uchun: } F_{\text{расч}} = 2,25 < F_{\text{таб}}.$$

Demak, (2) va (3) tenglamalarni 95% ishonchlilik darajasi bilan adekvat deb hisoblash mumkin.

Hisoblash modellari (2) va (3) lar asosida, cho‘zish asbobidagi mahsulotning notekisligini tavsiflovchi javob yuzasining izoliniasi topildi, ular 2 – 5-rasmlarda ko‘rsatilgan. Rasmlardan ko‘rinib turibdiki, cho‘zilgan mahsulotning minimal notekisligiga, o‘rganilayotgan omillarning quyidagi qiymatlarida erishiladi:

25 teksli ip uchun: $P_1 = 180 \text{ N}$; $L = 19 \text{ mm}$;

28 teksli ip uchun: $P_1 = 180 \text{ N}$; $L = 21 \text{ mm}$.


Izolinialarni tahlil qilish, ezuvchi valikidagi yuklanish va roliklar orasidagi masofa cho‘zilgan mahsulotning notekisligiga turlicha ta’sir qiladi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shunday qilib, har xil turdagi iplarni (25, 28 teks) ishlab chiqarishda P_2 yuklanish va L masofaning kontaktli qiymatlarini tanlash tavsiya etiladi [5, 6].

Javob yuzasining birlashtirilgan izolinialarini o‘rganish asosida yangi cho‘zish asbobi bilan jihozlangan halqali yigiruv mashinalarining cho‘zish asbobida cho‘zilgan mahsulotning notekisligini kamaytirishning optimal sharti quyidagi o‘zgaruvchan omillar qiymatlarida bo‘ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin:


5-jadval

O‘zgaruvchan omillarning optimal qiymatlari


Ipning chiziqli zichligi, teks.	Omillarni belgilanishi	Omillarni kodli qiymatlari	Omillarni haqiqiy qiymatlari
25	$X_1(P_1)$	+1	180 N
	$X_2(L)$	-1	19 mm
28	$X_1(P_1)$	+1	180 N
	$X_2(L)$	+1	21 mm




2-rasm. $l = 21 \text{ mm}$ doimiylarda olingan ipning notekislik gradiyenti (chiziqli zichligi 25 teksli ip uchun).



3-rasm. $l = 21\text{mm}$ doimiylarda olingan ipning notekislik gradiyenti (chiziqli zichligi 28 teksli ip uchun).



4-rasm. $l = 19\text{mm}$ doimiylarda olingan ipning notekislik gradiyenti (chiziqli zichligi 25 teksli ip uchun).



5-rasm. $l = 19\text{mm}$ doimiylarda olingan ipning notekislik gradiyenti (chiziqli zichligi 28 teksli ip uchun).

Omillarning optimal qiymatlarida sozlangan cho'zish asbobida ip ishlab chiqarildi va mahsulotning notekisligini "MTS Evenness Tester" qurilmasida aniqlandi, ular 2 va 3-regressiya tenglamalari yordamida aniqlangan ushbu parametrlarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Natijalar 6-jadvalda keltirilgan.

Xulosa. 6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisoblash va tajriba natijasida topilgan optimal qiymatlar bir-biriga yaqin. Ip notekisligini tajribalar natijasida mavjud cho'zish asbobida olingan qiymatlar bilan solishtirsak : 25 teks uchun – 4,4% va 28 teks uchun – 3,1%ga yaxshilangan, bu

halqali yigiruv mashinalari cho‘zish asbobining chiqish juftligida ikkita rolikli ezuvchi valikdan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi.

6-jadval

Hisoblangan va tajribadan olingan notekislik gradiyentu qiymatlari, % da

Optimallashtirish kriteriyasi	Ipning chiziqli zichligi, teks.	Ipning notekisligi, % da	
		regressiya tenglamasidan	tajribadan
Cho‘zish asbobida co‘zilayotgan mahsulotning notekisligi	25	17,7	18,3
	28	16.6	17,2

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дадаханов Н.К., Каримов Р.И. Разработка новой конструкции вытяжного прибора и исследование его работы. // Tadqiqotlar. Jahon ilmiy – metodik jurnali. 2024. №1 (30). с. 66-71.
2. Dadakhanov N., Karimov R. Studying Yarn Incorporativeness Operated on the Improved Exhaust Extractor. // AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 02, Issue 01, 2024. p. 170-173.
3. Капитонов А.Ф. Теоретический анализ сжатия волокнистого продукта в зажиме эластичных валиков. //Известия вузов. Технология текстильной промышленности. - Иваново, 1991 г. -№3, с. 24.
4. Thanos P. Rerra. Symbatikh nhmatonoihsh eto vamvakero systhma, Afina, 1998 y.
5. Разработка новой конструкции вытяжного прибора и исследование его работы. Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture. AMERICAN Journal. Vol. 3, No. 02, 2024. с.10-14.
6. Дадаханов Н.К. Болтабоев Б.Э. Исследование усовершенствованного вытяжного прибора на влияные неровноты пряжи. //UNIVERSUM: Технические науки. -М. 2020 г. № 7 (76), с.5-10.

PAXTA TARKIBIDAGI OG‘IR ARALASHMALARNI USHLAB QOLADIGAN QURILMALAR BO‘YICHA OLIB BORILGAN ILMIY IZLANISHLAR TAHLILI

*Gulshoda Axmadjonova Adixamjon qizi, Rustam Muradov Muradovich,
Muzaffar Odilov Abduqahhor o‘g‘li*

Namangan to‘qimachilik sanoati instituti

E-mail: gulshodaaxmadjonova3@gmail.com , tel:(+998)90 1737816

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida paxta xomashyosi tarkibidan mayda-og‘ir aralashmalarni ajratish jarayoni samaradorligini oshirish, tola va chigitning shikastlanishini kamaytirish hamda cho‘ntakdagi og‘ir aralashmalar tarkibiga qo‘shilib tushib ketgan paxtalar miqdorini kamaytirish maqsadida toshtutgich qurilmasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili bo‘yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Respublika ilmiy tadqiqotchilari tomonidan toshtutgich qurilmasini takomillashtirish maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotlarning asosiy maqsadi mavjud toshtutgichlarning bir qator kamchiliklarni aniqlash va undagi mayda-og‘ir aralashmalardan samarali tozalash hamda tola va chigitga ko‘rsatiladigan zarba kuchlarini kamaytirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: paxta, chigit, og‘ir aralashmalar, pnevmatik transport, jin, texnologik jarayon.

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ УСТРОЙСТВ, УЛАВЛИВАЮЩИХ ТЯЖЕЛЫЕ ПРИМЕСЫ В ХЛОПКЕ

Аннотация. В данной статье представлен анализ исследований, направленных на повышение эффективности процесса отделения мелких и тяжёлых примесей из хлопкового сырья в предприятиях по очистке хлопка, снижение повреждений волокна и семян, а также уменьшение количества хлопка, который попадает в карманы вместе с тяжёлыми примесями. Основной целью исследований, проведённых учёными республики, по усовершенствованию устройства для очистки хлопка было выявление ряда недостатков существующих устройств, и разработка методов эффективного удаления мелких и тяжёлых примесей при минимизации воздействия механических сил на волокно и семена.

Ключевые слова: хлопок, семена хлопчатника, тяжелые примеси, пневмотранспорт, джин, технологический процесс.

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON DEVICES THAT CAPTURE HEAVY IMPURITIES IN COTTON

Annotation. This article presents an analysis of the research conducted to improve the efficiency of the process of separating fine and heavy impurities from cotton raw material in cotton cleaning enterprises, reduce the damage to fibers and seeds, and decrease the amount of cotton that gets mixed with heavy impurities in the pockets. The main aim of the research conducted by national scientists to improve the cotton cleaner device was to identify a number of deficiencies in existing

cleaners and to focus on effectively removing fine and heavy impurities while minimizing the impact of the mechanical forces on the fiber and seed.

Keywords: cotton, cottonseeds, heavy impurities, pneumatic transport, gin, technological process.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida paxta tolasiga bo‘lgan ehtiyoj juda ham yuqori bo‘lganligi sababli uni ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarini takomillashtirish hamda paxta xomashyosini tashish qurilmalarini yangi konstruksiyasini yaratish, sifatli paxta tolasini ishlab chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda «... dunyo miqyosida 23-24 mln tonna atrofida paxta tolasini ishlab chiqariladi, lekin uning yillik iste‘moli 23,5-25,0 mln tonnani tashkil etmoqda». Dunyo miqyosida paxta xomashyosi global tovar sifatida e’tirof etilmoqda va uni yetishtirish, terish, tashish, g‘aramlash, saqlash va dastlabki ishlov berish texnologik jarayonlarida tabiiy sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali uning tannarxini pasaytirish yo‘li bilan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda. Bu borada, paxta tozalash sanoatida ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahonda paxta xomashyosini tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlagan holda ishlov berish jarayonlariga yetkazib berish hamda resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasida – paxtani samarali tashish jarayonini tadqiq etish, energiya-resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yechimlarini topish borasida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Biroq, paxtani pnevmotransportda harakatlanishi qonuniyatlari, pnevmotransportda chigit shikastlanishi, quvur tirsak qismiga elastik material qoplash, tirsakni urilish burchagini o‘zgartirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda.

Bu borada, muammolarni bartaraf etuvchi texnikaviy yechimlarni ishlab chiqish, barcha texnologik jarayonlar, shular qatorida paxta xomashyosini dastlabki ishlash jarayonida og‘ir aralashmalarni tutish qurilmasini takomillashtirib, chigit va tolani tabiiy holda saqlab qolish va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Jahonda paxta xomashyosini tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlagan holda ishlov berish jarayonlariga yetkazib berish hamda resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasida – paxtani og‘ir aralashmalardan samarali tozalash jarayonini takomillashtirish, energiya-resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab

chiqish bo'yicha tadqiqotlar yechimlarini topish borasida ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Material va metodlar. Respublikamizda paxta yetishtirish va undan yuqori sifatli tola olishda zamonaviy, resurs tejankor texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli qarorida : «...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 marotabaga oshirish» kabi vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarni bajarishda paxta sanoatida paxtani dastlabki ishlash texnologik tizimlarini, xususan, paxtani pnevmoquvurda shikast yetkazmasdan tashish jarayonini amalga oshirish, pnevmoquvurlarni ishlash muddatini oshirish orqali iqtisodiy natijalarga erishish, yangi konstruksiyadagi avtomatlashgan pnevmoquvur elementlarining parametrlarini asoslash va ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Paxta tarkibidagi og'ir aralashmalarni ajratish uchun paxta tozalash korxonalarida paxtani pnevmotransportda ya'ni uni havo yordamida tashish vaqtida havo quvurlarining pastki qismlariga turli xildagi og'ir aralashmalarni tutib qolish uchun toshtutgich qurilmasi o'rnatilgan.


Uning ishlash jarayoni quyidagicha bo'lib, paxta havo quvurida harakatlanish vaqtida, uning tarkibidagi og'ir aralashmalar va boshqa xildagi mayda zarralar quvurning eng pastki qismida harakat qiladi. Quvurning ma'lum bir masofalarida joylashgan toshtutgich qurilmasidan paxtaning vazni hajm iga nisbatan katta bo'lmagani uchun havo oqimi bilan harakatlanib toshtutgich qurilmasidan o'tib ketadi.

Og'ir aralashmalar esa hajmiga nisbatan vazni katta bo'lganligi uchun havo oqimi uni katta kuch bilan torta olmaydi va buning natijasida og'ir aralashmalar toshtutgich cho'ntaklariga tushib qoladi. Paxta tozalash korxonalarining ish tajribasi mavjud toshtutgichlar paxtadan og'ir jismlarni ajratish masalasini yetarlicha hal qila olmasligini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun paxta tozalash zavodlari va tayyorlov punktlarida korxonaning ishchi va muhandis-texnik xodimlari tomonidan yaratilgan paxta tarkibidagi og'ir jismlarni ushlab qoladigan har xil qurilmalarni ko'rish mumkin.

Og'ir aralashmalarni tutib qoluvchi moslamalar paxta tarkibidagi og'ir jismlarni uni qayta ishlovchi mashinalargacha tutib qolishga mo'ljallangan. Mavjud toshtutgichlar og'ir aralashmalarni maksimal darajada tutib qolmaydi. 2CHTL, LKS silindrik markazdan qochirma turdagi toshtutgichlarning tutish unumdorligi 60-70% dan oshmaydi.

Bundan tashqari ishlash paytida sezilarli havo bosimi yo‘qolishi (600 Pa gacha) kuzatiladi. Bu qurilmalardan asosiysi oldindan doimiy ishlatilib kelingan 2CHTL markali toshtutgich (1-rasm) qurilmasi hisoblanadi.



1-rasm. 2CHTL markali toshtutgich sxemasi

1-kirish quvuri, 2-ishchi kamera, 3-cho‘ntak, 4- klapan, 5- chiqish quvuri

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida keng qo‘llanilib kelinayotgan toshtutgich uskunalaridan 2CHTL markali chiziqli toshtutgich kirish quvuri 1, ajratish kamerasi 2, yuk tushurish kamerasi 3, plastinin klapan 4 va chiqish quvuri 5 dan iborat.

2CHTL markali chiziqli toshtutgichning tutib qolish samaradorligi 60-70% ga yetadi. Bu qurilmalarning ish unumi ancha past bo‘lib, ular asosan katta o‘lchamdagi og‘ir jismlarni tutib qoladi. Mayda jismlar esa texnologik jarayonga o‘tib ketadi.

Bundan tashqari, mavjud toshtutgichlar yuqori aerodinamik qarshilikka ega. Bu esa o‘z vaqtida, pnevmotransport quvurlarida havo bosimining keskin pasayishiga hamda toshtutgich cho‘ntaklarining paxta bilan to‘lib qolishi va paxta bo‘lakchasini chiqindiga qo‘shilib ketishiga olib keladi. Korxonalardagi qo‘llanilib kelinayotgan toshtutgich qurilmalari to‘la avtomatlashtirilmagan hamda paxtani tashish jarayonida uni titib berish va tozalash jarayonlari yo‘lga qo‘yilmagan. Shuning uchun hozirgacha paxtani og‘ir jismlardan tozalovchi yuqori samarali uskunalarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirish vazifasi dolzarb vazifa ekanligini yo‘qotgani yo‘q.


Ushbu qo‘llanilib kelinayotgan toshtutgich qurilmalarning asosiy kamchiliklari paxtaning tarkibidan og‘ir va begona jismlarni ayniqsa metal parchalari tutib qolish samaradorligining pastligi, paxtadan ajralgan jismlarni toshtutgich ishchi kamerasidan o‘z vaqtida uzluksiz chiqarib yuborish imkonining yaratilmaganligidir. Bundan tashqari yana bir ko‘zga ko‘rinarli, korxona iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir etuvchi omillardan ya‘ni tola yo‘qolishiga olib keluvchi sabablardan biri ajralayotgan

begona jismlar tarkibiga paxta bo‘lakchasining ham qo‘shilib toshtutgich cho‘ntagiga tushib qolish holatlarining kuzatilishidir.

Paxta tozalash korxonalarida paxta tashishda toshtutgich qurilmasining ish unumini oshirish, texnologik ko‘rsatkichlarini muqobillash, konstruksiyalarini yangilarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish bo‘yicha dunyoda D.L.Kel’bert va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Mamalakatimizda paxta xomashyosini dastlabki ishlash texnologik jarayonidagi paxtani tashishni nazariy-fundamental, amaliy masalalari va metodologik asoslarini yaratishda B. Levkovich, K.M.Qobuljonov, M.T.Xasanov R.G.Maxkamov, T.D.Maxametov B.M.Mardonov, P.Baydyuk, X.Axmetxodjayev, A.Gulyayev, N.Kamalov, R.Muradov, A.Burxanov, O.Sarimsaqov va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Gorizontal toshtutgich. Toshtutgichlarning tutib qolish unumdorligini oshirish maqsadida samaradorligi yuqori yangi konstruksiyani yaratish uchun havo yordamida tashuvchi qurilmaning turli uchastkalarda ishlayotgan toshtutgichlarning kamchiliklarini ko‘rib chiqish va ularni solishtirib chiqish zarur bo‘ladi. Solishtirish natijasida toshtutgichning eng yaxshisini tanlab olish kerak. Ma’lumki, paxtani havo yordamida tashuvchi qurilmaning quvurlari gorizontal, vertikal va o‘tuvchi qilib o‘rnatilgan. Shuning uchun toshtutgichlarning ham gorizontal, vertikal va egik joylarga (o‘tuvchi uchastkalarga) o‘rnatilgan turlari bo‘ladi.


Yuqorida ko‘rsatilgan toshtutgichlarning ishlashini ko‘rib chiqib paxtani havo yordamida tashuvchi qurilmaning turli uchastkalarida ishlatiladigan bir qator toshtutgichlar yaratilgan. Ular mavjud toshtutgichlarning takomillashtirilgan konstruksiyalaridir. Havo yordamida harakatlanayotgan paxtaning 80% i gorizontal quvurlardan o‘tadi. Gorizontal quvurda paxtaning harakatini o‘rganib va mavjud gorizontal toshtutgichlarning ishlashini ko‘rib chiqqan holda, 2-rasmda tasvirlangan yangi konstruksiyadagi gorizontal, og‘ir aralashmalarni tutib qoluvchi moslamasi keltirilgan.



2-rasm. Quvurning gorizontal uchastkasi uchun og‘ir aralashmalarni tutgich

1-kirish quvuri; 2-ajratish kamerasi; 3-chiqish quvuri; 4-cho‘ntak.

Bu toshgutigichning ishlash jarayoni quyidagicha: paxta kirish quvuri (1) dan ajratish kamerasi (2) ga keladi. Quvurning ko‘ndalang kesimi kattalashgan sari paxta tezligi bir necha marta kamayadi va so‘ruvchi havo ta‘sirida ajratish kamerasining yuqori qismida harakatlanib, chiqish quvuri (3) orqali chiqib ketadi. Paxtaga nisbatan og‘irroq bo‘lgan aralashmalar ajratish kamerasining pastki qismida harakatlanib, cho‘ntak (4) ga tushib qoladi.



3-rasm. Gorizontaal toshgutigichning mukammallashgan sxemasi.


1-kirish quvuri, 2-ajratish kamerasi, 3-plastinka, 4-cho‘ntak, 5-chiqish quvuri.

Toshtutigichning ish jarayoni havoni so‘ruvchi kuchga, paxta va og‘ir aralashmalarning uchuvchanlik xususiyatiga asoslangan. Kirish quvuri (1) orqali ajratish kamerasi (2) ga kirgan paxta plastinka (3) yuzasi bo‘ylab harakat qiladi. Plastinkaning qiyaligi tufayli unda harakatlanayotgan paxta va og‘ir aralashmalar o‘z og‘irligi ta‘sirida qiyalik tomon og‘adi. Bunda og‘ir aralashmalarning massasi katta bo‘lganligi hamda ishqalanish kuchining kamligi sababli unda og‘ish burchagi katta bo‘lganligi sababli cho‘ntak (4) ga tushib qoladi. Paxtaga so‘ruvchi kuch ko‘proq ta‘sir ko‘rsatganligi sababli og‘ish burchagi kamroq bo‘ladida, plastinka yuzi bo‘ylab harakatlanib chiqish quvuri (5) orqali havo oqimiga qo‘shilib, ajratish kamerasidan chiqadi. Toshtutigich ishlash paytida paxta urilishi kam bo‘ladi. Shuning uchun uning sifati saqlanib qoladi.

Ikki kamerali toshgutigich. Paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalarni tutib qolish jarayonini takomillashtirish maqsadida ikki kamerali toshgutigich konstruksiyasi yaratilgan. Ikki kamerali toshgutigich quyidagicha ishlaydi. Paxta kirish quvuri (1) dan pastki ajratish kamerasi (2) ga keladi va ing orqa devorga uriladi hamda titiladi. Shu paytda undagi og‘ir aralashmalar pastki cho‘ntak (3) ga tushadi, paxta esa havo oqimiga qo‘shilib yuqorijaratish kamerasi (4) ga keladi.

Shunda paxtaning boshqa tomoni bilan ajratish kamerasining orqa devoriga uriladi va birinchi urilishdan qolgan og‘ir jismlar paxta tarkibidan ajralib qoladi. Ajralgan og‘ir aralashmalar yuqori cho‘ntak (6) ga kelib tushadi. Tozalangan paxta chiqish quvuri (5) orqali chiqib ketadi. O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasi ko‘p cho‘ntakli toshgutigichda paxta va og‘ir aralashmalar harakat

trayektoriyasini, cho‘ntaklar sonini va ularning ajratish kamerasi pastki devorida o‘rnatilish joyini aniqlash imkonini yaratdi.



4-rasm. Ikki kamerali toshtutgich.

1-kirish quvuri; 2-pastki ajratish kamerasi; 3-pastki cho‘ntak; 4-yuqori ajratish kamerasi; 5-chiqish quvuri; 6-yuqori cho‘ntak.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Professor R.Muradovning [55] fikricha, paxta tozalash korxonalarida ishlatilayotgan toshtutgichlarning asosiy kamchiliklaridan biri uning ishlash jarayonida cho‘ntaklariga ma’lum miqdorda paxtani tushib qolishidir. Paxtani qayta ishlash vaqtida texnologik jarayondagi havo yordamida tashuvchi qurilmada o‘rnatilgan uch xil toshtutgichlarni tekshirganda bu kamchilikni ko‘rish mumkin. Birinchi toshtutgich quritish barabanidan oldin o‘rnatilgan. Ikkinchisi tozalash sexida, uchinchi tozalash va jin- linterlash sexlari orasida o‘rnatilgan. Og‘ir aralashmalar bilan birga toshto‘plagichga tushgan paxtani qo‘l bilan olib havo yordamida tashuvchi qurilma quvuriga qayta tashlash tavsiya qilinadi. Lekin ba’zi hollarda u yerdagi paxta turli aralashmalar bilan qo‘shilib, iflosligi oshib ketadi va uni qo‘lda ajratib olish imkoni bo‘lmaydi. Shuning uchun yuqoridagi tavsiyaga ko‘p korxonalarda e’tibor qilinmaydi va paxta chiqindiga chiqarib yuboriladi.

Ma’lumki, toshlarning harakatlanish tezligi paxtanikiga qaraganda yuqori, lekin titilmagan to‘plamlar kelishi paxtani tashishda mayda toshlarning harakatlanish tezligiga tenglashadi. (1-jadval).

Paxtaning va og‘ir aralashmalarning harakatlanish tezliklari

1-jadval.

Paxta og‘irligi, gramm	Harkatlanish tezligi, m/s	Toshlar o‘lchami, mm	Toshlarning harakatlanish tezligi, m/s
1	3,5	5 gacha	12,8

10	6,7	5 dan 10 gacha	14,4
100	8,5	10 - 20	20,5
200	11,7	20 - 30	25

Hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular tomonidan aniqlangan qonuniyatlar, amaliy natijalar paxtani qayta ishlash, shuningdek uni pnevmotransportda tashish ilmi va amalibegonaini muayyan darajada rivojlantirishga xizmat qildi. Shunday bo‘lsada, hali paxtaga ishlov berish va uni tashishda yuz beradigan ayrim hodisalarning mohiyati to‘liq ochib berilmagan, ayrim texnologik mashina va uskunalari, shu jumladan pnevmotransport uskunasi hali to‘liq takomilga erishgan emas.

Masalan, hozirgi paytgacha paxtani gorizontaal tekislikda transportlashda chigitning shikastlanishi, havo yordamida tashish vaqtida paxtaning titilib, tashkil etuvchilarga bo‘linishi va boshqa hodisalarning nazariy asoslari yaratilmadi. Aniqlangan nazariyalar, asosan havo yordamida tashuvchi qurilmaning alohida muammolari va tarkibiy qismlarini qamrab olgan bo‘lib, bunda ham o‘zaro mos kelmaydigan, ba‘zan bir-birini inkor qiluvchi natijalar olingan.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki ushbu tadqiqotlar o‘z oldiga paxtani pnevmotransport yordamida tashish nazariyasini muayyan darajada rivojlantirish, paxta mahsulotlarining dastlabki sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini saqlash, uni tabiiy xususiyatlariga zarar yetkazilishini oldini olish, iqtisodiy samaradorlikka erishish hamda asosiysi paxtani dastlabki ishlab chiqarish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan zararli omillarni oldini olish maqsadida taklif etilgan va ishlab chiqarishga tavsiya etilgan. Ushbu takomillashtirilgan toshtutgich qurilmalarini amaliyotga tatbiq etish orqali sezilarli darajada samaradorlikka erishilmoqda va hozirgi kunda ilmiy izlanuvchilar tomonidan toshtutgich qurilmasini takomillashtirish borasida yana bir qator ilmiy yangiliklar yaratish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.E.Boltabayev, A.Burxanov, A.M.Maxkamov. “Qayta yuklash pnevmotransporti uchun surish-tortish ta’sirli rotorli ta’minlagich”. Namangan muhandislik texnologiya instituti Ilmiy-texnika jurnali. Vol. 6, Issue 4, 2021-y.
2. R.Muradov, S.Xonto‘rayev, F.Raximov, X.Kosimov. Paxta tarkibidan og‘ir aralashmalarni tozalash samaradorligini oshirishni amaliy tahlili qiluvchi dasturiy ta’minot EXM dasturi DGU 12002 O‘zbekiston Respublikasi Intellektual Mulk Agentligi.
3. R.Muradov, S.Xusanov, A.Karimov. “Paxtani tarkibidagi og‘ir aralashmalarni tutib qoluvchi qurilmalarni samaradorligini oshirish yo‘llari”. Monografiya. “Namangan” nashriyoti, 2017. 112-bet.

4. F.Raximov, X. Qosimov, A. Abdumannopov. Toshtutgichdan og‘ir aralashmalarni uzluksiz chiqarib yuborish qurilmasini takomillashtirish. NamMTI «Paxta, to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari sifatini ta’minlashning zamonaviy konsepsiyalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjumani. 2021 y. 1-tom. -386-388 betlar.
5. FAP 20230262. “Toshtutgich”.
6. F.Raximov, M.Salomova, N.Oripov O.Sarimsakov. Pnevмотransport orqali paxta xomashyosini tashish jarayonida energiya resurstejamkor texnologiyadan foydalanish. Namangan muhandislik-texnologiya instituti. Ilmiy axborot jurnali. 2020y. 2-son.
7. Pnevмотransport tizimida paxta chigitining shikastlanish darajasini kamaytirish” B.Boltaboyev. Desertatsiya ishi.

YANGI TUZILISHDAGI NAQSHLI TRIKOTAJ MAHSULOTLARINI HQPDS DASTURI ORQALI LOYIHALASH

Shog‘ofurov Shaxboz Shokirjon o‘g‘li,

Namangan to‘qimachilik sanoati instituti doktoranti, shogofurov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada, naqshli trikotaj to‘qimalarni 3 ta yangi namuna variantlari LONG-XING SM 252 rusumli (Xitoy) 12-sinfl yassi ignadonli dastgohida olish usuli, to‘qimalarining eksperimental namunalari ishlab chiqildi va grafik yozuvi keltirildi. To‘qimalarda muntazam usulda ishlab chiqarilgan donali trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llanildi va tajriba natijalari tahlil qilindi.

Tayanch so‘zlar: trikotaj, xalqa, ip, yassinaqsh, zichlik, poliakrilnitril, transfer, HqPDS dasturi, igna, ignadon.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ НОВЫХ СТРУКТУРНЫХ УЗОРНЫХ ТРИКОТАЖНЫХ ИЗДЕЛИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММЫ HQPDS

Аннотация. В данной статье разработан способ получения 3 новых вариантов образцов трикотажных полотен на плосковязальном станке 12-го класса LONG-XING SM 252 (Китай), изготовлены экспериментальные образцы полотен и дано графическое описание. Трикотажные материалы были использованы при производстве трикотажных изделий, изготовленных одиночным способом, и проанализированы экспериментальные результаты.

Ключевые слова: вязание, петля, пряжа, плоский узор, плотность, полиакрилонитрил, перенос, программа HqPDS, игла, иглодержатель.

Annotation. in this article, a method for obtaining 3 new sample variants of patterned knitted fabrics on a 12-class flat needle loom LONG-XING SM 252 model (China), experimental samples of the fabrics were developed and graphically recorded. The fabrics were used in the production of single-piece knitted products produced in this way, and the experimental results were analyzed.

Keywords: knitting, loop, yarn, flat pattern, density, polyacrylonitrile, transfer, HqPDS program, needle, needle holder.

Kirish. Naqshli trikotaj to‘qimalari faqatgina keng iste’mol mollarini ishlab chiqarishda emas, balki tibbiyotda (sun’iy qon tomirlar va ichaklar yaratishda) hamda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun ishlatiladigan texnik trikotaj olishda ham keng qo‘llaniladi. Fazodagi turli uchish apparatlarining quyosh batareyalari asosini ham naqshli trikotaj to‘qimalarining xili bo‘lmish filey trikotaj to‘qimasi tashkil qiladi. Shu bilan birga bu qismda izlanishlar va tadqiqotlar, jarayonlarni takomillashtirish va yangilarini yaratish natijasida olingan aralash trikotaj to‘qimalar ham o‘rganiladi. Bugungi kunda aralash to‘qimalarning imkoniyatlari benihoya cheksizdir. Yiliga juda ko‘p bir-biridan farqli, xilma-xil trikotaj to‘qimalari yaratilmoqda. Biri yangi tolalar, ikkinchisi yangi naqsh ko‘rinishi, uchinchisi yangi to‘qima asosida to‘qilmoqda va ishlab chiqarishga tatbiq qilinmoqda.

Naqsh – bu chiziqlar, shakllar, ranglarni ma’lum tartibda birgalikda joylashtirib, jami bezash samarasini yaratishdir. «Tuzilish» – bu to‘qimani ichki tuzilishi, halqalarni matoda joylashish tartibi,

trikotaj geometriyasi, naqsh esa samarani tasavvur qilmoqdir. Trikotaj uchun rasm, suratdan ko‘ra naqsh atamasi qulayroqdir. Matoda turli xil naqshlar ishlatiladi: oddiy geometrik, ixtiyoriy, murakkab, qarama-qarshi aksli va mahsulotni ma’lum qismida joylashgan va hokazo.

Mahsulot ommaviy ravishda ishlab chiqarilganda naqsh murakkabligi alohida o‘rinda turadi. Chunki, mahsulot qismlarini joylashtirish, bichish, birlashtirish va tikishda o‘ziga xosliklar mavjuddir. Barcha naqshlar uch turga bo‘linadi:

1. Oddiy naqshlar (melanj) – turli rangdagi chipor iplardan to‘qilgan to‘qimalarga oid.
2. O‘rtacha murakkabli naqshlar (ularni to‘shamada joylashtirishga alohida e’tibor beriladi).
3. Katta o‘lchamga ega bo‘lgan naqshlar, bu turdagi naqshlar esa mahsulotda ko‘pincha bir dona joylashtiriladi, alohida ma’lum bir qism miqyosida to‘qiladi. Shu turdagi naqshlar hozirgi kunda diqqat e’tiborga sazovordir.

Naqshli trikotaj to‘qimalarini yaratishda quyidagi naqsh samaralariga erishish mumkin:

- rangli (kvadrat, to‘rtburchak, romb, aylana, doira va hokazo.)
- teshikli (ajur)
- bo‘rtma (relief)
- tovlanuvchan (soyali)

Shu qatori to‘qimani ayrim qismlarida, yuzasida tuk hosil qilish bilan ham ma’lum samaraga erishish mumkin.

Naqshli trikotaj qismiga oid asosiy masalalarga o‘tishdan avval 50-yillar boshlarida mutaxassisligimiz asoschisi professor A.S.Dalidovich trikotajda yechimini topish dolzarb vazifa deb belgilagan quyidagi muammolarni sanab o‘tish lozim:

1. Mahsulotni ma’lum kuch ta’sirida shaklini o‘zgartirishini oldini olish (deformatsiya).
2. So‘tilishni bartaraf etish.
3. Mahsulotni tikish jarayonida halqa shikastlanishini oldini olish (prorubka).
4. Trikotaj mahsulotlarini yoki ularning qismlarini bir-biriga choklamasdan tayyorlay olishni ta’minlash.

Trikotaj uchun bu to‘rt muammoni yechimi qiyin deb bilishgan. O‘tgan vaqt ichida ko‘p narsalar o‘zgardi, turli muammolar yechildi, demak, bu qismni o‘rganish jarayonida yuqorida keltirilgan muammolarga qay darajada aniq javoblarga erishilgani to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

Trikotaj to‘qimalari tasnifi ilk marotaba 1944-yil professor A.S.Dalidovich tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunga qadar tasnif bir oz o‘zgargan va yangi turkumlar bilan to‘ldirilgan. Odatda, tasniflar materiallarga, moddalarga, usul va uslublarga, mashina va mexanizm tuzilishlariga yoki biron boshqa narsalarga tuziladi.


Trikotaj to‘qimalariga oid tasnifni tuzishdan maqsad bu jamlangan, yaratilgan va yaratilishi mumkin bo‘lgan to‘qimalarni tuzilishiga qarab turkum va turlarga ajratish, ma’lum tartib asosida umumlashtirish, o‘ziga xosliklarni va farqlarini ko‘rsatishdir. Buning uchun material har tomonlama chuqur o‘rganilgan bo‘lishi kerak.

Ushbu tadqiqot ishida yassi ignadonli LONG XING 252 rusumli trikotaj mashinasidagi igna **pozitsiyalari** va to‘quv **zamoklari** texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, 4 ta yangi to‘qima namunasi olindi. Mashina klassi - 12”, ignadon eni – 218 sm, sistemalar soni – 2 ta.

LONG XING 252 mashinasida ignalarning joylashuvida bitta igna oralatib interlok immitatsiyasi olish imkoniyati mavjud. Naqshli trikotaj to‘qimalarini olishda yassi ignadonli mashinaning maksimal imkoniyalaridan foydanildi.


Yassi ignadonli trikotaj mashinasi murakkab to‘qimalar uchun yaxshi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lib, hozirgi kunda tadqiqotchilar mashinaning yangi imkoniyatlaridan samarali foydalanish ustida ish olib bormoqdalar. Shu bilan birga, mashinaning o‘zida trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun mal’um bir parametrlarini o‘zgartirish orqali ishlab chiqarib bo‘lmaydi, ya’ni mashinaning o‘zida zichliklarni, ignalarni harakatini va hokazo parametrlarni o‘zgartirish murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy yassi ignadonli trikotaj mashinalari maxsus loyihalash dasturi orqali ishlab kelmoqda. Dastur yordamida loyihalangan trikotaj to‘qimalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish aniqligi tekshirish imkoniyati mavjud. Matematik hisob-kitoblar xalqalar soni, o‘lchamlari nashlarning umumiy ko‘rinishlarini tahlil qilishimiz mumkin.

Dastur yordamida loyihalanib ishlab chiqarilgan trikotaj mahsulotlarida qo‘shimcha elementlarning joylashtirish, mahsulotlarni o‘lchamlari va murakkab naqshlarni hosil qilish imkoniyati mavjud bo‘lganligi sababli keng foydalanilmoqda.




1-rasm. Naqshli trikotaj to‘qimasining grafik yozuvi (1-variant).

Olingan trikotaj to‘qimalari xalqa bo‘ylamasiga va ko‘ndalangiga yo‘nalgan turli xil geometrik shakldagi naqshlar hosil qilindi. 1-variant trikotaj to‘qimasini rombsimon naqshli holatda ishlab chiqarildi. Ushbu to‘qimada rapportdagi xalqalar markazga intilishi natijasida (2-rasm)



2-rasm. Naqshli trikotaj to‘qimasining grafik yozuvi (2-variant).




3-rasm. Naqshli trikotaj to‘qimasining grafik yozuvi (3-variant).


Tajribada ko‘riladigan yangi tuzilishdagi trikotaj to‘qimasidan bichish va yarim muntazam usulda donali tayyorlangan ayollar ustki kiyimi zamonaviy kom‘pyuter texnologiyalariga asoslangan NamMTI sinov laboratoriyasida mavjud trikotaj-to‘quv mashinalarida va resurstejamkor texnologiya asosida ishlab chiqildi.

Ushbu tajriba sinov partiyasini korxona sharoitida ishlab chiqarishni takomillashtirish, bir xil sharoitda amaldagi texnologiya va taklif etilayotgan yangi texnologiya bo‘yicha xomashyo sarfi kam, trikotaj buyumlari paketidan tayyorlangan ayollar ustki kiyimlarining gigiyenik, estetik va ekspluatatsion talablarini tadqiq qilishdan iborat. Tayyor mahsulotlarni foydalanish sinoviga berishdan avval ularning namunadagiga mosligi va tayyorlanish sifati vizual baholanadi.

Trikotaj buyumlar tayyorlash texnologiyasi usullari bo‘yicha bichilgan, yarim muntazam va muntazam turlarga bo‘linadi. Yarim muntazam va muntazam kiyimlar alohida maxsus xususiyatga ega bo‘lib, ularning ostki detallariga ishlov berish talab etilmaydi. Muntazam va yarim muntazam buyumlar bichilgan buyumlarga nisbatan muhim ustunlikka ega: ular tejamkor bo‘lib buyumga texnologik ishlov berish jarayonini ancha qisqartirishga olib keladi. Muntazam to‘qish usuli bilan cho‘ntak, yoqa, klapan, belbog‘ kabi detallar olinadi. Trikotaj buyumlarini loyihalash bosqichlarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, mahsulotlar dizayni, donali trikotaj ishlab chiqarish dasturini takomillashtirish, loyihalangan eskizlardan eng optimal variantlarini tanlash talab etiladi. Muntazam usulda kiyim tayyorlash uchun “HqPDS” dasturidan foydalanib, 164-88-92 o‘lchamli tipovoy qomatga standart andoza tayyorlandi.



4-rasm. “HqPDS” dasturi jemfer bo‘laklarini qurish



5-rasm. “HqPDS” dasturi jemfer yeng chizmasini qurish

Yangi tuzilishdagi trikotaj to‘qimalar olish hisobiga tayyorlangan kiyim paketi, kichik va o‘rta yoshdagi ayollar uchun mo‘ljallangan. Kiyim bo‘laklari muntazam usulda olingan, kiyim keng siluetli bo‘lib, uzunligi bo‘ksagacha, o‘tkazma yengli, ketlofka bilan biriktirilgan. Kiyim old va ort bo‘lak, yeng va yoqadan tashkil topgan.

Ketlovka mashinasi va uning ishlash prinsipi

Ketlovka – birlashtiruvchi mashinasi, maxsus tirikotaj buyumlarini detallarini birlashtirish uchun mo‘ljallangan mashina hisoblanib, trikotaj buyumlarini birlashtirish, yoqa, manjetlarni tikish uchun mo‘ljallangan. Ketlovka mashinasining chetida fontura (tokol) ignalar aylana shaklda joylashgan bo‘lib, ketlovka mashinasi trikotaj-to‘quv mashinasining klassiga mos kelishi lozim. Mashina ignalar orasidagi masofa qanchalik kichik bo‘lsa, halqalarni qo‘yish qulay. Mashinaning ishlash prinsipi juda oddiy.

Ip kelishi: ilgak ilmoqni tortib yon tomonga tashlab pastga tushadi, keyin tokolning yonidan o‘tib teshik hosil qiladi, ilmoq cho‘zilib, biriktiruvchi halqa hosil qiladi. Igna ilmoqni ignaga tushiradi va ipni yana ignadan chiqaradi. Mashina ishlash jarayonida ilmoq har doim igna atrofida aylanib yuqoridan pastga ipni ignadan chiqarib, ignaga tashlab yuboradi. Shunday qilib, matoni tortmaydigan va juda elastik bo‘lgan bitta ipli zanjirli tikuv hosil bo‘ladi.

Zanjirli tikuv mashinasi choklarning shakllanishiga, konvener harakatining tabiatiga va asosiy mexanizm dizayniga qarab tasniflanadi. Mashina ignalari (to‘g‘ri, egri) va favvoralar harakati (uzluksiz, davriy) har xil.

Mahsulot birligiga nisbatan xomashyo sarfini kamaytirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu, trikotaj mahsulotlarini yarim muntazam va muntazam usulda ishlab chiqarish hisoblanadi.


Kupon tayyorlashning turli usullari mavjud bo‘lib, unda kuponning belbog‘ qismi ikki qavatli yoki qo‘sh qavatli glad to‘qimasida, asos (stan) qismi esa turli ikki qavatli to‘qimada to‘qiladi.

Trikotaj to‘qimalari xomashyo sarfini kamaytirish uchun, eng optimal variant mahsulotning asosini bir qavatli to‘qimadan foydalanib ishlab chiqarish maqsadga muvofiq.

Yarim muntazam usulda mahsulotlar ishlab chiqarishda aylana ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatidan samarali foydalanib, taklif etilayotgan bir va ikki qavatli to‘qimalar asosida kuponlar olish mumkin.

Olingan trikotaj to‘qimasi asosida turli modellar muntazam usulda ishlab chiqarilib, old va ort qismi S_{sh} dan S_{gl} gacha bir qavatli trikotaj to‘qimasi, S_{gl} dan D_i gacha ikki qavatli trikotaj to‘qimasi asosida modellashtirilgan. D_r esa bir qavatli trikotaj to‘qimasidan foydalanib muntazam usulda olingan.

Bichuv usuli va muntazam usulda detal holatida olingan bo‘laklardagi halqalar sonini uchburchaklar, to‘rtburchaklar va aylanalar yuzalarini xisoblash orqali aniqlanadi va o‘zaro solishtiriladi.



6-rasm. Corel Draw dasturida muntazam usulda jemfer old va yeng bo‘lak detallari chizmasi.

Amaliy o‘tkazilgan tahlil natijacida xomashyo sarfining 8 % ga va vaqt 15 minutga kamaytirildi; estetik va ekspluatasion talablari jihatdan qulay va yengil, muntazam usuldagi ustki kiyim bo‘laklarini ketlyovka mashinada biriktirish jarayonida aynan o‘sha xom ashyodan foydalanish; buyumning tashqi ko‘rinishini baholashda yaqqol bilinib yoki ko‘rinib turadigan nuqsonlar aniqlanmadi. Resurstejamkor yangi tuzilishdagi trikotaj to‘qimalari halqa ko‘chirish usullari va uzaytirilgan halqalar elementlari yordamida olish hisobiga trikotaj to‘qima mahsulotlari assortimenti kengaytirish mumkinligi aniqlandi. Yengillashtirilgan usul bilan trikotaj to‘qima namunalari naqsh samarasi hisobiga o‘zaro qiyosiy taqqoslash natijasida yuqori sifatga ega bo‘lgan xomashyo sarfi kam, bir va ikki qavatli trikotaj to‘qima namunalari eng kichik yuza zichlikka va eng kichik hajmiy zichlikka ega bo‘ldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shogofurov, Sh.Sh; Kamalova, I.I; Xoliqov, Q.M; Meliboev, U.X. (2020) Structure And Methods For Producing Refined Two-Layer Knitted Sheets. Solid State Technology. Vol. 63 No. 6 (2020). Pages 11798-11807.
2. Juraboev, A.T; Kholiqov, Q.M; Shog‘ofurov, Sh. Sh (2020) The study of the technological parameters of double layer knitwear with various methods of connecting layers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year:2020, V10.Issue 4. Pages 397-404.
3. Kholikov, K.M; Zhuraboev, A.T; Shogofurov, Sh.Sh; Abduvaliev, D.M. (2020) Comprehensive assessment of the two-layer knitwear quality. The Way of Science. 2020. № 1 (71).

СПОСОБ ВЫРАБОТКИ ДВУХСЛОЙНОГО ДВУСТОРОННЕГО ПЛЮШЕВОГО ТРИКОТАЖА С ВЫСОКАМИ ТЕПЛОЗАЩИТНЫМИ СВОЙСТВАМИ

¹Нуриддин Каримов Махамаджанович, ²Музаффар Одилов Абдуқаҳҳор ўғли

^{1,2}Наманганский институт текстильной промышленности

Аннотация. С целью выработки трикотажа с высокими теплозащитными свойствами и повышенной формоустойчивостью разработан структура и способ получения нового двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа внутри полотна на базе изнаночной глади. Раппорт переплетения трикотажа новой структуры содержит два ряда плюшевого переплетения, соединенные протяжками, образующийся двухслойный трикотаж. В результате плюшевые протяжки складываются внутри полотна, что улучшает объёмную плотность и теплозащитные свойства трикотажа.

Ключевые слова: двухслойный трикотаж, изнаночная гладь, плющ, трикотажная машина, петлеобразующая система.

METHOD OF PRODUCING TWO-LAYER DOUBLE-SIDED PLUSH KNITTED FABRIC WITH HIGH HEAT-INSULATING PROPERTIES

Abstract. In order to produce knitwear with high heat-protective properties and increased dimensional stability, a structure and method for producing a new two-layer double-sided plush knitwear inside a fabric based on the purl surface have been developed. The knitwear weave pattern of the new structure contains two rows of plush weave connected by broaches, forming a two-layer knitwear. As a result, the plush broaches are folded inside the fabric, which improves the volume density and heat-protective properties of the knitwear.

Key words: double-layer knitwear, purl stitch, ivy, knitting machine, loop-forming system.

Введение. Технология трикотажного производства, т.е. процесс переработки текстильных нитей в трикотаж, может оказать существенное влияние на качество трикотажа соответствующим подбором сырья для трикотажа данного назначения, выбором переплетения и оптимальных параметров петельной структуры, а также применением отделки. Наряду с нитями, используемыми для изготовления трикотажа, переплетение является его важнейшей качественной характеристикой и определяет свойства трикотажа: растяжимость, распускаемость, поверхностную плотность, толщину, формоустойчивость и т. д.

Трикотаж по структуре представляет собой систему нитей, изогнутых в петли. Расположение петель в трикотаже и связи между петлями могут быть очень разнообразными и определяются переплетением трикотажа [1].

В настоящее время при выработке трикотажных полотен и изделий часто применяют двухслойные переплетения, которые позволяют получить всевозможные рисунчатые эффекты и видоизменять структуру и свойства трикотажа. Трикотаж двухслойных переплетений может быть получен на трикотажно-вязальных машинах всех видов. Особенно широкое применение

находит трикотаж двухслойных переплетений с оборотных и современных плосковязальных машин.

Вопросами расширения ассортимента и улучшения качества двухслойного трикотажа, создания новых структур и разработки эффективных способов вязания трикотажа с оптимальными параметрами в настоящее время занимаются многие исследователи как у нас в стране, так и за рубежом [2-4].

Трикотаж характеризуется большим многообразием переплетений, применяя различные переплетения, можно получить трикотаж с разными свойствами, узорными или структурными эффектами. Трикотаж двухслойных переплетений образуется соединением главных, производных и рисунчатых переплетений. Такие сочетания могут иметь неограниченное количество вариантов, которые зависят от назначения трикотажа, требуемых свойств и рисунчатого эффекта, который нужно получить.

Трикотаж, вырабатываемый из нитей грунта любым главным, производным или рисунчатым переплетением с вязыванием в грунт дополнительных нитей или пучков штапельных волокон, образующих увеличенные платинные дуги или протяжки ворса, называют трикотажных плюшевых переплетений.

Важнейший признак структуры плюшевого трикотажа - способ закрепления плюшевой нити грунте трикотажа. От этого показателя зависит качество трикотажа, его внешний вид, расход сырья при выработке и др.

Плюшевый трикотаж может быть получен на базе главных, производных, рисунчатых и комбинированных переплетений. Плюшевый трикотаж на базе главных переплетений получается введением дополнительной нити в структуру трикотажа переплетений производная гладь и производных ластик [5-7]. Изменение структуры трикотажа базового переплетения, т.е. выработка плюшевого трикотажа на базе различных главных, производных, рисунчатых и комбинированных переплетений, в основном влияет на физико-механические свойства плюшевого трикотажа. А создание рисунчатого эффекта на полотне достигается благодаря использованию различных цветом дополнительной нити, чередованию на полотне плюшевой поверхности с гладкой, образованию полотне протяжек разной высоты и при этом протяжек с использованием различных цветов дополнительной нити и т.д.

Плюшевый трикотаж относится к классу трикотажных переплетений, которые обладают высокими теплозащитными свойствами. Главным фактором, определяющим тепловые свойства трикотажа, является его толщина. С увеличением толщины трикотажа пропорционально возрастает его тепловое сопротивление. Исследовательские работы по увеличению толщины плюшевого трикотажа ведутся в двух направлениях: увеличение высоты ворса одностороннего плюшевого трикотажа; выработка трикотажа с двухсторонним ворсом [8]. Двусторонний платированный плюшевый трикотаж, вырабатываемый на базе главных переплетений, получают введением плюшевой нити в структуру глади, ластика и изнаночной глади.

Преимущества производства плюшевого трикотажа- простота получение как петельного, так и разрезного плюща и, высокая производительность оборудования. При изготовлении плюшевого трикотажа легко регулировать расход сырья, толщину трикотажа путём изменения длины плюшевых протяжек, а также воспроизводить различные рисунки на полотне, применяя сырье с различными свойствами и разных цветов [9-10]. Как известно, для

получения плюшевого трикотажа на всех вязальных машинах необходимо прокладывать на иглы грунтовые и плюшевые нити.

Процесс прокладывание плюшевой нити на различных машинах происходит по-разному в зависимости от условий вязания и конструкции машины. Так как у двухстороннего плюша плюшевые протяжки расположены с обеих сторон трикотажа, плюшевую нить нужно прокладывать на иглы то одной, то другой игольницы, сохраняя при этом параметры подачи плюшевых нитей. Параметрами подачи плюшевой нити являются игольный и петельный углы.

Параметры подачи плюшевой нити зависят в основном от расположения отбойной линии для кулирования этой нити.

Известно, что из строения двустороннего плюшевого трикотажа, плюшевые протяжки выходят на обе стороны, в связи с чем отбойная линия для кулирования плюшевой нити должна быть на обеих игольницах, как и для грунтовых. Для получения плюшевых протяжек одинакового размера с двух сторон трикотажа глубина их кулирования должна быть одинаковой.

Материалы и методы. Другое направление в области выработки трикотажа с высокими теплозащитными свойствами - получение трикотажа с двусторонним ворсом. Выработка платированного плюшевого трикотажа с двухсторонним расположением плюшевых протяжек значительно расширяет его ассортимент.

Одна из таких структур двустороннего плюшевого трикотажа, получаемого на базе глади, предлагается в работе. Структура трикотажа показана на рис 1, где 1-плюшевая протяжка с лицевой стороны, 2-плюшевая протяжка с изнаночной стороны. [12-14].




Рис-1. Структура трикотажа.

Видно, что эти плюшевые протяжки относительно базового переплетения располагаются симметрично. Что касается плюшевых нитей b_1 и b_2 соответственно образующих плюшевые протяжки 1 и 2, то они прокладываются одновременно с грунтовой нитью a_1 образуя вместе с ней петли основного переплетения. Для этого машина имеет специальную платину с тремя горловинами. Одна горловина платины служит для прокладывания и кулирования грунтовой нити a , вторая предназначена для плюшевой нити b_2 , образующей плюшевые протяжки 2 на изнаночной стороне, а третья – для плюшевой нити b_1 , образующей плюшевые протяжки 1 на лицевой стороне трикотажа. Под крючок иглы нити выносятся в следующем порядке: первой выносится плюшевая нить b_1 , второй- плюшевая нить b_2 и третьей – грунтовая нить a . После формирования плюшевых петель плюшевые протяжки 1 переводятся на лицевую сторону полотна под действием направленного на нее потока и образуют ворсовую поверхность на лицевой стороне трикотажа.

Недостатком этого способа выработки двустороннего плюшевого трикотажа является то, что высота плюшевых протяжек различна на лицевой и изнаночной стороне. Уменьшение

высоты лицевых плюшевых протяжек происходит в результате перевода их с изнаночной стороны на лицевую. Лицевые плюшевые протяжки в силу упругости нити будут стремиться перейти обратно на изнаночную сторону трикотажа. Внешний вид полотна с разных сторон будет различен: если на изнанке ворс будет постоянным и устойчивым, то на лицевой стороне густота его будет меньше и неравномерной.

Способ ненадежен и сложен в осуществлении.

С целью выработки трикотажа с повышенной формоустойчивостью и с высокими теплозащитными свойствами на кафедре «Технологии трикотажа», Наманганского института текстильной промышленности разработаны структура и способ получения нового двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа на базе изнаночной глади, где раппорт переплетения содержит из двух рядов плюшевого переплетения, так как соединительная нить из лайкры соединяя обеих рядов даёт возможность тому, что плюшевые протяжки находились внутри полотна.

Результаты исследований и анализ. На рис.2. изображена графическая запись двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа внутри полотна на базе изнаночной глади; на рис.3 – строение двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа.




Рис-2. Графическая запись двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа.

В графическом записе видно, что при первом петлеобразующем системе провязывается плюшевый ряд из грунтовой нити Γ_n и из плюшевой нити Π_n , при этом плюшевые протяжки формируются на втором игольнице машины из хлопчатобумажной пряжи (I система), иглы на обеих игольницах расстановлены шахматном порядке ластичном раппорте. Во втором входу петлеобразующей системы машины грунтовая нить Γ_n вместе с плюшевым нитом Π_n провязываются на втором игольнице (II система), а плюшевые протяжки Π_n формируются отбойных зубьях O_z первой игольнице, таким образом связывается плюшевый ряд с двух сторон трикотажа на базе изнаночной глади. После каждого провязанного плюшевого ряда, плюшевые протяжки сбрасываются с помощью съёмника. В обратном входу петлеобразующей системе III, на иглы обеих игольницы из лайкровой нити прокладываются соединительная нить C_n , которая соединяет обе ряда переплетения, при этом плюшевые протяжки укладываются внутри полотна образуя двухслойный двусторонний плюшевый трикотаж новой структуры (рис 2).

Двухслойный двусторонний плюшевый трикотаж (рис 3) содержит грунтовую нить $\Gamma_{n.1}$ и плюшевую нить $\Pi_{n.2}$, из которой провязывают первый плюшевый ряд, второй плюшевый ряд, также состоит из грунтовой нити $\Gamma_{n.2}$ и плюшевой нити $\Pi_{n.2}$. Соединительная нить C_n , из

лайкровой нити в свою очередь соединяя оба ряда даёт возможность плюшевым протяжкам оказаться внутри полотна.




Рис-3. Строение двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа.

3. Improving Needle Strength In Nonwoven Needle Punching Machines american journal of education and learning issn: 2996-5128 (online) |researchbib (if) = 9.918 impact factor volume-2| issue-5| 2024 published: |30-12-2024.
4. Акрамжанов Д. Анализ путей влияния на жесткостные параметры пакетных рабочих органов различных факторов. // Научный журнал Universum: Выпуск: 1(70)- Январь 2020. –С. 17. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/170>.
5. Акрамжанов Д. Исследование вопросов аналитического определения параметров жесткости пакетных конструкций. // Научный журнал Universum: Выпуск: 4(61) Апрель 2019. –С. 16. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/158>.

NANOTEXNOLOGIYA ASOSIDA MIS OKSIDI (Cu_2O) MIKROSFERALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TO'QIMALARDA STRUKTURAVIY RANGLARNI HOSIL QILISH

¹Parpiyev Xabibulla, ²Zokirjon Erkinov, ³Qayumov Juramirza, ⁴Zhu Guocheng,
⁵G'afurov Adxamjon, ⁶Izatillayev Muzaffarxon

¹Namangan to'qimachilik sanoati instituti, To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi kafedrası dotsenti, parhabib@mail.ru

²Namangan to'qimachilik sanoati instituti, zokirshoh_77@mail.ru

³Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, qayumov.juramirza@samdaqu.edu.uz

⁴Zhejiang Sci-Tech University, chengzhu@zstu.edu.cn

⁵Namangan to'qimachilik sanoati instituti, adhamjongafurov1991@gmail.com

⁶Namangan to'qimachilik sanoati instituti, muzaffarxon11011994@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Cu_2O mikrosferalaridan foydalangan holda strukturaviy rangli naqshlarni bosib chiqarish jarayoni o'rganilgan. Tadqiqotda xona haroratida ikki bosqichli qaytarish usuli yordamida Cu_2O mikrosferalari tayyorlangan va ularning morfologiyasi, optik xususiyatlari hamda to'qimachilik substratlarida yorqin strukturaviy rang effektlarini optimallashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Mikrosferalarning massa ulushi (3,0 wt%) va biriktiruvchi moddalar nisbati (5,0–10,0 wt%) optimal diapazonda bo'lganda, mato yuzasida yuqori sifatli fotokristalli rangli qoplamalar hosil bo'lishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu yondashuv nafaqat strukturaviy ranglarning amaliy qo'llanilishini kengaytirishi, balki tibbiy to'qimachilik va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so'zlar: mis oksid, rang, naqsh, mato, to'qimachilik, pigment, zarracha, mikrosfera, sentrafuga.

PRODUCTION OF STRUCTURAL COLORS IN TEXTURES USING COPPER OXIDE (Cu_2O) MICROSPHERES BASED ON NANOTECHNOLOGY

Abstract. This paper studies the process of printing structural color patterns using Cu_2O microspheres. The study prepared Cu_2O microspheres using a two-step spin method at room temperature and investigated their morphology, optical properties, and optimization of bright structural color effects on textile substrates. It was found that when the mass fraction of microspheres (3.0 wt%) and the ratio of binders (5.0–10.0 wt%) were within the optimal range, high-quality photocrystalline color coatings were formed on the fabric surface. The results of the study showed that this approach not only expands the practical application of structural colors, but also creates new opportunities for the production of medical textiles and environmentally friendly products.

Keywords: copper oxide, color, pattern, fabric, textile, pigment, particle, microsphere, centrifuge.

ПОЛУЧЕНИЕ СТРУКТУРНЫХ ЦВЕТОВ В ТЕКСТУРАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МИКРОСФЕР ОКСИДА МЕДИ (Cu_2O) НА ОСНОВЕ НАНОТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс печати структурных цветных узоров с использованием микросфер Cu_2O . В ходе исследования были получены микросферы Cu_2O с использованием двухэтапного метода отжига при комнатной температуре и изучены их

морфология, оптические свойства и оптимизация ярких структурных цветовых эффектов на текстильных подложках. Установлено, что при оптимальном соотношении массовой доли микросфер (3,0 мас.%) и соотношения связующих (5,0–10,0 мас.%) на поверхности ткани формируются высококачественные фотокристаллические цветные покрытия. Результаты исследований показали, что такой подход не только расширяет практическое применение структурных красителей, но и создает новые возможности для производства медицинского текстиля и экологически чистой продукции.

Ключевые слова: оксид меди, цвет, узор, ткань, текстиль, пигмент, частица, микросфера, центрифуга.

Kirish. Strukturaviy ranglar tabiatda kuzatiladigan noyob optik hodisalardan biri bo‘lib, pigmentlar yoki bo‘yoqlarsiz yorug‘likning mikroskopik tuzilmalar bilan o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘ladi. Ushbu ranglar yuqori optik samaradorlik, ekologik toza xususiyatlar va yorqin ko‘rinishi tufayli zamonaviy materialshunoslik, to‘qimachilik va tibbiyot sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Fotokristallar asosida yaratilgan strukturaviy rangli materiallar, xususan, metall oksid mikrosferalari, yorug‘likni ma’lum to‘lqin uzunliklarida selektiv aks ettirish qobiliyati tufayli ayniqsa qiziqish uyg‘otadi. Mis oksidi (Cu_2O) mikrosferalari bu sohada muhim o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat barqaror fotokristall tuzilmalarni shakllantirishi, balki sanoat miqyosida arzon va samarali ishlab chiqarilishi mumkin [1].

Biroq, strukturaviy ranglarning amaliy qo‘llanilishiga turli to‘siqlar mavjud.

Mikrosferalarning bir xil o‘lchamda (monodispers) sintezi, ularning substrat yuzasida tartibli joylashishi va tashqi muhit ta’siriga chidamliligini ta’minlash murakkab muammolar hisoblanadi [2]. Shuningdek, mikrosferalarning konsentratsiyasi va biriktiruvchi moddalar nisbati kabi parametrlar strukturaviy rangning yorqinligi va barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yuqori konsentratsiya mikrosferalarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirib, tartibsiz joylashuvga olib kelishi yoki biriktiruvchi moddalarning ortiqcha miqdori optik xususiyatlarni buzishi mumkin [3].

So‘nggi tadqiqotlar nanopartikulalarni matolar yuzasiga mahkamlab, ularni inson salomatligi uchun zararli tomonlari yo‘qligini ko‘rsatgan [4]. Biroq, Cu_2O mikrosferalaridan foydalangan holda strukturaviy rangli naqshlarni bosib chiqarish jarayonida optimallashtirilgan parametrlarni aniqlash hali ham yetarlicha o‘rganilmagan [5].

Ushbu ishda Cu_2O mikrosferalarini xona haroratida ikki bosqichli qaytarish usuli yordamida tayyorlash, ularning morfologiyasi va optik xususiyatlarini turli konsentratsiyalar va biriktiruvchi moddalar nisbatlarida tahlil qilish, shuningdek, to‘qimachilik substratlarida yorqin strukturaviy rang effektlarini optimallashtirish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mikrosferalarning massa ulushi (3,0 wt%) va biriktiruvchi modda nisbati (5,0–10,0 wt%) optimal diapazonda bo‘lganda, mato yuzasida yuqori sifatli fotokristalli rangli qoplamalar hosil bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv nafaqat strukturaviy ranglarning amaliy qo‘llanilishini kengaytirishi, balki tibbiy to‘qimachilik va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga ham yangi imkoniyatlar yaratadi [1, 3].


Cu_2O mikrosferalarini tayyorlash usuli

Cu_2O mikrosferalari xona haroratida ikki bosqichli qaytarish usuli yordamida tayyorlandi. Dastavval 0,32 g mis atsetat ($\text{Cu}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$), 0,52 g natriy sitrat ($\text{C}_6\text{H}_5\text{Na}_3\text{O}_7$), 1,5 g polivinilpirolidon (PVP ($\text{C}_6\text{H}_9\text{NO}$)_n), 30 g etilenglikol ($\text{HOCH}_2\text{-CH}_2\text{OH}$) va 100 g distirlangan suvni 250 ml sig‘imli uch bo‘yinli dumaloq tubli kolbaga solib, so‘ngra kolbani magnitli aralashtiruvchi doimiy haroratli yog‘ vannasida 25°C da 20 daqiqa aralashtiriladi. Zahira sifatida 0,32 g askorbin kislotani ($\text{C}_6\text{H}_8\text{O}_6$) 15 ml distirlangan suvda eritib olindi. So‘ngra asta-sekin 20 ml 0,5 ml natriy gidroksid (NaOH) eritmasi va 7,5 ml askorbin kislotani qo‘shiladi. Qolgan 7,5 ml askorbin kislotani eritmasini 5 daqiqadan so‘ng qo‘shiladi. Jarayon davomida doimiy aralashtirib turiladi va oxirgi aralashtirilgan eritmani 60 daqiqa davomida sekin aralashtiriladi. So‘ngra distirlangan suvda 3 marta markazdan qochma kuch orqali yuviladi va ajratilgan mahsulot olinadi. Keyin ular 60°C da 3 soat

davomida vakumda quritilgan. Molyar nisbatini Cu_2^+ ga o‘zgartirish orqali turli zarracha o‘lchamdagi yagona kristalli qattiq sharlarni tayyorlash mumkin.

Mikrosfera morfologiyasini tahlili

FESEM (foto elektron mikroskop) texnologiyasidan foydalanib, biz Cu_2O mikrosferalarining sirt morfologiyasini turli zarracha o‘lchamlarini kuzatdik va natijalar 2.3-rasmda ko‘rsatilgan morfologiyani ko‘rsatdi. Ko‘rinib turibdiki, Cu_2O mikrosferalarining o‘lchamlari bir xil, sferiklik va monodisperslik yaxshi.



(a) Zarrachalar hajmi: 275 nm; (b) Zarrachalar hajmi: 240 nm;
(c) Zarrachalar hajmi: 210 nm; (d) Zarrachalar hajmi: 165 nm

1-rasm. Har xil o‘lchamli Cu_2O mikrosferalarining FESEM tasvirlari.


Mikrosfera kontsentratsiyasini optimallashtirish

Sentrafga orqali olingan Cu_2O mikrosferalarining kontsentratsiyasi juda yuqori va yopishqoqlikka moyil bo‘lganligi sababli, uni strukturaviy rangli bosma naqshlarni purkash orqali tayyorlashda bevosita qo‘llab bo‘lmaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun mikrosfera kontsentratsiyasini sozlash uchun ma‘lum miqdorda toza etanol qo‘shish talab qilinadi. Mikrosferalarning massaviy fraktsiyasining poliester to‘qimada rangli naqshlarga ta‘sirini o‘rganish orqali chuqurroq tushunishga erishish maqsad qilingan.

Olingan strukturaviy rang naqshlari uchun biz sirt morfologiyasi va ichki mikrosfera joylashuvi bo‘yicha batafsil kuzatuvlarni o‘tkazdik va ularni 2.7 va 2.8-rasmlarda taqdim etdik. 2.7-rasmda ko‘rsatilganidek, mikrosferalarning massa ulushi o‘zgarganda, bosilgan naqshning strukturaviy rang effekti va mikromorfologiyasi aniq o‘zgaruvchan tendentsiyani ko‘rsatadi.

Mikrosferalarning massa ulushi mos ravishda 0,5 wt% va 1,0 wt% bo‘lsa, mato strukturaviy rang effektini ko‘rsatadi, lekin matoning fon rangining aksariyati hali ham aniq kuzatilishi mumkin.


Mikrosferalarning massa ulushi 3,0 wt% gacha oshirilsa, matoga strukturaviy rang effekti yorqin bo‘ladi va matoning tuzilishi ham aniq ko‘rinadi; mikrosferalarning massa ulushi 5,0 wt% bo‘lganda, sirt to‘liq qoplangan strukturaviy rang matoda ko‘rish mumkin, ammo strukturaviy qatlam qalinroq bo‘ladi va strukturaviy rang oq rangga aylana boshlaydi.



(a) og'irligi 0,5%; (b) og'irligi 1,0%; (c) og'irligi 3,0%; (d) og'irligi 5,0 %
(a) 0,5 wt%; (b) 1,0 wt%; (c) 3,0 wt%; (d) 5,0 wt%.

2-rasm. Turli mikrosfera konsentratsiyasiga ega bo'lgan strukturaviy xromogen rangli olingan fotonik kristall tuzilmalarning uch o'lchovli video mikroskop tasvirlari

Yuqorida olingan fotonik kristall strukturaning mikrosfera joylashuvi tavsiflangan va natijalar 2.8-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, mikrosferalarning konsentratsiyasi mikrosferalarning joylashishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Mikrosferalarning massa ulushi 0,5 wt% bo'lsa, rangli mikrosferalarning konsentratsiyasi past bo'ladi, natijada mikrosferalar orasidagi masofa katta bo'ladi va bo'shliqlar ko'payadi. Mikrosferalarning joylashishi qisman muntazam bo'lib, mato yuzasida strukturaviy rang to'liq qoplanishi mumkin emas, natijada strukturaviy rang effekti yaxshi emas edi. Massa ulushi 1,0 wt% bo'lsa, mikrosferalarning konsentratsiyasi hali ham past bo'ladi va joylashuvi tartibsiz bo'lib, bu struktura rangining ko'rinishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Fotonik kristall mikrosferalarning massa ulushi 3,0 wt% ga yetganda, mikrosferalarning joylashishi zich va tartibli bo'lib, yorqin strukturaviy rang beradi. Mikrosferalarning massa ulushi 5,0 wt% ga yetganda, mikrosferalarning tarqalishi tartibsiz bo'ladi va natijada matoga yomon strukturaviy rang xosil qiladi. Rangli mikrosferalarning konsentratsiyasi juda past bo'lsa, mikrosferalar soni juda kam bo'lsa, yig'ish jarayonida bo'shliqlar hosil bo'ladi, bu oxir-oqibat mikrosferalarning joylashishining zichligiga ta'sir qiladi. Mikrosferalarning massa ulushi asta-sekin ortib borishi bilan mikrosferalarning joylashishi muntazam bo'ladi. Ammo Cu_2O mikrosferalarining konsentratsiyasi juda yuqori bo'lsa, rang tizimida juda ko'p miqdordagi mikrosferalar paydo bo'ladi, shunday qilib rangli mikrosfera tizimining muntazam o'z-o'zini yig'ish tuzilishi shakllanishiga ta'sir qiladi. Yuqoridagi tahlilga asoslanib, Cu_2O mikrosfera tuzilishidagi xromogen rangli mikrosferalarning massa ulushi og'irligi 3,0% ga yetganida, to'qimachilik matosida yaxshi yaxlitlik va strukturaviy rang effektiga ega fotonik kristalli xromogen tuzilmani ko'rsatishi mumkin.



(a) og'irligi 0,5%; (b) og'irligi 1,0; (c) og'irligi 3,0; (d) og'irligi 5,0%
(a) 0,5 wt%; (b) 1,0 wt%; (c) 3,0 wt%; (d) 5,0 wt%.


3-rasm. Cu_2O mikrosferalarining turli konsentratsiyasiga ega strukturaviy xromogen ranglar yordamida olingan fotonik kristall tuzilmalarning FESEM tasvirlari.

Yopishtiruvchi nisbatni optimallashtirish

Umumiy kolloid mikrosfera strukturaviy tuzilishlari o'z-o'zidan yig'ilgandan so'ng yorqin strukturaviy ranglarga ega, ammo mato bilan bog'lanish mustahkamligi yomonligi, bu uning amaliy

qo‘llanilishini cheklaydi. Mexanik mustahkamligini oshirish uchun odatda, tizimga bog‘lovchi qo‘shiladi. Birlashtiruvchi qo‘shilgandan keyin mustahkamlik yaxshilangan bo‘lsada, strukturaviy rang effekti yomonlashadi yoki qizil siljish sodir bo‘ladi.

Turli biriktiruvchi moddalar nisbatlarining Cu_2O mikrosferalaridan tayyorlangan strukturaviy rangli naqshlarni xosil qilishga ta’siri o‘rganildi. Olingan strukturaviy rangli naqshlarning sirt tuzilishi va mikrosferalarning ichki joylashuvi kuzatildi, natijalar 2-9 va 2-10-rasmlarda ko‘rsatilgan. 2-9-rasmdan ko‘rinishicha, biriktiruvchi modda nisbati 5,0 wt% dan 10,0 wt% gacha bo‘lganda, mato sirti fotokristalli strukturaviy ranglar bilan to‘liq qoplanadi, mato tuzilishi aniq ko‘rinadi va yorqin strukturaviy ranglar hosil bo‘ladi. Biriktiruvchi modda nisbati 10,0 wt% dan oshganda, mato sirtida strukturaviy ranglar saqlanadi, lekin ozgina oqarish belgilari paydo bo‘ladi. Nisbat 25,0 wt% ga yetganda, fotokristalli strukturaviy ranglar butunlay oq rangga aylanadi.




(a) og‘irligi 5,0%; (b) og‘irligi% 10,0; (c) og‘irligi% 15,0; (d) og‘irligi% 20,0; (e) og‘irligi 25,0%
(a) 5,0 wt%; (b) 10,0 wt%; (c) 15,0 wt%; (d) 20,0 wt%; (e) 25,0 wt%.

4-rasm. Turli bog‘lovchi moddalar nisbatlaridan olingan fotonik kristall strukturaviy ranglarning uch o‘lchovli video mikroskop tasvirlari.

Yuqorida olingan fotonik kristall strukturaning mikrosfera joylashuvi tavsiflangan va natijalar 2.10-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, bog‘lovchi miqdori 5,0 wt% ~ 10,0 wt% bo‘lsa, mikrosferalar tartibli joylashgan bo‘lib, mikrosferalar bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, ularga aniq strukturaviy rang beradi. Yelim miqdori 15,0 wt% ~ 20,0 wt% bo‘lsa, mikrosferalarning joylashuvi fotonik kristallning strukturaviy rangining namoyon bo‘lishiga ta’sir qiladigan nisbatan tartibsiz bo‘la boshlaydi, yopishtiruvchi miqdori 25,0 wt% ga yetganda, juda ko‘p yopishtiruvchi. mikrosferalarning qo‘shilishi mikrosferalarning muntazam va tartibli joylashish tuzilishini yo‘q qilishga olib keladi va strukturaviy rang effekti yomonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, tizimdagi biriktiruvchi nisbati matoga joylashtirish jarayonida mikrosferalarning joylashishiga ta’sir qiladi. Cu_2O mikrosfera tuzilishi rangli to‘qima chiqarishda, bog‘lovchi miqdori 5,0 wt% ~ 10,0 wt% bo‘lsa yaxshi strukturaviy rang effektiga ega bo‘lgan fotonik kristalli rangli struktura matolarda aks etishi mumkin.



(a) og‘irligi 5,0%; (b) og‘irligi% 10,0; (c) og‘irligi% 15,0; (d) og‘irligi% 20,0; (e) og‘irligi 25,0%
(a) 5,0 wt%; (b) 10,0 wt%; (c) 15,0 wt%; (d) 20,0 wt%; (e) 25,0 wt%.

5-rasm. Turli bog‘lovchi moddalar nisbatlaridan olingan fotonik kristall struktura ranglarining FESEM tasvirlari.

Xulosa. Tadqiqot davomida Cu_2O mikrosferalarining tayyorlanishi, morfologiyasi va ularning strukturaviy rangli naqshlarni matolarga joylashtirishdagi roli chuqur o‘rganildi. Mikrosferalarning massa ulushi va biriktiruvchi moddalar nisbatlarini optimallashtirish orqali mato yuzasida yorqin va barqaror fotokristalli rangli qoplamalar hosil qilish mumkinligi isbotlandi. Mikrosferalarning massa ulushi 3,0 wt% va biriktiruvchi moddalar nisbati 5,0–10,0 wt% bo‘lganda, eng yaxshi natijalar qayd etildi. Bu yondashuv nafaqat to‘qimachilik sanoatida, balki tibbiyot va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishda ham keng qo‘llanilishi mumkin. Kelajakda ushbu texnologiyani yanada takomillashtirish va boshqa materiallar bilan sinab ko‘rish orqali strukturaviy ranglarning qo‘llanilish sohalarini kengaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jalali, E., Erasmus, E., Schutte-Smith, M., & Visser, H. (2024). Fixation of nanoparticles on fabric: Applications in general health management. *Materials Today Communications*, 41, 110577. DOI: 10.1016/j.mtcomm.2024.110577
2. Zhang, X., & Wang, L. (2023). Advances in structural color materials: From fabrication to applications. *Advanced Materials*, 35(12), 2208012. DOI: 10.1002/adma.202208012
3. Liu, Y., & Chen, J. (2022). Cu_2O microspheres: Synthesis, characterization, and applications in photonic crystals. *Journal of Materials Chemistry C*, 10(4), 1234-1245. DOI: 10.1039/D1TC04567A
4. Wang, H., & Li, Z. (2021). Optimization of binder ratios for enhanced structural color printing. *ACS Applied Materials & Interfaces*, 13(8), 9876-9885. DOI: 10.1021/acsami.0c21345
5. Smith, A., & Johnson, B. (2020). Self-assembly of colloidal particles for structural color applications. *Nature Reviews Materials*, 5(3), 123-135. DOI: 10.1038/s41578-019-0157-5

ТЎҚУВ ДАСТГОҲЛАРИДА ТАНДА ИПЛАРИНИ НАМЛАШ ҚУРИЛМАСИНИ ТАДҚИҚИ

¹Донёробек Обидов Холмамат ўғли, ²Музаффар Одилов Абдуқаҳҳор ўғли

¹Наманган тўқимачилик саноати институти, трикотаж технологияси кафедраси,
o.doniyor90@mail.ru, тел: +998990042328

²Наманган тўқимачилик саноати институти, трикотаж технологияси кафедраси,
тел: +998945669598

Аннотация. Тўқув машиналаридаги танда ипларини намлаш қурилмаси Наманган муҳандислик-технологияси институтида лойиҳаланди ва Наманган шаҳрида жойлашган “ART SOFT TEKS” МЧЖ корхонасида дастлабки синов тажрибалар ўтказилди. Тўқув машинасида танда ипларини намлаш қурилмаси, тўқув дастгоҳидаги танда ипларининг намлик кўрсаткичи уларнинг узилишига таъсир этувчи асосий омиллардан бири бўлиб, баъзан тўқув дастгоҳининг узок муддат тўхтаб қолишига олиб келади.

Калит сўзлар: нисбий намлик, танда, иплар, тўқув, тўқув дастгоҳини, намлаш турибқаси, тук танда, замин танда, муҳит намлиги, танда ипларни намлаш қурилмаси, намлик.

ИССЛЕДОВАНИЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ТКАЧЕСТВА ПРЯЖИ НА ТКАЦКИХ СТАНКАХ

Аннотация. В Наманганском инженерно-технологическом институте разработано устройство для увлажнения уточной пряжи в ткацких станках и проведены его первичные испытания на предприятии ООО «АРТ СОФТ ТЕКС», расположенном в городе Наманган. Содержание влаги в утковых нитях в ткацком станке является одним из основных факторов, влияющих на их обрывность, что иногда приводит к длительному простоем ткацкого станка.

Ключевые слова: относительная влажность, ткань, пряжа, ткачество, ткацкий станок, смачивающее устройство, шерстяная ткань, грунтовая ткань, влажность окружающего воздуха, устройство для смачивания пряжи ткани, влажность.

INVESTIGATION OF BODY YARN WETTING DEVICE IN WEAVING MACHINERY

Abstract. The device for wetting yarns in knitting machines was designed at the Namangan Institute of Engineering and Technology, and initial trials were conducted at the "ART SOFT TEKS" LLC located in Namangan. If there is no device for moistening the threads in the knitting machine, the humidity index of the threads in the weaving machine is one of the main factors affecting their breakage, and sometimes it causes the weaving machine to stop for a long time.

Keywords: relative humidity, fabric, yarns, weaving, weaving machine, wetting device, wool fabric, ground fabric, ambient humidity, fabric yarn wetting device, humidity

Кириш. Йигирилган ипларнинг нисбий намлик кўрсаткичи 8% ни ташкил этади. Танда иплари тўқув дастгоҳига келишидан олдин, тандалаш, оҳорлаш каби бир қатор ишлов бериш


жараёнларидан ўтади [76,77]. Ушбу жараёнлардан ўтиш вақтида танда иплари иссиқлик билан ишлов берилади, бу уларнинг намлигини пасайишига олиб келади. Масалан, тандалаш жараёнидан кейин танда ипларининг нисбий намлиги 6% ни ташкил этса, охорлаш жараёнида кейин эса уларининг нисбий намлиги 7%, бўлади.

Тўқувчилик корхоналарида танда ипларини намлигини меъёрлаштириш учун қўшимча машиналар ва агрегатлардан фойдаланиш мумкин, аммо бу унумдорликка ва маҳсулот нархига салбий таъсир кўрсатади [78].

Юқорида қайд этилган маълумотларга асосланиб, таклиф этилаётган қурилма тўқув дастгоҳидаги танда ипларининг намлигини меъёрлаштириб, қўшимча машиналар ва агрегатларга эҳтиёж қолдирмайди ва шу билан бирга тўқув дастгоҳида скалодан ламелгача бўлган оралиғдаги танда ипларига оптимал ҳаво параметрларини яратиш орқали дастгоҳдаги танда ипларини узилишлар сонини камайтиради [77].

Тавсия этилаётган қурилманинг ишлаш принципи.

Тўқув дастгоҳини ишлаш жараёнида танда иплари 2 тўқув ғалтаги 1 дан бўшаб чиқади ва скало 3 ни эгиб ўтиб мослама (5) даги мис трубка 4 устидан ўтади, фреон трубка 4 ни совутади ва совуқ ҳавони танда 2 иплар юзасида нисбий намлик муҳитига нисбатан, юқори нисбий намлик ҳосил қилади. Нам ҳаво мослама 5 даги трубка 4 да ҳаво ва конденсаторни бирикиши натижасида ҳосил бўлади. Намланган танда иплари ламел 6 ва шода ромлари 7 гулалари 8 дан ўтади. Гулалар 8 дан ўтган танда иплари шода ромларини галма гал кўтарилиб ва тушиш натижасида ҳомуза ҳосил бўлади, ушбу ҳомузага арқоқ ипи 9 га ташланади. Батан 11 механизмини илгариланма қайтма ҳаракати натижасида тиг 10 ўнг тамонга ҳаракатланишида арқоқ ипини тўқима чети 12 га жипслаштиради ва чап тамонга ҳаракатланиб қайтади. Ҳосил бўлган тўқимага тўқима регулятори ҳаракат бериб гуридница 13 ва валиян 14 ларни эгиб ўтиб тўқима валиги 15 га ўралади.




1-расм. Таклиф этилаётган намлаш қурилмасини тўқув дастгоҳида жойлаштириш 1-тўқув ғалтаги, 2-танда ипи, 3-скало 4-мис қувурчалар 5-намлаш қурилмаси 6-ламел 7-шода рамкаси 8-матонинг чети 9-грудница 10-тўқимани тортувчи вал 11-тўқима валиги


Ипларни намлаш қурилмаси ҳавони нисбий намлигини 0 % дан 90% гача нисбий намликни ҳосил қилиш имконини беради. Амалда 60 % дан 80% гача бўлган ҳавони нисбий

намлигини қўлланилган. Бу танда ипларининг нисбий намлигини нормаллаштириш имконини беради.

Ипларни намлаш қурилмасини ишлаш принципи куйдагича. Қурилма 5 да совутилган газ (фрион) скало 3 ва ламел 6 орасида ўрнатилган мис қувурлар 4 орқали ўтади бунинг ҳарорати атрофдаги ҳавонинг шудринг нуқтаси бўлиб у ерда ҳаракатланаётган танда иплари 2 ни намлайди намлик иплар ҳудудида ҳаво совутиш ҳарорати қурилма 5 да ўрнатилган




2-расм. Тўқув дастгоҳида ҳаракатланаётган танда ипларини намланиш жараёнини юқоридан кўриниши



3-расм Ҳаракатланаётган танда ипларини намлаш қурилмаси.

1-Танда ипларини намлантириш камерси ; 2-Намлаш турибкеси ; 3-Ҳаво бериш турубкеси ; V_1 - Замин танда ипини тезлиги; V_2 - Тук танда ипини тезлиги; T_1 -Замин танда ипини чизиқли зичлиги; T_2 -Тук танди ипини чизиқли зичлиги; L_1 -Замин танда ипи ва ускуна оралиғи; L_2 -Тук танда ипи ва ускуна оралиғи; V_3 - ҳаво хайдагич тезлиги

Тўқув дастгоҳидаги танда ипларини намлаш қурилмасида хавони нимлигини оширилади, қурилмани устидан ўтаётган танда T_1 T_2 иплари 1 намлаш қурилмасини ишчи эни 15 см ни ташкил этиб 2 намлаш турибкеси 3 хаво бериш турубкеси $T_1=29/2$ текс замин танда иплари $T_2=25/2$ текс тук танда ипларига намланган хавони. Танда ипларини тезлиги V_1 -Замин танда ҳаракатланади 15 см/мин да V_2 - Тук танда ҳаракатланади 48,75 см/мин да L_1 -Замин танда ипи ва оралиғидаги масофа 4 см ни ташкил этади L_2 -Тук танда ипи ва намлаш турубкеси оралиғидаги масофа 7 см ни ташкил этади V_3 - хаво ҳайдагич тезлиги 0.5 м/с да ҳаракатлантиради t^0 - Хаво температураси 26 ва 80% намликда бўлади



4-расм. Намлик даражасини ҳар хил масофада ўзгариш диаграммаси.

Диаграммада белгиланган намлик1 бу нам хавони турубкадан юқорига ҳаракатланишини, намлик2 эса хавони турибкадан пастга ҳаракатланишини билдиради. Диграммани тахлили асосида юқорига ҳаракатланувчи нам хавонинг намлик даражаси 40 мм (85%) гача ошиб боради сўнгра пасайишни бошлайди. Пастга ҳаракатланувчи нам хавонинг намлик даражаси 60 мм(93 %) гача ошиб борди сўнгра пасайишни бошлады. Демак намлаш даражаси ошиб боради агар масофа 40 мм гача ошса ва масофа 40 мм дан ошса юқорига ҳаракатланувчи намлаш даражаси пасаяди, пастга ҳаракатланаётган намлик даражаси ошади.

Тадқиқот ишлари Наманган шаҳридаги “ART SOFT TEKS” МЧЖ корхонасини “Чаманзор” филиалида ўтказилди. Яратилган танда ипларини намлаш қурилмаси корхонадаги мавжуд SULZER RUTI G 6100 ва LUJEN 910 тўқув дастгоҳларига ўрнатилди. Мазкур тўқув дастгоҳларда замин танда ипи $T=29/2$ текс, тук танда ипи $T=25/2$ тексли иплардан фойдаланиб сочиқбоп тукли тўқима олинади. Ушбу жараёнда танда ипларни намлигини меъёрлаштириш орқали дастгоҳнинг иш унумдорлигини оширилди ва натижалар олинди, олинган натижаларни кўйидаги расмларда кўришимиз мумкин.




5-расм. Тўқув танда ипларини намлигини ўзгариш диаграммаси.

5-расмдан кўриниб турибдики тўқув дастгоҳида танда ипларини намлаш камерасидан чиқаётган намлик 85% ни ташкил этади, замин тандани юқори қисмидаги муҳит намлиги 75% ни ташкил этади, тук тандани юқори қисмидаги муҳит намлиги 65% ни ташкил этади. Замин танда ипида қолаётган намлик 12 % тук танда ипида қолаётган намлик эса 10 % бўлиб ипларни тўқув дастгоҳидаги кўп мартали деформацияларга чидамлилигига ва узилиш кучини ошишига таъсир кўрсатди

1-жадвал

Тўқув дастгоҳидаги ипларини узилишлар сони


№	Ип турлари	Ипларни намлаш қурилмаси ишламаганда	Ипларни намлаш қурилмаси ишлаганда	Ипларни намлаш қурилмасига ҳаво босими берилганда	Узилишни камайтиши %
SULZER RUTI G 6100 Тўқув дастгоҳи					
1	Замин танда ипи	83	47	25	82
2	Тук танда ипи	12	7	4	11
3	Арқоқ ипи	8	8	9	
LUJEN 910 тўқув дастгоҳи					
1	Замин танда ипи	57	29	15	56
2	Тук танда ипи	23	16	7	22
3	Арқоқ ипи	11	12	10	



6.-расм. SULZER RUTI G 6100 машинасида Сочикбоб тўқимани тўқишда ипларнинг узилиш кўрсаткичлари диаграммаси.

6-расмдан SULZER RUTI G 6100 тўқув дастгоҳидаги танда ипларини намлаш орқали танда ипларни узилишини камайганини кўришимиз мумкин яъни танда ипларни намлаш қурилмаси ишламаган ҳолда 2 соат ичида 83 та замин танда ип 12 та тук танда ипи узилади танда ипларини намлаш қурилмасини ишлатганимизда 47 та замин танда ипи ва 7 та тук танда ипи узилади. Агар танда ипларини намлаш қурилмасига 0.5 м/с ҳаво босими юборилганда 25 та замин танда ипи ва 4 та тук танда ипини узилишини диаграммадан кўришимиз мумкин, яъни намлик 10-12% бўлса танда ипларини узилишлар сони камаяди.

Тўқув дастгоҳидаги танда ипларига намликни маълум бир босим остида берсак ип узилишлар сонини камайганини кўриш мумкин.



7-расм. LUJEN 910 тўқув дастгоҳида Сочикбоб тўқимани тўқишда ипларнинг узилиш кўрсаткичлари диаграммаси.

7-расмдан LUJEN 910 тўқув дастгоҳида ҳам танда ипларини намлаш орқали танда ипларни узилишини камайганини кўришимиз мумкин яъни танда ипларни намлаш қурилмаси ишламаган ҳолда 2 соат ичида 57 та замин танда ип 23 та тук танда ипи узилади танда ипларини намлаш қурилмасини ишлатганимизда 29 та замин танда ип 16 та тук танда ипи узилади агар танда ипларини намлаш қурилмасига 0.5 м/с ҳаво босими юборилганда 15 та замин танда ипи ва 7 та тук танда ипини узилишини диаграммада кўриш мумкин, яъни намлик 10-12% бўлса танда ипларини узилишлар сони камаяди.

Хулоса. Яратилган тўқув дастгоҳидаги танда ипларини намлаш қурилмаси натижасида танда ипларини намликлари мейёрлаштирилди, танда иплари 80-85% ҳаво намлик муҳитида бўлади, шунда танда ипларини намлиги 10,11,12 % га эга бўлади. Шу муҳитда тўқув дастгоҳидаги танда ипларини узилишлар сони 50% га камаяди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Обидов, Д., Акрамов, А. М., & Алиева, Д. Г. (2021). влияние влажности на механические свойства хлопчатобумажной пряжи. in *наука и просвещение: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 35-38).
2. Эркинов, З. Э. Ў., & Обидов, Д. Х. Ў. (2018). Выработка крученой пряжи из однопниточной пряжи разного способа и системы прядения. *Символ науки*, (7), - с.47-50.
3. Каримов, Р. К., Алиева, Д. Г., Обидов, Д. Х., & Мамадалиева, Д. А. (2018). Динамика изменения относительной влажности хлопчатобумажной пряжи и готовых изделий по технологическим переходам. *Universum: технические науки*, (9 (54)), -с.17-20.
4. Obidov, D. X., Aliyeva, D. G., Sotvoldiyev, K. B., & Karimova, S. R. Tissue Indicators Affecting Tissue Properties. *JournalNX*, 7(10), 169-173.
5. Donyorbek Obidova, Fayzirakhmon Kozakov Theoretical Basis of the Warp Yarn Wetting Device on the Created Loom Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them PTLICISIWS-2. 030040-1- 030040-6

ISSIQLIK SAQLASH XUSUSIYATIGA EGA BO‘LGAN IKKILAMCHI XOM ASHYOLARDAN NOTO‘QIMA MATOLARNI TADQIQI

¹*Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich*, ²*Akramjanov Dilmurod Muxtorjon o‘g‘li*,

^{1,2}Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, Sanoat muhandisligi kafedrası katta o‘qituvchisi,
akramjanovd@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkilamchi xomashyolardan issiqlik saqlash maqsadlari uchun noto‘qima matolar ishlab chiqarishni tadqiq etish yo‘llari va usullari ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: funksiya, xomashyo, noto‘qima mato, issiqlik, o‘tkazuvchanlik, termik xususiyat, fizik xususiyat, texnologiya, sifat.

RESEARCH OF NONWOVEN FABRIC FROM RECYCLED MATERIALS WITH HEAT- RETAINING PROPERTIES

Abstract. This article is a scientific study of ways and methods for researching the production of non-woven fabrics for the purposes of heat storage from secondary raw materials.

Keywords: function, raw material, non-woven fabric, heat, conductivity, thermal property, physical property, technology, quality.

ИССЛЕДОВАНИЕ НЕТКАНЫХ МАТЕРИАЛОВ ИЗ ВТОРИЧНОГО СЫРЬЯ С ТЕПЛОУДЕРЖИВАЮЩИМИ СВОЙСТВАМИ

Аннотация. В статье научно исследованы способы и методы производства нетканых материалов тепло сберегающего назначения из вторичного сырья.

Ключевые слова: назначение, сырье, нетканый материал, тепло, проводимость, тепловые свойства, физические свойства, технология, качество.

Kirish. O‘zbekiston hukumatining "2030 yilgacha bo‘lgan davrda ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarini qayta ishlash, yo‘q qilish va zararsizlantirish uchun sanoatni rivojlantirish strategiyasi" buyrug‘iga muvofiq, chiqindilarni yo‘q qilish miqdorini minimallashtirishga imkon beradigan innovatsion, texnik va iqtisodiy tizimni yaratish masalalari keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Resurslarni tejash, chiqindilarning tarkibiy qismlarini iqtisodiy aylanmaga qayta jalb qilish xom ashyo, materiallar, mahsulotlar sifatida chiqindilardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ikkilamchi xom ashyoga aylantirish. To‘qimachilik sanoatida turli xil matolarni ishlab chiqarish uchun jun, paxta, zig‘ir va kimyoviy tolalardan qayta foydalanish imkoniyati masalasi juda dolzarbdir. Noto‘qima materiallar ishlab chiqarish to‘qimachilik sanoatining boshqa tarmoqlari orasida alohida o‘rin tutadi, chunki ushbu materiallarning o‘ziga xos xususiyatlari ularni nafaqat mato, trikotaj o‘rnini bosuvchi sifatida keng ishlatishga, balki tubdan yangi xususiyatlarga ega noto‘qima mato yaratishga imkon beradi. Ikkilamchi tolali xom ashyoni qayta ishlash va uni noto‘qima materiallar ishlab chiqarishda qo‘llash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va olingan materiallar narxini pasaytiradi. Shu munosabat bilan to‘qimachilik ishlab chiqarish chiqindilaridan

noto'qima materiallar ishlab chiqarish uchun qayta tiklangan xom ashyo sifatida foydalanish masalasini hal qilish dolzarb va zarur vazifadir. Tadqiqot ob'ekti-qayta tiklangan ikkilamchi xom ashyodan izolyatsiyalovchi noto'qima bo'lgan materiallardir.

Material va metodlar. Ishning maqsadi qayta tiklangan xom ashyodan izolyatsiyalovchi noto'qima materiallarning xususiyatlarini ishlab chiqish va o'rganish, shuningdek ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash metodologiyasini ishlab chiqishdir.

Belgilangan maqsadga muvofiq ishda quyidagi vazifalar hal qilindi:

- 1) qayta tiklangan xom ashyodan izolyatsiyalovchi noto'qima materiallar ishlab chiqiladi;
- 2) qayta tiklangan tabiiy va kimyoviy tolalardan olingan noto'qima matolarning sifatini baholash metodologiyasi ishlab chiqiladi;
- 3) Texnik maqsadlar uchun izolyatsiyalovchi noto'qima matolar sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarni oqilona tanlash amalga oshirildi;
- 4) -10°C dan $+5^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan har xil harorat sharoitlarini simulyatsiya qilishda ishlab chiqilgan noto'qima matolarning termofizik ko'rsatkichlari o'rganiladi;
- 5) ish sharoitlari talablariga muvofiq tolali tarkibni hisobga olgan holda olingan issiqlik izolyatsion materiallardan maqbul foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muammolarni hal qilishni o'rganish usullari va texnik vositalari. Nazariy asos sifatida tadqiqotlarni o'tkazishda to'qimachilik materiallari sifatini baholashning zamonaviy usullari, shuningdek amaliy matematika va matematik statistikaning raqamli usullari qo'llanilgan. Ishlab chiqilgan noto'qima materiallarning sifatini baholash uchun kompleks usul qo'llanilgan. Qayta tiklangan xom ashyodan noto'qima izolyatsiya materiallarining ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqilgan to'qilmagan matolarning fizikaviy xususiyatlarini baholash atrof-muhitni modellashtirish sharoitida omillar majmuasining ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar matematik statistika usullari bilan qayta ishlanadi.

Funksional bog'liqliklarni qurish Microsoft Excel, Mattoad Professional yordamida kompyuterda korrelyatsiya-regressiya tahlili usullari bilan amalga oshirildi.

Qayta tiklangan tabiiy va kimyoviy ikkilamchi tolalardan noto'qima materiallarni shakllantirish bo'yicha texnik va texnologik yechimlar ularning sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va baholashning zamonaviy usullari asosida ishlab chiqilgan, shu jumladan:

- * bino inshootlar uchun izolyatsion materiallar ishlab chiqarish uchun qayta tiklangan ikkilamchi tolalardan foydalangan holda innovatsion noto'qima matolar ishlab chiqarildi;
- * ularning fizik-mexanik va issiqlik izolyatsiyasi xususiyatlari darajasini baholashga imkon beradigan noto'qima materiallarning turli xil modellari ishlab chiqildi;
- * turli xil tabiiy va kimyoviy ikkilamchi tolalardan noto'qima matolarning optimal tolali tarkibi va sirt zichligini tanlashga imkon beradigan regressiya tenglamalari olinadi;
- * noto'qima materiallar sifatini har tomonlama baholashni hisoblash metodologiyasi taklif etiladi;

Ishning nazariy ahamiyati qayta tiklangan tabiiy va kimyoviy ikkilamchi tolalardan noto'qima matolarni izolyatsiya sifatida baholash va oqilona qo'llash metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqot ob'ekti izolyatsiya sifatidagi igna sanchish usuli bilan birlashtirilgan va ikkilamchi xom ashyolarning turli kombinatsiyalaridan iborat noto'qima matolar.

Ushbu noto'qima matolar bino inshootlar uchun izolyatsion maqsadda qayta tiklangan ikkilamchi tolalardan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

1- namuna noto‘qima mato ignalash texnologiyasi yordamida ishlab chiqilgan.

a) 4D * 51 mm oq rangli poliefir ikki komponentli tolalar -40%;

b) Regeneratsiya qilingan tolalar (jun, akril tolalar, paxta) 60%;

2- namuna noto‘qima mato ignalash texnologiyasi yordamida ishlab chiqilgan.

a) 4D * 51 mm oq rangli poliefir ikki komponentli tolalar -20%;

b) Regeneratsiya qilingan tolalar (jun, akril tolalar, paxta) 80%;

3- namuna noto‘qima mato ignalash texnologiyasi yordamida ishlab chiqilgan.

a) 4D * 51 mm oq rangli poliefir ikki komponentli tolalar -10%;

b) Regeneratsiya qilingan tolalar (jun, akril tolalar, paxta) -90%;



2)



1)



3)

1-rasm. Ikkilamchi xom-ashyoni qayta ishlash natijasida olingan noto‘qima matolarning mikroskopik ko‘rinishi.

Mexanik xossalari ko‘rib chiqilayotgan noto‘qima matolarning tashqi kuchlar ta’siriga bo‘lgan munosabatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar quydagi jadvalda keltirib o‘tilgan.

Ikkilamchi hom-ashyoni qayta ishlash natijasida olingan noto‘qima matolarning uzilish yuklamasi.

1-jadval.

№	Наименование образца	По длине			По ширине		
		X _{ср} , H	S, H	C _v , %	X _{ср} , H	S, H	C _v , %
1	Образец 1	78,97	5,51	6,98	86,01	15,68	18,23
2	Образец 2	66,43	8,51	11,67	135,37	13,51	9,98
3	Образец 3	92,61	3,08	3,32	52,76	4,51	8,55

Ikkilamchi hom-ashyoni qayta ishlash natijasida olingan noto‘qima matolar namunalarning fizik xossalari qiymatlari

2-jadval.

№	Наименование образца	Воздухопроницаемость, B , $\text{дм}^3/\text{м}^2 \cdot \text{с}$		Паропроницаемость, B_h , $\text{мг}/\text{м}^2 \cdot \text{с}$		Гигроскопичность, W_s , %	Водопоглощение, B_e , %
		Со стороны нетканого материала	Со стороны пленки	Со стороны нетканого материала	Со стороны пленки		
1	Образец 1	253,0	-	23,67	-	5,06	67,5
2	Образец 2	196,4	-	28,67	-	8,56	77,4
3	Образец 3	167,0	-	13,67	-	7,86	97,5

Xulosa. Ushbu maqolada to‘qimachilik ikkilamchi xomashyolaridan noto‘qima mato olish texnologiyasi o‘rganildi. Korxonalardan chiqadigan ikkilamchi xomashyolarning turlari keltirildi. Xorijiy davlatlarida olimlarning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan. Ikkilamchi xomashyolarni qayta ishlatish orqali eng yaxshi foydalanishga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi ipakchilik va to‘qimachilik chiqindi sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-4817-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/doss/-4979915>
2. Фирсова Ю.Ю. Метод художественного проектирования формоустойчивой одежды из валяльно-войлочных материалов. - М.: МГУДТ, 2015
3. Improving Needle Strength In Nonwoven Needle Punching Machines american journal of education and learningissn: 2996-5128 (online) |researchbib (if) = 9.918 impact factorvolume-2| issue-5| 2024 published: |30-12-2024
4. Акрамжанов Д. Анализ путей влияния на жесткостные параметры пакетных рабочих органов различных факторов. // Научный журналUniversum: Выпуск: 1(70)- Январь 2020. –С. 17. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/170>
5. Акрамжанов Д. Исследование вопросов аналитического определения параметров жесткости пакетных конструкций. // Научный журнал Universum: Выпуск: 4(61)Апрель 2019. –С. 16. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/158>

СИФАТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРИДА ЖОРИЙ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Muhammadali Qahramonov Abdullajon o‘g‘li

Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, Namangan, Uzbekistan, tel: (0894) 027-9818, E-mail: muhammadaliqaxramonov887@gmail.com.

Annotatsiya. Sifat boshqaruv tizimini (SBT) korxona va tashkilotlarda joriy etish va rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot va xizmatlarning sifatini ta'minlash hamda mijozlar talablariga javob berishda muhim rol o'ynaydi. SBT, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish, resurslardan maksimal darajada foydalanish va doimiy ravishda sifatni yaxshilashga yordam beradi. Bu tizim xalqaro standartlarga (masalan, ISO 9001) asoslanib, korxonalarga o'z faoliyatlarini tizimli va samarali tarzda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Sifat boshqaruv tizimi joriy etilishi, tashkilotlarning ichki jarayonlarini optimallashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va mijozlarga yuqori sifatli mahsulotlarni taqdim etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, SBT ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va yangi bozorlarni egallash uchun asos yaratadi. Bularning barchasi korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, sifat boshqaruv tizimi tashkilotlarning sifatni boshqarishdagi samaradorligini oshiradi, ularni yuqori darajada raqobatbardosh qiladi va sanoatning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Kalit so‘zlar: SBT, ISO 9000 seriyali standartlar, mahsulot sifati, eksport salohiyati, resurslardan samarali foydalanish, xalqaro yondashuv, rejalashtirish.

THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING AND DEVELOPING A QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS.

Annotation. The implementation and development of a Quality Management System (QMS) in enterprises and organizations play a crucial role in enhancing their competitiveness, ensuring the quality of products and services, and meeting customer requirements. QMS helps manage production processes efficiently, maximize resource utilization, and continuously improve quality. Based on international standards (e.g., ISO 9001), this system enables enterprises to structure and optimize their activities effectively. Implementing a quality management system allows organizations to streamline internal processes, improve employee qualifications, adopt innovative technologies, and deliver high-quality products to customers. Furthermore, QMS contributes to reducing production costs, creating competitive products, and expanding into new markets. All these factors ensure the long-term success and sustainable development of enterprises. Thus, the quality management system enhances the effectiveness of quality control, strengthens competitiveness, and significantly contributes to industrial development.

Keywords. QMS, ISO 9000 series standards, product quality, export potential, efficient resource utilization, international approach, planning.

ВАЖНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И В ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. Внедрение и развитие системы менеджмента качества (СМК) на предприятиях и в организациях играет важную роль в повышении их конкурентоспособности, обеспечении качества продукции и услуг, а также в удовлетворении требований клиентов. СМК помогает эффективно управлять производственными процессами, максимально использовать ресурсы и постоянно совершенствовать качество. Основанная на международных стандартах (например, ISO 9001), эта система позволяет предприятиям структурировать и оптимизировать свою деятельность. Внедрение системы менеджмента качества позволяет организациям оптимизировать внутренние процессы, повышать квалификацию персонала, внедрять инновационные технологии и предоставлять клиентам продукцию высокого качества. Кроме того, СМК способствует снижению производственных затрат, созданию конкурентоспособной продукции и выходу на новые рынки. Все эти факторы обеспечивают долгосрочный успех и устойчивое развитие предприятий. Таким образом, система менеджмента качества повышает эффективность управления качеством, укрепляет конкурентоспособность и вносит значительный вклад в развитие промышленности.

Ключевые слова: СМК, стандарты серии ISO 9000, качество продукции, экспортный потенциал, эффективное использование ресурсов, международный подход, планирование.

Kirish: Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish korxona va tashkilotlar uchun eng muhim maqsadlarga aylangan. Ayniqsa, global bozorga chiqish, yangi bozorlarni egallash va mahalliy ishlab chiqarishning eksport salohiyatini oshirishda sifat boshqaruv tizimi (SBT) joriy etishning ahamiyati katta. O‘zbekiston Respublikasida ham istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, sifat, mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minlashga qaratilgan jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda[1].

Shu bilan birga, xalqaro standartlarga asoslangan sifat boshqaruv tizimlarini joriy etish va ularni takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilayotgan chora-tadbirlar mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishga, shuningdek, raqobatbardoshlikni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Sifat boshqaruv tizimi, mahsulotlarning sifatini ta’minlash va yaxshilash, jarayonlarni samarali boshqarish va resurslarni optimal sarflashga imkon beradi[2]. Shu bilan birga, SBTning to‘g‘ri joriy etilishi tashkilotning umumiy faoliyatini tartibga solishga, ishlab chiqarish jarayonlarining sifatini doimiy ravishda nazorat qilishga va natijada xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu tizimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun yuqori rahbariyatning faolligi va xodimlarning faol ishtiroki zarur [3-4]. Sifat boshqaruv tizimini korxona va tashkilotlarda joriy etish, ayniqsa, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va iste’molchilarning talablarini qondirish uchun zarurdir. Bularning barchasi, o‘z navbatida, tashkilotning iqtisodiy samaradorligini oshirishga va mahsulotlarning yuqori sifatini ta’minlashga yordam beradi[5].

Shuningdek, xalqaro ISO 9000 seriyali standartlari kabi global sifat boshqaruvi yondashuvlari tashkilotlarda sifatni boshqarishning samarali mexanizmini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlarda xalqaro standartlarni keng joriy qilish, mahsulotlar sifatini xalqaro standartlar talablari asosida ishlab chiqarish respublikamiz eksport salohiyatini oshirishning muhim va strategik omillaridan biridir[6]. Tashkilotlarda sifat tushunchasi, sifatga ta’sir etuvchi asosiy omillar, mahsulot sifatini ta’minlash va boshqarish, sifat boshqaruv tizimining umumiy jihatlari va talablari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha anchagina ilmiy-uslubiy va tashkiliy ishlar amalga oshirilgan[7]. Sifat boshqaruv tizimi tushunchasi rahbariyat umumiy funksiyalarining

shunday aspektlarini qamrab oladiki, ular sifat sohasidagi siyosatni, maqsad va rejalashtirishni, sifatni ta'minlash va uni yaxshilashni belgilab beradi[8].

Sifat tizimini tatbiq etish SBT funksiyasini samarali amalga oshirish imkonini beradi, bu esa korxona faoliyatining barcha jabhalariga kirib boradi. SBT alohida o'rin ahamiyat kasb etadi, chunki e'tiborni iste'molchilar talablarini ta'minlash va ularning istaklarini ortig'i bilan bajarishga yo'naltirgan holda maqsadga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Sifatni tizimli boshqarishni o'rganish muammolarining amaliy ahamiyati shundaki, sifat tizimini sertifikatlashtirish va joriy qilish resurslar va jarayonlar, protseduralar, tashkiliy tuzilmaning yig'indisidir. Bu esa sifat ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi[9]. Har qanday korxonaning mo'tadil bo'lmagan tashqi muhit sharoitida o'z-o'zini rivojlantirish vositasi, tashqi va ichki bozorda raqobatbardoshlik garovi hisoblanadi. Shu jumladan, sifat tizimi ishiga yuqori rahbariyatdan tortib oddiy xodimgacha barchasi jalb etilishi shart[10].

Abstract. The purpose of the research is to analyze the work of designers from different countries, scientific research on transformative products, clothing, and design and production of new transformative items. For this purpose, scientific sources were analyzed and a questionnaire was conducted among women living in Namangan and Fergana regions. Based on the analysis of the sources and the questionnaire, conclusions were drawn and dynamic, comfortable, and bright models of a new assortment of transformative, shape-changing items were developed.

Keywords: transformational, changing, assortment, invention, utility model, convenient, functional, harmonious, modern, needs.

Kirish. Transformatsion kiyimlar- bu dizayni va funksiyasiga qarab o‘zgarishi mumkin bo‘lgan kiyimlarni anglatadi. Bunday kiyimlar foydalanuvchi ehtiyojlariga qarab o‘zgarishi yoki ko‘proq funktsionallikka ega bo‘lishi uchun maxsus ishlab chiqilgan. Ular, odatda, bir nechta shakl yoki uslubda kiyilishi mumkin, ya’ni bir xil kiyim turli uslublarda yoki maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Transformatsion kiyimlar nafaqat estetik jihatdan jozibali, balki amaliy tomondan ham foydalidir, chunki ular bir vaqtning o‘zida bir nechta funktsiyalarni bajarishi mumkin. Bu kiyimlar, ayniqsa, sayohat qilayotgan yoki ochiq havoda ko‘p vaqt o‘tkazadigan insonlar uchun qulaylik yaratadi.

Tadqiqot usuli. Transformatsion o‘zgaruvchan kiyimlar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [1-4]. Shuningdek, suv o‘tkazmaydigan materialdan tayyorlangan, velosipedda foydalanishda qulaylik yaratish uchun, o‘z shaklini o‘zgartirib turuvchi turli xil ko‘rinishdagi kurtka ham yaratilgan [5]. Ulardan biri o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan kapyushonli kurtka. Uning elementlari yig‘ilsa, sumkaga aylanadi va yomg‘ir yoqqan vaqtda velosipedda kurtka sifatida foydalanish mumkin [6]. Kurtka-ryukzak orqa va oldi qism, cho‘ntaklar va yenglar, qalpoq, ichki astar, cho‘ntak qopqoq, cho‘ntak astarlar va mahkamlagichlar bilan bog‘langan tasmlardan iborat. Ixtiro qilingan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan kapyushonli sumka. Kurtkali ryukzakning transformatsiya usulini qo‘llash orqali kiyimning funktsionalligi kengayadi. Ushbu foydali modelning texnik maqsadi transformatsiya paytida foydalanish qulayligini oshirishdir. Kurtkali ryukzakni ishlab chiqarish oson, o‘zgaruvchan ob-havoga chidamli, yengil va qishloq safarlarida foydalanish uchun qulay.

Tadqiqotchilar O.V. Chuprova, O.V. Gordeeva, V.A. Neverovalar ko‘p funktsiyali palto yaratishgan. Bu palto qo‘sh yoqali bo‘lib, beldan ajraladi: beldan tepa qismi kostyum, past qismi esa yubka ko‘rinishini oladi, cho‘ntak qismidan hamyon hosil bo‘ladi [7]. L.L Chagina, N.A. Smirnova, A.A. Komarovalar “Transformatsion shim” modelini yaratishgan [8]. Shimning barcha choklari qulf orqali birlashtirilgan, bu qulflar bo‘shatilganda 20 ta detallarga ajraladi, bu detallar birlashtirilsa, 3 ta figura hosil bo‘ladi: shortik, sumka, yubka. Bu modelning kamchiligi- transformatsiya vaqtida detallari ko‘pligi sababli, ularning shaklini o‘zgartirishda adashishlar va vaqt sarfi ko‘p bo‘ladi. Shuningdek, shaklini o‘zgartiruvchi turli xil sayohat sumkalari yaratilgan.

Rossiya tadqiqotchilari ob-havo sharoiti o‘zgarganda kurtkani xalta sumkaga aylantirishni taklif etgan [9]. Kurtkaga cho‘ntak va astar tikilgan, ustki va pastki oralig‘ida kamarlar joylashgan. Kurtkani ryukzakga aylantirishda, ryukzakning cho‘ntak ichki qismi tashqariga ag‘dariladi va ryukzakning ichki qismi, ya’ni xaltasi hosil bo‘ladi. Ryukzakning cho‘ntagini yoyish uchun qisqichlardan foydalanilgan, ular cho‘ntakga joylashtirilgan. Kurtkaning cho‘ntak va cho‘ntak qapqoqlarining orqa tomoni, yenglari va qalpoqli qismi o‘zgartirilganda cho‘ntak tashqi tomonga burilib, cho‘ntak ichki qismi hosil qilinadi. Modelning kamchiliklari - kiyim holatidan ryukzak holatiga aylantirish operatsiyalari ketma-ketligini ko‘pligi, faqat o‘ziga yig‘iladigan tashqi kiyim sifatida foydalanilishi, sumka ichki qismiga hech narsa solib bo‘lmasligi, kurtkani xalta sifatida yig‘ilishi uning estetik xususiyatiga salbiy ta’siri. Susumu Taniguch chaqaloq uchun yelkali assortiment ishlab chiqqan. Ushbu ixtiro chaqaloq yoki chaqaloqni tagliklar, matolar va shunga o‘xshash narsalar bilan birga olib yurish uchun ishlatiladi va bolani yotqizib qo‘ysa ham bo‘ladi. Jeff Zhou, Jason Zhoular ayollar uchun uch xil ko‘rinishga kiradigan sumka yaratishgan [10]. Bu sumka detallarini o‘zgartirib, kiyimga moslab, kombinatsiyalashtirib, foydalanishga qulaylik yaratiladi. A.Kuznetsov turli xil narsalarni olib yurish vositalariga tegishli foydali model ishlab chiqqan [11]. To‘liq yig‘ilganda, bu sumka kichik hajmga ega va kichik narsalarni tashish uchun kichik sumka sifatida ishlatilishi mumkin. Yon tomonlari 2 qism bo‘lib (faqat vertikal yo‘nalishda) buklanganda, sumka balandligi o‘lchamlari o‘zgaradi. Yon va pastki tomonlari gorizonttal ravishda ochilganda, sumka uzunligi va kengligi bo‘yicha o‘lchamlarini o‘zgartiradi. Pastki va yon tomonlar to‘liq ochilganda, sumka o‘z o‘lchamlarini uzunligi, kengligi va balandligi bo‘yicha o‘zgartiradi, sumkaning hajmi esa o‘n besh martagacha oshadi. Bu o‘zgaruvchan sumkaning bir nechta

transformatsiya variantlari mavjud bo‘lib, barcha variantlarda foydalanuvchi uchun eng qulay, sodda va ishlatish uchun qulay bo‘lgan parallelepiped shaklini saqlab qoladi va kengaytirilgan funktsionallikka ega. Bu parallel shaklda ochiladigan sumkalarning asosiy muammosi, foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi va tashqi o‘lchamlari teng bo‘lgani sababli, ishlatilmagan hajmning mavjudligi, har xil o‘lchamdagi tashish ob‘ektlari bilan sumka hajmidan foydalanishning past samaradorligidir.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar [12-14] va adabiyotlar tahlili asosida bolalar uchun transformatsion tikuv buyumlariga ehtiyoj borligi aniqlandi va eskiz namunasi ishlab chiqildi. Transformatsion tikuv buyumlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Namangan va Farg‘ona viloyatida istiqomat qiladigan ayollardan anketa so‘rovnoma o‘tkazildi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasiga quyidagi ko‘rsatkichlar olindi.


So‘rovnoma quyidagi savollarga javoblar berish so‘raldi:

1. Transformatsion kiyimlar kundalik hayotda qanday qulayliklar yaratadi?
2. Siz transformatsion tikuv buyumida qanday qulayliklar bo‘lishini xohlaysiz?
3. Transformatsion tikuv buyumi yaratishda foydalaniladigan materiallar qanday bo‘lishi kerak?
4. Transformatsion tikuv buyum kerakmi?
5. Yangi kiyimni sotib olishda sizni eng ko‘p nimasi jalb qiladi?
6. Transformatsion kiyimning dizayni qanday bo‘lishini xohlaysiz?
7. Transformatsion buyumni qanday holatlarda ishlatishini avfzal ko‘rasiz?
8. Yangi dizaynda qanday innovatsion elementlarni ko‘rishni xohlaysiz?
9. Kiyimda qanday yangi funktsiyalarni kiritishni xohlaysiz?
10. Tez-tez dam olgani borish, farzandingiz va siz uchun qanchalik foydali deb o‘ylaysiz?
11. Uzoqroq joyga dam olgani borganingizda, farzandingizni uyqusi kelsa nima qilasiz?
12. Transformatsion assortimentni farzandingiz uchun qanday qulayliklari bo‘lishini xohlaysiz?

Natijalar. 500 nafardan ortiq respondentlarni anketa so‘rovnomasiga bergan javoblari bo‘yicha natijalari diagrammalarda keltirilgan: (1-4- rasmlar).

Transformatsion kiyimlar kundalik hayotda qanday qulayliklar yaratadi? (1-rasm)

1. Vaziyatdan chiqishga yordam beradi.
2. Bir vaqning o‘zida 2 va undan ortiq vazifalar bajariladi.
3. Pul tejaladi.
4. Barchasi.




1-rasm. So‘rovnoma diagrammasi.

Transformatsion buyumni qanday holatlarda ishlatishini afzal ko‘rasiz? (2-rasm)

1. Ish
2. Maxsus voqealar


3. Sport
4. Dam olish



2-rasm. So'rovnoma diagrammasi.

Tez-tez dam olgani borish, farzandingiz va siz uchun qanchalik foydali deb o'ylaysiz? (3-rasm).


1. Bolani iloji boricha har kuni sayrga olib chiqish lozim, farzandimizni immuniteti oshadi.
2. Sayr bolani chiniqtirish bilan birga atrof-olamga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi.
3. Ona va bolaning kayifyatini ko'taradi.
4. Barchasi.



3-rasm. So'rovnoma diagrammasi.

6. Transformatsion tikuv buymini qanday funksiyalari bo'lishini xohlaysiz? (4-rasm).

1. Cho'ntaklari ko'p bo'lishini.
2. Farzandim uchun qulayliklari bo'lishini.
3. Farzandim bilan ko'tarishga qulay bo'lsin.
4. Barchasi.



4-rasm. So‘rovnoma diagrammasi.

Bu savollar yordamida foydalanuvchilarning ehtiyojlari, xohishlari va bozorga qanday dizaynlar kiritishni istashlari aniqlab olindi. 2023-2024 yillarda bozorlarda marketing tadqiqotlarini olib borish mobaynida bolalar uchun sayohatga chiqqanda foydalanadigan transformatsion tikuv buyumiga ehtiyoj borligini kuzatildi.


Muhokama. Olib borilgan marketing tadqiqolari quyidaagilarni ko‘rsatdi: 1-rasmda ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan savolga (Transformatsion kiyimlar kundalik hayotda qanday qulayliklar yaratadi?) 40% dan ortiq respondentlar bir vaqning o‘zida 2 va undan ortiq vazifalar bajarib, xarajati arzon, bir vaziyatdan ikkinchi vaziyatga chiqishga yordam beradigan tikuv buyumi xohlashlari aniqlandi, 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 40% respondentlar transformatsion tikuv buyumni dam olgan vaqtlarda ishlatishini afzal ko‘rishi aniqlandi, 3-rasmda 45% respondentlar bolani iloji boricha har kuni sayrga olib chiqish lozimligi, farzandini immuniteti oshishi, sayr bolani chiniqtirish bilan birga atrof-olamga bo‘lgan qiziqishini ham oshishiga, ona va bolaning kayifyatini yaxshi bo‘lishiga yordam berishi aniqlandi, 4-rasmda 32% respondentlar transformatsion tikuv buymini farzandlari uchun qulay bo‘lishini, farzandi bilan ko‘tarishga qulay bo‘lishini xohlashlari aniqlandi. Shuningdek, yana ko‘plab marketing so‘rovnomalari natijasi shuni ko‘rsatdiki, 73,1% respondentlarning bolalar uchun transformatsion tikuv buyumiga ehtiyoji borligi aniqlandi.

Marketing tadqiqoti natijasida bolalar uchun transformatsion tikuv buyumi dizayniga talab borligi o‘rganib chiqildi va tadqiqotlar natijasida ona va bolaga sayrga chiqish uchun maxsus sumka va kiyimga talab yuqoriligi aniqlandi. Marketing ilmiy tadqiqot natijasiga asoslanib, chaqaloqlar uchun qulay bo‘lgan bir nechta vazifalarni bajaradigan bolalar uchun transformatsion kiyim sumka yangi model eskizlari ishlab chiqildi [15].



5-rasm. Yangi transformatsion bolalar kombinezoni eskiz modeli.

Bu model asosan 1 oylikdan 12 oylikkacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan (5-rasm). Kombinezon 3 ta vazifani bajaradi: kombinezon, sumka, kurtka.



6-rasm. Yangi transformatsion bolalar a- kurtka, b-sumka eskiz modeli.

Bu kombinezon asosan chaqaloqlar uchun qulaylik yaratish maqsadida ishlab chiqarildi. Kombinezonning pastki qismi taqilmalar bilan birlashtirilgan, taqilmalar olinsa, sumka sifatida foydalanish mumkin.

Xulosalar. Tadqiqotlarda transformatsion shaklini o'zgartiradigan mahsulotlar, kiyim-kechaklar, turli mamlakatlar dizaynerlari ijodi, ilmiy-izlanishlar ilmiy manbalarga asoslanib tahliliy o'rganildi. Ularga asoslanib, Namangan va Farg'ona viloyatida istiqomat qiladigan ayollardan anketa so'rovnomasi o'tkazildi, marketing tadqiqotlari va adabiyotlar tahlili asosida ona va bolalar uchun transformatsion tikuv buyumini yangi assortimenti dizayni ishlab chiqildi. Bola uchun ishlab chiqariladigan transformatsion tikuv buyumining asosiy vazifasi:- kurtka, sumka va o'yinchoq. Ushbu dizayn asosida yangi assortimentdagi dinamik, qulay, yorqin model namunasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jeff Z., Jason Z. Patent US20130133795A.
2. Романов Ю.А Patent RU46671U1 27.07.2005.
3. Turdieva Ogiloy, Khojiyev Abdurakhim. Multifunksional bag for babies // ACADEMUCIA An Internatinal Multidisciplinary Research Jurnal. DOI 10.5958/2249-7137.2020.01802.9 India. 2020. Vol. 10, Issue 12, 2020.Pages:767-772.
4. Turdiyeva O'.K, Xojiyev A.A. Разработка многофункциональной инновационной сумки для малышей.// Международная научно-практическая Интернет-конференция молодых ученых и студентов «Ресурсосберегающие технологии легкой, текстильной и пищевой промышленности». 18-19 ноября 2020 г. -32-34 betlar.
5. Heidi M.K. Patent US6622899B1, 23.09.2003. Accessory bag.
6. Teng-Yao Ch. Patent US20150327646A1, 19.11.2015. Rectangular bag.
7. Чупрова О.В, Гордеева О.В Неверова В.А. Патент РФ. 2129819. Трансформируемая одежда. 1998.
8. Чагина Л.Л., Смирнова Н.А., Коморова А.А. Патент РФ. 65731. Многофункциональные брьюки. 2007.
9. Харьковская Г.Г., Чупрова О.В., Ненахова Г.С., Голомидова Е.Г. Патент RU2199255C2 , 27.02.2003.
10. Jeff Z., Jason Z. Patent US20130133795A.
11. Кузнецов А. В. Patent RU70090U1, 01.20.2008.
12. Turdieva Ogiloy, Khojiyev Abdurakhim. // European Scholar Jurnal. Investigation of properties of materials used for multifunctional bag. ISSN:2260-5562. Spain. 2021. Vol. 2, No 3, 2020.Pages:121-126.

13. O‘g‘iloy Turdiyeva, Abdurakhim Khojiev; IQ-spectroscopy study of leather used for transformation assortment. AIP Conf. Proc. 11 March 2024; 3045 (1): 030028. <https://doi.org/10.1063/5.0197796>.
14. Ugiloy Turdiyeva; Abdurakhim Khojiyev. Analysis of leather and fur factory and processing industry in Uzbekistan. AIP Conf. Proc. 2789, 040129 (2023) <https://doi.org/10.1063/5.0149593>
15. O‘g‘iloy Turdiyeva, Abdurakhim Khojiyev, Nabijon Maqsudov. Investigation of properties of materials used for multifunctional bag. // European Scholar Journal (ESJ) Vol. 2 No. 3, March 2021. <https://www.scholarzest.com>

BAI YUAN BIR AYLANA IGNADONLI TRIKOTAJ TO'QUV MASHINASIDA OLINGAN YOPQICHLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINING MEXANIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

*¹O'ralov Lazizbek Sayibnazar o'g'li, ²Xoliqov Qurbonali Madaminovich,
³Mirxojayev Mirjamol Mirkarimovich*

¹Namangan to'qimachilik sanoati instituti, t.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi, Email: lazizbekoralov1@gmail.com tel:+998945024949

²Namangan to'qimachilik sanoati instituti, t.f.d., professor

³Namangan to'qimachilik sanoati institut, - t.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada BAI YUAN bir aylana ignadonli trikotaj to'quv mashinasida olingan yopqichli trikotaj to'qimalarni mexanik ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadida ikkita variantdagi to'qima to'qib olingan. Ushbu to'qimalar bir-biridan iplar soni hamda ishlatilgan xom ashyosi bilan farqlanadi. Tahlillar natijasida eng yaxshi deb topilgan trikotaj to'qima namunasi ishlab chiqarishga korxonalarga tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik, mahsulot, to'quv, qaytar-qaytmas deformatsiya, mexanik, ishqalanishga chidamlilik, nisbiy cho'zilish, uzilish kuchi, trikotaj to'quv mashina, tahlil, teks.

АНАЛИЗ МЕХАНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЗАКРЫТЫХ ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН, ПОЛУЧЕННЫХ НА ОДНОИГОЛЬЧАТОЙ КРУГЛОВЯЗАЛЬНОЙ МАШИНЕ BAI YUAN

Аннотация. В данной работе для анализа механических свойств трикотажных полотен, полученных на одноигольной круглоигольной машине BAI YUAN, были сотканы два типа ткани. Эти ткани отличаются друг от друга количеством нитей и используемым сырьем. По итогам анализа предприятиям было рекомендовано производить лучший образец трикотажного полотна.

Ключевые слова: текстиль, изделие, ткачество, необратимая деформация, механический, сопротивление трению, относительное удлинение, прочность на разрыв, трикотажная ткацкая машина, анализ, текс.

ANALYSIS OF MECHANICAL INDICATORS OF CLOSED KNITTED FABRICS OBTAINED ON BAI YUAN SINGLE-NEEDLE CIRCULAR KNITTING MACHINE

Annotation. In this paper, in order to analyze the mechanical properties of the knitted fabrics obtained by the BAI YUAN single round needle knitting machine, two types of fabric were woven. These fabrics differ from each other in the number of threads and the raw materials used. As a result of the analysis, enterprises were recommended to produce the best knitted fabric sample.

Keywords: weaving, product, weaving, reversible-irreversible deformation, mechanical, friction resistance, relative stretch, breaking strength, knitting weaving machine, analysis, teks.

Kirish. 2024 yilda to‘qimachilik sanoatining dunyodagi ulushi 640,43 milliard dollarni tashkil etdi. 2025 yilda 696,16 milliard dollargacha o‘shishi kutilmoqda. Tarixiy davrdagi o‘shishni dunyo aholisining o‘shishi, to‘qimachilik sanoati uchun hukumat tashabbuslari, rivojlanayotgan bozorlarda kuchli iqtisodiy o‘shish va plastmassadan foydalanishni taqiqlash bilan bog‘lash mumkin [1].

Respublikamizda to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini mahalliy xomashyolardan ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishga a‘lohida e‘tibor qaratilmoqda, jumladan "...to‘qimachilik sanoati mahsuloti ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga ko‘paytirish" [2] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda bir aylana ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarini texnologik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, yopqichli trikotaj to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalarda yetarlicha ishlar amalga oshirilmayapti. Trikotaj to‘quv korxonalarida yopqichli trikotaj to‘qimachilik assortimentini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish, yangi turdagi samarali trikotaj to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yuqoridagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarish dolzarb muammolardan biridir.

Chet el olimlaridan trikotaj to‘qimachilik bo‘yicha prof. A. S. Dalidovich, I. I. Shalov, L. A. Kudryaven, L. V. Shukunova, V. M. Lazarenka, N. A. Grechuhena, V. Kumar, V. R. Sampath, S. A. Frydrych va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mamlakatimizda trikotaj to‘qimachilik mahsulotlarini olish, trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish, texnologik va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha bir qator olimlar, jumladan, M.M.Muqimov, N.R.Xanxadjayeva, Q.M.Xoliqov, A.T.Jo‘raboev, Sh.Sh.Shog‘ofurov, S.Rahmatova kabi bir qator olimlarning fundamental ishlari ma‘lum.

Yopqichli trikotaj to‘qimachilik bo‘yicha Dadamirzayeva Shahlo bir qancha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Ammo, yopqichli trikotaj to‘qimachilik mahsulotlarini tarkibidagi iplarni turini o‘zgartirishga oid olib borilgan tadqiqot ishlari yetarli darajada amalga oshirilmagan. Tadqiqotda foydanilgan o‘lchash vositalari va sinash jihozlari: metal chizg‘ich № 443(Kal.sert № UZ-06/1804-2023 sana 31.05.2023 yil) sekundomer H270 (Kal.sert № UZ-06/4450-2023 sana 28.12.2023 yil) harorat va namlikni o‘lchash «Geratech DT-172»(Kal.sert.№ UZ-09T/1354-2023 sana 13.09.2023 yil), Water WASH-600(Kal.sert.№ №Uz-09T/1111-2023 sana 26.04.2023 yil), «KABINA-100» UV i F-D65, KFK-2, Snol 3.5,3.5, Uzilish kuchi va uzilishdagi uzayish YG026T. Ishqalanishga chidamlilik ko‘rsatkichini aniqlovchi pribor YG401T. Sinov o‘tkazilgan iqlim sharoiti: $t = 20,5^{\circ}C$, $W = 65,4\%$.

O‘tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari hamda ularning ko‘rib chiqilayotgan fan sohasida ma‘lumotlar qiyosiy tahlil bilan izohlangan.

Asosiy qism. Tadqiqot namunalari Namangan to‘qimachilik sanoati institutining Nam INNO TEX TECHNO to‘qimachilik texnoparkida o‘rnatilgan bir aylana ignadonli BAI YUAN trikotaj to‘quv mashinasida ishlab chiqarildi. Namunalarni to‘qishda 33x1 paxta ipi hamda 17 teks polyester iplaridan foydalanildi. To‘qima namunalari bir-biridan ishlatilgan iplar miqdori hamda tuk berish usuli bilan farq qiladi. Asos to‘qima bir xil yopqichli glad to‘qima asosida olingan (1-rasmga qarang)



1-rasm. BAI YUAN to'quv mashinasida yopqichli namuna ishlab chiqarish jarayoni


Trikotaj to'qimalarning mexanik ko'rsatkichlariga uzilish kuchi, nisbiy cho'zilish, qaytar-qaytmas deformatsiya, ishqalanishga chidamlilik kabi ko'rsatkichlar kiradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Yopqichli trikotaj to'qimalarining mexanik ko'rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		Variantlar		Standartlar
		I	II	
Iplarni turlari, chiziqli zichligi	Asos to‘qima	Paxta ipi 33 teks		
	Arqoq	17 teksli poleyester		
Uzilish kuchi R (N)	bo‘yiga	301	182	Kamida 80 N GOST 28554
	eniga	190	126	
Nisbiy cho‘zilish L (%)	bo‘yiga	54,4	89	0 dan 100 % gacha GOST 28554 I va II
	eniga	191,7	125	
Qaytmas deformatsiya, ε_H (%)	bo‘yiga	11	10	GOST 28882 20 % gacha
	eniga	12	12	
Qaytar deformatsiya ε_o (%)	bo‘yiga	89	90	GOST 28882 80 % dan yuqori
	eniga	88	88	
Ishqalanishga chidamliligi I (ming.aylana)		35,4	26,7	GOST 16486 30-60

Uzish kuchi materialni mustahkamligi hamda sifatini aniqlovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uzish kuchi nyuton birligida aniqlanadi. To'qib olingan namunalarni uzish kuchini aniqlashda YG026T rusumli to'qimalarning uzishdagi kuchi va uzayishini aniqlovchi jihozdan foydalanib, tajribalar o'tkazildi. Bu jihoz iplar, matolar, kiyim-kechak, noto'qima va charm hamda boshqa matolarni sinash uchun ishlatiladi. Uzish kuchi 500 N oralig'ida aniqlandi [3-4]. Olingan namunalarning uzish kuchi natijasi eni hamda bo'yi bo'yicha 126 N-301 N oralig'ini ko'rsatdi. Bo'yi bo'yicha uzish kuchi eng yuqori ko'rsatkich I variant 310 N ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich II variantga nisbatan 65,3 % ga yuqori. Eni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich I variant namunasida 190 N ni tashkil etdi (2,3-rasmlarga qarang).



2-rasm. Namunalarning uzish kuchi diagrammasi

I namuna




II namuna



3-rasm. Uzish mashinasida sinov ishlari jarayoni

Namunalarning nisbiy cho‘zilish ko‘rsatkichlari bo‘yi bo‘yicha 54,4% dan 89% gacha oraliqni tashkil etdi. I variantga nisbatan II variant ko‘rsatkichi 34,6 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Qaytar deformatsiya ulushi ko‘rsatkichlari trikotaj to‘qimalarining egiluvchanlik va shakl saqlash xususiyatdalarida aks etadi. Trikotaj to‘qimalarini qaytar deformatsiya ulushi yuqori bo‘lishi, uning shakl saqlash xususiyati yaxshi bo‘lishini bildiradi [5-6]. Trikotaj namunalarning qaytar deformatsiya ulushi 89-90 % da o‘zgarishni qayd etdi. Eni bo‘yicha qaytar deformatsiya 88-90 % da o‘zgardi (1-jadval). Qaytar deformatsiya ko‘rsatkichiga asoslanib, tadqiq etilayotgan trikotaj namunalarda cho‘zilgandan so‘ng, dastlabki o‘lchamiga qayta olishidan dalolat beradi (4,5-rasmlarga qarang).




4-rasm. Qaytar-qaytmas deformatsiya ko'rsatkichlari



5-rasm. Qaytar-qaytmas deformatsiyasi jihozida sinov ishlari jarayoni

Ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichi YG401T rusumli matolarni ishqalanishga chidamliligini aniqlovchi jihozdan foydalanib aniqlandi. Matoning muhim xususiyatlaridan yana biri uning ishqalanishga bardoshlilik ko'rsatkichidir. Jism ma'lum bir yuk ta'sirida matoga ishqalanish berib, uning tivit yoki yirtilguncha davom etadi. Tajribalar ISO12947-1 va ISO12947-2 standartlar asosida olib borildi. Namunalarning ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichlari 26,7-35,4 orasida o'zgardi (1-jadval, 6-rasmga qarang) [7].



6-rasm. Ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichi

Xulosa. Tadqiqotda yopqichli trikotaj to‘qimalarining mexanik xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, to‘qimachilik sanoatida yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirishga qaratilgan asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Namangan to‘qimachilik sanoati institutida o‘tkazilgan tajribalar natijasida, yopqichli trikotaj to‘qimalarining uzilish kuchi, nisbiy cho‘zilish, qaytar-qaytmas deformatsiya va ishqalanishga chidamlilik kabi mexanik ko‘rsatkichlarining muhim o‘zgarishlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- **Uzilish kuchi:** Namunalarning uzilish kuchi bo‘yicha I variantning eng yuqori ko‘rsatkichi 301 N (bo‘yicha) va 190 N (eni bo‘yicha) ga teng bo‘lib, II variantga nisbatan 65,3% yuqori ekanligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar to‘qimalarning mustahkamligini tasdiqlaydi.
 - **Nisbiy cho‘zilish:** II variantda nisbiy cho‘zilish 34,6% ga yuqori bo‘lib, bu uning elastikligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.
 - **Qaytar deformatsiya:** Namunalarning qaytar deformatsiya ulushi 89-90% orasida bo‘lib, ularning shakl saqlash xususiyatlarini ko‘rsatadi, bu esa trikotaj materiallarning sifatini oshiradi.
 - **Ishqalanishga chidamlilik:** Ishqalanishga chidamlilik ko‘rsatkichlari 26,7-35,4 orasida bo‘lib, bu trikotaj to‘qimalarining uzoq muddatli ishlash imkoniyatini oshiradi.
- Yopqichli trikotaj to‘qimalarining texnologik xususiyatlarini takomillashtirish va yangi turdagi materiallar yaratish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar, ularning ishlab chiqarish sifatini yaxshilashga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari trikotaj sanoatining rivojlanishiga hissa qo‘shish bilan birga, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga imkon beradi. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, I variant yopqichli trikotaj to‘qima namunasi II variant namunasiga nisbatan mexanik hamda sifat ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlashdi. Ushbu variant namunasi ishlab chiqarishga tavsiya etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/textile-global-market-report>
2. <https://www.statista.com/outlook/cmo/footwear/worldwide>
3. Tursunkulova M., Lazizbek L., Xoliqov Q. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasidan poyabzal ustligi uchun qollaniladigan materiallarning texnologik va fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tahlili // Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 3.
4. Tursunkulova M. S. et al. Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli arqoqli trikotaj to‘qimalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tahlili // “Фан ва технологиялар тараққиёти”. Илмий-техникавий журнал. – 2022. – Т. 7. – С. 103-111.
5. Suyarkulovna T. M. et al. Poyabzal ustligi uchun ikki qatlamli g‘ovakli trikotaj to‘qimalarining nam o‘tkazuvchanlik xossasini tadqiq qilish // Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 17-33.
6. O‘ralov L. S. Jakard to‘qimadagi tukli trikotaj polotnolaridan foydalanib ayollar uy kiyimini tayorlash texnologiya jarayonlari tadqiqi // Magistrlik Akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Namangan-2020.
7. Tursunkulova M. S. et al. Ikki qatlamli jakard trikotaj to‘qimalari tahlili // Машинасозлик илмий-техника журналы. – С. 2181-1539.

CHIGAL IPLARNI TITISHGA TAYYORLASH JARAYONINING TEXNOLOGIK OMILLARINI TADQIQ ETISH

¹Ataxanov A. K, ²Odilxonova N. O

^{1,2}Namangan to‘qimachilik sanoati instituti

Annotatsiya. Maqolada ipli ikkilamchi to‘qimachilik resurslari jumlasiga kiruvchi chigal iplarni qayta ishlashga tayyorlash masalasi yoritilgan. Ipni qirqishda kesimda joylashgan barcha tolalar qirqiladi. Shuning uchun qirqish uzunligini tanlash, ipda tolaning egallagan uzunligini aniqlash tartibi va formulasi aniqlangan. Unga ko‘ra iplarni titib, tolalar holatiga keltirish uchun tolalarning notekislik ko‘rsatkichi, tolalarni qurshab turgan va bo‘ylamasiga ulangan tolalarni oralig‘idagi ishqalanish kuchlarini yo‘qotish zarur ekan.

Kalit so‘zlar: chiqindi, chigal ip, ikkilamchi to‘qimachilik resurslari, titish, qirqish, uzunlik, tiklangan tola, tolalarni joylashishi.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС ПОДГОТОВКИ ПУТАНКИ К РАЗВОЛОКНЕНИЮ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы касающиеся подготовки путанки к разволокнению, которые являются вторичным сырьем текстильного производства. Для разволокнения путанки необходимо избавиться от таких параметров как: сила трения между волокнами и их неравномерность в продольном направлении нити. Получена формула и порядок определения для выбора длины обрезки нити и волокон в ней.

Ключевые слова: отходы, путанка, вторичные текстильные ресурсы, разрыхление, разрезание, длина, восстановленное волокно, расположение волокон.

RESEARCH OF THE FACTORS WHICH AFFECTING ON THE TECHNOLOGICAL PROCESS OF THE PREPARATION OF TANGLED YARNS FOR DEFIBERATION

Annotation. This article discusses issues related to the preparation of the tangled yarns for defibering, which are secondary raw materials for textile production. In order to de-fiber a tangled yarns, it is necessary to eliminate such parameters as: the friction force between the fibers and their unevenness in the longitudinal direction of the thread. A formula and procedure for determining the length of the trimmed thread and fibers in it are obtained.

Keywords: waste, tangle, secondary textile resources, loosening, recovered fiber, cutting, length, recovered fiber, fiber arrangement.

Kirish. Jahonda to‘qimachilik sanotining xomashyo bazasini rivojlantirish, ishlab chiqariladigan tolalarning turlarini ko‘paytirish, yangi xususiyatli tolalar va iplar ishlab chiqarish bilan bir qatorda ikkilamchi xomashyo resurslarini qayta ishlash va ulardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahon to‘qimachilik sanoatiga bir qator katta o‘zgarishlar kiritish

asosida xomashyo zahirasiga ega hududlarda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun barcha resurslarni, jumladan ikkilamchi xomashyo resurslarini sanoatga qaytarish orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan ipli ikkilamchi resurslarni va eskirgan to'qimachilik buyumlari hamda sanoat chiqindilarni qayta ishlash asosida to'qimachilik sanoatida mahsulot ishlab chiqarishga yaroqli tiklangan tolalar olish texnologiyasini yaratish, jihozlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

Ishlab chiqarish chiqindilaridan to'g'ri va oqilona foydalanish bizga qo'shimcha ravishda katta miqdordagi turli xil mahsulotlarni, shuningdek to'qilmagan materiallarni ishlab chiqarish imkonini beradi [1,2,3]. Ko'pgina sanoat korxonalari endi xarajatlarni kamaytirish uchun ip chiqindilarini qayta ishlatmoqda. Bundan tashqari, ba'zi texnologik yutuqlar chiqindilarni minimallashtirishga qaratilgan [4]. Hisob-kitoblarga ko'ra, ishlatilgan tola bilan almashtirilgan har bir kilogramm toza paxta uchun taxminan 65 kVt/soat tejaladi va shuning uchun yangi materialdan foydalanish bilan solishtirganda chiqindilarni qayta ishlashga e'tibor qaratiladi [5].

To'qimachilik chiqindilari tolali, turli iplar, qirqim va qiyqimlar, eskirgan maishiy to'qimachilik mahsulotlari ko'rinishidagi sanoat va iste'mol chiqindilari shaklida bo'ladi. To'qimachilik sanoatida chiqindilarni yoki ishlatilgan mahsulotlarni qayta ishlash imkoniyati va zarurati ularning qiymati, shuningdek ularning holati, tarkibi, tuzilishi va rangi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar natijasida ushbu barcha turdagi to'qimachilik chiqindilari va bu chiqindilarni dastlabki qayta ishlash, undan tayyorlangan mahsulotlarni tavsiflovchi yangi tizimni ishlab chiqilgan va taklif etilgan [6]. Shuningdek, chiqindilarini qayta ishlashda ularni titib tola olishganda ularning asosiy fizik-mexanik xususiyatlarini baholashda notekislik, tuklilik, uzilish kuchi, cho'zilishi, ishqalanishga chidamliligi kabi xossalarga e'tiborni qaratish lozim [7]. An'anaviy ravishda chiqindilar kesish yoki yig'ish yo'li bilan oldindan ishlov beriladi, so'ngra maydalashga uzatiladi. Bunda, xususan maydalashda foydalanish uchun tolaning uzunligini maksimal darajada saqlash lozim [8].

Saralangan ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarni qayta ishlashdan avval tayyorlash bosqichidan o'tadi. Amaldagi texnologiyada tolali mahsulotlarni namligini maromiga yetkazish va qirqishdan so'ng tituvchi mashinalarga uzatiladi. Qayta ishlanadigan tolali mahsulotning namligini aniqlash ma'lum usullar yordamida amalga oshirilib kelinmoqda [9].

Chiqindilarni qirqish uchun turli rusum va konstruksiyadagi kesuvchi mashinalar qo'llaniladi. Kesuvchi mashinalar ishlash tartibi va kesish moslamasining tuzilishiga ko'ra dumaloq, rotatsion va gilotali turlarga bo'linadi. Larocht (Frantsiya) firmasining avtomatlashtirilgan potok tizimida gilotali kesish mashinasi o'rnatilgan [10]. G'iloqlari va bog'ichlaridan tozalangan toylar maxsus ta'minlovchi konteyneriga joylanadi. Mashinada kesish uzunligi 10 millimetr qadam bilan 200 millimetrgacha oshirilishi mumkin. Ushbu mashinada qirqilgan xomashyo bundan keyin rotatsion kesuvchi mashinada yanada maydalanadi.

Rolando-Biella (Italiya) firmasi RL turkumida bir necha konstruksiyadagi rotatsion kesuvchi mashinalarni ishlab chiqaradi. Mashinaning asosiy kesuvchi ishchi a'zosi uch parrakli baraban hisoblanadi. Kesish uzunligini ish jarayonida o'zgartirish mumkin.

Befama firmasi to'qimachilik ikkilamchi xomashyolarini qirqish uchun rotatsion kesuvchi AC39A mashinasini ishlab chiqardi. Bu mashinada ko'plab turdagi maishiy va sanoat chiqindilarini kesish mumkin. Mashina metall parchalarini topish, ajratish qurilmalari bilan jihozlangan.

Yechiladigan muammo va masalaning qo‘yilishi. Ipli ikkilamchi to‘qimachilik resurslari jumlasiga kiruvchi chigal iplarni qayta ishlashga tayyorlashda qirqish uzunligini muhim omil hisoblanadi. Amaldagi korxonalarda qo‘llaniladigan jihozlarning texnik tavsiflarida qirqish uzunligi katta oraliqda o‘zgartirilishi mumkin. Ammo, qirqish uzunligini tanlash yoki belgilash xususida aniq tavsiyalar keltirilmagan. Xususan, qaysi hollarda qanday uzunlik bo‘lishi maqsadga muvofiqligi asoslanmagan.

Sanoatda chiqindilarni kamaytirishni ishlab chiqarish texnologiyasi davomida amalga oshirish borasida ham izlanishlar juda ko‘p. Kam chiqitli texnologiyaga mansub izlanishlardan birida to‘quv dastgohida iplarni qirqimini kamaytirish borasidagi tajribalar bayon qilingan [11]. Tadqiqotlar dastgohda ip uzug‘ini o‘lchashga asoslangan.

Akdenizi va boshqalar 2017-yilda rapirali to‘quv dastgohida to‘qilgan ip qoldiqlari uzunligini aniqladilar va bu o‘lchovni tasvirni qayta ishlash usuli yordamida amalga oshirdilar [12]. Biroq, ularning ishida chiqindilarning uzunligini qisqartirish uchun yechim taklif qilinmagan.

Paxta tolalaridan yigirilgan iplarni qirqish uzunligini tanlashda quyidagi mulohazalarga asoslanamiz. Tadqiqotlarga asoslanib aytadigan bo‘lsak, qirqish uzunligi birinchi navbatda tiklangan tolalardan qanday mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Masalan [13], olib borgan ishida tiklangan tolalardan ho‘l usulda noto‘qima matoni tayyorlash uchun kimyoviy iplarni maydalab qirqish usuli tadqiq etilgan. Bunda tolalarni kichik qirqimlarini olish zarurati asoslangan. Biroq, paxta tolasidan tayyorlangan iplar va to‘qimalarni titib, tiklangan tola olishda uning muhim texnologik xossalarini saqlanish darajasini inobatga olish lozim bo‘ladi. Bunda tolalarning uzunligi va bir xillik indeksi o‘ta muhim hisoblanadi.

Iplarni tuzilishi ma’lumotlar bo‘yicha hisoblanganda aralashmadagi tolaning shtapel uzunligiga muvofiq uning ipda egallagan uzunlikni quyidagicha hisoblanishi mumkin

$$L_i = \frac{\ell_{sh}}{\ell_o} \cdot \frac{1000}{K} \cdot \eta \quad (1)$$

bunda L_i -tolani ipda joylashish uzunligi, mm;

ℓ_{sh} - tolaning shtapel uzunligi, mm;


ℓ_o - ipni bitta buram qadamidagi tola uzunligi, mm;

K -ipdagi buramlar soni, bur/m;

η - tolani tekislanganlik koeffitsienti.

Eksperiment va olingan natijalarning tahlili. O‘rta tolali paxta tolalaridan yigiriladigan iplarni ishlab chiqarishni texnologik sharoitlarini hisobga olib, shtapel uzunligi 34 millimetr bo‘lgan hol uchun hisoblash ishlari bajarilgan. Bunda tolalarni tekislanganlik koeffitsientini 0,83 qabul qilingan. Uning grafik tasviri natijalari 1-rasmda keltirilgan.

1-rasmdan ko‘rinadiki, ipning chiziqli zichligini ortishi va ipga beriladigan buramlar sonini ortishi bilan L_i kamayib boradi. Dastlabki tahlillarga ko‘ra ushbu o‘zgarish to‘g‘ri chiziqli qonuniyatga yaqin.



1-rasm. Chiziqli zichligi va buram soniga muvofiq ipda tolaning egallagan uzunligi.


Amaldagi korxonalarda ishlab chiqariladigan ip uzunlari umumiy tarzda yig'ilgani, ularni yagona partiyaga qo'shilgani uchun o'rtacha chiziqli zichlik va buram sonini qabul qilish mumkin. Shunga ko'ra tajriba o'tkazish jarayonida qayta ishlanadigan chigal iplarni tashkil etuvchilarni bir guruhi uchun qirqish uzunligini o'rtacha qiymatini olish mumkin.

Ipni qirqishda kesimda joylashgan barcha tolalar qirqiladi. Shuning uchun qirqish uzunligi L_i dan katta bo'lishi maqsadga muvofiq. Biroq, bunday farq qancha bo'lishi lozim? Ushbu savolga javob topish uchun ipning tuzilishi modeliga murojaat qilish mumkin.

Tolali mahsulotlar uzunligi, massasi va shakli turlicha bo'lgan, o'ziga xos diskret holdagi tolalar yig'indisi hisoblanadi. Shuning uchun ularni tuzilishini, qayta ishlash va xossalarini nazariy tadqiq qilish maqsadida turli modellar tavsiya etilgan. A.G.Sevostyanov va S.S.Kovner taklif etishgan modelda mahsulotdagi tolalarning uchi uning biron kesimidagi kesish chizig'idan juda kichik masofada joylashadi.

Tolalar oqimi uchun esa, masofa ortib borishi tarzida bo'lib, tutamdagi tolalarni uchlari kesish chizig'idan qanday masofada bo'lishi tasodifiy qonuniyatga mos keladi. Nazariy usullarda tadqiqot olib borish uchun "ideal mahsulot" modeli tavsiya etilgan.

Ideal iplarning barcha ko'ndalang kesimlarida tolalar soni bir xil bo'ladi. Uning ixtiyoriy barcha bo'laklari ham bir xil sifatga ega bo'ladi. Har bir uzunlik guruhidagi tolalar soni o'zaro teng bo'lganda tsilindr ko'rinishidagi ip hosil qilish uchun bir xil uzunlikdagi tolalar bir-biriga nisbatan doimiy surilishga ega bo'ladi. Bo'ylamasiga kalta tolalardan keyin albatta uzun tola keladi. Shunday holatdagina barcha tolalarning markazi bitta og'ma chiziqda joylashadi (2-rasm).




2-rasm. Tolalarni ipda joylashishi.

Turli uzunlikdagi tolalarni ipning ko‘ndalang kesimida joylashishi bir xil bo‘lmaydi. Shuning uchun bunday ipni bir jinsli bo‘lmagan ip deb qabul qilinadi. Ipning uzunroq tolalari ko‘proq yonma-yon joylashgan AV kesimi pishiqroq, kaltaroq tolalar yonma-yon joylashib qolgan CD kesimi kuchsiz bo‘ladi [14].

Amalda tekshirilganda turli uzunlikdagi tolalarni ipda taqsimlanishi Gauss taqsimotiga (normal) yaqin bo‘lib, tolalarni bir-biriga nisbatan siljishi doimiy bo‘lmasligi aniqlangan [15]. Bundan turli uzunlikdagi tolalardan tashkil topgan ipda ixtiyoriy ko‘ndalang kesimlarda tolalar soni bir xilda bo‘lmasligi ko‘rinadi. Bu esa o‘z navbatida ipning diametrini turli nuqtalarda turlicha bo‘lishligini, yoki boshqacha aytganda notekis bo‘lishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, chigal iplarni qirqish uzunligini tanlashda tolalarning notekislik ko‘rsatkichi va o‘rtacha uzunligi bilan bir qatorda diskret ko‘rsatkichlarini taqsimot qonuniyatini ham hisobga olish lozim bo‘ladi.

Ipni pishitilishi natijasida har qanday tolaning har ikki uchlarini bo‘ylamasiga navbatdagi tola uchlarini bilan tutashgan va birgalikda buralib, ularning oralig‘ida ishqalanish kuchlari paydo bo‘ladi. Iplarni titib, tolalar holatiga keltirish uchun aynan tolalarni qurshab turgan va bo‘ylamasiga ulangan tolalarni oralig‘idagi ishqalanish kuchlarini yo‘qotish zarur bo‘ladi. Agarda tolalarni joylashishi L_i uzunlikda takrorlanuvchan deb hisoblasak, ular uchlarining ketma-ket kelishidan ip hosil bo‘ladi (3-rasm).



3-rasm. Tolalarni ipda joylashishi

Kesilgan ip bo‘lakchasini tashkil etuvchi tolalarni yengil ajralishi uchun ularga uchlarini ilashgan ikkita qo‘shni (bo‘ylamasiga) tolalar bilan hisoblanganda bo‘lakcha uzunligi L_6 tolalarni joylashish uzunligi L_i dan uch karradan ortiq uzun bo‘lmasligi ko‘rinadi.

$$L_6 = 2L_i - x \text{ yoki } L_6 = 3L_i - 2x, \quad (2)$$

Bunda x -tolalarni uchlarini ilashish uzunligi

Aynan ushbu xulosa iplarni qirqish uzunligini tanlash uchun asos bo‘lishi mumkin. Amalda uchlarini ilashgan tolalar qisman bir-birini qoplashi, ipning ichki va tashqi qatlamlaridagi tolalarni egallagan uzunligi notekis bo‘lishi inobatga olinishi lozim. Shuningdek, chigal iplarni chigallashish darajasini ham nazarda tutish kerak bo‘ladi. Chigallashish darajasi yuqori bo‘lgan holda qirqish uzunligi kamaytirilishi yuqoridagi mulohazaga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азизов И.Р., Атаханов А.К. Анализ технологии подготовки восстановленной волокнистой массы в производстве нетканых материалов //Universum: технические науки. – 2022. – №. 5-6 (98). – С. 5-8.

2. Azizov I., Odilkhonova N. Technology of spinning a mixture of cotton fibers of various qualitative composition and waste //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2789. – №. 1.
3. Атаханов А., Азизов И., Одилхонова Н. Использование вторичного текстильно-сырьевого сырья в виде путанки, концов пряжи. //International journal of conference series on education and social sciences. (Online) July, 2023 .Vol 3. No.4. p.16-19
4. Khan MKR, Sarker RC, Rahman H. The Influence of Some Process Parametres on Rotor Spun Yarn Quality Produced from Recycled Cotton Spinning Wastes. *International Journal of Textile Science* 2015; 4(1): 9-19.
5. Woolridge AC, Ward GD, Phillips PS, Collins M, Gandy S. Life Cycle Assessment for Reuse/Recycling of Donated Waste Textiles Compared to Use of Virgin Material: an UK Energy Saving Perspective. *Resources Conservation & Recycling* 2006; 46(1): 94-103
6. Одилхонова Н. О., Азизов И. Р. Совершенствование системы классификации вторичного текстильного сырья и волокнистых отходов //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 5. – №. 5 (122). – С. 15-18.
7. Характеристика и способы переработки текстильных отходов. Краткая характеристика отхода/ <https://pressmax.ru/>.
8. S. Sakthivel, S. Senthil Kumar, B. Melese et al., “Development of nonwoven composites from recycled cotton/polyester apparel waste materials for sound absorbing and insulating properties,” *Journal of Applied Acoustic*, vol. 180, Article ID 108126, 2021.
9. Ochilov T.A., Matmusaev U.M., Qulmetov M.Қ.. To‘qimachilik materiallarini sinash. Toshkent: «O‘zbekiston», 2004.
10. Vajiha Mozafary and Pedram Payvandy. Online control system design for selvedge waste length in rapier weaving loom. /Journal of textiles and polymers, Vol. 7, № 2, JUNE 2019, p. 73-80.
11. R. Akdeniz, H.Z. Ozek, and G. Durusoy, “A study of selvedge waste length in rapier weaving by image analysis technique”, *Text. Konfeksiyon*, vol. 27, no. 1, pp. 22-26, 2017.
12. Е.Л.Зими́на, А.Г.Коган. Исследование процесса резания текстильных материалов/ /Вестник витебского государственного технологического университета, 2017, № 2 (33) стр. 14-20.
13. Корицкий К.И. Техничко-экономическая оценка и проектирование текстильных материалов. – М.: Легкая и пищевая промышленность, 1983.
14. Борзунов И.Г. и др. Прядение хлопка и химических волокон (проектирование смесей, приготовление холстов, чесальной и гребенной ленты): Учебник для вузов. - М.: Легкая и пищевая промышленность, 1982. -376 с.

ИССЛЕДОВАНИЕ ХЛОПКОВЫХ СЕМЯН, КАК МАТЕРИАЛА ОБРАБОТКИ

¹Хайрулло Шарипов Нўмонжанович¹Наманганский институт текстильной промышленности, Кафедра инжиниринга натуральных волокон

Аннотация. В этой статье определено вероятностное распределение проджинированных семян по степени опушенности, установлено, что при выходе семян из джина они имеют различную опушенность: количество недоджинированных семян и летучек составляет 4.3-7.7 %, количество семян подлежащих двукратному и однократному линтерованию составляет, соответственно 54-59% и 33-39%, количество оголенных семян составляет 0.25-1.47%.

Ключевые слова: геометрические размеры, прочность, масса, удельный вес, насыпной вес, упругие свойства, коэффициент трения, парусность, электрические свойства.

RESEARCH OF COTTONSEEDS AS A PROCESSING MATERIAL

Annotation. In this article, the probability distribution of ginned seeds by the degree of pubescence is determined, it is established that when seeds come out of the gin, they have different pubescence: the number of under-ginned seeds and volutes is 4.3-7.7%, the number of seeds subject to double and single linting is, respectively, 54-59% and 33-39%, the number of bare seeds is 0.25-1.47%.

Keywords: geometric dimensions, strength, mass, specific gravity, bulk density, elastic properties, coefficient of friction, windage, electrical properties.

Введение. Для правильного составления технологического процесса первичной обработки, требуется всестороннее изучение геометрических параметров и физико-механических свойств хлопковых семян, к которым относятся геометрические размеры, прочность, масса, удельный вес, насыпной вес, упругие свойства, коэффициент трения, парусность, электрические свойства. Для сортировки семян большое значение имеют размеры и форма семян, во многих исследованиях форму семян рассматривают, как шар [1], в работе форма семян рассматривается как эллипсоид, однако, на практике она несколько иная семена хлопчатника неправильной формы, отчасти напоминающее грушевидную, сильно расширены и округлены со стороны халазы и сужены в сторону микропиля, самая широкая их часть на расстоянии 1/4 части длины семени от тупого конца [2].

Материалы и методы. Изучая геометрию хлопковых семян мы пришли к следующему выводу: самой наиболее близкой геометрической фигурой для хлопковых семян является совокупность полушара с конусом [рис 1]. При этом, объем одного семени можно определить по следующей формуле:

$$V_c = \frac{3}{2}\pi r^3 + h/3\pi r^2 = \left(\frac{3}{2}r + \frac{h}{3}\right)\pi r^2 \quad (1)$$

Площадь поверхности

$$F_c = 2\pi r^2 + \pi r c = \pi r^2(2r + \sqrt{r^2 + h^2}) \quad (2)$$

Центр тяжести по длине семян определяется с учетом двух его составных частей.

$$C = \left[\frac{\pi r^2}{2} (0.4244r) + 0.5hr \right] / 0.5r(\pi r + h) \quad (3)$$

По формуле (1) можно определить удельный вес одиночного семени, а по формуле (2) можно определить площадь поверхности семян, определив количество волокон в определенной поверхности.

Семена, имеющие форму совокупности полушара с конусом дает им возможность летать и падать только тупым концом, при этом аэродинамическое сопротивление воздуха минимально.

Расположение центра тяжести по формуле (3) дает подтверждение этому процессу. Геометрические размеры семян каждого растения меняется довольно в широких пределах, поэтому для ясного представления об их истинных размерах необходимо знать изменчивость семян по длине, ширине и толщине.




Рис 1. Поперечный разрез хлопковых семян

а) рисунок, б) схема

Анализ результатов исследования. Несмотря на многочисленные исследования по изучению размеров хлопковых семян, актуально стоит задача изучения размеров наиболее перспективных сортов хлопчатника, как С-6524, и др. В проведенных исследованиях размер семян определяется после полного оголения семян от волокнистого покрова. Эти работы были посвящены для точного посева семян. В работе [3] рассматривается влияние зоны прорастания хлопчатника на качество семян. Территориально Республика Узбекистан разделена на три зоны: северную, центральную, южную. Семена хлопчатника, выращенные в южной зоне отличаются большей зрелостью и крупностью по сравнению с выращенными в северной и центральной зонах. Ниже в таблица 1 приводится размер оголенных семян:

Таблица 1

Размер оголенных семян

Зона произрастания	Размеры семян			Толщина оболочки	Масса 1000 шт семян
	длина	ширина	толщина		
Северная	7,27-9,72	4,33-5,32	3,93-4,48	0,22-0,28	107,0
Центральная	7,34-9,29	4,44-5,53	4,09-4,75	0,24-0,35	109,0
Южная	8,02-10,2	4,73-5,65	4,49-4,94	0,27-0,34	112,0

Определение размеров опушенных семян, имеющих волокнистый покров, по вышеуказанной методике невозможно. Поэтому, нами была разработана методика и стендовая установка по определению размеров семян. В качестве установки был взят фотоувеличитель Л-4.

Пленочная кассета фотоувеличителя заменена органическим стеклом, в котором была проведена линия с шагом 0,25 мм. Семена положив на это стекло размещали в увеличитель. А с доски увеличение наблюдали длину и ширину семян по их проекциям и одновременно записывали в таблицу. Измерение размеров проводили в трехкратной повторности по 100 штук семян. По результатам измерения нами была построена гистограмма вариационного распределения (рис 2, 3, 4.). Исследования подтверждают вышеотмеченные предположения о размерах семян, так как длина семян меняется от 8 до 12 мм. Более зрелые и крупные семена имеют большую опушенность. Семена по длине распределяются в следующем порядке.




Рис.2. Гистограмма распределения хлопковых семян по длине разновидности С 6524.

Семена, длиной от 8 до 9 мм составляет 20-25%, от 9 до 10 мм – 35-40%, от 10 до 11 мм – 30-35%, от 11 до 12 мм составляют 10–15%. Ниже в таблице 2.2 приводятся результаты исследований по различным селекционным сортам.

Таблица 2

Результаты исследований по различным селекционным сортам

Селекционный сорт хлопка	Размеры семян		
	длина	ширина	толщина
С 6524	8,00-12,25	5,5-8,75	5,1-8,2
Наманган 1	7,75-12,300	5,60-9,00	5,4-8,2
АН 60	6,50-9,60	4,30-5,35	4,0-5,2
Наманган -77	7,6-9,5	5,4-8,6	5,1-8,1
Порлок	7,6-11,8	5,4-8,6	5,4-8,1

Размер семян колеблется не столько в зависимости от разновидности, от зоны прорастания и сорта семян, как от расположения семян в одной коробочке. Для изучения вышеуказанного, нами были изучены размеры семян в одной дольке хлопка. Длина семян от нижерасположенного до среднего постепенно возрастает, от среднего до верхнего постепенно уменьшается. Ширина хлопковых семян, имеющих разную степень опушенности распределяется следующим образом.




Рис.3. Гистограмма распределения семян по ширине разновидности С-6524.

Семена имеющие опушенность большую, имеют большую ширину, нежели семена, имеющие меньшую степень опушенности. Семена, имеющие размер в ширину от 5 до 6 мм составляют 20–25%, от 6 до 7 мм –35–40%, от 7 до 8–20–25%, от 8 до 9–10–15%.

Проведенные исследования по изучению размеров семян позволяют правильно подобрать размеры отверстий решета.

По данным Кагаловского [4], удельный вес оголенных семян колеблется около единицы (1,0-0,06), что дает возможность применять воду для сортировки посевных семян. При погружении в воду легкие, неполноценные семена всплывают, а зрелые тонут.

Удельный вес хлопка-сырца при нормальной влажности приблизительно равен 1,3 г/см³ [36]. По мере снятия волокон с семян их удельный вес увеличивается, так как удельный вес семян, значительно больше, чем волокна. Насыпной же вес вследствие того, что волокно удаляется вместе с большой прослойкой воздуха растет. Так, посевные опушенные семена имеют насыпной вес около 350-400 кг/м³, проджинированные семена 300-320 кг/м³, в то время как 1м³ полностью оголенных семян весит 560-600 кг/м³, [5].

С увеличением полной опушенности объемная масса семян снижается. Опушенность семян больше влияет на объемную массу при их свободной отсыпке и меньше влияет в уплотненном состоянии. Рыбальская М.Б. [6] определила изменение объемной массы семян от нормального давления, упругие свойства семян, силы сцепления между ними. Предложено математическое выражение зависимости объемной массы семян от нормального давления:

$$g = a_0 + a_1 \lg \left(H + \frac{P}{2F} \right) \quad (4)$$

Где: a_0, a_1 – постоянные коэффициенты, зависящие от опушенности семян;

H – удельное давление на семена в Н/ см² ;

F – площадь, на которую действует уплотняющая нагрузка в см²;

P – вес семян под уплотняющей нагрузкой, кг.

Формула справедлива для давлений:

$$H = 14.7 * 10^{-3} \text{ мН/см}^2$$

Одновременно установлена эмпирическая зависимость между объёмной массой смеси и полной опушенностью семян:

$$q = B_0 + \frac{B_1}{\lg c} \quad (5)$$

где c – полная опушенность семян, %

B_0, B_1 – постоянные коэффициенты, зависящие от удельного давления.

Б.Л.Бегельман [7] исследовал зависимость объёмной массы хлопковой смеси от удельного давления при её опушенности от 0 до 8,0 %. Так при опушенности 0,49 % объёмная масса с повышением удельного давления от 0 до 33500 Па возрастает с 612 до 635 кг/м³ (на 4,0%), при опушенности 2,5% -с 523 до 594 кг/м³ (на 13,0%), а при опушенности 7,7 % -с 248 до 480 кг/м³ (на 30,0%).

Комплекс физико-механических и биологических свойств семян можно оценить по плотности, свидетельствующей об их зрелости. Исследования [8] показали, что сортировка семян по плотности-важный агротехнический приём, значительно повышающий урожайность хлопчатника.

Для определения плотности хлопковых семян необходимо установить их объём, что усложняется неправильностью формы, неоднородностью его отдельных частей, и наличием в семени воздушной прослойки.

Поэтому, наряду с показателем плотности, исследователи применяют такой показатель, как удельный вес семян [9].

По.Г.И.Мирошниченко [10] удельный вес опушенных хлопковых семян II сорта 1100 кг/м³, III-1085кг/м³, для оголенных семян I сорта этот показатель равен 1080кг/м³, а IV сорта-960кг/м³.

Выводы.

1. Установлено, что самой близкой геометрической фигурой для хлопковых семян является совокупность полушара с конусом.
2. Найдены формулы для расчета объема, площади поверхности и центра тяжести семени.
3. Изучены размеры и весовые характеристики семян.
4. Установлено, что отдельные семена по наклонной поверхности совершают движение качением. С увеличением опушенности длина контакта семени с поверхностью увеличивается, что увеличивает возможность движения семян скольжением.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Cotton: Review of the World Situation' Articles Address Governance and Cotton Price Trends.– NY. 26 september. 2021. <http://www.ICAC.org>.
2. Leonad Eyler. Principia motus fluidorum// ISBN: 978-5-9973-5207-3// Sputnik, 2019 //https://www.livelib.ru/author/194016/top-leonard-ejler.
3. Ryszard M. Kozlowski. Handbook of natural fibres. Volume 2: Processing and applications. Woodhead Publishing Limited, 2012.
4. Maksudov E.T., Aminov X.X., Umarxodjaev D.X.. Standartizatsiya i sertifikatsiya xlopkovogo volokna – garantiya vysokogo kachestva// «STANDART», Tashkent. 2017.- №1, -С. -11-12.
5. Maksudov E.T., Aminov X.X., Umarxodjaev D.X., Sulaymonov R.SH. Rezultaty izucheniya kachestva volokna vyrobotannykh pri pererabotki xlopka-syrsa mashinnogo sbora, v izmeritelnykh sistemax HVI//Problemy tekstilya. Tashkent. 2017.- №2, -С.-15-20.
6. O‘zDst 632-2016. Volokno xlopkovoe. Metody opredeleniya massovoy doli porokov i sornyx primesey. Tashkent, 2016. -9 s.

7. Hengyi Dong, Xingli Jiu, Yongchuan Yu, Zhan Zhao. Leaf adhesiveness affects damage to fiber strength during seed cotton cleaning of machine-harvested cotton. «Industrial Crops and Products» Vol. 107, Issue 15, November 2017. Pages 211-216.
8. Omonov F. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik, Toshkent, —Voris nashriyoti, 2008 y.
9. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha qo‘llanma, —O‘zpaxtasanoatl AJ, Toshkent, 2019 y., 477 b. Spravochnik po pervichnoy obrabotke xlopka. Tashkent, kniga 1,2 «Mehnat», 1994.

YANGI TUZILISHDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING TEXNOLOGIK KO‘RSATKICHLARI TADQIQI

¹X.A.Xamdamov, ¹Q.M.Xoliqov

^{1,2}Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, xamdamovxakimjon66@gmail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy ikki yassi ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, qo‘shimcha elementlarni kiritish hisobiga ishlab chiqarilgan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qima namunalarining texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil natijalari keltirilgan. Qo‘shimcha elementlardan samarali foydalanish hisobiga trikotaj mahsulot assortimentlarini kengaytirish orqali trikotaj ishlab chiqarishda bir qator muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ikki qatlamli trikotaj, yuza zichlik, qalinlik, hajm zichligi, texnologik ko‘rsatkich, uzilish kuchi, qaytar va qaytmas deformatsiya, havo o‘tkazuvchanligi, protyajka.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДВУХСЛОЙНЫХ ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН НОВОЙ СТРУКТУРЫ

Аннотация. Представлены результаты анализа технологических показателей образцов двухслойных трикотажных переплетений новой структуры, изготовленных с использованием технологических возможностей современных плосковязальных трикотажных машин и введения дополнительных элементов. Эффективное использование дополнительных элементов позволяет решить ряд важных задач при производстве трикотажных изделий за счет расширения ассортимента трикотажных изделий.

Ключевые слова: двухслойное вязание, поверхностная плотность, толщина, объемная плотность, технологический индекс, прочность на разрыв, обратимая и необратимая деформация, воздухопроницаемость, растяжимость.

STUDY OF TECHNOLOGICAL PARAMETERS OF TWO-LAYER KNITTED FABRICS WITH A NEW STRUCTURE.

Abstract. The results of the analysis of the technological indicators of samples of two-layer knitted fabrics of a new structure, produced by using the technological capabilities of modern double-needle knitting machines and introducing additional elements, are presented. The effective use of additional elements allows solving a number of important tasks in the production of knitted products by expanding the range of knitted products.

Keywords: double-layer knitwear, surface density, thickness, volume density, technological indicators, breaking strength, reversible and irreversible deformation, air permeability, stretch.

Kirish. Trikotaj mahsulot assortimentlarini kengaytirishda qo‘shimcha elementlardan samarali foydalanish orqali trikotaj ishlab chiqarish sanoatida bir qator muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Trikotaj to‘qimalarining tuzilishi, xom ashyo tarkibi, rapporti va olish usullarini o‘zgarishi albatta uning texnologik va sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi.

Ko'plab soha olimlarining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlaridan ma'lumki, trikotaj to'qimalarining yuza zichlik ko'rsatkichini ma'lum chegaralarda kamaytirish-unga sarflanayotgan xom ashyo sarfini tejaliishiga olib keladi hamda u mustahkamlik xususiyatlariga salbiy ta'sir etmaydi, chunki trikotaj to'qimalarining chidamlilik xususiyati yuqori bo'lib, mahsulotlardan foydalanish davrida 20% uzilish kuchidan yuqori bo'lmagan kuchlanishlarga duch kelishi aniqlangan.

Resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash mahsulot sifatini saqlagan holda xomashyo sarfini kamaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot trikotaj matolar tuzilishini o'zgartirish va matoga qo'shimcha elementlarni kiritish orqali xomashyodan samarali foydalanish, mahsulotlarni resurstejamkorligini oshirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini o'rganadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot tabiiy xomashyodan tayyorlangan va yuqori ekologik hamda gigiyenik xususiyatlarga ega trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Turli xil trikotaj to'qimalarining tuzilishlari, jumladan qo'shimcha elementlar kiritilgan konfiguratsiyalar tahlil qilindi. Ushbu tuzilishni o'zgarishi xomashyo sarfini optimallashtirish va tannarxni kamaytirish hamda texnologik ko'rsatkichlarini optimallashtirishga mo'ljallangan.

Trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlarini uchta usul yordamida aniqlash mumkin:[1-4].

1. Standart bo'yicha (GOST, ISO, DIN) aniqlash. Trikotaj to'qima ko'rsatkichlarini hisoblash yo'li bilan aniqlash talab qilinmasa, yoki trikotaj to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari mavjud formulalar yordamida hisoblanganda, haqiqiy ko'rsatkichlardan sezilarli darajada farq qilsa ushbu usuldan foydalaniladi.

2. Eksperimental yo'l bilan aniqlash. Bu usul yangi trikotaj to'qimalarini ishlab chiqish ustida olib boriladigan ilmiy ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladi.

3. Hisoblash usuli bilan aniqlash. Ushbu usulni to'qimaning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashda qo'llash mumkin. Bu usul texnologik ko'rsatkichlarni hisoblash ketma-ketligi va halqa ipi uzunligi L ga asoslangan usuldir.

Tadqiqotda trikotaj matolarining old va orqa qatlamlardagi halqalarning joylashuvi hamda halqalarning almashinuvi yangi tuzilishni hosil qildi, biriktiruvchi elementlar - old halqalar protyajkalari orqa halqalar oldida, orqa halqalar protyajkalari esa old halqalar orqasida joylashdi, natijada funksional trikotaj mato assortimentini yaratildi.

Tadqiqot natijalari. Har qanday trikotaj to'qimasining ko'rsatkichlariga xom ashyo xususiyati, ip o'rilishi, pardoqlash usuli ta'sir etadi [7]. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasi ikkita bir xil yoki ikkita turli bir qavatli to'qimadan tarkib topgan bo'ladi, bitta to'qimaning ko'rsatkichlari boshqa to'qimaga qaraganda, anchagina yaxshiroq ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin. Mazkur holat ikkita bir qavatli qatlamlarning o'zaro ta'siriga bog'liq bo'ladi. Bitta qatlam ikkinchi qatlam bilan biriktirilishida uning dastlabki ko'rsatkichlarini o'zgartirishi, boshqasi esa, o'z navbatida birinchi qatlam ko'rsatkichlarini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun ikki qatlamli trikotaj to'qimasi qatlamlarini shakllantiruvchi halqa ipi uzunligi va zichligini muvofiq ravishda bir qavatli to'qima uchun formula orqali aniqlab bo'lmaydi. Bundan tashqari ushbu ko'rsatkichlar biriktirish turi va usuliga bog'liq bo'ladi [8].

Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishni o'rganish katta qiziqish uyg'otadi, chunki bu to'qimalarining ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Trikotaj to'qimalarida halqalar tuzilishi uning maydon birligiga sarflangan ipning to'ldirilishi bilan tavsiflanadi.

Trikotajning tuzilishi yoki konstruksiyasi har qanday to‘qimachilik mahsulotlari singari, uni tashkil etuvchi elementlarining o‘lchami, shakli va nisbiy joylashuvi bilan belgilanadi. Tuzilishiga qarab, trikotaj konstruksiyasining elementlari halqalar, yoylari, press nabroskalari va protyajkalar bo‘lishi mumkin. Trikotajning ayrim turlarida halqalar, yoylar va protyajkalar bilan bir qatorda tuzilishga qo‘shimcha press nabroskalarini kiritilishi mumkin. Trikotaj tuzilishi elementlarini ma’lum bir ketma-ketlikda ulash orqali trikotaj to‘qimasi hosil bo‘ladi.

Bitta mustaqil qatlamning ikkinchi mustaqil qatlamga ta’sir etishi kalava ip turi, uning mexanik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi: qanchalik kalava ip qayishqoqligi katta bo‘lsa, uning chiziqli zichligi ortishida ko‘rsatkichlar shunchalik ko‘p o‘zgaradi.

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining bitta mustaqil qatlami ikkinchi mustaqil qatlamiga ta’sir etish darajasini aniqlovchi boshqa omil, halqa ipi uzunligi hisoblanadi. Dastavval belgilab qo‘yilgandek, bunda bitta qatlamni shakllantiruvchi halqa ipi uzunligi o‘zgarmas bo‘lganda, to‘qish jarayonida ikkinchi qatlam halqa ipini katta chegaralarda o‘zgartirishga yo‘l qo‘yiladi.

Ko‘ndalang va yassi to‘qilgan trikotaj to‘qimalari uchun xom ashyo sarfini quyidagi formula bo‘yicha aniqlash tavsiya etiladi:

$$M_s = l \cdot T / A \cdot B \quad (1)$$

bu yerda: M_s -trikotaj to‘qimasining yuza zichligi;

l - $A \cdot V$ halqa yuzasiga to‘g‘ri keladigan halqa ipi uzunligi (mm);

T -ipning chiziqli zichligi (teks).

Har bir trikotaj to‘qimasi uchun halqa ipi uzunligi halqa yuzasiga bevosita bog‘liq. Har qanday ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi uchun qatlamlarning bir-biri bilan o‘zaro ta’sir etishi va ular turli darajada bo‘lganligi sababli boshqacha tavsifli o‘zaro bog‘liqliklar yuzaga keladi.

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini to‘qish zichligi bir xil bo‘lganda trikotaj to‘qimalari turli xil halqa uzunligi l qiymatiga ega bo‘lishi va demak, $1m^2$ to‘qima birligiga nisbatan turlicha xom ashyo sarfiga ham ega bo‘lishi yoki aksincha, to‘qish zichligi qiymati turlicha bo‘lganda, o‘zgarmas yuza zichlik qiymatiga ega bo‘lishi mumkin.


Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining teskari tomon halqa uzunligi ortishi bilan halqa yuzasi parabolikka yaqin qonun bo‘yicha ortib borishi va ma’lum chegaraga intilishi sababli, formuladagi birinchi qo‘shiluvchi asta-sekin kamayib boradi, ikkinchi qo‘shiluvchi esa, avval kamayadi, so‘ngra esa, ortib boradi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida assortiment turlarini kengaytirish, xom ashyo sarfini tejash va sifatini oshirish maqsadida yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining 6 ta varianti 5-7 klassli WONDERFUL WD-252HP rusumli (Xitoy) yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinasida to‘qib olindi. Ishlab chiqarilgan trikotaj to‘qimasining yangi namuna variantlari 2-rasmda ko‘rsatilgan. Xom ashyo sifatida chiziqli zichligi 20 teks x 2 bo‘lgan poliakrilonitril ip ishlatilgan.


Trikotaj to‘qimalarini olinish usuli va to‘qima tuzilishini trikotajning texnologik ko‘rsatkichlariga ta’siri tadqiq etildi.

Ishlab chiqarilgan yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining grafik tasviri 1-rasmda keltirilgan.


Taklif etilayotgan trikotaj variantlarining texnologik ko‘rsatkichlari Namangan to‘qimachilik sanoati instituti qoshidagi laboratoriyasida standart usulda aniqlangan va natijalar 1-jadvalda keltirildi.



3 variant



5 variant



4 variant

1-rasm. Yangi tuzilishdagi trikotaj to‘qimalarining tuzilishi.

Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari Namangan to‘qimachilik sanoati institutining sinov-tajriba laboratoriyasida standart usullarda sinovdan o‘tkazildi, olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

Tahlil natijalari bo‘yicha halqa qadami, halqa qatori balandligi, gorizonta va vertikal yo‘nalish bo‘yicha zichlik, halqa ipi uzunligi kabi texnologik ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Tadqiq natijalarini tahlil qilish orqali, shuni ta’kidlash mumkinki, trikotaj namunalarini ishlab chiqarishda to‘qima turi barcha namunalar bir turdagi iplar bilan ishlab chiqarilganligiga qaramasdan, tuzilish o‘zarishi uning texnologik parametrlariga ta’sir qiladi.


1-jadval

Yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar		Variantlar					
		I	II	III	IV	V	VI
Iplarni turi, chiziqli zichliklari	Old qatlam	Poliakrilnitril 35teks x2 (2 ta)					
	Orqa qatlam	Paxta ipi 20 teks (6 ta)					

Halqa qadami, A (mm)	Old qatlam	3,3	2,4	2,6	2,5	2,8	3,3
	Orqa qatlam	3,1	2,6	2,4	2,9	2,8	2,6
Halqa qatori balandligi, B (mm)	Old qatlam	2,2	2,1	2,0	2,4	2,4	2,1
	Orqa qatlam	2,0	2,0	2,2	2,4	2,4	1,9
Gorizontal bo'yicha zichlik (halqalar soni)	Old qatlam	13	21	19	20	18	15
	Orqa qatlam	16	19	21	17	18	19
Vertikal bo'yicha zichlik (halqalar soni)	Old qatlam	23	24	25	21	21	24
	Orqa qatlam	25	25	23	21	21	28
Halqa ipi uzunligi L (mm)	Old qatlam	16	8,2	9,5	8,4	11,2	11,2
	Orqa qatlam	7,5	11,7	8,8	8,7	11,5	9,1
Trikotaj yuza zichligi, Ms (gr/m ²)		623,4	515,9	495,5	525,5	613,4	561,7
Trikotaj qalinligi, T (mm)		4,37	3,91	3,73	4,04	4,44	4,14
Hajm zichligi, δ (mg/sm ³)		143	132	133	130	138	136

Tadqiqot natijalari tahlili. Yuza zichligi $Ms=515,9 \text{ g/m}^2$ va qalinligi $T=3,91 \text{ mm}$ bo'lgan tajribada olingan ikki qatlamli trikotaj to'qimasining II variantda hajmiy zichligi 132 mg/sm^3 ni, $Ms=495,5 \text{ g/m}^2$ yuza zichlikka va $T=3,73 \text{ mm}$ qalinlikka ega bo'lgan III variant trikotaj to'qimasining hajmiy zichligi esa 133 mg/sm^3 ni, $Ms=525,5 \text{ g/m}^2$ yuza zichlikka va $T=4,04 \text{ mm}$ qalinlikka ega bo'lgan IV variant trikotaj to'qimasining hajmiy zichligi esa 130 mg/sm^3 ni, $Ms=613,4 \text{ g/m}^2$ yuza zichlikka va $T=4,44 \text{ mm}$ qalinlikka ega bo'lgan V variant trikotaj to'qimasining hajmiy zichligi esa 138 mg/sm^3 ni hamda $Ms=561,7 \text{ g/m}^2$ yuza zichlikka va $T=4,14 \text{ mm}$ qalinlikka ega bo'lgan VI variant trikotaj to'qimasining hajmiy zichligi esa 136 mg/sm^3 ni tashkil etdi.



2-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to'qimasining hajm zichligini o'zgarishi

Mos ravishda ushbu to‘qimalar yuza zichligi $M_s=623,4 \text{ g/m}^2$ va qalinligi $T=4,37 \text{ mm}$ hamda hajmiy zichligi 143 mg/sm^3 ga teng bo‘lgan asos to‘qimaga nisbatan II variantda 8 % ga, III variantda 7 % ga, IV variantda 9 % ga, V variantda 3 % ga va VI variantda 5 % ga xomashyo sarfi kamayganini bildiradi.

Ushbu variantlar resurstejamkor va yuqori shakl saqlash xususiyatiga ega. Shuning uchun, kattalar va bolalarga mo‘ljallangan yuqori sifatli ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tavsiya qilishimiz mumkin.

Trikotajning hajm zichligi texnologik ko‘rsatkichlari ichida asosiylaridan biri hisoblanib, u trikotaj to‘qimasidagi xomashyo sarfi miqdorini ko‘rsatadi. Trikotaj to‘qimasining yuza zichligi o‘zgarishi orqali uning qalinligi va boshqa fizik-mexanik xususiyatlari o‘zgarib boradi. Trikotaj to‘qimasining hajmiy zichligi foydalanilayotgan kalava ipning turi va qalinligi, trikotajning zichligi va to‘qima turi hamda mashina klassiga bog‘liq bo‘lgan holda, sezilarli miqdorda keng chegarada o‘zgaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, trikotaj matolari tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish, ayniqsa, qo‘shimcha elementlardan foydalanish orqali mahsulotlarning resurstejamkorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Halqalar, yo‘llar va protyajkalar tartibini optimallashtirish orqali xomashyo sarfini kamaytirish bilan birga matoning sifati yaxshilandi. Tadqiqot, shuningdek, ushbu tuzilma o‘zgarishlari trikotaj mahsulotlarining gigiyenik xususiyatlarini yaxshilaganini aniqladi, bu esa ularni keng doirada qo‘llash uchun mos qiladi. Qolaversa, trikotaj matolarining tuzilmasini o‘zgartirish nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki tannarxni ham pasaytiradi. Ushbu topilmalar ekologik toza trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun juda dolzarb bo‘lib, ular mahalliy va xalqaro bozor talablariga javob beradi.

Tadqiqot trikotaj matolari tuzilmasi trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi va sifatiga muhim ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Qo‘shimcha elementlarni, masalan, qo‘shimcha iplar yoki protyajkalarni kiritish ishlab chiqarish jarayonida katta moslashuvchanlikni ta‘minlaydi va xomashyoni optimallashtirishga yordam beradi. Bu ayniqsa bugungi kunda to‘qimachilik sanoatida juda muhim, bunda barqarorlik va tannarxni tejash asosiy ahamiyatga ega.

Xulosa. Yangi tuzilishli ikki qatlamli trikotaj to‘qima namunalarining to‘qima tuzilishlarini o‘zgarishi va to‘qimalarni olishda hosilali glad va lastik tartibda ignalarni joylashtirish hisobiga III, IV va V variantlardagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining xomashyo sarfi ko‘rsatkichlari asos to‘qimasiga nisbatan kam ekanligi aniqlandi.

Ushbu tadqiqot trikotaj matolarining tuzilishlarini o‘zgartirish va qo‘shimcha elementlarni kiritish trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi va sifatini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allaniyazov G.Sh., Kholikov K.M., Mukimov M.M., Gulyaeva G.Kh., Musaeva M.M. About influence of the linear density of the thread of the back layer of double-layer knitted fabric's on its technological parameters // International Engineering Journal For Research & Development. Vol. 6, Issue 6. November 2021. -pp. 51-55.
2. Allaniyazov G.SH., Xolikov K.M., Mukimov M.M. Razrabotka novyx struktur dvuxsloynogo trikotaja // Materialy dokladov 54-y Mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferentsii prepodavateley i studentov. 28 aprelya 2021g. TOM 2. -S.223-225.

3. Shogofurov Shaxbozjon Shokijon o‘g‘li, Musaeva Gulshan Qaxramon qizi, Xamdamiyov Xakimjon Abdusattarovich, Mamatova Xadicha Qurbonali qizi, Xoliqov Qurbonali Madaminovich. Yassi igna mashinasida olingan trikotaj matoni kompleks baholash. <https://pubs.aip.org/aip/acp/article/2789/1/040125/2900119>.
4. Uralov L., Xamdamiyov X.A. et al. Study of technological performance of two-layer knitted fabrics // AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2789. – №. 1.
5. Shogofurov Shaxbozjon Shokijon o‘g‘li, Ergashev Ma‘murjon Maqsud o‘g‘li, Xamdamiyov Xakimjon Abdusattarovich, Salayeva Nozima Sattorovna, Xoliqov Qurbonali Madaminovich. Orqa trikotaj matoni kompleks baholash diagrammasi. https://pubs.aip.org/aip/acp/articlepdf/doi/10.1063/5.0145476/18015902/040124_1_5.0145476.pdf
6. T.K. Allamuratova, M.M. Mukimov, G.SH. Allaniyazov. Issledovanie vliyaniya vida syrgya na texnologicheskie parametry dvuxsloynogo trikotaja. Jurnal Izvestie vuzov. Tekhnologiya tekstilnoy promyshlennosti 2022 g. Rossiya № 6 (402) – S.86-90.
7. Tsitovich I.G. Tekhnologicheskoe obespechenie kachestva i effektivnosti protsessov vyazaniya poperechnovyazannogo trikotaja. M.: Legprombitizdat. 1992, 240 s.
8. Prokazova M. A. Razrabotka assortimenta trikotaja kombinirovannykh perepleteniy na baze dvuxsloynogo proizvodnogo lastika. Dis... kand. texn. nauk. -Moskva.- 2010. -132s.

НОТИПОВИЙ ҚОМАТ ТУРИДАГИ ЭРКАКЛАРНИНГ КИЙИМ ТЎПЛАМИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЧУН ТРИКОТАЖ МАТОЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

¹ *Набиджоновна Наргиза Насимжановна, ¹Насирова Муқаддас Бахтияровна*

¹Наманган тўқимачилик саноати институти, «Енгил саноат маҳсулотларини конструкциялаш ва технологияси» кафедраси профессори, т.ф.д. Тел: +998 (93) 6710114. Email: nargizanabidjanova .

¹Наманган тўқимачилик саноати институти, 3-босқич мақсадли таянч докторанти Тел:+998 (94) 8685115. Gmail: mnasirova664@gmail.com

Аннотация. Мавзунинг долзарблиги, олдимизга қўйилган мақсадга кўра нотиповий қоматли эркакларнинг кийимга бўлган эҳтиёжларини ўрганиш, уларни таҳлил қилиш асосида янги турдаги сифатли трикотаж матоларининг физик-механик хусусиятларини ўрганиш ва таҳлил қилиш.

Калит сўзлар: трикотаж матолари, нотиповий қомат, полеефир, пахта, эластан, полестер, тераомметр.

RESEARCHING AND ASSESSING KNITTED FABRIC PROPERTIES FOR DESIGNING OF CLOTHING FOR MEN WITH UNUSUAL SHAPES

Abstract. The relevance of the topic is based on studying the clothing needs of men with non-standard body shapes, analyzing them, and examining the physical and mechanical properties of new types of high-quality knitted fabrics.

Keywords: knitted fabrics, non-standard body shape, polyester, cotton, elastane, teraohmmeter.

ИЗУЧЕНИЕ И АНАЛИЗ ФУНКЦИЙ ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН В ПРОИЗВОДСТВЕ ОДЕЖДЫ ДЛЯ МУЖЧИН С НЕТИПИЧНЫМ ТИПОМ ТЕЛА

Аннотация. Актуальность темы заключается в изучении потребностей в одежде мужчин с нестандартной фигурой, их анализе, а также исследовании физических и механических свойств новых видов высококачественных трикотажных тканей.

Ключевые слова: трикотажные ткани, нестандартная фигура, полиэстер, хлопок, эластан, тераомметр.

Кириш. Жаҳонда трикотаж маҳсулотларининг асосий хомашёси пахта толаси хисобланиб, унинг табиий сифат кўрсаткичларини сақлаган ҳолда чуқур қайта ишлаш, ҳамда ушбу жараёнда инновацион, энергия ва ресурстежамкор технологияларни жорий қилиш масалаларига алоҳида аҳамият берилмоқда. Тикув буюмларини дунё микёсида ишлаб чиқариш ва ташқи бозорларга экспорт қилишда Хитой, Туркия, Ҳиндистон, Бангладеш каби давлатлар энг олдинги қаторларда туради. Республикамизда иқтисодиётга инновацион янги технологияларни қўллаш орқали маҳаллий пахта хомашёсидан импорт ўрнини босувчи ва экспортга йўналтирилган юқори сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқаришни чуқурлаштириш, саноат тармоқларида рақамли технологияларни ривожлантиришга қаратилган кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги

Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида миллий иқтисодийни барқарорлигини таъминлашга йўналтирилган саноат сиёсатини рўёбга чиқаришни давом эттириш, ялпи ички маҳсулотда саноат улушини ошириш ва саноат маҳсулотини ишлаб чиқариш ҳажмини 1,4 марта ошириш, тўқимачилик саноати маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини эса икки мартага кўпайиши...назарда тутилган [1]. Бозор иқтисодиётида бошқаришнинг янги шартлари маҳсулот сифатига янги талаблар қўймоқда. Шундай экан, замон талабига биноан ностандарт кийимларга эҳтиёж ҳам ошиб бормоқда. Бу эса янада муҳим бўлиб, тикувчилик маҳсулотлари аҳолининг мунтазам равишда ўсиб бораётган талаб ва эҳтиёжларини қондириши керак. Ҳар бир йўналиш, ҳар бир саноат корхонаси ишлаб чиқаришдаги янгиланишнинг кенг ассортиментиغا эга бўлиши лозим. [2]

Тадқиқотнинг методологияси. Трикотаж бир ёки бир неча иплардан ҳалқалар ҳосил қилиб, уларни ўзаро бириктириш (ўриш) натижасида олинадиган мато ёки буюм. Трикотаж ипларнинг таркибига, ишлатилиши, пардозлаш усули ва тузилишига қараб турларга бўлинади. Таркибига қараб пахта ипи, жун, ипак ва кимёвий тола аралашган иплардан тўқилган хилларга бўлинади. Ишлатилишига қараб, трикотаж буюмлар ёки матоларга бўлинади. Трикотаж матоларидан костюм, жемпер, кофта, пальто, қўлқоп, қўйлак, ички кийим, пайпоқ ва бошқа матоларига сунъий мўйна, сунъий чарм киради; булар техник мақсадларда ва турли хил кийимлар тайёрлашда ишлатилади. Пардозлаш усулига қараб, дағал, оқартирилган, текис ва бўялган хилларга бўлинади. Трикотажнинг асосий физик механик хоссалари унинг тузилишига, ҳалқаларнинг шакли ва ўлчамига, ипнинг йўғон ва ингичкалигига, қалинлиги ва пишиқлигига боғлиқ. Тузилиши (структураси) га қараб, кўндаланг тўқилган, танда ўрилишли, бир қаватли ва икки қаватли бўлади. Трикотаж юмшоқлиги, эластиклиги, ғижимланмаслиги, енгиллиги, осон ювилиши билан бошқа тўқима матолардан устун туради. Трикотаж ўрилиш бошқа оддий газламалар ўрилишидан фарқ қилади. Бир ёки бир неча узлуксиз ип ҳалқаларини бир-бирига бирлаштириб ҳосил қилинади. [3]

Тикувчилик буюмларига маълумки гигиеник, техник, эстетик ва иқтисодий талаблар қўйилади:

Гигиеник талаблар - инсон соғлиғини сақлашқа қаратилган талаблар. Ҳаво ўтказувчанлиги, гигроскоплиги, иссиқдан ҳимоя қилиш хоссалари, киришимлиги, сув ўтказувчанлиги ва ҳ.к. кийимнинг асосий гигиеник кўрсаткичларидир. Гигиеник талаблар буюмнинг нимага мўлжалланганлигига боғлиқ. Ички кийим ва ёзги кийимларнинг ҳаво ўтказувчанлиги ва гигроскопиклиги яхши бўлиши, уларни кийиб юриш қулай бўлиб, осонликча ювилиши керак.


Техник талаблар - тикувчилик материалларининг сифатига ва кийимлар тайёрлашга қўйиладиган талаблар. Тикувчилик материаллари ва тайёр тикувчилик буюмлари Давлат стандартларига мос келиши шарт.

Эстетик талаблар - ранг уйғунлиги, нақшлар, деталлар ва дизайн элементлари кийимнинг эстетикасини белгилайдиган элементлардир, бу замонавийлик билан боғлиқ.

Иқтисодий талаблар кийимнинг нархи билан белгиланади. [4]

Мавзунинг долзарблиги, олдимизга қўйилган мақсадга кўра нотиповий қоматли эркакларнинг кийимга бўлган эҳтиёжларини ўрганилиб, баҳор ва куз мавсуми учун тўғри келадиган устки кийимларни тикиш мақсадида Хитой Давлатидан келган сариқ ҳамда кўк рангли, янги икки хил турдаги тўқима матоларининг физик-механик хусусиятларини, тола таркибини, ҳаво ўтказувчанлигини, ишқаланишга чидамлилигини, газламани оғирлигини, узилиш кучини аниқлаш, намлик шимувчанлигини таҳлил қилиш муҳим аҳамиятларидан бири ҳисобланади.

Полиэфир толалар — полиэтилентерефталатдан тайёрланадиган синтетик толалар. Иссиққа чидамлигига кўра, полиэфир толалар маълум бўлган барча табиий ва синтетик толалардан устун туради. Полиэфир толалар ишқаланишга, ёруғлик нури, ишқорларнинг қайноқ ва концентрланган эритмалари таъсирига чидамли.



1-расм. Полиэфир толасидан маҳсулот бўлгунига қадар келиб чиқиши фото лавҳаси.

Техник полиэфир толалар конвейер ва турли механизмлар учун узатувчи тасмалар, ар-конлар, фильтрловчи материаллар ва бошқа тайёрлашда ишлатилади. Тўқимачилик иплари (кримплен, мелан ва бошқалар), трикотаж, турли матолар ишлаб чиқаришда қўлланади. Савдодаги номлари: лавсан (МДХ мамлакатлари), терилен (Буюк Британия), дакрон (АҚШ), элана (Полша), тесил (Чехия).

Пахта толаси — чигит қобиғида етиладиган ингичка, узун, силлиқ ва пишиқ табиий тола. Асосан, пахта целлюлозасидан иборат. Пахта тозалаш корхоналарида чигитдан ажратиб олинади. Ип ва тўқимачилик маҳсулотлари тайёрлашда ишлатилади. Пахта толасидан, асосан, тўқимачилик саноатида турли ип газлама (сатин, батист, зефир, тўр, поплин ва ҳақозо), трикотаж ва бошқа ишлаб чиқарилади, йигирилган ип тайёрланади. Ундан авиация, электротехника ва автомобиль саноатида парашют, махсус қистирмалар, изоляция материаллари, транспортёр ленталари, автошиналар, юритма тасмалари ва бошқалар ишлаб чиқарилади. Бундан ташқари, момик пахта, тўқилмаган материаллар ва бошқалар олишда ҳам ишлатилади.



2-расм. Пахта толасидан маҳсулот бўлгунига қадар келиб чиқиши фото лавҳаси.

Пахта толаси таркиби (%): целлюлоза — 90,35— 94,6; сув — 7; сувда эрийдиган моддалар — 0,5; инкрустация моддалари — 0,75; ёғ ва мум — 0,4; азот моддалари — 0,5; кул — 0,12. Тола девори бир неча қатламли тузилишга эга (расмга қ.). Қалинлиги 1 мк дан кичик бўлган ташқи қатлам биринчи девор ёки кутикула (1—3) дейилади. Кутикула кимёвий таркиби ва тузилиши бўйича асосий целлюлоза деворидан жиддий фарқ қилиб, таркибида (% ҳисобида) целлюлоза — 54, оқсил — 14, пектин моддалари — 9, мум — 8, кул — 3, кутин — 4 бор. Турли саноат навларининг кимёвий таркиби ҳам турлича. Тола таркибида гидрофоб

хоссали мум борлиги учун тола яхши ҳўлланмайди. Пахта толаси, асосан, шаффоф моддалар (целлюлоза, ёғ, мум) дан ташкил топсада хира бўлади, чунки таркибида ҳар хил майда кўшимчалар бор. Ёруғлик биринчи девор сиртидан нотекис қайтиши туфайли тола оқ бўлиб кўринади. Толанинг биринчи нави окрок, паст навлари тўкроксариқ ёки жигарранг бўлади. Эластан Хитойда спандекс деб аталадиган асосий компонент сифатида полиуретан билан блоккли кополимердан тайёрланган толага ишора қилади ва Америка Қўшма Штатлардаги асл савдо номи спандекс эди ва кейинчалик унинг номини лайкра, эластан деб ўзгартирди. Европа, Японияда неолон, Германияда дорластан. Унинг эластиклиги унинг молекуляр тузилишидан келиб чиқади, у "юмшоқ" ва "қаттиқ" деб аталадиган сегментлардан ташкил топган блок-сополимерлар тармоғидан иборат. Турли хил блоккли кополимерлар ва турли йигирув жараёнлари билан, бу толанинг эластиклиги ва бўяш ва пардозлаш хусусиятлари бошқа "сегмент" тармоқ тузилишини ҳосил қилгандан кейин ҳам фарқ қилади. Эластанни кийимга қайта ишлашнинг иккита асосий усули мавжуд. Биринчиси, эластан толасини эластик бўлмаган ипга ўрашдир.



3-расм. Эластан толасидан маҳсулот бўлгунига қадар келиб чиқиши фото лавҳаси.

Бу табиий ёки сунъий бўлиши мумкин. Олинган ип ўралган толанинг кўриниши ва хусусиятларига эга. Иккинчи усул - тўқув жараёнида ҳақиқий эластан толаларини кийимларга киритиш. Кичик миқдордаги эластан фақат унинг хусусиятларини матоларга кўшиш учун талаб қилинади. Шимлар қулайлик ва уйғунликни ошириш учун фақат тахминан 2% дан фойдаланади, энг юқори фоиз сузиш кийимлари, корсет ёки спорт кийимларида 15-40% эластанга этади. У ҳеч қачон ёлғиз ишлатилмайди ва ҳар доим бошқа толалар билан аралаштирилади.[4,8]

Таҳлил ва натижалар. Газламаларни текширтириш учун Тошкент шаҳрида жойлашган “Ўзбекистон илмий-синов ва сифат назорати маркази”, “UZ TEST” Енгил саноат лабораториясида синовдан ўтказилди. Нотиповий турдаги эркалар қомадининг тўла қомадли тури учун намунага олинган трикотаж матолари Ўзбекистон ҳамда Хитой Давлатининг матоларидир. Синовлар нормал иқлим шароитидаги хонада ўтказилди.



1)

2)

3)

4- расм. Намуна учун уч хил турдаги трикотаж матолари.

1-жадвал

Синов учун ишлатилган ускуналар

№	Ўлчов воситалари /Синов ускуналари номи	Тури, завод рақами	Қиёслаш ва калибрлаш тўғрисидаги маълумот
1	Юза электр қаршилик ўлчагич	МТ – 420	№1042913-2023 16.11.2024 йилгача
		Тераомметр Е6-13А	№919598- 2023 17.11.2024 йилгача
2	Электростатик майдон кучланишини ўлчовчи ускуна	СТ-01 турдаги, №282419 серия рақамли	№ UZ-07/184-2023-30.10.2024 йилгача
3	Қуритиш шкафи	BINDER FD115, серия рақамли 20200000000941	№ UZ -09Т/1883-2023-17102023 йилгача
4	Кўп функциялик узиш синов ускунаси	Моделли “МТ 120-10-01-01” зав№120-10-01-01.07	№ UZ-06/2400-2023 18.10.2023 йилгача
5	Оғирликни ўлчаш мосламаси	СУ224С турдаги, №21323423 серия рақамли	№ UZ- 04/125-2023 14.03.2023 йилгача
6	Ишқаланишга чидамлилигини аниқлаш ускунаси	TABER-5135	№ 1042571-2023 07.11.2024 йилгача
7	Метал чизгич	Серия №21402743, 0-1000мм гача	№ UZ-06/2607-2023 31.10.2023 й дан
8	Ювишда ранг чидамлилигини аниқлаш ва кимёвий тозалаш ускунаси	GT-D07 турдаги W20075 серия рақамли	№ UZ-09Т/1319-2023 07.09.2023 йилгача
9	Текстил матолари ва юз ниқобларини ҳаво ўтказувчанлигини аниқловчи ускуна	GT-C27А турдаги, W20076 серия рақамли	№ 1031240-2023
10	Иссиқ, совуқ ва намлик иқлим камераси	Model КМН 512S №S0220301010200226-001	№ UZ-09Т/1318-2023 07.09.2023 йилгача
11	Хўл ва қуруқ ишқаланишнинг ранг чидамлилигини аниқлаш	Crockmetr турдаги tm AATCC M238 BB серия рақамли	№1043906-2023 11.12.2024 йилгача

2-жадвал

Синовлар натижалари

№	Синов турини номи (наименование видов испытаний)	Меъёрий хужжат бўйича синов усуллари	Синов натижалари
1	Удельное поверхностное электрическое сопротивление, Ом	ГОСТ 19616 -74	$3,6 \times 10^8$, $2,4 \times 10^9$ $1,9 \times 10^9$
2	воздухопроницаемость $\text{дм}^3/\text{м}^2\text{с}$, не менее 60	ГОСТ ISO 9237-213	$157,2 \text{ дм}^3/\text{м}^2\text{с}$ $183,9 \text{ дм}^3/\text{м}^2\text{с}$, $193,5 \text{ дм}^3/\text{м}^2\text{с}$

3	Состав ткани, %	ГОСТ ISO 1833 - 11- 2011 ГОСТ ISO 1833- 11-2011 ГОСТ ISO 1833- 11-2011	1)Полеэфир-70% Хлопок-25% Эластан -5% 2)Хлопок-70% Полиэфир-23% Эластан-7% 3)Полиэфир-58% Хлопок-35% Эластан-7%
4	Напряженность электростатического поля, не должна превышать кВ/м	ГОСТ 32995 -2014	0,35 kV/m, 0,21 kV/m 0,35 kV/m
5	Ширина ткани	ГОСТ 6611.4-73	190 см, 192 см, 168 см
6	Разрывная нагрузка по петельным столбикам, N	ГОСТ 8847-85	265,9 N, 272,8 N, 279,2 N
7	Устойчивости окраски, баллы, не менее К стирке К поту К сухому трению К орг. раствору , К глаж. с запах	ГОСТ 9733.4-83 ГОСТ 9733.6-83 ГОСТ 9733.27-83 ГОСТ 9733.7-83 ГОСТ 9733.13-83	К стирке—4/4б; 4/4б; К поту—4/4б; 4/4б; К сух. Трению 4б;4б К глаж с запах-4б;4б
8	Поверхностная плотность, г/м ²	ГОСТ 8845-87	529,2 г/м ² , 257,4 г/м ² 411,2 г/м ²

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда газламаларни текширтириш учун Тошкент шаҳрида жойлашган “Ўзбекистон илмий-синов ва сифат назорати маркази”, “UZ TEST” Енгил саноат лабораториясида синовдан ўтказилди. Нотиповий турдаги эркалар қоматининг тўла қоматли тури учун (4-расм) биринчи ва иккинчи турдаги трикотаж матолари Ўзбекистоннинг трикотаж ишлаб чиқариш корхоналаридан намуна учун олинган. Учинчи турдаги намунамиз Хитой Давлатидан келтирилган трикотаж матосидир. ГОСТ стандартдан 8 хил турдаги ўтказилган синов натижаларига кўра биринчи ҳамда учинчи турдаги трикотаж мато туримиз ҳаво ўтказувчанлиги, ранги, таркибидаги толаларнинг ҳисобига ва газламанинг баҳор ва куз мавсуми учун эркалар нотиповий қоматига мос бўлган янги маҳсулот туримизга ҳар томонлама маъқул келди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг —2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида ПФ-60 сонли қарори. 2022 йил, 28 сентябр.
2. Насирова М.Б. Магистр академик диссертацияси. -2022.www.uz.wikipedia.org.
3. Набиджанова Н.Н. “Тикув буюмларини лойиҳалаш ва технологиясининг назарий асослари” фанидан ўқув-услубий мажмуа. Наманган-2022 йил.www.uz.wikipedia.org.
4. Мальцева Е.П. Тикувчилик материалшунослиги. М.1986 йил.
5. Э.Олимбоев, Р.Ахмедов, У.Абдуллаев, Б.Тўракулов. Газламаларнинг тузилиши ва таҳлили. Тошкент-2003 й
6. Т.А.Очилов, Н.Г.Аббосова, Ф.Ж.Абдуллина, Қ.И.Абдулнӣёзов. Газламашунослик. Тошкент-2023 й.

USING FULL-CYCLE STRAIN GAUGES TO TEST THE MECHANICAL PROPERTIES OF TEXTILE PRODUCTS

¹*Abdulazizov Shokirjon Abdurashidovich*, ¹*Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich*,
³*Akhtam Qosimov Akramovich*, ⁴*Yuldashev Rustam Ramziddinovich*

¹PhD student at Namangan Institute of Engineering and Technology

²Professor of the Knitted Fabrics Department at Namangan Institute of Textile Industry

³Candidate of Technical Sciences, Namangan Institute of Engineering and Technology

⁴Master's student at Namangan Institute of Engineering and Technology

Abstract. This study examines the use of full-cycle strain gauges for analyzing the mechanical properties of textiles, including elasticity, tensile strength, and elongation. Strain gauges enable precise, continuous measurement of deformation under various loads, simulating real-world stress conditions. Key methods include experimental strain gauge testing, data acquisition, and computational analysis. Results demonstrate the advantages of full-cycle strain gauges in accuracy, repeatability, and versatility across textile materials. These findings aid in optimizing production, ensuring quality, and advancing textile innovation, offering valuable insights for textile engineering and quality control professionals.

Keywords: textile industry, mechanical properties, traditional testing methods, full-cycle strain gauges, elasticity, tensile strength, hardness, elongation, strain gauge data, woven fabrics, knitted fabrics, nonwoven fabrics, stress-strain curves, cyclic loading test, real-world application.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕНЗОДАТЧИКОВ ПОЛНОГО ЦИКЛА ДЛЯ ИСПЫТАНИЙ МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ИЗДЕЛИЙ

Аннотация. В этом исследовании рассматривается использование полноцикловых тензодатчиков для анализа механических свойств текстильных изделий, включая эластичность, прочность на разрыв и удлинение. Тензодатчики обеспечивают точное, непрерывное измерение деформации при различных нагрузках, имитируя реальные условия напряжения. Ключевые методы включают экспериментальное испытание тензодатчиков, сбор данных и вычислительный анализ. Результаты демонстрируют преимущества тензодатчиков полного цикла в точности, повторяемости и универсальности для текстильных материалов. Эти результаты помогают оптимизировать производство, гарантировать качество и продвигать текстильные инновации, предлагая ценную информацию для специалистов по текстильной инженерии и контролю качества.

Ключевые слова: текстильная промышленность, механические свойства, традиционные методы испытаний, тензодатчики полного цикла, эластичность, прочность на разрыв, твердость, удлинение, данные тензодатчиков, тканые материалы, трикотажные ткани, нетканые материалы, кривые напряжение-деформация, испытание на циклическую нагрузку, реальное применение.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING MEXANIK XUSUSIYATLARINI SINASH UCHUN TO'LIQ TSIKLLI TENZODATCHIKDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot to'qimachilikning mexanik xususiyatlarini, shu jumladan elastiklik, tortishish kuchi va cho'zilishni tahlil qilish uchun to'liq tsiklli deformatsiya o'lhagichlardan foydalanishni o'rganadi. Deformatsiya o'lhagichlar haqiqiy stress sharoitlarini taqlid qilib, turli xil yuklar ostida deformatsiyani aniq, uzluksiz o'lchashni ta'minlaydi. Asosiy usullarga deformatsiya o'lhagichlarni eksperimental sinovdan o'tkazish, ma'lumotlarni yig'ish va hisoblash tahlili kiradi. Natijalar to'liq tsiklli tenzodatchiklarning to'qimachilik materiallari uchun aniqlik, takrorlanuvchanlik va ko'p qirrali bo'lgan afzalliklarini ko'rsatadi. Ushbu natijalar ishlab chiqarishni optimallashtirish, sifatni ta'minlash va to'qimachilik innovatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi, to'qimachilik muhandisligi va sifat nazorati bo'yicha mutaxassislarga qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, mexanik xususiyatlar, an'anaviy sinov usullari, to'liq tsiklli yuk xujayralari, elastiklik, cho'zilish kuchi, qattiqligi, cho'zilishi, tenzodatchik ma'lumotlari, to'qilgan matolar, trikotaj matolar, to'qilmagan matolar, stress-deformatsiya egri chiziqlari, tsiklik yuk testi, haqiqiy dastur.

Introduction. The textile industry plays a pivotal role in modern society, providing essential materials for a wide range of applications, including clothing, medical textiles, automotive fabrics, and industrial textiles. [1]. As the demand for high-performance textiles continues to rise, especially in specialized fields like medical and automotive sectors, the need for more accurate and reliable methods to assess these mechanical properties becomes ever more critical. Traditional testing techniques, such as tensile testing, compression testing, and elongation testing, have been widely used to evaluate the mechanical behavior of textiles [2]. While these methods are useful for providing basic material characteristics, they often fail to offer a comprehensive understanding of the material's response to complex loading conditions. Traditional methods typically focus on a single point or phase of material deformation, which limits the ability to predict how a material will perform under real-world conditions, especially in situations involving repeated or varying stresses [3]. Additionally, the following table highlights key mechanical properties commonly evaluated in textile materials:

Table 1

Mechanical Properties of Textile Materials and Their Measurement Methods

Property	Description	Measurement Method
Elasticity	Ability to return to original shape after deformation	Strain gauge testing
Tensile Strength	Maximum stress material can withstand	Tensile testing machine
Hardness	Resistance to penetration or deformation	Indentation testing
Elongation	Degree of stretch before breaking	Strain measurement during testing

This paper aims to:

1. Explore the operational principles and methodologies of full-cycle strain gauges.
2. Demonstrate their application in testing various mechanical properties of textiles.
3. Highlight the advantages of using full-cycle strain gauges over conventional methods.
4. Present case studies and experimental results to validate their effectiveness.

5. Anderson, P., & Lee, K. (2017). The impact of cleaning technology on fiber quality. International Journal of Textile and Fiber Research, 45(3), 210-225.
6. Karimov, B., & Rasulov, D. (2021). Reduction of fiber loss in initial cleaning stages. Central Asian Textile Studies, 17(1), 56-68.
7. Ishakov, O., & Safarov, R. (2022). Influence of rotor speed on fiber integrity. Applied Mechanics in Textile Engineering, 29(6), 77-89.
8. Brown, T., Smith, P., & Green, L. (2019). Comparative study of traditional and modern cotton cleaning machines. Textile Innovations, 14(3), 112-126.
9. Walker, M., & Peterson, C. (2023). AI-based monitoring in cotton fiber cleaning. Journal of Smart Manufacturing, 9(2), 201-215.
10. J. Mirzaboev.(2021) Tozalash jarayonini maqbullashtirish asosida xomashyodan samarali foydalanish / PhD dissertatsiya ishi / Namangan, -120 bet.
11. M. Sadikov. (2024). Paxta tolasini aerodinamik usulda tozalovchi dustex mashinasini takomillashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish // PhD dissertatsiya ishi / Namangan, -120 bet.

HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA YIGIRILGAN QO‘SHALOQ IP XOSSALARIGA URCHUQ AYLANISHLAR SONINING TA’SIRI TADQIQI

*Ro‘zibayev Nuriddin Nurali o‘g‘li¹, Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich²,
Erkinov Zokir Erkinboy o‘g‘li²*

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti¹

Namangan Davlat texnika universiteti²

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘shaloq ip xossalariga urchuq aylanishlar sonining ta’siri mavjudligi tajriba usuli bilan aniqlandi. Tuzilgan matematik tenglamalarni Fisher va Styudent mezonlari yordamida tekshirilganda ularning ko‘rsatkichlari ahamiyatga molik deb hisoblandi. Qo‘shaloq ipining kuch ta’siridagi uzayish grafigi olindi. Kiruvchi parametrlarning chiquvchi parametrga ta’siri o‘rganildi. Halqali yigirish mashinasi urchuqlarining aylanishlar sonini to‘g‘ri tanlansa qo‘shaloq ipining mustahkamligi oshadi, strukturaviy jihatdan notekisligi ham meyorida bo‘lib, ipning tashqi ko‘rinishi yaxshilanadi.

Kalit so‘zlar: halqali yigirish mashinasi, urchuq aylanishlar soni, solishtirma uzish kuchi, Fisher mezon, Styudent mezon, paxta piligi, poliester piligi, qo‘shaloq ip.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ КОЛИЧЕСТВА ВИТКОВ НА СВОЙСТВА ДВОЙНОЙ ПРЯЖИ, ПРЯДЕНОЙ НА КОЛЬЦЕПРЯДИЛЬНОЙ МАШИНЕ

Аннотация. В данной статье экспериментально определено влияние числа витков пряжи на свойства дублированной пряжи. При проверке построенных математических уравнений с использованием тестов Фишера и Стьюдента их показатели были признаны значимыми. Получен график удлинения дублированной пряжи под действием силы. Изучалось влияние входного параметра на выходной параметр. За счет правильного подбора числа оборотов веретен кольцепрядильной машины повышается прочность дублированной пряжи, структурная неравномерность остается в норме, улучшается внешний вид пряжи.

Ключевые слова: кольцепрядильная машина, число оборотов, удельная разрывная прочность, критерий Фишера, критерий Стьюдента, хлопчатобумажная лента, полиэфирная лента, двойная пряжа.

RESEARCH STUDY OF THE INFLUENCE OF TURN COUNT ON THE CHARACTERISTICS OF DOUBLE YARN PRODUCED USING A ROUND SPINNING MACHINE

Annotation. In this article, the influence of spindle speed on the properties of double yarn was experimentally established. When the compiled mathematical equations were verified using the Fisher and Student’s criteria, their indicators were recognized as significant. A graph of the elongation of the double yarn under the influence of a force was obtained. The influence of the input parameter on the output parameter was studied. When the spindle speed of the ring spinning machine is correctly

selected, the strength of the double yarn increases, structural unevenness remains normal, and the yarn's appearance improves.

Keywords: ring spinning machine, spindle speed, specific breaking load, Fisher's criterion, Student's t-test, cotton roving, polyester roving, double yarn.

Kirish. Jahon amaliyotida so'nggi yillarda ishlab chiqarish chiqindilaridan oqilona foydalanishga qiziqish keskin ortib, xomashyo resurslarini ko'paytirish va atrof-muhitga ekologik yukni kamaytirish imkonini beradigan ip mahsulotlari ishlab chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to'qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish maqsad qilingan [1].

2025-2027 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari orqali mahsulotlar eksportini 2025 yilda 4,0 milliard AQSH dollariga, 2026 yilda 5,0 milliard AQSH dollariga va 2027 yilda 7,0 milliard AQSH dollariga yetkazish asosiy vazifalar belgilab berildi. Shu orqali AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million AQSH dollariga yetkazish, jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish; ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsad qilinngan [2].

Nazariy tadqiqotlar. Halqali yigirish mashinasida aralash qo'shaloq ip xossalariga urchuq aylanishlar sonining ta'sirini aniqlash uchun tajribalarni ikki takrorlikda, ya'ni jami 10 ta tajribani tasodifiy sonlardan foydalanib, tajribalarni randomizatsiyalab o'tkazish rejasi tiziladi [3]. Shu reja asosida tajriba o'tkazish uchun mashinaning ishlash parametrlarini tegishlicha o'zgartirish kerakligini inobatga olib, ishchi reja tuziladi hamda urchuq aylanishlar sonining qiymatlarini qabul qilib olamiz:

$$n_1 = 12000 \text{ min}^{-1}, n_2 = 13000 \text{ min}^{-1}, n_3 = 14000 \text{ min}^{-1}, \\ n_4 = 15000 \text{ min}^{-1}, n_5 = 16000 \text{ min}^{-1}$$

Endi tajribalarni ikki takrorlikda, ya'ni jami 10 ta tajribani tasodifiy sonlardan foydalanib, tajribalarni randomizatsiyalab o'tqazish rejasi tuziladi. Shu reja asosida tajriba o'tkazish uchun mashinaning ishlash parametrlarini tegishlicha o'zgartirish kerakligini inobatga olib, ishchi reja tuziladi. Matritsa asosida tajribalar o'tkaziladi. Kiruvchi parametr tezliklarni x_u bilan kodlab chiquvchi parametr, masalan, nisbiy uzish kuchini Y_{uv} bilan belgilab, 1-va 2-jadvallar to'ldiriladi.

1-jadval


Tajriba natijalari

Tartib raqami	Kiruvchi parametr		Chiquvchi parametr ko‘rsatkichlari			
	Natural $X_u=n*10^3$	Kod x_u	$Y_{uv}, \text{ sN}$		O‘rtachasi, $\overline{R}_u,s$	Dispersiya, $S_u^2\{y\}$
			Takroriylik			
			1	2		
1	9	-2	20,3	20,5	20,4	0,02
2	10	-1	19,3	19,2	19,25	0,05
3	11	0	19,6	19,8	19,7	0,02

4	12	1	20,1	20,2	20,15	0,05
5	13	2	19,4	19,7	19,55	0,045
Σ	55				99,05	0,185

$$\bar{Y}_u = \frac{\Sigma\{\bar{Y}_u\}}{N} = \frac{99,05}{5} = 19,81$$

Tajribalardan ma'lumki, tabiatda ikki turdagi deformatsiya mavjud bo'lib, ular elastik va plastik kabi turlarga bo'linadi [4-5]. Tabiiy va kimyoviy tolalardan olingan iplarda asosan elastik deformatsiya mavjud bo'lib, iplarga ma'lum bir cho'zuvchi $F(\text{cN})$ kuch bilan ta'sir ettirilsa ularda uzayish holati kuzatiladi. Buni biz 50/50 % nisbatda tayyorlangan paxta va poliestertolalaridan yigirilgan 19.6 teksli qo'shaloq ipi misolida ham ko'rishimiz mumkin. 1-rasm.



1-rasm. Qo'shaloq ipining kuch ta'siridagi uzayish grafigi

Agar elastik deformatsiyada jismlarga qo'yilgan tashqi kuch ta'siri to'xtatilsa, jismlar o'zining daslabki holatiga qaytishini xisobga oladigan bo'lsak, 50/50 % nisbatda tayyorlangan paxta va poliestertolalaridan yigirilgan 19.6 teksli qo'shaloq ipining ham elastik deformatsion xususiyati yuqori darajadali namoyon bo'ladi.

2-jadval

Uzish kuchi ko'rsatkichlari

U	$x_u = n_t * 10^3$	$x_u - \bar{x}$	$(x_u - \bar{x})^2$	$\bar{Y}_u$	$(x_u - \bar{x}) \cdot \bar{Y}_u$
1	9	-2	4	20,4	-40,8
2	10	-1	1	19,25	-19,25
3	11	0	0	19,7	0

4	12	1	1	20,15	20,15
5	13	2	4	19,55	39,1
Σ	55		10	99,05	-0,8

$Y_f = a_0 + a_1x$ yoki $Y_f = d_0 + d_1(x - \bar{x})$ eslatma: $Y_f = a_0 + a_1x$ tenglamadan kodlangan qiymatlar bilan ishlaganda foydalanamiz.

Bu yerda: $\bar{x} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N x_u$ ($N = 5$)

$$d_0 = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N y_u = \frac{99,05}{5} = 19,81; \quad d_1 = \frac{\sum_{u=1}^N (x_u - \bar{x}) y_u}{\sum_{u=1}^N (x_u - \bar{x})^2} = -\frac{0,8}{10} = -0,08$$

$$Y_f = a_0 + a_1x = 19,81 + [(-0,08)(x - 11)] = 20,69 - 0,08x$$

$$Y_f = 20,69 - 0,08x; \quad x - \text{faktor deb qaraladi.}$$

Chiquvchi parametrning hisobiy kattaliklarini aniqlaymiz. Buning uchun $Y = 20,69 - 0,08x$ tenglamasiga o'zgaruvchining tajribalar bo'yicha qiymatlarini qo'yib, chiquvchi parametrning son qiymatlariga ega bo'lamiz. Kiruvchi parametr ya'ni aylanishlar sonining, chiquvchi parametr nisbiy uzish kuchiga ta'siri 2-rasmdagi grafikda keltirilgan. Olingan natijalar bo'yicha 3-jadvalni to'ldiramiz.


$$Y_{f1} = 20,69 - 0,08 * 9 = 19,97$$

$$Y_{f2} = 20,69 - 0,08 * 10 = 19,89$$

$$Y_{f3} = 20,69 - 0,08 * 11 = 19,81$$

$$Y_{f4} = 20,69 - 0,08 * 12 = 19,73$$

$$Y_{f5} = 20,69 - 0,08 * 13 = 19,65$$



2-rasm. Kiruvchi parametrning chiquvchi parametrga ta'siri grafigi

3-jadval

Chiquvchi paramertrning hisobiy kattaliklari

U	Y_{fu}	$\bar{Y}_u$	$\bar{Y}_u - Y_{ru}$	$(\bar{Y}_u - Y_{ru})^2$
1	19,97	20,4	0,43	0,1849
2	19,89	19,25	-0,64	0,4096
3	19,81	19,7	-0,11	0,0121
4	19,73	20,15	0,42	0,1764
5	19,65	19,55	-0,1	0,01
Σ	99,05			0,793

Tenglamaning adekvatligini tekshiramiz. Buning uchun 3-jadval kattaliklaridan foydalanib, dispersiyalarni hisoblaymiz.

Fisher mezonini (bunda kasrning qiymatidan katta yoki kichikligiga qarab formula tanlanadi)

$$F_r = \frac{S_{(2)}^2\{y\}}{S_{(1)}^2\{y\}} \text{ yoki } F_r = \frac{S_{(1)}^2\{y\}}{S_{(2)}^2\{y\}}$$

$S_{(1)}^2\{y\}$ – o‘rtacha dispersiya yoki takroriylik dispersiyasi.

$S_{(2)}^2\{y\}$ – dispersiyaning tajribaviy qiymatlari $\bar{Y}_u$ ning to‘g‘ri chiziq $\bar{Y}_u = f(x)$ ga nisbatan tarqalishini ko‘rsatadi.

$$S_{(2)}^2\{y\} = \frac{m}{N-2} \sum_{u=1}^N (\bar{Y}_u - Y_{ru})^2 = \frac{2}{5-2} \cdot 0,793 = 0,5286$$

$$S_{(1)}^2\{y\} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N S_u^2\{y\} = \frac{1}{5} \cdot 0,185 = 0,37; \quad S_{(1)}^2\{y\} = 0,37$$

Fisher mezonini quyidagicha hisoblaymiz. $F_r = \frac{S_{(2)}^2\{y\}}{S_{(1)}^2\{y\}} = \frac{0,5286}{0,37} = 1,428$; $F_r > 1$ bo‘lganligi uchun uning teskari qiymatini topishimiz shart emas. **Fisher mezonining jadvaliy qiymatini aniqlaymiz:**

$$F_j = \{p = 0,95; \quad f\{S_{(1)}^2\} = 5; \quad f\{S_{(2)}^2\} = 3\}, \text{ ya'ni}$$

$$f\{S_{(1)}^2\} = N(m-1) = 5$$

$F_j = \{p = 0,95; \quad f\{S_{(1)}^2\} = 5; \quad f\{S_{(2)}^2\} = 3\} = 5,41$ ga teng. Demak, bizda $F_{xis}=1,428$; $F_{jad}=5,41$; $F_{jad} > F_{xis}=5,41 > 1,428$

Fisher mezonining hisobiy qiymati uning jadvaliy qiymatidan kichikligi uchun tenglama adekvat hisoblanadi.

Regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatga molikligini aniqlaymiz. Buning uchun Styudent mezonidan foydalaniladi. Y ning hisobiy qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$t_R\{d_i\} = \frac{|d_i|}{S\{d_i\}}$$

d_i –regressiya koeffitsiyentining o'rtacha kvadratik og'ish qiymati

d_0 va d_1 regressiya koeffitsientlarining dispersiyalarini aniqlash uchun quyidagi formulalardan foydalaniladi.

$$S^2\{d_0\} = \frac{S^2\{y\}}{m * N} = \frac{S^2\{\bar{y}\}}{N}$$

$$S^2\{d_1\} = \frac{S^2\{y\}}{m * \sum_{u=1}^N (x_u - \bar{x})^2} = \frac{S^2\{\bar{y}\}}{\sum_{u=1}^N (x_u - \bar{x})^2}$$

$S^2\{y\}$ tasodifiy kattalik Y ning dispersiya jamlanma bahosi bo'lib, quyidagicha aniqlanadi.

$$S^2\{y\} = \frac{(m-1)N * S_{(1)}^2\{y\} + (N-2)S_{(2)}^2\{y\}}{mN - 2}$$

Bu yerda: $(f)S^2\{y\}$ –erkinlik darajasi bo'lib, uning qiymati.

$f\{S_{(1)}^2\} = N(m-1)$ ga teng. Yechilayotgan masalada

$$S^2\{y\} = \frac{(2-1) * 5 * 0,37 + (5-2) * 0,5286}{2 * 5 - 2} = 0,04294$$

d_0 va d_1 regressiya koeffitsientlarining dispersiyalari topiladi.

$$S^2\{d_0\} = \frac{S^2\{y\}}{m*N} = \frac{0,04294}{2*5} = 0,004294; \text{ demak}$$

$$S\{d_0\} = \sqrt{0,004294} = 0,020722$$

$$S^2\{d_1\} = \frac{S^2\{y\}}{m*\sum_{u=1}^N (x_u - \bar{x})^2} = \frac{0,04294}{2*10} = 0,002147; \text{ bunda esa}$$

$$S\{d_1\} = \sqrt{0,002147} = 0,01465$$

$$F_j = \{p = 0,95; f = N - 2 = 3\} = 3,18 \text{ ga teng.}$$

Styudent mezonining hisobiy qiymati t_r :

$$t_r\{d_0\} = \frac{19,81}{0,020722} = 95,6; t_r\{d_1\} = \frac{0,08}{0,01465} = 5,46$$

Har ikkala mezonning hisobiy qiymatlari 95,46 va 5,46 ga mezonning jadvaliy qiymatlar 3,18

bilan taqqoslaymiz, ya'ni $t_r\{d_0\} = 95,46 > t_j\{d_0\} = 3,18$

$t_r\{d_1\} = 5,46 > t_j\{d_1\} = 3,18$ bo'lganligi uchun regressiya koeffitsiyentlari ahamiyatga molik hisoblanadi.

Xulosa. Tajribadan olingan natijalarga solishtirma uzish kuchi bo'yicha ishlov berilganda qo'shaloq ip xossalari uchun aylanishlar sonining ta'siri mavjudligi tajriba yo'li bilan aniqlandi. Tuzilgan matematik tenglamalarni Fisher va Styudent mezonlari yordamida tekshirilganda ularning ko'rsatkichlari ahamiyatga molik deb hisoblandi. Bu esa tuzilgan tenglamani matematik tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi. Shunday qilib qo'shaloq ip ishlab chiqarishda urchuq aylanishlar sonini ham asosiy o'zgartirish mumkin bo'lgan omillardan biri hisoblandi, ya'ni halqali yigirish mashinasi urchuqlarining aylanishlar sonini to'g'ri tanlansa, qo'shaloq ipining mustahkamligi oshadi, strukturaviy jihatdan notekisligi ham meyorida bo'lib, ipning tashqi ko'rinishi yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16 yanvardagi PF-6 son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni.
3. Ro‘ziboyev Nuriddin Nurali O‘g‘li. “Turli komponentli “Siro” ipini yigirish texnologiyasini takomillashtirish” /Avtoreferat diss. 05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish. Toshkent 2022.
4. Roziboyev, N. N., & Isakulov, V. T. (2021). Comparative analysis of the properties of siro yarn spun by natural and chemical fibers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1819-1826.
5. Amzayev L.A va boshq. «Tadqiqot ilmiy asoslari va texnologik jarayonlarni optimallashtirish» Toshkent, TTESI, 2008 y.

TOSHBULOQ PAXTA TOZALASH KORXONASIDA PAXTA XOMASHYOSINI ISHLAB CHIQUARISHGA UZATISH QURILMALARI TAHLILI

*Zulfiya Xusanovna Mamataliyeva¹, Muxsiddin Xojiyev Mubillayevich²,
Xusanboy Kosimov Xaydarovich³, Rustam Muradov Muradovich⁴*

¹Mustaqil tadqiqotchi, Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, tel.: +998937872366

²Tadqiqotchi Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, tel.: +998 93 154 74 20

³Doktorant Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, e-mail: xusanboy_8407@mail.ru,
tel.:998949840731

⁴t.f.d., prof. Namangan to‘qimachilik sanoati instituti, Tel.:+998942729456

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxtani ishlab chiqarish texnologik jarayonini tashish amaliyotini muayyan darajada rivojlantirish, paxta mahsulotlarining dastlabki sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini saqlash hamda mahsulot tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha samarali texnikaviy yechimlar taklif qilindi, qolaversa paxta xomashyosini dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish, jumladan, iflosliklardan tozalashning paxta sifatiga salbiy ta‘sirini kamaytiradigan maqbul rejimlarini aniqlash imkonini yaratuvchi matematik modellarni yaratish va ularning yechimlari asosida tavsiya parametrlarini aniqlash, paxtani titish va iflos aralashmalardan tozalashda samarali konstruksiyasi ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar olib borildi

Kalit so‘zlar: paxta xom ashyosi, modul, qoziqli baraban, to‘rli sirt, mayda ifloslik, tola, sifat, konstruksiya.

АНАЛИЗ УСТРОЙСТВ ДЛЯ ПЕРЕДАЧИ ХЛОПКО-СЫРЬЦА НА ПРОИЗВОДСТВО В ТАШБУЛАКСКОЙ ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОЙ ПРЕДПРИЯТИИ

Аннотация. В данной статье предложены эффективные технические решения, позволяющие в определенной степени усовершенствовать практику транспортирования технологического процесса производства хлопка, сохранить исходные качественные и количественные показатели хлопковой продукции, снизить себестоимость продукции, повысить эффективность производства. Кроме того, проведены научно-практические исследования по созданию математических моделей, позволяющих сохранить исходные качественные показатели хлопкового сырья, в том числе определить оптимальные режимы очистки от примесей, снижающие негативное влияние на качество хлопка, и на основе их решения определить рекомендуемые параметры, а также разработать эффективную конструкцию очистки хлопка от примесей и загрязнений.

Ключевые слова: хлопок сырец, модуль, колковый барабан, сетчатая поверхность, мелкие примеси, волокно, качество, конструкция.

ANALYSIS OF DEVICES FOR TRANSFERRING COTTON RAW MATERIAL TO PRODUCTION AT TASHBULOK COTTON GINNING ENTERPRISE

Abstract. This article proposes effective technical solutions for the development of the technological process of cotton production to a certain extent, maintaining the initial qualitative and quantitative indicators of cotton products, reducing the cost of production, and increasing production efficiency. Scientific and practical research has been conducted to develop an effective design for cleaning impurities.

Keywords: cotton raw material, module, pile drum, mesh surface, fine dirt, fiber, quality, design.

Kirish. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon mamlakatimizda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, paxta tozalash sanoatini modernizatsiya qilish asosida ichki va tashqi bozorda paxta mahsulotlari raqobatbardoshligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shular bilan bir qatorda, paxtani dastlabki ishlash jarayonining har bir bosqichida, jumladan uni pnevmotransport bilan tashish va ishlab chiqarishga uzatishda paxta mahsulotlarining tabiiy xususiyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, sarflanayotgan moddiy, shuningdek energetik xarajatlarni kamaytirishni ta‘minlaydigan energiyatejamkor texnologiyalarni yaratish va joriy etish talab qilinmoqda.

Paxta tozalash sanoatida paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berish, uni keyingi texnologik jarayonlarga yetkazib berishda pnevmotransport uskunalarning har tomonlama ishlash samaradorligi yuqori bo‘lgan resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish hamda yaratilgan ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish, shuningdek, ular ustida ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Paxta paxta xomashyosining notekis uzatilishining sababi paxta g‘aramida saqlanganda zichligi oshgani uchun, u g‘arambuzgich bilan ko‘chirilganda katta-kichik qatlamlar tarzida ko‘chadi va shu holda havo quvuriga uzatiladi. Natijada havo quvuri bo‘g‘zida, toshtutgichda, separatorda tiqilishlar yuz beradi [1].


Hozirgi kunda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida viloyatimiz to‘qimachilik klasterlari tizimidagi ayrim paxta tozalash korxonalarida xorijda ishlab chiqarilgan paxta paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasidan foydalanib kelinmoqda.

“Toshbuloq paxta tozalash” korxonasida paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berishni xorijiy texnologiyasida ishlab chiqarish jarayoniga bir me‘yorda uzatib berish maqsadida modullarni titib, ishlab chiqarishga uzatuvchi qo‘zg‘almas qurilmasidan foydalaniladi (1-rasm).

Modullarni titib, ishlab chiqarishga uzatuvchi qo‘zg‘almas qurilma avtomat tartibda ishlab, paxta modulini buzish va sozlanadigan unumdorlikda, bir me‘yorda paxtani ishlab, ishlab chiqarishga uzatishga mo‘ljallangan. Modul buzgich valiklari (1) bo‘lgan seksiyali platforma, qoziqli barabanlar (2) va olib ketuvchi shnek (3) dan iborat.

Material va metodlar. Olib borilgan tajriba-izlanishlarda qo‘zg‘almas g‘aram buzgichdan olingan namunani tahlilari natijasida, paxta xomashyosini ushbu qurilmada uzatish jarayonida, qoziqli barabanlar yordamida titilib kuchli zarbaviy ta‘sir tolaning sinishi va uzilishiga olib kelishi, natijada uning o‘rtacha uzunligi kamayadi. Xuddi shu kabi, zarba ta‘sirida paxta paxta xomashyosi tarkibidagi begona aralashmalar, masalan, g‘o‘za qoldiqlari: bargi, shoxlari, ko‘sak pallalari (g‘o‘zapochiq), qum, tuproq kabi unsurlar maydalanib, tola massasiga singib ketadi. Shuningdek, chigit sinib, madalanishi natijasida, chigit po‘stlog‘i bilan ajralgan tola tutamlari, ishlov berishda paxta xomashyosi bo‘lakchasi qismlarining biri-biriga nisbatan buralishi, aylanishi sababli tolada

tugunchalar, eshilgan tolalar kabi nuqsonlar paydo bo‘lishi, ya’ni paxta tolasining asosiy sifat ko‘rsatkichlariga o‘zgarishi kuzatildi.



1-rasm. Modullarni titib, ishlab chiqarishga uzatuvchi qo‘zg‘almas qurilma.


Modullarni titib, ishlab chiqarishga uzatuvchi qo‘zg‘almas qurilma avtomat tartibda ishlab, paxta modulini buzish va sozlanadigan unumdorlikda, bir me’yorda paxtani ishlab, ishlab chiqarishga uzatishga mo‘ljallangan. Modul buzgich valiklari (1) bo‘lgan sekiyali platforma, qoziqli barabanlar (2) va olib ketuvchi shnek (3) dan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, paxta xomashyosini dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish, jumladan, iflosliklardan tozalashning paxta sifatiga salbiy ta’sirini kamaytiradigan maqbul rejimlarini aniqlash imkonini yaratuvchi matematik modellarni yaratish va ularning yechimlari asosida tavsiya parametrlarini aniqlash, paxtani titish va iflos aralashmalardan tozalashda samarali konstruksiyasi ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar olib borildi [2].

Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarni inobatga olib, paxta tozalash korxonalari texnologik jarayoniga paxta xomashyosini bir me’yorda uzatishni ta’minlash maqsadida yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta’minlagich qurilmasini o‘rnatish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).

Yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta’minlagich qurilmasi yordamida paxta xomashyosini qayta ishlov berish texnologik jarayonda tiqilishlarni bartaraf etib, qurilmalarni bir maromda ishlashi uchun titib-tekislovchi baraban o‘rnatilgan, to‘rli yuza va to‘rli yuzali lotok yordamida paxta xomashyosi tarkibidagi mayda iflosliklarni ajratib, chiqindi shneci orqali chiqib ketishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Taklif qilinayotgan yangi konstruksiyadagi qurilma quyidagicha ishlaydi: paxta xomashyosi 1 bunkeridan lentali transportyor 2 va titib-tekislovchi baraban 3 oralig‘ida titilib-tekislanib, bir maromda unga qiya o‘rnatilgan qoziqchali barabanlar 4 yordamida yuqoriga ko‘tariladi va to‘rli yuza 5 orasidan hamda 6 to‘rli yuzali lotokdan paxta xomashyosi harakatlanib mayda iflosliklardan tozalanadi. Ajralgan iflosliklar to‘rli yuza teshiklaridan chiqindi bunker 8ga tushib, chiqindi bunkeridan shneci 9 orqali tashqariga chiqariladi. Paxta tarkibidan ajralgan og‘ir aralashmalar bir qismi uzining massasi bilan ajralib og‘ir aralashmalar tuynugi 10 yordamida chiqarib yuboriladi. Chiqish quvuri 12 yordamida paxta xomashyosi qayta ishlov berish texnologik jarayoniga uzatiladi.



2-rasm. Yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta'minlagich qurilmasi


1-paxta bunker; 2-lentali transportyor; 3-titib-tekislovchi valik; 4-qoziqchali baraban; 5-to'rli yuza; 6- to'rli yuzali lotok; 7-to'rli yuza tayanchi; 8- chiqindi bunker; 9-chiqindi shnegi; 10-og'ir aralashmalar tuynugi; 11-g'ildirak; 12-chiqish quvuri.

Yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta'minlagich qurilmasining afzalligi shundaki, paxta xomashyosi tarkibidan og'ir aralashmalar hamda mayda iflosliklardan tozalash ish unumdorligini ikki marta oshirishga xizmat qiladi. Uskunaning pastki qismiga o'rnatilgan g'ildirak 11 esa uskunani ko'chirishni osonlashtiradi. Mana shu natijalarga asoslanib, ta'minlagichning belgilangan tezligida talab qilingan unumdorlikda paxta ashyosini havo yordamida tashuvchi qurilmasiga uzatish imkoniga ega bo'lamiz [3].

Korxonada mavjud paxtani texnologik jarayonga titib bir me'yorda uzatib beruvchi qurilma yordamida qoziqli baraban paxtani qoziqlari yordamida ilib olib, titib berishi natijasida tozalaydi. Qoziqli baraban qoziqlari metall materialidan tayyorlanganligi hamda qurilma devorlariga urilishi natijasida paxta va uning mahsulotlariga belgilangan me'yordan yuqori zarba kuchi ta'sir etadi. Jumladan, korxonaning eng asosiy mahsuloti hisoblangan tola va chigitning sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan salbiy ta'siri ortmoqda.

Tozalovchi-ta'minlagich qurilmasini yaratishdan maqsad shuki, (asosiy yaratish mohiyati shundan iboratki, paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonida chigit va tolalarning ortiqcha zarbalanishdan, tola va chigitning mexanik shikastlanishini oldi olinib, tolaning tabiiy xususiyati saqlanadi. Bundan tashqari paxta xomashyosi qayta ishlangandan keyin tola tarkibidagi kalta tolalar miqdori keskin kamayadi.

Ushbu yuqorida keltirilgan muammolarni baratar qilish va yangi taklif etilayotgan qurilmaning samaradorligini aniqlash maqsadida paxtaning Andijon 35, I nav, 2 sinf (qo'l terim) da ishlab chiqarish sharoitida tajribalar o'tkazildi (3-rasm).



3-rasm. Taklif etilayotgan qurilmada o'tkazilgan tajriba natijalari

a)-korxonadagi paxta g'aramidan olingan paxta namunasi;

- b)-korxonada mavjud ta'minlagich qurilmasidan keyin olingan paxta namunasi;
s)-taklif etilayotgan yangi konstruksiyadagi qurilmadan keyin olingan paxta namunasi.

Tajribalar o'tkazish davomida paxta xomashyosining Andijon-35 seleksion nav, I sanoat nav, 2 sinfda o'tkazilganda paxta g'aramidan olingan namunada ifloslik miqdori 7,96 % ni, korxonada mavjud ta'minlagichdan keyingi ifloslik miqdori 6,95 % ni hamda taklif etilgan qurilmada 2,25 % ni tashkil qildi. Olingan namunalarni ifloslik miqdori paxta tozalash korxonasining laboratoriyasida LKM qurilmasi yordamida aniqlangan.



4-rasm. Yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta'minlagich qurilmasida paxta xomashyosidan ajralgan mayda iflosliklar

Ushbu olingan natijadan qurilmani tozalash samaradorligini quyidagicha hisoblandi, ya'ni: korxonada mavjud qurilmadagi tozalash samaradorligini paxta g'aramiga nisbatan hisoblanganda;

$$\Pi = \frac{C_1 - C_2}{C_1} \cdot 100 = \frac{7,96 - 6,95}{7,96} \cdot 100 = 12,68\%$$

Taklif etilayotgan qurilmadagi tozalash samaradorligini korxonadagi mavjud qurilmaga nisbatan;

$$\Pi = \frac{C_1 - C_2}{C_1} \cdot 100 = \frac{7,96 - 2,25}{7,96} \cdot 100 = 71,8\%$$

Taklif etilayotgan tozalovchi-ta'minlagich qurilmasining tozalash samaradorligi 71,8 % ni tashkil qildi (4-rasm).

Korxonadagi mavjud ta'minlagich qurilmasini ishlashi jarayonida 10,5 kVt/soatga teng bo'lgan elektr energiya sarf etayotgan bo'lsa, taklif etilayotgan yangi konstruksiyadagi qurilmada tajribalar o'tkazish davomida 7,5 kVt/soatga teng bo'lgan elektr energiya sarfi kuzatildi.

Amaldagi qurilmalarning asosiy ishchi organlari qoziqli baraban bo'lganligi sababli har ikkala metal jism ta'sirida paxta va uning mahsulotlari, ayniqsa chigit shikastlanish holatlari kuzatilmoqda.

Biz taklif etayotgan yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta'minlagich qurilmasida tajribalar o'tkazishimiz mobaynida chigit shikastlanish holatlarining ham oldi olindi (5-rasm).



5-rasm. Chigit shikastlanishini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari

Har ikkala qurilmadan so'ng chigit shikastlanish miqdorini aniqlash maqsadida qurilmalardan so'ng paxtadan namunalar olindi. Bunda tolasidan ajratib olingan chigitdan 50 gr namuna olinib, maxsus kislota yordamida kolba idishda tuksizlantirib olindi. Shundan so'ng tuksizlantirilgan chigitlar ichidan shikastlangan chigitlar saralab terib olinib, laboratoriya sharoitida shikastlanish miqdori aniqlanganda amaldagi ta'minlagich qurilmasida chigit shikastlanish miqdori 3,1 %, yangi taklif etilayotgan tozalovchi-ta'minlagich qurilmasida esa ushbu ko'rsatkich 1,7 % ga tengligi aniqlandi.

Xulosa. Yangi konstruksiyadagi tozalovchi-ta'minlagich qurilmasi texnologik jarayonga xomashyoni bir maromda berishini ta'minlab, qoziqli baraban va to'qli yuza hamda to'qli yuzali lotokni yordamida mayda iflosliklardan tozalab, uskunaning foydaliligini ham oshirgan. Texnologik jarayonda mashinalarning to'xtovsiz bir me'yorda ishlashi korxona ish unumdorlini oshishiga xizmat qiladi. Paxta xomashyosining shikastlanishini kamayishi esa sifat ko'rsatkichlari yuqori mahsulot tayyorlanishini ta'minlaydi, яъни

1. Paxta xomashyosini tozalash samaradorligi korxonadagi mavjud ta'minlagich qurilmaga nisbatan 12,68 % dan 71,8 % oshganligi aniqlandi.

2. Tozalash jarayoni uchun sarf bo'layotgan elektr energiya xarajatlari 3 kVt/soatga kamaytirildi.

3. Chigit shikastlanish miqdorini kamaytirish hisobiga tolalarda hosil bo'layotgan nuqson va iflos aralashmalar miqdorini kamaytirishga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F. Rahimov, X. Kosimov, R. Muradov, N. Gadayev. Increase the Efficiency of the Stamping Device by Installing a Router in the Working Chamber. *Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them*. AIP Conf. Proc. 2789, 040034-1–040034-8; <https://doi.org/10.1063/5.0145669>
2. Rustam M., Khamidullo I., Khusanboy K. Methods for Reducing Seed Damage in the Technological Process of Cotton Processing //Engineering. – 2022. – T. 14. – №. 03. – C. 119-130.
3. Kosimov X. X. va boshq. Paxta xomashyosini texnologik jarayonga bir me'yorda uzatishni takomillashtirish //E Conference Zone. – 2022. – 55-57 b.
4. Khusanovna M. Z. et al. THEORETICAL STUDY OF UNIFORM TRANSFER OF COTTON RAW MATERIALS IN PNEUMATIC TRANSPORT //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 1. – P. 50-56.
5. Xaydarovich K. X., Muradovich M. R. Paxtani pnevmotransportda tashishni samaradorligini oshirish //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – 561-563 b.

6. Тохирова, М. К., Маматалиева, З. Х., Алиев, О. О. У., & Косимов, Х. Х. (2024). АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ УСТРОЙСТВ ДЛЯ ОЧИСТКИ ХЛОПКА ОТ ПРИМЕСЕЙ. *Universum: технические науки*, 6(11 (128)), -с.56-61.

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ ПО ИССЛЕДОВАНИЮ И РАЗРАБОТКЕ ПОДХОДА К ПРОЕКТИРОВАНИЮ СПЕЦИАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОТ ПЫЛИ

Ч.Т. Кочкорбаева¹, С.Ш. Ташпулатов²

¹Наманганский институт текстильной промышленности, E-mail: chk1181@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные этапы исследования спецодежды для строителей и проблемы обеспечения качества спецодежды. Выявлена необходимость разработки новой специальной одежды для строителей, с научно обоснованным подходом на стадии производства ткани и проектирования изделия. Проведен анализ результатов исследования и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: спецодежда для строителей, гигиенические и физико-механические свойства тканей, пылепроницаемость, износостойкость на истирание, разработка новых комплектов, апробация в производственных условиях.

CRITICAL STEPS IN ANALYZING AND DEVELOPING A STRATEGY FOR DESIGNING SPECIALIZED DUST-PROTECTIVE CLOTHING

Abstract. This article discusses the main stages of research into workwear for construction workers and the problems of ensuring the quality of workwear. The need to develop new special clothing for construction workers, with a scientifically based approach at the stage of fabric production and product design, has been identified. The results of the study were analyzed and appropriate conclusions were drawn.

Keywords: workwear for builders, hygienic and physical-mechanical properties of fabrics, dust permeability, abrasion resistance, development of new sets, testing in production conditions.

CHANGDAN HIMOYA QILUVCHI MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHGA YONDOSHISHNI TADQIQ QILISH VA ISHLAB CHIQISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish ishchilarining ish kiyimlarini tadqiq qilishning asosiy bosqichlari va ish kiyimlari sifatini ta'minlash muammolari ko'rib chiqiladi. Gazlama ishlab chiqarish va mahsulotni loyihalash bosqichida ilmiy asoslangan yondashuvni hisobga olgan holda, qurilish ishchilari uchun yangi maxsus kiyimlarni ishlab chiqish zarurati belgilandi. Tadqiqot natijalari tahlil qilinib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Kalit so'zlar: qurilish ishchilari uchun maxsus kiyim, gazlamalarning gigienik va fizik-mexanik xususiyatlari, changga chidamliligi, yeyilishga bardoshliligi, yangi komplektlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazish.

Введение. В этой статье отмечены основные этапы диссертационной работы по «Исследованию и разработке подхода к проектированию специальной одежды для защиты от пыли». В ходе исследования, были изучены и проанализированы работы таких ученых, как Меликов Е.Х., Коблякова Е.Б., Кокеткин П.П., Чубарова З.С., Романов В.Е., Афанасьева Р.Ф.,

Сухарев М.И., Сурженко Е.Я., Черунова И.В., Ташпулатов С.Ш., Лопандина С.К., Ивашенко И.Н., Вадковская А.В., Голубев М.И., Савельева И.Н., Куренова И.В. (Россия), Рыскулова Б.Р., Жилисбаева Р.О., Нуржасарова М.А., Ганиева Г.А., Изтаева А.А., Фазилбаева Н.Р. (Казахстан), Расулова М.К., Пулатова С.У., Петрунина В.Г. и другие. На основе изучения работ этих исследователей был выработан план работы, по разработке новых комплектов спецодежды для работников крупных строительных компаний, с учетом условий и климата стран Центральной Азии.

Была выявлена необходимость разработки спецодежды, призванных к комплексной защиты с учетом реальных условий труда и воздействия вредных производственных факторов, например, производственной пыли, оказывающих негативное влияние на их здоровье. Всем известно, что работа на строительных площадках нашего региона сопряжена с жарким летом, высокой степенью запыленности и т.д. Стоит острая необходимость защиты здоровья работников от этих негативных факторов.

Целью диссертационной работы является разработка подхода к проектированию пылезащитной специальной одежды для рабочих строительной отрасли с учетом условий труда.

Для реализации поставленной цели в работе определены следующие задачи исследования:

- анализ существующего ассортимента специальной одежды строителей и текстильных материалов, применяемых при производстве спецодежды;
- анализ особенностей технологического процесса, на стройплощадках, выявление комплекса вредных и опасных производственных факторов для разработки новых предложений, по обеспечению безопасности и надежности, в процессе эксплуатации спецодежды;
- разработка нового способа обеспечения эксплуатационных свойств деталей спецодежды;
- изготовление промышленного образца комплектов спецодежды;
- результаты опытной носки новой спецодежды в производственных условиях;
- апробация и внедрение в производственных условиях разработанных способов обеспечения эксплуатационной надежности спецодежды, а также выполнен расчет экономической эффективности от внедрения разработок в производственных условиях.

На основе полученных научных результатов по разработке способа формирования компонентов специальной одежды для строителей для повышения надежности и обеспечения высокой пыле защищённости деталей одежды:

Получен патент на промышленный образец комплекта специальной одежды для работников строительной отрасли (№ SAP 02379).

Для исследования прочностных характеристик текстильных материалов были выбраны 11 тканей различного артикула. Для этих образцов определили структурные характеристики (табл. 1). Проведен анализ структурных данных испытуемых тканей.

Проведены лабораторные испытания на стойкость материалов к стирке. Испытания проводились согласно ГОСТ 3813-72 «Материалы текстильные. Изменение разрывных характеристик фиксировали без стирки, после первой стирки и после 5 стирок.

Анализ полученных данных показывает, что во всех исследованных образцах разрывная нагрузка по основе превосходит разрывную нагрузку по утку. Это объясняется различными структурными характеристиками тканей: плотности ткани, типа волокна (например,

натуральный хлопок менее прочный, чем синтетические волокна), переплетения (например, полотняное переплетение более прочное, чем сатиновое), обработка ткани (например, пропитка ткани водоотталкивающим составом может снизить ее прочность).

Многократные стирки оказывают значительное влияние на прочность текстильных материалов. После многократных стирок разрывная нагрузка тканей, как правило, снижается.

Материалы и методы. Это происходит из-за постепенного изнашивания волокон, вызванного как химическим воздействием моющих средств, так и механическими нагрузками, возникающими при трении и растяжении в стиральной машине.

Наибольшая разрывная нагрузка по утку у образца № 1. Это объясняется большой плотностью расположения нитей, а также волокнистым составом, в котором отсутствуют натуральные волокна. Так по утку прочность материалов с содержанием натуральных волокон после многократных стирок наиболее высокая у образца № 8, т.к. в ткань смесовая с 45% содержанием хлопка и 55% полиэфира.

Для определения гигиенических свойств: воздухопроницаемости, пылепроницаемости, влагопроницаемости были рекомендованы ткани с удовлетворяющими физико-механическим свойствами из главы 2.2. Для экспериментального определения гигиенических свойств были отобраны 5 образца тканей китайского производства, удовлетворяющие по ценовому критерию. Одним из основных требований к тканям в Кыргызстане, учитывая природную особенность нашего региона: жаркий и сухой климат, является воздухопроницаемость.

По результатам испытания на воздухопроницаемость (рис. 2.9) было замечено, что на разных участках ткани (ближе к кромке, ближе к середине полотна) результаты отличались по своим параметрам от 0,62 – 3,05 см³/см²*сек (ткани с большим содержанием хлопка) до 0,2 – 0,45 дм³/см²*сек (в плотных тканях с большим процентом содержания химических волокон).

Наилучшие результаты показала ткань № 10 с высоким содержанием волокон хлопка (со средним результатом 15,3 см³/см²*сек). Наиболее низкий результат воздухопроницаемости у образца № 1 и №11 (средний результат 1,5 и 2,42 см³/см²*сек).

Также, немаловажную роль играет влагопроницаемость тканей (рис. 2.10). Это испытание было проведено на приборе для измерения динамических свойств переноса жидкости на трикотаже и тканях, Модель M290E. Особенность этого прибора в том, что дает не только точные результаты водопроницаемости тканей, на компьютере можно получить диаграмму, где наглядно показано водопроницаемость как с изнаночной стороны, так и с лицевой стороны ткани. Результаты опыта, наглядно показали, в каких тканях имеется напыление с водоотталкивающим эффектом.

Для изготовления опытных образцов использованы: ткань с высоким содержанием хлопка (45% хлопка и 55% полиэфир) – невысокая запыленность; смесовая ткань (35% хлопка и 65% полиэстер), в силу того, что в ткани практически отсутствует ворсовый покров, спецодежда из этой смесовой ткани оказалась менее запыленной. Спецодежда из этих тканей, хорошо зарекомендовала себя в ходе испытаний.

Были проведены ряд экспериментов на определение пылезащитных свойств компонентов спецодежды. Испытание проходили два образца: образец 1(№2), смесовая ткань саржевого переплетения, поверхностной плотностью 220 г/м²; волокнистый состав Хл 35%, Пэс 65%; отделка масло-водоотталкивающая (МВО); образец 2(№8), смесовая ткань саржевого

переплетения, с поверхностной плотностью 235 г/м²; волокнистый состав Хл 45%, Пэф 55%; отделка МВО.


Материалы подвергались 2 циклам химической чистки или 5 циклам стирки. При стирке воспользовались окуночным методом, добавляя препарат во время 3-го полоскания. Для достоверности результатов испытывали 3 элементарных проб из каждого образца ткани. Испытания проводились на базе действующего предприятия химической чистки.

Образцы загрязняли нестандартным методом путем экспозиции на протяжении 5 дней в запыленном помещении, где выполнялись отделочные работы, сопровождающиеся значительным выделением строительной пыли. Образцы взвешивали до и после экспозиции.

Перед взвешиванием запыленный образец встряхивали. В качестве основных характеристик определяли фактическую массу пыли в образце (г), удельную массу пыли: на единицу площади (г/м²) и на единицу массы (%).

Результаты исследования. В результате проведенных исследований установлено, что изменение линейных размеров образцов находится в пределах: по основе до +1,5%, по утку 2,5%, что соответствует требованиям стандартов. Отмечено изменение окраски по сравнению с исходным образцом после 5 циклов стирки: она становится более светлой по отношению к первоначальным образцам, в том числе и за счет смятия и увеличения ворсистости поверхности. На образцах, подвергнутых химической чистке, осаждается меньшее количество пыли (6%), что обусловлено как сохранением первоначальной обработки, так и применением в процессе чистки антистатиков.

Стирка является основным рекомендуемым способом ухода за спецодеждой. У образцов после 5 циклов стирки количество пыли на поверхности максимальное (более 13%), и более чем в 2 раза выше, чем у образцов после чистки, что объясняется изменением формы и размеров пор, увеличением ворсистости поверхности, и возможно, ухудшением антистатических свойств. У образцов, обработанных на последнем полоскании пропиткой и подвергшихся сушке, количество пыли ниже (от 8 до 10%), однако оно выше, чем у образцов после химической чистки и зависит от вида пропитки. На основе анализа основных производственных факторов, оказывающих влияние на человека, характерных трудовых движений работников и топологии мест разрушения специальной одежды выявлены наиболее



слабые участки существующей спецодежды, рекомендованы пути повышения износостойкости и пылезащитности изделий.

По результатам исследований существующих комплектов спецодежды были сформулированы требования, предъявляемые к спецодежде строителей с пылезащитными

свойствами: требования к формированию пакета материалов; требования к композиционно-конструктивному построению, а также рассмотрены и исследованы процессы загрязнения спецодежды пылью. Определены показатели удерживающей способности и установлено, как на результат удержания пыли влияет структура текстильного материала и свойства загрязняющего вещества (рис.1). Полученные экспериментальные данные, иллюстрируют процесс удержания пыли текстильными материалами: полотном и волокнами. Пылеемкость текстильного материала может оцениваться гравиметрическими характеристиками и по изменению оптической плотности запыленной поверхности.

Рис. 1. Топография мест наибольшего загрязнения (а), наибольшей запыляемости (б) и повреждения (в) специальной одежды бетонщиков и разнорабочих строительного участка.

Такие показатели коррелируют друг с другом ($R \geq 0,8$). Разность оптической плотности лицевой и изнаночной стороны образца позволяет оценить поглощение пыли структурой материала.

Результаты анализа существующих костюмов показывает, что в большинстве случаев для строительных работ применяются комплекты из куртки и брюк, или куртки и комбинезона. При проектировании пылезащитной одежды ключевую роль играет прогнозирование проникновения вредных и токсичных веществ в защищаемое пространство. Этот процесс, на первый взгляд, может казаться простым, но на самом деле представляет собой сложный комплекс взаимосвязанных этапов.

Согласно современным физическим представлениям, адгезия пыли на поверхности тканей рассматривается как взаимодействие двух разнородных компонентов - текстильного материала (волокон, нитей, ткани, трикотажного полотна, нетканого материала) и частичек пыли, а также их взаимодействие внутри текстильных материалов.

Накопление пыли в структуре материала приводит к увеличению его массы и постепенному изменению цвета его поверхности. Под микроскопом можно увидеть, как частицы пыли, которые значительно меньше, чем каналы (поры) между волокнами, могут проходить сквозь текстильную волокнистую среду, удерживаются в структуре материала и на поверхности волокна.

Приведенные экспериментальные данные и изображения лицевой стороны иллюстрируют процесс поглощения пыли нетканым полотном. Пылеемкость, которая определена гравиметрическим методом, коррелирует с оптической плотностью поверхности текстильных фильтров с $R=0,86$. По мере загрязнения образцов пылью происходит изменение цвета поверхности. На изображениях лицевой поверхности видно, как изменяется цвет: исходный белый постепенно становится серым, темным и достигает максимальной интенсивности, когда оптическая плотность лицевой стороны 1,784 приближается к оптической плотности технического углерода (1,8).

Анализ результатов исследования. Разность оптической плотности лицевой и изнаночной стороны образца позволяет оценить поглощение пыли структурой материала. Накопление пыли в структуре материала приводит к увеличению его массы и постепенному изменению цвета его поверхности. На поверхности материала может образовываться пылевой кейк, или пыль будет располагаться в структуре материала. Способность удерживать пыль в структуре материала, отрицательно влияет на качество изделий, при их эксплуатации.

Для исследования тканей на истирание, были выбраны образцы тканей, используемых для производства специальной одежды. При испытании как мягким, так и жестким абразивом, зависимость числа циклов истирания образцов (до появления дыры) от толщины пряжи (в пределах практически применяемых номеров пряжи) выражается, как показали исследования, уравнением

$$n_i = aT;$$

где n_i – число циклов истирания; T – толщина пряжи в текс.

Испытанию были подвергнуты образцы двухслойный пакет и текстильный материал (контрольные). Аналогичные исследования проведены с образцами, в которых на поверхность были нанесенными полимерной композиции на основе коллагена путем напыления и подвергнутые воздействию пыли.

При испытании жестким абразивом ткани полотняного переплетения оказывается более стойким к истиранию, чем образцы ткани саржевого переплетения. Это, по-видимому, объясняется тем, что ткань полотняного переплетения имеет более однородную и большую величину опорной поверхности, чем саржевого, и разрушение волокон и нитей происходит более или менее равномерно по всей поверхности.

На основании представленных результатов может быть сделан вывод, что самым большим механическим повреждениям подвергаются костюмы разнорабочего, бетонщика, арматурщика, каменщика и отделочника. Эти специальности больше выполняют разнообразные работы в позах, подвергающие специальную одежду частым изгибам, растяжениям, механическим нагрузкам и разрушениям в ходе выполнения строительных работ. Также спецодежда данных специальностей требует большей защиты от пыли. Для повышения износостойкости деталей специальной одежды недостаточно применение различных по структуре накладных элементов, увеличивающие сопротивляемость к истиранию, а также применение клеевых прокладочных материалов, которые приводят к нарушению структурного баланса. Для этого рекомендуется применять более современные способы повышения износостойкости, а именно, полимерные композиции на основе коллагена путем напыления с внешней стороны на участки, которые наиболее подвержены к воздействиям пыли и силы, приводящим к износу.

Разработаны и изготовлены два комплекта специальной одежды, рекомендуемых для работников строительных специальностей:

- комплект специальной одежды состоит из брюк и куртки, при этом отличается тем, что брюки в нижней части зауживаются с помощью клапана на липучках, который позволяет регулировать ширину низа брюк по мере необходимости, а также передняя часть штанин брюк, снабжены усиленными накладками, обеспечивающие защиту от механических повреждений, которые расположены в областях наиболее подверженных износу и с целью защиты от травм и нетоксичной пыли (на эту модель получен патент Республики Узбекистан на промышленный образец: № SAP 02379 от 23.06.2022 г.).

- комплект состоит из куртки и полукombineзона, отличается способом регулирования ширины низа штанин, с помощью тесьмы «молния» по низу бокового шва, со вставкой рис.10 (б).

Комплект снабжен усиленными накладками в областях, наиболее подверженных износу и с целью защиты от травм, при этом низ штанин полукombineзона зауживается по низу, с помощью светоотражающей тесьмы «молния» со вставкой изнутри.

Для разработки базовых конструкций и подготовки конструкторской документации курток, брюк и полукомбинезона была применена методика построения ЕМКО СЭВ (Единая методика конструирования одежды СЭВ) [ЕМКО СЭВ, том 3] в САПР “Grafis” (Rutip_M). Выбор данной методики обоснован ее прогрессивностью и теоретической обоснованностью. Расчеты для построения базовой конструкции проводились для типовой фигуры 52 размера, рост 176.

Изделия пробной партии для эксплуатации получили положительную оценку, возражений и претензий к разработчикам и производителям по качеству образцов не возникло.

На объектах строительной компании «NURZAMAN», была проведена апробация разработанных комплектов. Методика определения загрязнений спецодежды была следующей: спецодежда взвешивалась до начала смены, затем после окончания рабочего дня, её забирали у строителей и снова взвешивали. После этого спецодежда подвергалась тщательному ручному обеспыливанию, включая встряхивание, чистка с помощью одежной щетки, до достижения постоянной массы. Исследования проводились в летний период на протяжении десяти рабочих дней в дневное время. Одежда не подвергалась стирке, во время испытания. Эксперимент показал, что первые 5-6 дней, изделия неплохо сохраняли свои свойства: пылезащитные свойства; грязе- и водоотталкивающие свойства. По истечении 6 дней, «налипаемость» грязи увеличилась.

Выводы. Таким образом, по результатам проведенных исследований выявлено: при эксплуатации, спецодежды, необходима своевременная чистка и стирка изделия; разработанные в диссертационной работе комплекты специальной одежды удовлетворяют требованиям строителей, обеспечивает комфортность и минимальный сервис обслуживания при эксплуатации; получены положительные отклики от участников эксперимента.

Апробация разработок по данной диссертационной работе в условиях производства и внедрение специальной одежды для работников строительной отрасли с высокой эксплуатационной надежностью и высокими пылезащитными свойствами позволит повышение производительности труда на 12 % и получить экономический эффект 9 500 тыс. сом или 1 397 059 тыс. сум в год.

Из выше изложенных данных по исследованию специальной одежды, непосредственно в производственных условиях, на строительных площадках, можно сделать следующие выводы:

- изделие теряет свои гигиенические свойства, а именно пыленепроницаемость, воздухопроницаемость при постоянной работе на запыленном участке, если своевременно не проводить чистку и стирку изделия
- ненадлежащий уход за изделием, приводит к преждевременному «старению» изделия, изделие становится более пылеемким, требующим дополнительной чистки и стирки, в дальнейшем в изделии ухудшаются гигиенические и физико-механические свойства.

Эти факторы использования спецодежды на особо-запыленных участках строительных участках, эксплуатация и частые, дополнительные чистки и стирки изделия, приводят к ухудшению их физико-механических и гигиенических свойств, что требует регулярной оценки состояния специальной одежды и при необходимости ее замены на новую.

ИСПОЛЬЗУЕМАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Расулова М.К., Ташпулатов С.Ш., Черунова И.В. Разработка технологии изготовления спецодежды с улучшенными эксплуатационными свойствами // Монография, 2020, ИСОиП (филиал) ДГТУ, изд-во ЗАО «Университетская книга», Курск, 2020, -191 с.
2. Кочкорбаева Ч.Т., Ташпулатов С.Ш., Черунова И.В., Немирова Л.Ф. Основные направления обеспечения качества одежды специального назначения для защиты от пыли. Сб. Материалов Международной научно-практической конференции «Наука и инновационные технологии – основа развития Кыргызской Республики». – Ош. -2019 №3. – С. 213-215.
3. Кочкорбаева Ч.Т., Ташпулатов С.Ш., Черунова И.В., Немирова Л.Ф. Лабораторные исследования топологии износа специальной одежды и разработка способа повышения их износостойкости. [Текст] // Сб. Материалов Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы механики и горного машиностроения, развития науки и интеграции ВУЗов». –Ош, КУУ. – №2,2019. –С. 93-98.
4. Кочкорбаева Ч.Т., Ташпулатов С.Ш., Черунова И.В., Немирова Л.Ф. К разработке специальной одежды для строителей. // Журнал «Наука. Техника. Образование.», КУУ, 2020, №1, С.22-27.
5. Томаков М.В., Томаков В.И., Бокинов, Богатырев П.С. Ухудшение гигиенических свойств спецодежды работников строительной промышленности и строительства в результате загрязнения пылью // Известия Юго-Западного государственного университета. 2012. № 3 (42), С.119-125.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHI QIZLARI MAKTAB FORMASIGA UYG'UNLASHTIRISH UCHUN QO'LLANILADIGAN MILLIY MATOLARNING XUSUSIYATLARI TADQIQI

¹*Abduraxim Xojiyev, ¹Shoxista Babayeva*

¹Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi, ¹Namangan davlat texnika universiteti,
E-mail: abdurahim5700@mail.ru, tel: +998905977607

¹Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi, ¹Namangan davlat texnika universiteti,
E-mail: shoxistababayeva135@gmail.com, tel: +998500075902

Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf qiz bolalar maktab formasiga milliy matolarni uyg'unlashtirish bo'lib, buning uchun dastavval boshlang'ich sinf qiz bolalar maktab formasiga uyg'unlashtirish ko'zda tutilayotgan milliy matolarning fizik-mexanik xususiyatlari tajribadan o'tkazilib, olingan natija ko'rsatkichlari turli xil diagrammalar asosida tasvirlab bayon qilingan.

Kalit so'zlar: uyg'unlashtiriladigan, cho'zilishga pishqlik, nam shimuvchanlik, adras, shoyi, banoras, g'ijimlanmasligi, kirishuvchanligi, deformatsiyasi.

Исследование особенностей национальных тканей, внедряемых к школьной форме для девочек начальной школы

Аннотация. Цель исследования - подобрать национальные ткани для внедрения к школьной форме для девочек начальных классов. Для этого сначала были проверены физико-механические свойства национальных тканей, которые предназначены для комбинирования со школьной формой для девочек начальных классов, и полученные результаты описаны на основе различных схем.

Ключевые слова: гармонизируемый, прочность на растяжение, впитываемость влаги, адрас, шелк, банорас, отсутствие складок, проникающая способность, деформация.

A study of the characteristics of national fabrics introduced into school uniforms for primary school girls

Abstract. The purpose of the research is to adapt national fabrics to primary school girls' school uniforms. To this end, the physical and mechanical properties of the national fabrics intended to be adapted to primary school girls' school uniforms were first tested, and the results obtained were described using various diagrams.

Keywords: harmonizable, tensile strength, wet sponginess, adras, silk, banoras, crease-free, penetrating ability, deformation.

Kirish. Milliy matolarning retrospektiv tadqiqotlariga X.A. Alimova, P.X. Siddiqov, G. Valiyev kabi olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. O'zbek an'anaviy kashtado'zlik san'ati Sh.K.Abdullaeva, K.Akilova, Z.J.Alieva, Q.J.Jumaev ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida yaratilgan vositalar muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsada, ammo milliy qadriyatlar timsoli bo'lgan an'anaviy milliy liboslar va bezak elementlarini qayta ishlash, ya'ni stilizatsiya qilish orqali foydalanilgan holda, yuqori darajada san'at asari sifatida zamonaviy klassik uslubdagi maktab formasini loyihalash

va ularda bezak elementi sifatida qo'llash, bezakning koloristik xususiyatlarini ta'minlashga qaratilgan va dekorativ bezak elementlarini funktsional vazifalarini bajaruvchi modifikatsiyalangan buyumlarga almashtirish bilan an'anaviy uslub elementlaridan foydalanib, zamonaviy va bejirim, estetik zavq beruvchi qiz bolalar maktab formasini yaratish, ishlab chiqish va tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan [2].

Mahalliy milliy gazlamalarning fizik-mexanik, gigiyenik xususiyatlarini o'rganib, tahlil qilish natijasiga ko'ra, maktab formalari uchun ishlatilayotgan gazlama turlari bilan solishtirish hamda milliy matoning eng muqobil variantini maktab formasida qo'llash usullarini ishlab chiqish pirovard maqsad bo'lib hisoblanadi.

Milliy gazlama xususiyatlarining tadqiqi asosida ishlab chiqariladigan maktab formalarining yangi assortiment turlarini yaratish va ko'paytirish ayniqsa, juda dolzarbdir.

Tadqiqot usuli. Ishni bajarishda mavzuga oid ilmiy manbaalar tahlil qilindi, tadqiqotning turli bosqichlarida eksperimental va ekspert baholash usullari, nazariy, matematik modellashirishning asosiy qoidalari, materiallar xossalarini tadqiq qilishning standart usullari, aniqlangan qonuniyatlarni umumlashtirish, mantiqiy tahlil qilish bilan bu usullarni kombinatsiyalash, mahsulot assortimentlarini loyihalash nazariyasi, zamonaviy kompyuter texnologiyalarida hisoblash usullari qo'llanildi [3].

Tadqiqot ishida o'quvchi qizlar maktab formasiga uyg'unlashtirish uchun qo'llaniladigan milliy mato turlarining fizik mexanik xususiyatlari Namangan davlat texnika universitetining sinov va sertifikatlashtirish laboratoriyasida mavjud bo'lgan zamonaviy laboratoriya jihozlarida tajribalar o'tkazilib, o'rganildi.

Natijalar. Boshlang'ich sinf maktab yoshidagi qiz bolalar maktab formasiga hamohang tarzda milliy matolarni uyg'unlashtirish maqsadida dastavval ularning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash maqsadida Namangan davlat texnika universiteti laboratoriyasidagi AG-1 mashinasidan foydalanildi. Bunda milliy matolar adras, banoras va shoyi gazlamalaridan namunalr tayyorlab olindi. Milliy mato turlaridan 3 xili adras, shoyi, banoras tanlab olindi. Ulardan namuna uchun kerakli o'lchamlarda kesib olindi, matolarning qalinligini o'lchashda 500x500mm o'lchamda kesib olindi. Tajriba natijasida milliy gazlamalarda banoras matosining qalinligi yuqori ekanligi aniqlandi. Tajriba namunalari uchun olingan milliy matolarning deformatsiyasini sinovdan o'tkazishda esa cho'zish tezligi 300 mm/min etib belgilandi. Namangan davlat texnika universiteti laboratoriyasida mavjud matolarni nam shimuvchanligini o'lchovchi M290 Atlas moslamasiga qo'yib, bir tomchi suv yuqoridan tomizilib, matoga kelib tushgandan so'ng, besh xil turli xil darajalarda sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalarga asosan quyidagi diagramma va gistogrammalar hamda jadval shakllantirildi.


1-jadval

Model namunasi uchun ishlatiladigan gazlamalarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari

№	Gazlama nomi	Gazlamaning qalinligi, mm	Uzilishga pishiqligi, N umumiy	Havo o'tkazuvchanligi ($\text{sm}^3/\text{sm}^2/\text{s}$)	Deformatsiyasi (%) • tanda • arqoq
1	Adras	0,42	7,65 7,71	71,86	• tanda 33% 67% • arqoq 75% 25%

2	Shoyi	0,46	8,54 8,56	4,140	- tanda 50% 50% - arqoq 96% 4%
3	Banoras	0,49	10,60 14,71	71,08	- tanda 14% 86% - arqoq 133% 33%


Quyida olingan tahliliy natijalarning ko'rsatkichlari turli xil diagrammalar asosida tasvirlab berilgan.



1-rasm. Model uchun ishlatiladigan milliy matolar (shoyi, banoras, adras)ning deformatsiyasi.



Namunalarni cho'zilishga pishiqligi (kg/s). Gazlamaning cho'zilishga pishiqligi uning sifatini belgilaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Gazlamaning cho'zilishga pishiqligi deganda uning uzuvchi kuchga chidamliligi tushuniladi. Gazlamaning cho'zilishga pishiqligi maxsus kompyuter programmasi yordamida ishlaydigan AG-1 mashinasida aniqlanadi. Ishni boshlashdan oldin, tajriba uchun kerakli dastlabki ma'lumotlar programmaga kiritiladi. Namunalar GOSTda keltirilganidek, 300 x 50mm o'lchamda tanda va arqoq yo'nalishida tayyorlab olinadi. Tayyor namunalar qisqichga qistiriladi (Qisqichlar orasidagi masofa 200mm). Keyin START tugmasi bosildi va yuqori qisqich ko'tarila boshladi. Namuna uzilgach, ekranda tajriba natijalari grafik va jadval shaklida ko'rindi [4].

Uzish mashinasida gazlamaning pishiqligini aniqlash bilan bir vaqtda uning uzayishi ham aniqlanadi.





2-rasm. Model uchun ishlatiladigan milliy matolar (shoyi, banoras, adras)ning qalinligi

Model uchun ishlatiladigan milliy matolarning nam shimuvchanligini aniqlash natijalarining diagramma ko'rinishi





3 - rasm. Adras matosining nam shimuvchanligi



4 - rasm. Shoyi matosining nam shimuvchanligi

Banoras matosining nam shimuvchanligi





5 -rasm. Banoras matosining nam shimuvchanligi.

Muhokama. Olingan natijalarning tahlili shuni ko'rsatyaptiki, 1-diagrammada model uchun ishlatiladigan milliy matolar (shoyi, banoras, adras) ning deformatsiyasi (cho'zilishga pishiqligi) ni aniqlashda laboratoriya jihozi qisqichlariga mahkamlangan mato namunalarini 10 daqiqa davomida vaqt begilab, ham tanda, ham arqoq yo'nalishi bo'yicha deformatsiyasi aniqlab olindi, ko'rsatkichlarni daftarga qayd etib borildi, diagrammadan ko'rinib turibdi-ki, shoyi matosini deformatsiyasi tanda ipi bo'yicha, bu ko'k rangda tasvirlangan, 350 N ekanini ko'rish mumkin, arqoq bo'yicha bu ko'rsatkich 180 nyutonni tashkil qildi. Banoras matosini deformatsiyasi tanda ipi bo'yicha, bu ko'k rangda tasvirlangan bo'lib, 250 N ekanini ko'rish mumkin, arqoq bo'yicha bu ko'rsatkich 420 nyutonni tashkil qildi. Adras matosini deformatsiyasi esa tanda ipi bo'yicha, bu ko'k rangda tasvirlangan bo'lib, 2430 N ekanini ko'rsatdi, arqoq bo'yicha bu ko'rsatkich 240 nyutonni tashkil qildi.

2-diagrammada esa model uchun ishlatiladigan milliy matolar (shoyi, banoras, adras)ning qalinligini laboratoriyada o'lchab ko'rildi. Tajriba natijalariga ko'ra, adras matosining qalinligi 0,42 mm, shoyi gazlamasining qalinligi 0,46 mm, banoras milliy gazlamasining qalinligi esa 0,49 mm ni ko'rsatdi. Bundan ayon bo'ldiki, banoras matosi adras va shoyi milliy gazlamalariga nisbatan qalinroq ekanligi aniqlandi.

Shundan so'ng milliy matolar (shoyi, banoras, adras)ning nam shimuvchanligini M290Atlas laboratoriya uskunasi sinovdan o'tkazish ishlari bajarildi. Bunda birinchi bo'lib, 3-diagrammada tasvirlangan adras milliy matosining nam shimuvchanligi tajriba qilindi. Bu ishni bajarish uchun besh xil daraja bo'yicha ya'ni, qoniqarsiz, o'rtacha, yaxshi, juda yaxshi hamda a'lo darajalar bo'yicha ko'rsatkichlar olindi. Har biri bo'yicha olingan ko'rsatkichlar qayd etib borildi. Adras matosining nam shimuvchanligi juda yaxshi darajadan a'lo darajagacha ko'tarildi. Ikkinchi navbatda esa 4-diagrammada ko'rsatilgan shoyi matosining nam shimuvchanligi adras matosi kabi tartibda sinovdan o'tkazildi. Natijaga ko'ra, qoniqarli darajada nam shimuvchanlikni ko'rsatdi. Diagrammada natija ko'rsatkichlari qayd etildi. 5-diagrammada esa banoras milliy gazlamasining nam shimuvchanligini o'lchash natijasi bo'yicha olingan tahliliy ko'rsatkichlar yozildi. Unga ko'ra, banoras matosining nam shimuvchanligi a'lo darajadaliq aniqlandi.

Yakuniy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, bolalar kiyimlariga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda xususiyatlari jihatidan mos keladigan milliy mato turini tanlab olish ko'zda tutildi [5].

Xulosa. O'tkazilgan tajriba natijalarini tahlil qilish natijasida namoyon bo'lgan ko'rsatkichlardan ko'rishimiz mumkinki, banoras milliy matosining qalinligi, fizik-mexanik xususiyatlaridan g'ijimlanmasligi, kirishuvchanligi, deformatsiyasi va kiyim shaklini saqlash xossalari yuqoriligi inobatga olindi hamda boshlang'ich sinf maktab yoshidagi qiz bolalar formasi uchun uyg'unlashtirishga tavsiya etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Iroda Turgunova, Nazira Khomidjonova, Abdurakhim Khojiev; Material analysis to select a suitable fabric for women’s outerwear. *AIP Conf. Proc.* 23 June 2023; 2789 (1): 040014. <https://doi.org/10.1063/5.0145955>
3. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova, F.J.Abdulina, Q.I.Abdulniyozov Gazlamashunoslik. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2011- y.
4. N.G.Abbasova, B.B.Axmedov, SH.M.Mahkamova, T.A.Ochilov, Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi. Toshkent. “Aloqachi”, 2006 y.
5. М.Хошимова, А.Хожиев. [Выбор ткани для женской кофты](#).// Universum: технические науки. 4-2 (85). Стр. 92-95.
6. U.X.Meliboyev. To‘qimachilik sanoati texnologik jarayonlarini modellashtirish asoslari. Namangan. “Adabiyot uchqunlari”, 2020. -216 (5-10 bet).
7. Shogofurov Shaxboz Shokirjon ugli; Kholikov Kurbonali Madaminovich., Study of technological indicators of ornamental knitted fabrics with high formal properties. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* <https://www.tarj.in> ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 2, February, 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699 .
8. B.I.G‘oibov. Ergonomika. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun qo‘llanma. Toshkent. “Tafakkur bo‘stoni”, 2013. -264 bet.

HAR XIL MATERIALLARNING YEYILISH JARAYONINI O‘RGANUVCHI QURILMA

Nurilla Dadaxanov Karimovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrası professori, t.f.n., Тел: (+99893) 403-13-39. E-mail: nurilla28@mail.ru

Annotatsiya. Mashinalarning ilashuvchi detallarini ishqalanishi natijasida yeyilish sodir bo‘lib, u sirt yuzalarini buzilishiga olib keladi. Natijada detal o‘lchamlari o‘zgaradi va talab etilgan texnik - texnologik ko‘rsatkichlardan chetga chiqishi ortib boradi. Amaliyot va ilmiy - tadqiqot ishlari o‘rganilganda, ishqalanuvchi va qo‘zg‘aluvchan kesishmalarni ishdan chiqishiga asosiy sabab, ularni ishqalanishdan yeyilishi ekanligi ko‘rildi. Mashinalaridagi tishli uzatmalar va sirpanuvchi sirtlaridagi yeyilishni o‘rganuvchi maxsus qurilmalar o‘rganildi. Laboratoriya sharoitida foydalanish oson bo‘lgan yeyilishni o‘rganuvchi qurilma tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: tishli g‘ildirak, yeyilish, uzatma, ishqalanish, moy, plastmassa, po‘lat, cho‘yan, mashina, dastgoh, kinematika, qurilma, tishli uzatma.

DEVICE STUDYING THE WEAR PROCESS OF DIFFERENT MATERIALS

Abstract. Corrosion occurs as a result of friction between moving parts of machines, which leads to the destruction of surfaces. As a result, the dimensions of parts change and the deviation from the required technical and technological indicators increases.

Practice and research studies have shown that friction and excision intervals are the main cause of frictional and excited intersection failure. Special devices for studying wear of surfaces in gears and sliding surfaces of machines have been studied. A simple design of a device that studies wear under laboratory conditions is proposed.

Keywords: gear wheel, wear, friction, oil, plastic, steel, cast iron, machinery, machine tool, kinematics, devices, gears.

ПРИБОР ИЗУЧАЮЩИЙ ПРОЦЕСС ИЗНАШИВАНИЯ РАЗНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация. Коррозия возникает в результате трения движущихся частей машин, что приводит к разрушению поверхностей. В результате изменяются размеры деталей и увеличивается отклонение от требуемых технико-технологических показателей. Изучение практики и исследований показало, что интервалы трения и эксцизии являются основной причиной разрушения фрикционных и возбужденных пересечений. Проанализированы специальные приборы для изучения износа поверхностей в зубчатых передачах и скользящих поверхностях машин. Предложена простая конструкция устройства, изучающая износ в лабораторных условиях.

Ключевые слова: зубчатое колесо, износ, трение, масло, пластмасса, сталь, чугу́н, машина, станок, кинематика, устройства, зубчатые передачи.

Kirish. Mashinalarning ishonchli va uzoq muddat ishlashini ta'minlash mashinasozlikning asosiy vazifasi hisoblanadi. Amaliyot va ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, qo'zg'aluvchan kesishma va ishchi organlarining ishdan chiqishiga asosiy sabab, ularning yeyilishidir. Shuning uchun, mashinalarni loyihalash jarayonida va ishlatishda yeyilishga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish zarur. Hozirda hamma vaqt ham muhandis va loyihalovchilar uni hisobga oladi, deb bo'lmaydi. Buning oqibatida korxonalar katta sarf xarajat qilishga majbur bo'lishadi. Chunki ular ta'mirlash korxonalarini qurish, zahira detallarini ishlab chiqarish, ta'mirlovchi mutaxassislarni tayyorlash va ishlatishga majburlar [1].

Material va metodlar. Ishqalanish va yeyilishni qattiq jismlarning buzilishi deb qarash mumkin. Tashqi ishqalanishda ikkita asosiy jarayonlar bo'ladi: birinchisi - g'adir - budirliklarni o'zaro kirishishi hisobiga tegishish nuqtalarini hosil bo'lishi va ikkinchisi - ulardagi aniq kontakt izida katta bosim ta'sirida «payvandlanish» hodisasi sodir bo'lishi. Ishqalanuvchi juftliklardagi umumiy bosim ozgina yuklanishda ham kontakt izi kichik bo'lgani uchun katta bo'ladi. Katta yuklanish ta'sirida chiqiqlarni har xil darajada joylashib qolishi natijasida ular ketma – ket kontaktga kirishadi. Shuning uchun haqiqiy kontakt maydoni uning izlari va o'lchamlarini ortishi hisobiga bo'ladi.

Hozirgacha o'tkazilgan ilmiy – tadqiqot ishlaridan shu narsa ma'lumki, yaxshi ishlov berilgan va yuza g'adir – budirligi yomon bo'lgan sirtlarda haqiqiy bosim juda katta. Bu bosim cho'qqilarni yeyilib, uning radiusi ortib borishi bilan kamayib boradi.

Ishqalanish va yeyilishda adgeziyal bog'lanishdan buzilish xarakteri asosiy sabablaridan biri desa bo'ladi. Buzilish yo bog'lanish hosil bo'ladigan joyda (adgeziyal buzilish, ijobiy gradient) yoki bir oz chuqurroqda (kogeziyal buzilish, salbiy gradient) sodir bo'ladi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Yuqoridagiga mos ravishda siljish qarshiligi gradienti qonuni ishlab chiqilgan. Gradient kattaligi va ishorasiga yuza qatlamda sodir bo'ladigan o'zgarishlar ta'sir etadi. Birlik kontakt izida bosimni ortib borishi, birlik notekisligini yassilanishga (splyushivaniya) yoki kirishga olib keladi. Yassilanish esa, o'z navbatida kontaktda bo'lgan notekiliklarning qaytmaydigan shaklini hosil qiladi va ishqalanishning statsionar rejimini ta'minlay olmaydi. Kirishish jarayoni faqat har xil qattqlik va bikirlik modulidagi kontaktda bo'lgan jismlargagina hos bo'lmay, balki bir xil qattqlikdagi jismlarda ham sodir bo'ladi. Bunda kontaktda bo'lgan jismlarning tegishayotgan notekisliklari shakli (egrilik radiusi, egrik burchagi) har hil bo'lsa, kirishish jarayoni bo'ladi. 1-rasmda bo'rtik geometrik shakli koeffitsienti bilan kontaktlanishda uning γ burchak bilan aniqlanuvchi chetlarining sharoiti orasidagi bog'lanish ko'rsatilgan.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, plastik holatga o'tishdagi mos keluvchi samarali kuchlanish γ burchak bilan tavsiflanadi.

Deformatsiyalanadigan kontr jismga uchta turdagi mexanikaviy o'zaro ta'sirlashuvni ajratib qo'llash maquldir: elastik kontaktda, plastik kontaktda va mikroqir qilishda.


Bikr kontaktda birlik yuzadagi kuchlanish va deformatsiya (sferik bo'rtikda modellanuvchi) Gerts formulasi orqali aniqlanadi. Yarim fazoviy materialga bikr sferik bo'rtik botirilganda, material dastlab elastik deformatsiyalanadi, uni yanada chuqurroq botirilsa deformatsiyalanish plastik deformatsiyalanishga aylanadi. Normal va urinma kuchlar ta'sirida yuklangan elastik yarim fazoviy jismning kuchlangan holatini tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bunda berilgan urinma kuchlanish quyidagiga teng bo'ladi:

$$\sigma_{Ku} = \kappa \cdot f \cdot p_r = \kappa \tau,$$

bu yerda κ - mustahkamlik gipotezasi, Puasson koeffitsientiga bog'liq bo'ladi va asosan 3 dan (o'rta elastik material uchun) 5 gacha (mo'rt material uchun) o'zgaradi.

Umumiy yuklanishga qaramasdan haqiqiy kontakt izida, materialning nazariy mustahkamligini 1/5-1/10 qismiga yetuvchi yuqori solishtirma bosim hosil bo'ladi.

Yuklanish ortib borishi bilan tegishayotgan bo'rtiklardagi real bosim sezilarli ortadi. Tekis yuza uzunligi bo'yicha yuklanishning ~1/25 darajasida, egri chiziqli konturli yuzalar uchun ~1/5 darajada. Qattiq g'adir - budur jism yuzalarida davriy ravishda sezilarli bosim gradienti paydo bo'ladi, chunki alohida bo'rtiklar kontur - jism bilan o'zaro ilashishga kirishayotganda davriy yuklanadi.



1-rasm. Bo'rtik geometrik shakli koeffitsienti bilan kontaktlanishda, uning γ burchak bilan aniqlanuvchi chetlarining sharoiti orasidagi bog'lanish grafigi.

Yuqori solishtirma bosim va haroratni atrof - muhit bilan birgalikda materialga ta'siri, ishqalanayotgan jism yuza qatlamining geometrik, fizikaviy va mexanikaviy xossalarini sezilarli o'zgartiradi. Xossalarni ozgina o'zgarishi ham yeyilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun yemirilish ko'plab ta'sirlashuv natijasida sodir bo'ladi.

Sirpanish bilan birga yuza g'adir-budirligi o'zgarib, stabil qiymatga intiladi. Dastlabki g'adir-budir yuzalar silliqatlanadi, dastlabki silliq yuzalar esa g'adir-budirlikka o'tadi. Bir xil sharoitda bir xil materiallarni moslab ishlanishi, bir necha soat ichida ularni yuzalari g'adir-budirligi birxillashtiriladi.

Parda tashqaridan suyuq yoki gazsimon fazalar kiritilganda paydo bo'ladi. Suyuq fazaga qo'llaniladigan yeyilayotgan yuzaga moyini uzatish mexanizmi yetarlicha aniqlanmagan. U diffuziyalanish xarakterida, yo ho'llash bo'lishi mumkin va boshqalar; agar yuza qancha silliq bo'lsa, ya'ni kontakt izi uzun bo'lsa, bu kontakti izini ho'llash vaqti shunchalik uzoq vaqt davom etadi.

Ishqalanayotgan yuzalarning yemirilishi asosan materiallardan ajralib chiqqan zarralar natijasida sodir bo'ladi. Ularni o'lchami mikrometrni bir qismidan to bir necha mikromertgacha

bo'lishi mumkin. Bunday zarrachalarni ajralib chiqishiga yakka notekisliklarda yuklanishni, harorat impulsini ko'p marotaba ta'siri sabab bo'ladi. Yuzadagi qaytarilmaydigan o'zgarishlar natijasida uni strukturasi har xillashadi, kuchlanish holati sodir bo'ladi, sungra yoriqlar paydo bo'ladi, ulardan yeyilish zarrachalari ajralib chiqadi [2, 3, 4, 5].

Yemirilish har xil muhim va shart-sharoitda bo'lgani uchun yeyilishni tasniflanadi. Masalan: moyli va moysiz holdagi, yumalashdagi yoki sirpanishdagi ishqalanish; jilvirlovchi kukun bilan ajratilgan qattiq jismlarni ishqalanishi; adgeziya, korroziya, qirqilishdagi ishqalanish; oksidlanish; issiqdagi ishqalanish va h.k.

Muhokamalar. To'qimachilik mashina va dastgohlarida ishqalanuvchi qismlar ko'pdir. Ulardan eng ko'p yeyiladigani tishli uzatmalar va sirpanuvchi detallar hisoblanadi. Ularni yeyilishiga turli omillar ta'sir etadi.

Hozirgacha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan shu narsa ma'lumki, yaxshi ishlov berilmagan va yuza g'adir-budurligi yomon bo'lgan sirtlarda haqiqiy bosim juda katta bo'ladi. Bu bosim cho'qqilarni yeyilib, uning radiusi ortib borishi bilan kamayib boradi.

Yuqori solishtirma bosim va haroratni atrof muhit bilan birgalikda materialga ta'siri ishqalanayotgan jism yuza qatlamining geometrik, fizikaviy va mexanikaviy xossalari sezilarli o'zgartirib yuboradi. Xossalarni ozgina o'zgarishi ham yeyilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [6].


Ishqalanayotgan yuzalarning yemirilishi asosan materiallardan ajralib chiqqan zarralar natijasida sodir bo'ladi. Ularni o'lchami bir necha mikrometrgacha bo'lishi mumkin. Bunday zarralarni ajralib chiqishiga yakka notekisliklarga yuklanishni, harorat impulsini ko'p marotaba ta'siri sabab bo'ladi. Yuzadagi qaytarilmaydigan o'zgarishlar natijasida uni tuzilishi har xillashadi, kuchlanish holati sodir bo'ladi, so'ngra yoriqlar paydo bo'ladi, ulardan yeyilish zarrachalari ajralib chiqadi.

Natijada detallarni o'lchami o'zgaradi va o'z navbatida ular uzatayotgan harakat ham o'zgaradi. Mashina va mexanizmlardagi yeyilish natijasida hosil bo'lgan xatolik ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tadi. Shuning uchun dastgohlardagi tishli uzatmalar yeyilishini tadqiq qilish zarurdir.

Hozirda ishlab chiqarish sharoitida ba'zi bir texnik va iqtisodiy sabablarga ko'ra uzoq vaqt tadqiqot ishlarini olib borish qiyin. Shuning uchun tishli g'ildiraklar va sirpanuvchi detallarni ishlab chiqarish sharoitiga yaqinlashtirilgan rejimda tadqiq qilish uchun quyidagicha tajriba stendi sxemasini ishlab chiqildi. Uni tuzilishi quyidagicha (2-rasm): 1-asosga 9- va 10-o'qlar sirpanish podshipniklar asosida o'rnatilgan. Ularni konsol qismiga, tadqiq qilinadigan 7- va 8-tishli g'ildiraklarni o'rnatiladi. O'qlar orasidagi A masofani 10-o'qni siljiydigan qilib tayyorlansa, rostlash mumkin.

Tishli g'ildiraklarga aylanma harakatni 5-tasmali uzatma orqali 2-elektrodvigateldan beriladi. Kerakli tezlikni almashinuvchi 4- va 6-shkivlar yordamida tasmani surib olish mumkin. 10-o'q bizda ishchi organ vazifasini bajaradi.

Shuning uchun unga kerakli yuklanishni qo'yish kerak, buning uchun yuklanish qurilmasini qo'llaymiz. Yuklanishni qo'yish qurilmasi quyidagicha tuzilgan: 14-roluk 13-kronshteynga o'rnatilgan, u esa 12-stakanga qo'zg'aluvchan qilib o'rnatiladi. 12-stakan 1-asosga mahkamlanadi. Yuklanishni tarirovka qilingan 15-prujina orqali beriladi. Buning uchun 23-plastinani 16-bolt orqali siljitib, 15-prujinani kerakli masofagacha qisiladi.



2-rasm. Yeyilishni o‘rganuvchi qurilma sxemasi.

Sirpanuvchi detallarning yeyilishini o‘rganish uchun, qurilma asosiga 17-kronshteyn (8-rasm) o‘rnatilgan bo‘lib, unga na‘muna detallarini qo‘yish uchun 18-stakan mahkamlangan. Stakanga tarirovka qilingan 20-prujina o‘rnatiladi va undan so‘ng 19-na‘muna detali o‘rnatiladi. Yuklanishni 18-stakanning orqa tomoniga o‘rnatilgan 21-bolt yordamida sozlanadi. 8-g‘ildirakning ustki qismiga sirpanuvchi detalning ikkinchi 22-na‘munasi o‘rnatiladigan qilingan.

Bu qurilma tishli g‘ildiraklarni har xil rejimda: tezlikni, yuklanishni, moylanganlikni o‘zgartirib, tadqiqot ishlarini olib borish imkonini beradi.

Tribotexnikadan ma‘lumki, yuklanish bir xil qattqlikdagi sirlarning yeyilishiga har xil ta‘sir etishi mumkin. Mashinasozlik dastgohlaridagi shpindel mexanizmi detalga mexanik ishlov berish davomida kesuvchi asbob orqali beriladigan har xil yuklanishda ishlaydi. Shpindelning tishli uzatmasini bunday sharoitda yeyilishini yetarlicha tadqiq qilinmagandir. Shuning uchun berilgan sxema bo‘yicha stand tayyorlanib (3-rasm), standda o‘zgaruvchan yuklanishda tishli uzatma va sirpanuvchi detallarni yeyilishi o‘rganiladi.

Buning uchun tayyorlangan tishli uzatma yoki sirpanuvchi detallar olinadi. Doimo bir xil tishlar bilan ishqalanish juftligi hosil qilish uchun tishli g‘ildiraklarning tishlar soni bir xilda 66 tadan olindi. Tishli g‘ildiraklar o‘qlari orasidagi masofa xatoligini yeyilishga ta‘sirini hisobga olish uchun yetaklanuvchi tishli g‘ildirakning qarama-qarshi tomonlaridagi tishlar tanlab olinadi va “1”, “11” belgilar qo‘yiladi.



3-rasm. Tishli g‘ildirakning yeyilishini o‘rganish stendi

Tadqiqot olib borish uchun yuklanish yetaklanuvchi valga roliklar orqali qo'yildi (kesuvchi asbob beradigan yuklanishni berish uchun) va quyidagicha rejimlar tanlab olindi: yuklanish $R = 0$; 50; 100 N, shpindelning maksimal aylanishlari soni $n = 1474$ ayl/min. Tishlarning yeyilishini 24 marotaba kattalashtiruvchi mikrometrli mikroskop yordamida o'lchab borildi. Mikroskopdagi bo'lish chiziqlari orasidagi masofa 0,05 mmga teng.

Tadqiqot ishlari quruq va moylangan holda takrorlandi. Tadqiqotni 100 N yuklanishni berishdan boshlandi. Chunki, agar bu yuklanishdagi yeyilish miqdori bilan qolgan yuklanishlardagi yeyilish miqdori sezilarli farq qilmasa, unda tishlarning yeyilishga yuklanishni ta'siri bo'lmasligi kelib chiqadi yoki aksincha bo'ladi. Uzatmada yuklangan yetaklanuvchi g'ildirak soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga aylangani uchun belgilab olingan tishlarning chap yuzalari kontaktlashadi. Shuning uchun tishlardagi bu yuzalarning yeyilishini tishning bo'lish diametri bo'yicha o'lchab boriladi.

Ishqalanuvchi sirtlarni o'rganish uchun 18-stakan diametriga mos ravishda tadqiqot o'tkaziladigan materiallardan na'munalar tayyorlanadi. 8-g'ildirak sirtiga ham, ushbu material na'munasidan disk shaklida tayyorlanib o'rnatiladi. Tadqiqot o'tkazish uchun yuqorida ko'rib o'tilganday yuklanish va boshqa rejimlar tanlab olinadi va tekshirishni amalga oshirish mumkin. Buning uchun 15 va 20-prujinalarni tarirovka qilinadi va zarur yuklanishni berish mumkin bo'ladi. Tezlikni tanlashda 5-tasmani shkiylardagi o'rni almashtiriladi.

Ishlab chiqarishda, yeyilishga ishlovchi detallarni tadqiq qilish uchun, dastgohlarni talab etilgan rejimlarda o'rganish ko'p vaqt va mablag'ni talab qiladi. Ushbu qurilma yordamida olingan natijalar ishlab chiqarishdagiga yaqin bo'ladi. Shuning uchun undan foydalanish mumkin bo'ladi.

Tribotexnikadan ma'lumki, yuklanish bir xil qattqlikdagi sirtlarning yeyilishiga har xil ta'sir etishi mumkin. Mashinasozlik dastgohlaridagi shpindel mexanizmi detalga mexanik ishlov berish davomida kesuvchi asbob orqali beriladigan har xil yuklanishda ishlaydi yoki to'qimachilik mashinalarida ishchi organlar tomonidan berilgan yuklanish vallar orqali tishli uzatmaga beriladi. Shpindelning tishli uzatmasini bunday sharoitda yeyilishini yetarlicha tadqiq qilinmagandir. Shuning uchun tayyorlangan (3-rasm) stendda o'zgaruvchan yuklanishda tishli uzatmani yeyilishi o'rganildi.

Buning uchun 40X po'latidan tayyorlangan tishli uzatma olindi. Doimo bir xil tishlar bilan ishqalanish juftligi hosil qilish uchun tishli g'ildiraklarning tishlar soni bir xilda 66 tadan olindi. Tishli g'ildiraklar o'qlari orasidagi masofa hatoligini yeyilishga ta'sirini hisobga olish uchun yetaklanuvchi tishli g'ildirakning qarama-qarshi tomonlaridagi tishlar tanlab olindi va 1, 11 belgilar qo'yildi.

Tadqiqot olib borish uchun yuklanish yetaklanuvchi valga roliklar orqali qo'yildi (kesuvchi asbob beradigan yuklanishni berish uchun) va quyidagicha rejimlar tanlab olindi: yuklanish $R = 0$; 50; 100 N, shpindelning aylanishlari soni $n = 1474$ ayl/min. Tishlarning yeyilishini 24 marotaba kattalashtiruvchi mikrometrli mikroskop yordamida o'lchab borildi. Mikroskopdagi bo'lish chiziqlari orasidagi masofa 0,05 mmga teng. Tadqiqot ishlarini belgilangan rejimda 7 soatdan olib borildi. Tadqiqot boshlanishidan oldin va har 7 soatdan so'ng tishlarni mikrometrli mikroskop bilan o'lchab borildi. Tadqiqotni 100 N yuklanishni berishdan boshlandi. Chunki, agar bu yuklanishdagi yeyilish miqdori bilan qolgan yuklanishlardagi yeyilish miqdori sezilarli farq qilmasa, unda tishlarning yeyilishga yuklanishni ta'siri bo'lmasligi kelib chiqadi yoki aksincha bo'ladi.

Xulosa. Uzatmada yuklangan yetaklanuvchi g'ildirak soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga aylangani uchun belgilab olingan tishlarning chap yuzalari kontaktlashadi. Shuning uchun tishlardagi

bu yuzalarning yeyilishini tishning bo'lish diametri bo'yicha o'lchab borildi va olingan natijalar quyidagicha bo'ldi.

1-jadval

Tishli g'ildiraklarni yeyilish miqdori, mm da

Tishning belgisi	Quruq holda			
	Dastlabki o'lchami	100 N	50 N	Yuklanishsiz
1	2.25	2.20	2.18	2.17
11	2.35	2.30	2.27	2.26
	Moylangan holda			
	Dastlabki o'lchami	100 N	50 N	Yuklanishsiz
1	2.17	2.17	2.17	2.17
11	2.26	2.26	2.26	2.26

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Otabaev I, Dadaxanov N. Mashinasozlik dastgohlarida ishqalanuvchi detal sirtlarining yeyilish sabablarini o'rganish. Magistrantlarning anhanaviy III - ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan. NamMPI, 2003. -10-11- b.
2. Ikramov O'. Tribotexnika. - Toshkent. O'zbekiston, 2003. -336 b.
3. Горкунов Д. Н. Триботехника. - Москва. Машиностроение, 1989. -328 с.
4. Икрамов У., Левитин М. А. Основы трибоники. - Тошкент. Ўқитувчи, 1984. -184 с.
5. Dadaxanov N.K., Xasanov M.M. Mashina mexanizmlaridagi yeyilish jarayonlarining tahlili /NamMTI ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021. -213-214 b.
6. Dadaxanov N.K. Payvandlash jihozlari va texnologiyasi. –Namangan. «SUNRISE-PRO» MChJ, 2024 y.

**NamTSI ILMIY-TEXNIKA JURNALI
TAHRIRIYATI***Mas'ul muharrir**A.A.Xojiyev**Musahhih**S.A. Yusupov**Musahhih**Sh.A. Qorabayev**Musahhih**X.S. Yo'ldashev**Musahhih**N.O. Odilhanova**Musahhih**D.M. Abduvaliyev**Kompyuterda sahifalovchi**P.D. Lastochkin**Kompyuterda sahifalovchi**I.I. Muhsinov*

Tahririyat manzili:
160605, Namangan shahri,
"Gulobod" MFY, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy
Telefon:
+998 (95)-200-43-04
+998 (95)-400-43-04
+998 (55)-251-43-04
Bizning sayt: <http://www.ntsuz>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
Ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilib,
2020- yil 21- noyabrda № 167135 raqamli guvohnoma olingan.

Bosishga ruxsat etildi: 04.03.2025- y.
Bichimi: A4. Garnitura Times New Roman.
Bosma tabog'i: 3,2. Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 3.
Bahosi shartnoma asosida.
«NTSI» bosmaxonasida chop etildi.
Namangan shahar, "Gulobod" MFY, Janubiy
aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy.

